



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

5 / 2022

TAHRIR HAY'ATI:

B. XODJAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, dotsent – bosh muharrir

I. ERGASHEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

U. MUXAMEDOV

Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – Toshkent shahar yuridik texnikumi direktori, yuridik fanlar doktori, professor

S. GULYAMOV

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

O. OKYULOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

M. AXMEDSHAYEVA

Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

U. TUXTASHEVA

O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

SH. SAYDULLAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor

X. XAYITOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

SH. XO'JAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

D. XABIBULLAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

SH. ISMOILOV

Toshkent davlat yuridik universiteti Mehnat huquqi kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

G. TULAGANOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

N. RAXMONKULOVA

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

J. NEMATOV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

G. UZAKOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

A. MUXAMEDJANOV

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

R. KUCHKAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

SH. XAYDAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korruptsiyaga qarshi kurashish kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

D. XUDOYNABAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasida o'qituvchisi – mas'ul muharrir

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yurisprudensiya” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

“Юриспруденция” правовой научно-практический журнал

“Jurisprudence” legal scientific-practical journal

“Yurisprudensiya” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-1938
© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA
HUQUQ NAZARIYASI
VA TARIXI. HUQUQIY
TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 YUSUPOV ILHOMJON IBODULLAYEVICH**
Huquqiy aniqlik prinsipini qonun ijodkorligi
jarayonida qo'llashning nazariy-huquqiy
masalalari

12.00.02 –
KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA
HUQUQI

- 14 SATTOROV DILSHOD YULDASHEVICH**
"Xalqaro terrorizm to'g'risida"gi keng qamrovli
konvensiya loyihasi bo'yicha xalqaro hamkorlik
yo'nalishlari va xususiyatlari
- 23 AHROROV ADHAMJON ASRORQUL O'G'LI**
Davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi
maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari
tizimini takomillashtirishning ayrim masalalari

12.00.03 – FUQAROLIK
HUQUQI. TADBIRKORLIK
HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 31 MEXMONOV QAMBARIDDIN
MIRADXAMOVICH**
Sanoat mulki huquqi tushunchasi va mohiyati
- 44 KORYOGDIYEV BOBUR UMIDJON O'G'LI**
Fransiyada mulk huquqi hamda boshqa
ashyoviy huquqlar

12.00.04 – FUQAROLIK
PROTSESSUAL HUQUQI.
XO‘JALIK PROTSESSUAL
HUQUQI. HAKAMLIK
JARAYONI VA MEDIATSIYA

53 PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH
Elektron fuqarolik ishi (e-sud) tizimida sud
ishlarini boshqarish

**61 XAKBERDIYEV ABDUMURAD
ABDUSAIDOVICH**
Hakamlik muhokamasida da‘voni ta‘minlash
tartibi

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

68 MAHKAMOV DURBEK NE‘MATOVICH
O‘rmon va o‘simlik dunyosiga oid huquqiy
doktrina va nazariy konsepsiyalar

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI.
PROKUROR NAZORATI.
HUQUQNI MUHOFAZA
QILISH FAOLIYATINI
TASHKIL ETISH.
ADVOKATURA

**75 ABDOHAKIMOV MURODULLO
TOG‘AYEVICH**
Prokuratura organlarining yer to‘g‘risidagi
qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni amalga
oshirish borasidagi vazifalari taqsimlanishining
ayrim jihatlar

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.
KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-
IJROIYA HUQUQI.

89 NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA
Shaxsga qarshi zo‘rluk ishlatib sodir etiladigan
jinoyatlarning obyektiv belgilari va o‘ziga xos
jihatlar

12.00.09 – JINOYAT
PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ
VA SUD EKSPERTIZASI

98 QURBONOV DAVLAT RAVSHANOVICH
Shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar uchun
javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni
normalarining rivojlanishi

**106 HAYDAROV SHUHRATJON
DJUMAYEVICH**
Tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini
bajarmaslik jinoyatining kelib chiqish sabablari
va unga imkon bergan shart-sharoitlar

**117 XUDOYQULOV FERUZBEK
XURRAMOVICH**
Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining
qonunchilikdagi tuzilishi (konstruksiyasi):
tahlil va taklif

135 OTEGENOVA LUIZA JOLDASBAYEVNA
Oxirgi zaruratning nazariy va amaliy jihatlari

144 TULAGANOVA GULCHEHRA ZAXITOVNA
Jinoyat protsessi ishtirokchilari va ularning
klassifikatsiyasi

**154 ХУДАЙБЕРГЕНОВ БАХРАМ
КУАНЫШБАЕВИЧ**
Отказ в возбуждении уголовного дела:
проблемы теории и практики

**165 TANIYAZOV JASURBEK
KURBANBAYEVICH**
Ish yuritishni istisno qiluvchi holatlarning
huquqiy tartibga solinish muammolari

**174 SHONAZAROV ABDUVALI
SHONAZAROVICH**
Uyushgan jinoyatchilikni tergov qilishning
dastlabki bosqichida tipik tergov vaziyatlari
xorijiy davlatlar misolida

UDC: 34(045)(575.1)

HUQUQIY ANIQLIK PRINSIPINI QONUN IJODKORLIGI JARAYONIDA QO'LLASHNING NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI

Yusupov Ilhomjon Ibodullayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-4955-0340
e-mail: i.yusupov@tsul.uz

Annotatsiya. Har qanday qonunchilik tizimi va huquq sohasi o'ziga xos asosiy qoidalar va muayyan umumiylik zahirida birlashtirilgan mezonlarga amal qiladi. Mazkur mezonlar esa bevosita barcha huquq sohalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu mezon huquq prinsiplari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada huquq prinsiplari va huquqiy aniqlik prinsipi tushunchasi, huquqiy aniqlik prinsipining qonun ijodkorligi jarayonida tutgan o'rni va ahamiyati yuzasidan asoslantirilgan fikrlar bildirilgan. Shuningdek, huquqiy aniqlik prinsipining o'ziga xos jihatlari haqida, huquqiy aniqlik prinsipining amaliyotga keng tatbiq etilishi natijasida kutilishi mumkin bo'lgan natijalar bayon etilgan. Huquqiy aniqlik prinsipining huquqiy tartibga solishning barcha soha va tarmoqlari uchun zaruriy hamda barcha huquq ijodkorlari uchun majburiy ahamiyatga ega bo'lgan prinsip sifatida amal qilishi O'zbekiston Respublikasining qonun ijodkorligi sohasidagi faoliyati uchun zarur ekanligi bo'yicha muallif fikri tegishli tartibda bayon etilgan hamda ayrim misollar orqali huquqiy aniqlik prinsipining zarurati haqida so'z yuritilgan. Huquqiy aniqlik prinsipi yuzasidan huquqshunos olimlar hamda muallif fikrlari va tahliliy ma'lumotlari keltirib o'tilgan. Shu bilan birgalikda, huquqiy aniqlik prinsipining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: huquq tamoyillari, huquqiy aniqlik prinsipi, qonun ijodkorligi, qonun ustuvorligi, fuqarolarning qonun oldida tengligi, insonparvarlik, demokratiya, adolat, huquqni muhofaza qilish.

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ПРИНЦИПА ПРАВОВОЙ ОПРЕДЕЛЕННОСТИ В ЗАКОНОТВОРЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

Юсупов Илхомжон Ибодиллаевич,
преподаватель Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. Любая законодательная система и отрасль права действует на основе определенных основных правил и критериев, объединенных определенной общностью. Эти критерии являются основными для всех отраслей права. Эти критерии проявляются в виде правовых принципов. В данной научной статье представлены

обоснованные мнения о понятии принципов права и принципа правовой определенности, роли и значении принципа правовой определенности в законотворческом процессе. Также описаны специфические аспекты принципа правовой определенности, результаты, которых можно ожидать в результате широкого применения принципа правовой определенности на практике. Мнение автора о том, что принцип правовой определенности необходим для всех сфер правового регулирования, для всех отраслей права и является обязательным для всех законодателей, относится и к законотворческой деятельности Республики Узбекистан. Приведены мнения и аналитические данные ученых-правоведов, автора о принципе правовой определенности. При этом приводится информация об особенностях принципа правовой определенности.

Ключевые слова: принципы права, принцип правовой определенности, правотворчество, верховенство закона, равенство граждан перед законом, гуманность, демократия, справедливость, правоприменение.

THEORETICAL AND LEGAL ISSUES OF APPLYING THE PRINCIPLE OF LEGAL CERTAINTY IN THE LEGISLATIVE PROCESS

Yusupov Ilhomjon Ibodullayevich,

Lecturer of the Tashkent State University of Law

Abstract. Any legislative system and branch of law operate on the basis of specific basic rules and criteria combined based on certain generality. These criteria directly serve as a basis for all areas of law. This criterion is manifested in the form of legal principles. This scientific article provides substantiated opinions on the concept of the principles of law and the principle of legal certainty, the role and importance of the principle of legal certainty in the legislative process. The specific aspects of the principle of legal certainty, the results that can be expected as a result of the widespread application of the principle of legal certainty in practice have been described. The author gave an opinion that the principle of legal certainty is necessary for all spheres of legal regulation, for all branches of law and is mandatory for all legislators, the need for the principle of accuracy is necessary for the legislative activity of the Republic of Uzbekistan. Opinions and analytical data of scholars and the author on the principle of legal certainty in the field of law are given. At the same time, information is provided on the specifics of the principle of legal certainty.

Keywords: Principles of law, the principle of legal certainty, the rule of law, equality of citizens under the law, humanity, democracy, justice, law enforcement.

Kirish

Har qanday qonunchilik tizimi va huquq sohasi o'ziga xos asosiy qoidalar va muayyan umumiylik zahirida birlashtirilgan mezonlarga amal qiladi. Mazkur mezonlar esa bevosita barcha huquq sohalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu mezon huquq prinsiplari ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Qonunlarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etishdan oldin qonun ijodkorligi jaryonida muhim bo'lgan qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Bu qoidalar huquq prinsiplari shaklida maydonga keladi va har qanday qonun loyihasi ishlab chiqilayotganda, mazkur huquq prinsiplariga qat'iy amal qilish, yaratilayotgan va amalga tatbiq etilishi zarur.

layotgan qonunlar mazmuni va samaradorligining mezonini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi huquq tizimiga tegishli bo'lgan prinsiplar sifatida qonuniylik, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, insonparvarlik, demokratizm, odillikni keltirib o'tishimiz mumkin.

Taniqli huquq nazariyotchisi Gustav Radbrux (nem.) huquqiy aniqlik, adolat va siyosat tamoyilini huquqning uchta asosiy ustuni deb hisobladi. Bugungi kunda huquqiy aniqlik prinsipi xalqaro miqyosda qonun ustuvorligining asosiy talabi sifatida e'tirof etilgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining fikricha, qonun ustuvorligi konsepsiyasi "birinchi navbatda, huquqiy aniqlik va bashorat qilish manfaati yo'lida qonun ustuvorligiga asoslangan jamiyatni ta'minlash zarurligini ta'kidlashga intiladi" [1].

Huquqiy aniqlik prinsipi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga kiritilmagan yangi prinsip hisoblanadi. Bu prinsipning amaliyotga kiritilishi qonun ijodkorligi sohasida qabul qilinayotgan qonunlarning aniq, barcha uchun tushunarli hamda qonunlarda tushunmovchiliklar, ziddiyatlar bo'lmasligiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda, ushbu prinsipni qo'llash bilan amaldagi qonunlar noto'g'ri talqin qilinishining oldini olishga erishish mumkin.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, mantiqiy, o'rganish usullaridan foydalanildi. Shu bilan birga, ishda bir qator masalalarni hal qilish uchun bilishning maxsus (qiyosiy huquqiy va rasmiy huquqiy) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari, ishda qo'llanilgan usullar va metodologiya, o'rganish doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar aniq huquqiy manbadan olingani, qonun hujjatlari tahlili asosida taklif va tavsiyalar berilgani ahamiyatlidir.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalariga ko'ra, huquqiy aniqlik prinsipi bo'yicha turli olimlarning fikrlari tahlil qilindi.

Biroq bizning amaldagi qonunchiligimizda huquqiy aniqlik prinsipi yangi prinsip sifatida namoyon bo'lib bormoqda. Biz mazkur ilmiy maqolada huquqiy aniqlik prinsipining o'ziga xos xususiyatlari va qonun ijodkorligi sohasida tutgan o'rni yuzasidan fikr yuritamiz.

Huquq prinsiplari nafaqat ma'lum bir soha, balki butun mamlakatda amalda bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini belgilash, mamlakat taraqqiyoti yo'lida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda rahbariy ko'rsatmalar vazifasini o'taydi.

Umuminsoniy prinsiplar to'g'risida so'z yuritadigan bo'lsak, bugungi kunda demokratik davlatlarning barchasida inson, uning hayoti va sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan.

Shu bilan birga, bugungi kunda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati shakllanishi bo'yicha yangi-yangi g'oyalar, tamoyillar va fikrlar shakllanmoqda, taklif etilmoqda hamda har bir mamlakat o'zining rivojlanish yo'lini o'zi xohlagan va tanlagan yo'nalish bo'yicha rivojlantirib bormoqda.

Ushbu fikrlarimizning tasdig'i sifatida mamlakatimizning bosh qomusi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bir qator normalar belgilangan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi. Ular-ga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi [2].

Umuman olganda, umuminsoniy tamoyillar inson va fuqaroning ajralmas huquq va erkinliklarini tan olishdan boshlanadi hamda ularning buzilishi yoki o'zboshimchalik bilan cheklanishi mumkin emas.

Shuningdek, huquqiy davlatda inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi, uni hi-

moya qilish, insonga beriladigan huquqiy xavfsizlik va ishonch hissi juda yuksak darajada bo'lishi talab etiladi.

Ma'lumki, tegishli huquq sohasining asosiy negizlari alohida sanab o'tilishi yoki umumiy ma'noda to'liq ifodalanishi lozim. Bu shu huquq sohasining predmetiga kiradigan munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari sifatini oshirish bilan birga, ularni to'g'ri tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat doimiy ravishda rivojlanib borгани sari yangi-yangi tushunchalar, g'oyalar va tamoyillar kirib keladi. Bu esa ayrim huquq tushunchalari, izlanishlarning samardorlik darajasini oshirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, g'oyalar huquqiy tartibga solishning tabiatini ifodalaydi. Huquqiy tartibga solishning butun qonuniyatlari huquqiy tartibga solishning shakli va usullari qanday tarzda yo'lga qo'yilganiga bog'liq.

Umuminsoniy prinsiplar to'g'risidagi fikrlar, qarashlar va g'oyalar bir qator huquqshunos olimlarning asarlarida ham bayon etilgan. Bu olimlar o'z asarlarida umuminsoniy prinsiplar to'g'risida nafaqat fikr bildirganlar, balki fikrlarini ilmiy asoslaganlar ham.

Jumladan, huquqshunos olim Sh. Saydullayevning fikricha, huquq prinsiplari – bu huquqning ijtimoiy munosabatlarini tartibga soluvchi vosita sifatidagi mohiyatini ifodalovchi boshlang'ich normativ asoslar, eng asosiy qarashlar, g'oyalar va qoidalardir [3].

Huquqshunos olim H. Odilqoriyevning fikricha, huquq prinsiplari huquqning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va harakatlani-shining rahbariy g'oyasi, boshlang'ich qoidasi, yetakchi mezon sifatida maydonga chiqadi. Avvalo, qonunda, huquqiy normalarda o'z tasdig'ini topadigan huquq prinsiplari jamiyatning butun siyosiy-huquqiy hayoti, mamlakat ijtimoiy tizimiga to'raligicha singib ketadi. Ular nafaqat huquqning mohiyati, balki uning mazmunini tavsiflaydi, uning ichki tuzilishi, statik holati bilan bir qatorda, huquqni

qo'llash jarayoni, huquq faoliyati dinamikasini aks ettiradi [4].

Huquqshunos olim L. Morozovanning fikricha, huquq tamoyillari asosiy g'oyalar, rasmiy huquq manbalarida mustahkamlangan yoki tan olingan huquqiy amaliyot va jamiyat rivojlanishi qonuniyatlarini aks ettiruvchi munosabatlardir.

Huquqiy aksiomalar ko'pincha huquq tamoyillari sifatida ishlatiladi, masalan: "Bir ish bo'yicha ikki marta da'vo qilish mumkin emas"; "Ikki kishi o'rtasidagi nizoni hal qilish uchinchi shaxsga zarar yetkazmasligi kerak"; "boshqa tomon eshitilsin"; "sud adolatli bo'lishi kerak" [5] h.k.

Bizning fikrimizcha, huquq prinsiplari muayyan davlatda ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini hurmat qilish hamda mazkur huquqlar davlat tomonidan muhofaza etilishiga asoslangan bo'lishi lozim.

Shuningdek, huquq prinsiplari huquqning asosiy qonuniyatlarini o'zida ifoda etadi hamda huquq bilan tartibga solinadigan butun sohani qamrab oladi, barcha uchun birdek qo'llaniladigan eng umumiy normalar tizimidan iborat bo'ladi.

Huquq prinsiplari muayyan davlatning barcha huquqiy tizimini belgilab beradi hamda huquq ijodkorligi uchun asosiy poydevor vazifasini ham o'taydi. Shu bilan birga, huquq normalarini ishlab chiqish, ularni takomillashtirish bo'yicha asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Qoida tariqasida huquq prinsiplari mamlakat Konstitutsiyasi, qonun va kodekslarning muqaddima yoki umumiy qoidalar qismida maxsus tartibda belgilab qo'yiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmunidan quyidagi huquqiy prinsiplar, ya'ni huquq ustunligi, demokratiizm, inson huquqlari va erkinliklarining oliy qadriyat ekanligi, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining amal qilishi, Konstitutsiya va qonun-

lar ustuvorligi, teng huquqlilik, barcha mulk shakllarining tengligi, odil sudlov prinsiplarini anglash mumkin.

Bizga ma'lumki, qonun ijodkorligi jarayoni bevosita qonun chiqaruvchi hokimiyat organi tomonidan qonunlarni ishlab chiqish, amaldagi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq bo'lgan hamda o'z ahamiyatini yo'qotgan yoki avvalgi qonunning o'rniga yangi qonun qabul qilinishi bilan oldingi qonunlarni bekor qilish bilan bog'liq faoliyat hisoblanadi hamda tartibga solinishi zarur bo'lgan munosabatlarni aniqlab olish, qonun loyihasini tayyorlash, uni muhokama etish, qabul qilish va e'lon qilishni o'z ichiga oladigan jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonda huquqiy aniqlik prinsipining talablari-ga rioya etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan huquqiy aniqlik tamoyilining talablari ham bevosita huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, huquqiy aniqlik tamoyilining talablari "huquqiy davlatning elementi" sifatida maydonga chiqadi hamda davlatning ichki va tashqi funksiyalari fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda huquqiy tartibga solish mexanizmining barqaror bo'lishiga yo'naltiriladi.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi nuqtayi nazariga ko'ra, agar norma yetarli darajada aniqlik bilan shakllantirilmagan va natijada insonning xatti-harakatlarini samarali tartibga solmagan bo'lsa, qonun sifatida tan olinmaydi. Aniqlik qonun, shuningdek, qonun hujjatlarining amalga oshirilishini anglatadi va nullum crimen sine lege, nulla poena sine lege asosiy prinsipi bo'yicha – qonunni analogiya bo'yicha qo'llashni taqiqlashni bildiradi.

Huquqshunos olim Klip Andrening fikricha, Nulla poena sine lege certa – aniq bo'lmagan qonun bo'yicha jazo yo'q. Jinoiy huquqbuzarliklar aniq belgilanishi kerak. Huquqiy aniqlikning bu tamoyili oldingi talab bilan birgalikda, har bir fuqaroga o'z harakat-

larining qonuniy yoki noqonuniy xususiyatini oldindan ko'ra bilish imkonini beradi. Bu tamoyil Yevropada umumiy qabul qilingan [6].

Yigirmanchi asrning boshlaridayoq rus huquqshunosi I.A. Pokrovskiy shunday deb ta'kidlagan edi: "Birinchi va eng muhim talablardan biri rivojlanayotgan inson shaxsi tomonidan qonunga taqdim etilgan huquqiy aniqlik talabi hisoblanadi [7].

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi uchun huquqiy aniqlik prinsipi yangi prinsip hisoblanadi. Shuning uchun u nafaqat huquqshunos olimlar, balki mutaxassislarining ham e'tiborini tortishi tabiiy.

Huquqiy aniqlik prinsipining ko'p o'lchovli tabiati huquqiy aniqlik uning muhim tartibga soluvchiligini belgilaydi, huquqiy tartibga solishning barcha bosqichlari uchun amaliy qiymatini ko'rsatadi.

Huquqshunos olim L. Morozova tomonidan huquqiy aniqlikning namoyon bo'lish shakllarining xilma-xilligi muhokama qilindi. Uning fikricha, qayd etilgan bu turkumni tor va keng ma'noda ko'rib chiqish mumkin. Ya'ni tor ma'noda huquqiy aniqlik huquqiy normalarning sifatini baholash mezoni bo'lib xizmat qiladi. Keng ma'noda u individual huquqiy hujjatlar barqarorligining ko'rsatkichi sifatida ishlaydi [8].

Huquqshunos olim N.S. Bondarning fikricha, huquqiy aniqlik universallikni o'zida mujassam etadi va yuridik soha faoliyatida universal prinsip hisoblanadi [9].

Tadqiqot natijalari tahlili

Bizning fikrimizcha, huquqiy aniqlik prinsipi bu – qabul qilinayotgan qonun hujjatlari normalarining aniq va lo'nda ifodalanishi, ularning qo'llanilishida qiyinchiliklar va noaniqliklar anglashilmasligi, huquq normalarining tizimli bog'liqligi, ularda ziddiyatlar va bo'shliqlarning yo'qligi, qo'llanilgan so'zlar va atamalarining tushunarli hamda ko'zlangan maqsadga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Qonun ijodkorligi sohasidagi huquqiy aniqlik normativ-huquqiy hujjatlar, xususan,

qonunlar va ular asosida rivojlanayotgan huquqiy munosabatlarning barqarorligida namoyon bo'ladi. Natijada huquqiy normalar va normativ-huquqiy hujjatlarning barcha sohalarida aniq va bir xilda amal qilishiga erishiladi.

"O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni 55-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra, normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlashda noaniqliklar topilgan, u amaliyotda noto'g'ri yoki ziddiyatli tarzda qo'llanilgan taqdirda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga rasmiy sharhni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga rasmiy sharhni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli palatalari beradi.

Qonunosti hujjatlari normalariga rasmiy sharhni ularni qabul qilgan organlar beradi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash jarayonida ularga normalarni aniqlashtirishga qaratilgan tuzatishlar, o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

"O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonunning 85-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari normalarini rasmiy sharhlash ularda normalarning amaliyotda noto'g'ri yoki ziddiyatli tarzda qo'llanilishiga olib kelgan noaniqliklar topilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, huquqiy aniqlik prinsipi talablariga rioya etilishi normativ-huquqiy hujjatda noaniqliklar imkon qadar bartaraf etilishi, ularning amaliyotda noto'g'ri yoki ziddiyatli tarzda qo'llanilishi holatlarini kamaytirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

Umuman olganda, bugungi kunda ayrim hollarda qonun hujjatlarining noto'g'ri

qo'llanilishi natijasida fuqarolarning qonuniy huquqlari va manfaatlari buzilmoqda. Buning natijasida fuqarolarimiz o'z huquqlarini tiklash bo'yicha yillar davomida davlat organlari va tashkilotlari hamda sud instansiyalariga qayta-qayta murojaat qilishlariga to'g'ri kelmoqda. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining rasmiy saytida e'lon qilingan manbaga asosan, 2022-yilning 31-may kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi majlisi bo'lib o'tgan. Unda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi va sudyalardan iborat tarkibda, katta ekspert kotibligida fuqaro M.X.ning O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 197 va 206-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi 11 va 27-moddalari normalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq emas hamda sudda ko'rilishi tugallangan muayyan ishda qo'llanilgan va sudda himoya qilishning barcha boshqa vositalaridan foydalanib bo'lingan deb hisoblab, ularning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to'g'risidagi shikoyati ko'rib chiqilgan.

Sud majlisida fuqaro M.X. va boshqalar ishtirok etgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2022-yil 31-maydagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan O'RQ-683-son "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuni 55-moddasining 12-bandidagi Fuqarolik kodeksining 83-, 166-, 198-, 199- va 206-moddalariga tegishli qismi hamda Fuqarolik kodeksi 197-moddasining mulk huquqi "... mulk huquqini bekor qiluvchi qonunchilikka asosan bekor bo'ladi", degan qismi Konstitutsiyaga muvofiq emas deb topilgan [10].

Xulosalar

Bir so'z bilan aytganda, huquqiy aniqlik prinsipining qonun ijodkorligi jarayoni va amaliyotga keng tatbiq etilishi qonunchilikda noaniqliklar, tushunmovchiliklar hamda

ziddiyatlar nisbatan kam kuzatilishiga asos bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, huquqiy aniqlik prinsipining amaliyotga keng tatbiq etilishi huquqiy tartibga solishning barcha sohalari, barcha tarmoqlari uchun zaruriy hamda barcha huquq ijodkorlari uchun majburiy ahamiyatga ega bo'lgan prinsip sifatida amal qilishi maqsadga muvofiqdir. Buning natijasida jamiyatda barcha normativ-huquqiy hujjatlar aniq va hamma uchun tushunarli tarzda ishlab chiqiladi, ularni amaliyotda qo'llashda noaniqliklar kuzatilmaydi.

Shuningdek, huquqni amalga oshirishda huquqni qo'llovchilar, huquqni bajaruvchilar, huquqqa rioya etuvchilar hamda huquqdan foydalanuvchilar uchun tushunmovchiliklar yuzaga kelmagan, qonunchilikda kolliziyalar kam kuzatilishiga erishilgan bo'lar edi.

Qonunning huquqiy aniqligi talabi vakolatlarni mumkin va oqilona cheklash funksiyasini bajaradi. Bu chora-tadbirlar aholining qonun va davlat hokimiyati organlari, birinchi navbatda, sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini oshiradi, uning nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Maxeiner J.R. Some realism about legal certainty in globalization of the rule of law. *Houston Journal of International Law*, Fall 2008.
2. Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, 2018, p. 84.
3. Odilqoriyev X. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, Adolat Publ., 2018, p. 181.
4. Morozova L. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of state and law]. Russian legal education. Moscow, Exmo, pp. 193–194.
5. Klip A. Substantive criminal law of the European Union. Maklu, 2011, p. 69.
6. Pokrovskiy I.A. Osnovnyye problemy grazhdanskogo prava [The main problems of civil law]. Moscow, 2013, p. 91.
7. Morozova L. Pravovaya opredelennost' kak obshhepravovoy universal'nyy printsip realizatsii prava [Legal certainty as a general legal universal principle for the implementation of law]. *Sotsial'no-ekonomicheskkiye yavleniya i protsessy – Socio-economic Phenomena and Processes*, 2017, no. 3, pp. 250–254.
8. Bondar N.S. Pravovaya opredelennost' – universal'nyy printsip konstitutsionnogo normokontrolya [Legal certainty – the universal principle of constitutional normative control]. *Constitutional and Municipal Law*, 2011, no. 10, pp. 4–11.
9. A session of the Constitutional court was held. Available at: <http://www.konstsud.uz/uz/news/2022/05/31/konstitutsiyavij-sud-mazhlisi-bolib-otdi/>.
10. Derbisheva.Ye.A. Printsip pravovoy opredelennosti: ponyatiye, aspekty, mesto v sisteme printsipov prava [The principle of legal certainty: concept, aspects, place in the system of principles of law]. PhD thesis. 2022.
11. Sidorenko A.I. Printsip pravovoy opredelennosti v sudebnoy praktike: implementatsiya resheniy Yevropeyskogo suda po pravam cheloveka [The principle of legal certainty in judicial practice: the implementation of the decisions of the European Court of Human Rights]. Abstract of PhD thesis. Perm, 2016.

12. Sapozhnikov S.A. Printsip dispozitivnosti v grazhdanskom protsesse [The principle of discretion in civil proceedings]. PhD thesis. Moscow, 2006.

13. Pravovye pozitsii Konstitutsionnogo suda RF o garantiyah prava chastnoy sobstvennosti pri prinuditel'nom otchuzhdenii imushchestva dly gosudarstvennykh nuzhd [Legal positions of the Constitutional Court of the Russian Federation on guarantees of the right of private property in case of expropriation of property for state needs]. *Zakonodatel'stvo – Legislation*, 2008.

14. Borisova E.A. Apellyatsiya, kassatsiya, nadzor po grazhdanskim delam [Appeal, cassation, supervision of civil cases]. Moscow Norma; Infra-M Publ., 2013, 320 p.

15. Merzlyakova M.V., Proshlyakov A.D. Peresmotr vstupivshikh v zakonnyu silu prigovorov, opredeleniy i postanovleniy v poryadke nadzora [Revision of judgments, rulings and decisions that have entered into force in the exercise of supervisory]. Moscow, Yurlitinform Publ., 2011, 172 p.

16. Kornukov N.M. Lektsii po obshchey teorii prava [Lectures on the general theory of law]. Moscow: Rosspen Publ., 2010, p. 116.

17. Alekseev S.S. Sobranie sochineniy v 10 t. [Collected works]. In 10 vols. Moscow, Statut Publ., 2006, vol. 4, 544 p.

UDC: 349.2(045)(575.1)

“XALQARO TERRORIZM TO‘G‘RISIDA”GI KENG QAMROVLI KONVENSIYA LOYIHASI BO‘YICHA XALQARO HAMKORLIK YO‘NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI

Sattorov Dilshod Yuldashevich,

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo‘mitasi
Bojxona instituti Umumhuquqiy fanlar kafedrası boshlig‘i,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent
ORCID: 0000-0003-2068-4035
e-mail: 8447@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro huquqiy normalarning yaratilishi, ularning tabiati va o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan. Bundan tashqari, “Xalqaro terrorizm to‘g‘risida”gi keng qamrovli konvensiya loyihasi mazmuni, yutuq va kamchiliklari hamda bugungi kun terrorizmga qarshi kurash siyosatidagi o‘rni tahlil qilingan. Muallif mazkur keng qamrovli konvensiya bo‘yicha xalqaro hamkorlik yo‘nalishlari va xususiyatlarini tahlil qilar ekan, asosiy e‘tiborni inson huquqlari va yurisdiksiya masalalariga qaratadi. Muallif tomonidan terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro hamkorlik mexanizmini amalga oshirishda insonparvarlik nuqtayi nazaridan xalqaro hamkorlik yo‘nalishlarining bir-biriga bog‘liq jihatlari keng yoritilgan bo‘lib, bu borada turli huquqshunos olimlarning fikr va mulohazalari keltirilgan. Xulosada terrorizmga qarshi kurashning ayrim masalalari bo‘yicha tuzilgan xalqaro shartnomalar terrorizmga qarshi xalqaro huquqiy kurashning asosiy manbai sifatida tan olinishi kerakligi haqida fikr bildirilgan. Shundan kelib chiqqan holda, “Xalqaro terrorizm to‘g‘risida”gi keng qamrovli konvensiya loyihasini amaliyotda qo‘llash jarayonida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan muammo va bo‘shliqlarni to‘ldirish, bartaraf etish va to‘g‘rilash maqsadida vaqti-vaqti bilan qayta ko‘rib chiqish, o‘zgartirish kiritish va albatta, xalqaro huquq normalariga moslashtirish maqsadga muvofiqligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro hamkorlik, terrorizm, qarshi kurash, jinoyatchilik, xalqaro shartnoma.

НАПРАВЛЕНИЯ И ОСОБЕННОСТИ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА ПО ПРОЕКТУ ВСЕОБЪЕМЛЮЩЕЙ КОНВЕНЦИИ ПРОТИВ МЕЖДУНАРОДНОГО ТЕРРОРИЗМА

Сатторов Дилшод Юлдашевич,

кандидат юридических наук, доцент,
заведующий кафедрой «Общеправовые дисциплины»
Таможенного института Государственного
таможенного комитета Республики Узбекистан

Аннотация. В статье описывается создание международно-правовых норм, направленных на противодействие терроризму, их сущность и особенности. Кроме того, в статье анализируются содержание, достижения и недостатки проекта Всеобъемлющей конвенции

против международного терроризма и ее роль в современной антитеррористической политике. Анализируя направления и особенности международного сотрудничества в рамках проекта Всеобъемлющей конвенции, автор акцентирует внимание на вопросах прав человека и юрисдикции. Автор широко освещает взаимосвязанные аспекты направлений международного сотрудничества с гуманитарной точки зрения при реализации механизма международного сотрудничества по борьбе с терроризмом, приводя мысли и мнения различных ученых-юристов по этому вопросу. Указано, что международные договоры, заключенные по отдельным вопросам борьбы с терроризмом, следует признать основным источником международно-правовой борьбы с терроризмом. Основываясь на этом, автор высказал мнение о целесообразности периодического пересмотра проекта Всеобъемлющей конвенции против международного терроризма, внесения изменений и, конечно же, приведения его в соответствие с нормами международного права с целью восполнения, устранения и исправления проблем и пробелов, которые могут возникнуть в процессе практического применения.

Ключевые слова: международное сотрудничество, терроризм, борьба, преступление, международное соглашение.

DIRECTIONS AND FEATURES OF INTERNATIONAL COOPERATION UNDER THE COMPREHENSIVE DRAFT CONVENTION ON INTERNATIONAL TERRORISM

Sattorov Dilshod Yuldashevich,
Head of the Department "General Legal Disciplines"
of the Customs Institute under the State Customs
Committee of the Republic of Uzbekistan,
PhD in Law, Associate Professor

Abstract. The article describes the creation of international legal norms aimed at countering terrorism, their essence and features. In addition, the article analyzes the content, achievements and shortcomings of the comprehensive draft convention "On international terrorism" and its role in modern anti-terrorist policy. Analyzing the directions and features of international cooperation within the framework of this comprehensive convention, the author focuses on issues of human rights and jurisdiction. The author extensively covers the interrelated aspects of the directions of international cooperation from a humanitarian point of view in the implementation of the mechanism of international cooperation in the fight against terrorism, citing the thoughts and opinions of various legal scholars on this issue. In conclusion, international treaties concluded on certain issues of combating terrorism should be recognized as the main source of international legal terrorism combat. Based on this, the author expressed the opinion that the draft convention "On international terrorism" should be periodically reviewed, amended and, of course, brought into line with the norms of international law in order to fill, eliminate and correct problems and gaps that may arise in the process of practical application.

Keywords: international cooperation, terrorism, struggle, crime, international agreement.

Kirish

Terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan xalqaro huquqiy normalarning yaratilishi xalqaro xavfsizlik tizimi oldida turgan yangi chaqiriqlarga tezkor javob berish zarurati vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shunga asosan, terrorizmga qarshi xalqaro huquqiy kurash bilan bog'liq xalqaro hamjamiyat oldidagi muhim vazifalar belgilandi. Xususan, ter-

rorizmning butun dunyo uchun favqulodda xavf tug'dirishini oldini olish uchun xalqaro huquq subyektlari tomonidan keng ko'lamli tizimli harakatlarning talab qilinishi; xalqaro huquqning mavjud hujjatlari yordamida xalqaro miqyosda terrorizmga qarshi samarali kurashni amalga oshirishning imkonsizligi hamda bu allaqachon mavjud xalqaro huquqiy normalardan farq qiladigan max-

sus qoidalar yaratilishiga zarurat tug'dirishi; milliy va xalqaro ko'lamda olib borilayotgan terrorizmga qarshi zamonaviy kurashda davlatlar o'rtasidagi yondashuvlarini muvofiqlashtirish kabi masalalar o'ta dolzarb sanaladi.

Butun dunyoni qamrab olgan terrorizm muammosi XX asrning oxiri, ayniqsa, uning so'nggi o'n yilligida xalqaro jamoatchilikni qattiq tashvishga solib, hozirga qadar davom etib kelmoqda. Terrorizm siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, tarixiy, turli dinlar o'rtasidagi va boshqa muammolarga borib taqaluvchi juda murakkab, har xil ko'rinishli, kundan-kunga o'zgarib, avj olib borayotgan global muammodir. Terrorizm jinoyatining o'sish ko'rsatkichi Iqtisodiyot va tinchlik institutining 2022-yilda chop etilgan "Global Terrorism Index 2020: Measuring the Impact of Terrorism" hisobotining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda sodir etilgan terrorizm jinoyatida o'lim darajasi 1,2 foizga kamayib, terroristik hujumlar soni 7142 taga ko'paygan va bu ko'rsatkich 17 foizga o'sganligini ko'rsatmoqda. O'lim soni ham so'nggi to'rt yil davomida sezilarli daraja yuqorilagan. Terroristik harakatlar natijasida o'lim kamaygan bo'lsa-da, lekin terroristik hujumlar soni yildan yilga ko'payib bormoqda. 2021-yilda sodir etilgan terrorchilik xurujlarining 97 foizidan ortig'i ziddiyatlar rivojlangan mamlakatlar hududiga to'g'ri keladi [1].

Bugungi kunda universal tashkilot sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqaro terrorchilikka qarshi kurash borasida butun dunyoni tashvishga solib kelayotgan muammolarga qarshi kurashish va ularni yo'q qilishga intilayotgan eng yirik xalqaro tashkilotlardan biridir.

Terrorizmga qarshi zamonaviy xalqaro huquqiy kurashning asosiy rivoji "Xalqaro terrorizm to'g'risida"gi keng qamrovli konvensiya (keyingi o'rinlarda Loyiha deb yuritiladi) loyihasi atrofida jamlandi. Ilk bor BMT Bosh Assambleyasining Oltinchi qo'mitasida uni muhokama qilish masalasi Hindis-

ton tashabbusi bilan 1996-yilda Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar kodeksi taqdiri to'g'risidagi yakuniy qaror qabul qilingandan keyin boshlangan [2, 184-b.]. Keyingi bir necha yil ichida, 2000-yilgacha Hindiston loyihasi yanada to'liqroq ishlab chiqildi [3]. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin hujjatning mavjud versiyasi loyihasi keyingi muzokaralar uchun asos sifatida 37 ta davlat, Qo'shilmaslik harakati, G8 [4, 184-b.] guruhi tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

2000-yildagi takomillashtirilgan Loyiha bo'yicha ishning dastlabki yillari yuqori natijalar bilan ajralib turdi. Xususan, asosiy tushunchalar masalalari (loyihamning 1-moddasi), "terrorizm" jinoyatiga ta'rifi (2-modda), qurolli to'qnashuvlar paytida Konvensiyalarni qo'llash (18-modda, hozirda 3-modda), bundan tashqari, muqaddimaning ba'zi jihatlari (xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi hamda Konvensiya va xalqaro gumanitar huquq o'rtasidagi munosabatlar nuqtayi nazaridan) hozirda bahsli hisoblana-di [5].

2005-yildan keyin Loyihaga sezilarli o'zgarishlar kiritilmadi. Maxsus qo'mita ishi to'g'risidagi hisobotlarda loyihamning mu-nozarali masalalari, aniqlovchi (semantik va texnik) xarakterdagi tuzatishlar bo'yicha delegatsiyalarning ko'pincha takroriy takliflari tasdiqlanadi [5]. Maxsus qo'mitaning so'nggi yig'ilishi 2013-yil aprel oyida bo'lib o'tgan. Natijada 2014-, 2015- va 2016-yillarda yangi sessiyalarni o'tkazmaslik to'g'risida qaror qabul qilindi, chunki buning uchun "uzoq vaqt davomida hal qilinmagan masalalar bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishish lozim" edi [6]. BMT Oltinchi qo'mitasining 69-sessiyasida xalqaro terrorizm to'g'risidagi keng qamrovli Konvensiya loyihasi bo'yicha ishlarni yakunlash maqsadida ishchi guruh tuzish, shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining 54/110-sonli rezolyutsiyasida nazarda tutilganidek, BMT shafeligida yuqori darajadagi konferensiyani chaqirish masalasini Majlis kun tartibiga kiritishni muhokama qi-

lish to'g'risida qaror qabul qildi. Keyinchalik BMT Bosh Assambleyasi o'z rezolyutsiyalarida bu masalaga qayta-qayta to'xtaldi [7, 8].

Shunga qaramasdan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zo davlatlari Xalqaro terrorizmga qarshi keng qamrovli konvensiya loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish bo'yicha ishlarni muddatidan oldin yakunlash prinsipiga sodiq ekanliklarini bir necha bor e'lon qilishlariga qaramay, u haligacha yakuniga yetmagan.

Material va metodlar

Shunday qilib, 2013-yilgi Loyihaning versiyasi hozirda dolzarb bo'lib [5], quyida uning asosiy qoidalarini ko'rib chiqamiz [9].

Hujjat uchun bir qator muhim, asosiy fikrlar uning muqaddimasida keltirilgan. U yerda, xususan, terrorizmning barcha harakatlari, usullari va amaliyotlarini oqlab bo'lmaydi, deb e'lon qilinadi. Terrorizm harakatlari, usullari va amaliyotlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va tamoyillariga qo'pol e'tiborsizlik bo'lib, xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solishi, davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarga putur yetkazishi, davlatlarning hududiy yaxlitligi va xavfsizligiga tahdid solishi, terrorizmga to'sqinlik qilishi e'tirof etiladi hamda xalqaro hamkorlik va inson huquqlari, asosiy erkinliklari va jamiyatning demokratik asoslarining buzilishiga olib keladi. Muqaddimada xalqaro terrorizm aktlarini bostirish xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash hamda davlatlarning suvereniteti va hududiy yaxlitligini ta'minlashning eng muhim elementlaridan biri ekanligiga ishonch bildirilgan. Shunday qilib, muqaddimada terroristik hujumlar uchun eng zaif bo'lgan asosiy xalqaro huquqiy prinsiplar shakllantirilgan.

Loyihaning 2-moddasi terrorizm tushunchasiga bag'ishlangan. Unda quyidagilar nazarda tutilgan:

“Har qanday shaxs, agar u har qanday usul bilan qonunga xilof ravishda va qasddan:

a) har qanday shaxsning o'limi yoki og'ir tan jarohati;

b) jamoat yoki xususiy mulkka, shu jumladan, jamoat joylari, jamoat yoki davlat muassasalari, jamoat transporti, infratuzilma yoki atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazilishi;

d) ushbu moddaning 1-(b) bandida ko'rsatilgan mol-mulk, joylar, inshootlar yoki tizimlarga katta iqtisodiy yo'qotishlarni keltirib chiqaradigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan zarar, aholi yoki hukumat yoki xalqaro tashkilotni har qanday harakatni qilish yoki qilmaslikka majburlash (agar bunday harakatning maqsadi o'zining tabiati yoki konteksti bo'yicha qo'rqitish bo'lsa).

Loyihaga ko'ra, terrorizmning asosiy belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, harakatning noto'g'riligi va qasddanligi.

Ikkinchidan, jismoniy shaxs, davlat yoki xususiy mulkka zarar yetkazish.

Uchinchidan, qo'rqitish yoki majburlash maqsadida qilmish sodir etish.

M. Xmud, B. Solning fikricha, keltirilgan ta'rif 1997-yildagi terroristik portlashlarga qarshi kurash bo'yicha xalqaro konvensiyada berilgan ta'rifga imkon qadar yaqinroqdir [10, 185-b.; 21].

Darhaqiqat, mazkur taqqoslash zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan obyektlarni sanab o'tish bo'yicha ba'zi formulalarning umumiyligini ko'rsatadi. Biroq tushunchalar subyektiv nuqtayi nazardan juda farq qiladi. Konvensiyaning 1997-yildagi versiyasi loyihasiga ko'ra, bitim ishtirokchi-davlatlarining milliy huquqiy tizimlarida jinoyat javobgarlikni joriy etish uchun muhim bo'lgan kvalifikatsiya qiymati, ya'ni 5-moddada belgilangan qoidaga ega: “Harakat aholi orasida terror muhitini yaratishga qaratilgan bo'lishi yoki hisoblanishi kerak”. Keng qamrovli konvensiya loyihasi maqsadli komponentning kengaytirilgan loyihasini taklif qiladi. Bunda nafaqat aholini qo'rqitish, balki boshqa subyektlarni majburlash ham mavjud.

Bundan tashqari, 1997-yilgi Konvensiya loyihasida aholi jabrlanuvchi sifatida ko'riladi, bu faqat tinch aholini anglatadi. Loyiha esa qurbonlari toifasini kengaytirib, ular orasida hukumatlar va xalqaro tashkilotlarni ham sanab o'tadi.

Tadqiqot natijalari

Shu munosabat bilan loyihadagi "terrorchilik jinoyati" tushunchasini xalqaro huquqiy bazada mavjud bo'lgan ta'riflar bilan qisqartirish emas, balki mustaqilligi haqida gapirish mumkindek tuyuladi.

Xalqaro huquqiy doiralar va yuridik adabiyotlarda keng qamrovli konvensiya loyihasida "terrorizm" tushunchasining qisqartirilgan shakli keltirilgan [11]. Turkiya va Lixstenshteynning oltinchi qo'mitasi vakillari fikricha, mavjudlari ichida "yaxshi shakl emas" deb ta'kidlanadi [12].

Mazkur ishlar doirasida amalga oshirilgan universal tarmoq konvensiyalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, terrorizmning xalqaro hamjamiyat tomonidan kelishilgan huquqiy belgilarini alohida ajratib ko'rsatish uchun asoslar mavjud. Bundan tashqari, o'rganilayotgan hodisaning xarakterli xususiyatlarini eng to'g'ri va to'liq aniqlash uchun izchil va bir-biriga zid bo'lmagan elementlarning "eng katta maxraji"dan foydalanish kerak. Shu bilan birga, terrorizmning jinoiy mohiyatini yanada chuqurroq ochib berish va unga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yaratishga yordam beradigan amaliy ahamiyatli omillarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, oldingi tahlilni hisobga olgan holda, Loyihada terroristik jinoyat tushunchasi, qo'shimcha ravishda quyidagi belgilarni o'z ichiga olgan holda aniqlashtirish zarur:

- jinoiy tajovuz obyektiga nisbatan – xalqaro tashkilot, butun xalqaro hamjamiyat, e'tirof etilgan diniy yoki etnik guruhning qonuniy huquq va manfaatlariga zarar yetkazishga urinish. Ushbu qoida 2-moddaning 1-(a) bandida joylashgan bo'lishi kerak;

- jinoiy harakatlar doirasiga kelsak, terroristik jinoyatlar bilan bog'liq taqiqlangan harakatlar hajmini allaqachon mavjud konvensiyaviy bazaga moslashtirish va quyidagi shakllarni taqiqlash kerak – "faoliyatni rejalashtirish (intellektual mualliflik), gij-gijlash, ushbu moddaning 1-, 2- yoki 3-bandlarida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etish maqsadida jismoniy shaxslarni moddiy ta'minlash (sponsoring), moliyalashtirish (financing), rag'batlantirish, zo'ravonlik harakatlariga rozilik berish yoki ularni yashirish, shuningdek, tashkilot jinoiy terrorchilik guruhlarini, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish to'g'risida" degan so'z 2-moddaning 4-qismi "v" bandiga kiritilishi lozim;

- "jinoyatning zararli oqibatlariga nisbatan – Loyihada nazarda tutilgan jismoniy (o'lim va tan jarohati), davlat yoki xususiy mulkka yetkazilgan zarardan tashqari – shaxsga nomoddiy (ruhiy) zarar yetkazish" 2-moddaning 1-qism "a" bandiga kiritilishi kerak [13, 55-b.]. Shuni yodda tutish kerakki, zarar deganda, nafaqat moddiy zarar yetkazish, balki qiymati, asosan, pul bo'lmagan mezonlar bilan belgilanadigan obyektlarga yetkazilgan zarar ham tushuniladi. Birinchi navbatda, o'zgarmas madaniy meros haqida gap ketmoqda. Uning yo'q qilinishi (shikastlanishi) ma'naviy qadriyatlarining ijtimoiy tarkibiy qismiga zarba beradi.

Bundan tashqari, keng qamrovli konvensiyani qo'llash holatlari Loyihaning 5-moddasida belgilangan. Amaldagi tahrir 1997-, 1999-, 2005-yillardagi shartnomalarda belgilangan qoidani takrorlaydi: "Ushbu Konvensiya jinoyat bir davlatda sodir etilgan, gumon qilinayotgan jinoyatchi va jabrlanuvchilar shu davlat fuqarolari bo'lgan hollarda qo'llanilmaydi. Jinoyatchi ushbu davlat hududida topilgan bo'lsa va boshqa hech bir davlat ushbu Konvensiyaning 8-moddasi 1-bandi yoki 2-bandiga muvofiq, o'z yurisdiksiyasini amalga oshirish uchun asosga ega emas".

Loyihada davlatning aksilterror operatsiyalarini o'tkazish, zarurat tug'ilganda, butun xalqaro hamjamiyat manfaatlarini, terrorchilik xuruji sodir bo'lgan taqdirda, xalqaro tashkilotlar manfaatlarini himoya qilish huquqlari to'g'risidagi masala hal etilmagan. Terrorchilik tuzilmalarining hozirgi imkoniyatlari kontekstida bu masala alohida ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan keng qamrovli konvensiyada global va terroristik tahdid yuzaga kelgan taqdirda, davlat tomonidan ularning milliy manfaatlarini himoya qilishning qonuniylik shartlari va ruxsat etilgan chegaralarini belgilaydigan aniq qoidani belgilash zarur. Ko'rinib turibdiki, davlat faqat mavjud qonunchilik doirasida, mavjud universal mexanizmlardan foydalangan holda, birinchi navbatda, o'zini o'zi himoya qilish va BMT Xavfsizlik Kengashining tegishli qarorlari doirasida yoki tegishli qaror asosida o'zini himoya qilish huquqiga ega.

Tadqiqot natijalari tahlili

Loyihaning o'zaro bog'liqligi va ilgari tuzilgan konvensiyalar bo'yicha yangi qoidaning mohiyati haqida bahs-munozarada asosiy g'oya, bir tomondan, bo'shliqlarni yopish va boshqa tomondan, mavjud kelishilgan pozitsiyalarni saqlab qolish zarur edi [14].

Mavjud vaziyat terrorizmga qarshi kurashni barcha yo'nalishlarda birlashtirgan izchil, yaxlit tizim yaratishni taqozo etmoqda. Darhaqiqat, o'rganilayotgan sohada kodifikatsiya jarayoni haqida gapirish alohida ahamiyat kasb etadi. Terrorizmga qarshi umumiy shartnoma tuzishdan maqsad bu sohada ilgari mavjud bo'lgan bir-biriga zid qoidalaridan xalos bo'lish kerak.

2000–2013-yillar davomidagi maxsus qo'mita muhokamalari shuni ko'rsatdiki, terrorizmning yagona ta'rifini ishlab chiqish, milliy ozodlik harakatining o'zaro bog'liqligi, davlat terrorizmi muammosi to'g'ridan to'g'ri keng qamrovli konvensiya va terrorizm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muammosi bilan bog'liq bo'lib, bunda sohaviy kelishuvlar muhokamaning asosiy elementlari sanala-

di hamda hujjat ustida ishlashni yakunlashga imkon bermaydi. Shunday qilib, masalan, Keniya vakili 2012-yil Maxsus qo'mita yig'ilishida "... Xalqaro terrorizm to'g'risida"gi keng qamrovli konvensiya loyihasini ishlab chiqish bir qancha hal etilmagan muammolar, shu jumladan, terrorizm ta'rif tufayli tugallanmaganligi haqida qayg'urdi. "Biz hal qiluvchi masalalar murakkab va siyosiy xarakterga ega ekanligini tan olsak-da, umumiy maqsadimiz va terrorizmni yo'q qilish maqsadiga e'tibor qaratishda ular bo'yicha turlicha fikrlarni bartaraf etib bo'lmaydi, deb hisoblaymiz" [15].

M. Filippo keng qamrovli konvensiyaning rivojlanish istiqbollarini shubha bilan baholashiga qaramay, global miqyosda terrorizmning global konsepsiyasini ishlab chiqishni o'ta muhim deb hisoblaydi. Tadqiqotchining fikricha, qat'iy aksilterror nazorati tizimi uning zarur elementiga aylanishi lozim [16, 564-b.].

S. Lim global Konvensiyada umumiy ta'rif davlatlararo hamkorlikning huquqiy aniqligi va samaradorligi manfaatlariga xizmat qilishi mumkinligini e'tirof etgan holda, uning yo'qligi huquqiy bo'shliq va huquqiy falaj holatini yaratmaydi, degan fikrda "...bu juda siyosiyashtirilgan va u jiddiy e'tiborga loyiq emas" deb hisoblaydi [16, 43-44-b.].

Xuddi shunday fikrlarni U. Laker, B. Jenkins, G. Fletcher, J. Der Derian hamda AQSh Davlat departamenti ham bildirgan [17, 8-b.; 18, 900-b.; 19, 71-b.; 17, 8-b.; 20].

Biroq xalqaro huquqiy ish amaliyotida muvaffaqiyatli birlashtirish ishlari, xalqaro huquqiy hodisalar, shu jumladan, terrorizmining muhim belgilarini aniqlashga umumiy yondashuvlarni ishlab chiqishning yorqin misollari mavjud. Masalan, 34 ta davlatning Rim Statuti 5-moddasi bo'yicha terrorizmni jinoiyashtirishga oid kelishilgan pozitsiyasi 187 ta davlat tomonidan 1999-yildagi "Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida"gi xalqaro konvensiyaning ratifikatsiya qilinishidir.

Bundan tashqari, yagona ta'rif masalasini hal qilish inson huquqlari bilan bog'liq asosiy masalalarga bevosita taalluqlidir. Bu terrorchilik xurujlari qurbonlarini himoya qilish, ushbu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish sohasidagi qoidalarining yanada shaffof ishlashi, yurisdiksiyaning yagona standartlarini belgilashga xizmat qiladi.

Tahlilning ushbu bosqichida yana bir aniq jihatga to'xtalib o'tish zarur: xalqaro hujjatlar nimaga bag'ishlanishi kerak – terrorizmga qarshi kurashmi yoki terroristik xarakterdagi jinoyatlarga qarshi? Qonun chiqaruvchiga oshkor etilishi kerak bo'lgan konsepsiyaning mazmuni ushbu masalaning yechimiga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab terrorizm va ekstremizmning har qanday ko'rinishiga qarshi birlashib, kurashib kelmoqda. Xususan, BMTning Aksilterror strategiyasi yo'nalishlaridan kelib chiqib, terrorizmga qarshi kurashni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi «2021–2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon bilan respublikamiz konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, milliy xavfsizlik, shuningdek, fuqarolarning ushbu sohadagi huquq va erkinliklarini ta'minlashga imkon beradigan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha samarali va bir vaqtning o'zida muvofiqlashtirilgan davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash strategiyaning maqsadi sifatida belgilab berildi. Shuningdek, «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da terrorizm muammosiga alohida to'xtalib o'tildi. Oltinchi ustuvor yo'nalishning 82-maqsadi «Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda, umumbashariy muammolarga yondashish» deb nomlanib, terrorizm nomli illatni yurtimiz tuproqlaridan butunlay yo'q qilishga bag'ishlandi.

O'zbekiston Respublikasida terrorizmga qarshi kurash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilishiga qaramasdan, milliy qonunchilikni zamon bilan hamnafaslikda rivojlantirish davr talabi bo'lib qolmoqda. Hozirda xalqaro huquqda terrorizmning yangi turlari paydo bo'lishni boshladi, masalan, axborot xavfsizligi bilan bog'liq kiberterrorizm butun xalqaro hamjamiyatni tashvishga solib kelayotgan muammolardan biridir. Terrorizmning mazkur turiga qarshi kurash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi hanuzgacha yetarli mexanizmlarga ega emasligi ham terrorizmga qarshi kurash masalasining dolzarbligini ko'rsatadi. Shunday ekan, «Xalqaro terrorizm to'g'risida»gi keng qamrovli konvensiya loyihasining qabul qilinishi mamlakatimiz qonunchiligiga ham ta'sir qilishi va bu bilan huquqiy yechimini kutayotgan masalalar hal etilishi bilan izohlanadi.

Xulosalar

Ko'rinib turibdiki, terrorizm o'zining barcha ko'rinishlarida jinoiy hisoblanadi va milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak. Xalqaro terrorchilik faoliyati bilan bog'liq har qanday xatti-harakatlar shakliga qarshi kurash shartnoma tizimiga kiritilishi lozim. Tahlil shuni ko'rsatadiki, terrorizmning o'zgaruvchanligi va ko'p qirraliligi javob choralari uchun qat'iy qonunchilik bazasini bir marta va butunlay belgilash imkonini bermaydi. Shu bois xalqaro miqyosda terrorizmga qarshi kurash sohasida uyg'unlashuv jarayonlari uchun poydevor qo'yish to'g'ri ko'rinadi. Bunga, shu jumladan, shartnomada, bu holda loyihada, terrorizmning barcha ko'rinishlarining jinoyati to'g'risida murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-siyosiy va huquqiy hodisa sifatida umumiy qoidani o'rnatib, keyinchalik uning huquqiy mazmunini «terrorchilik jinoyati» atamasidan foydalanib belgilash orqali erishish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, quyidagilarni xulosa qilish mumkin. Xalqaro

terrorizm to'g'risidagi keng qamrovli konvensiya loyihasida ko'plab muhim innovatsion qoidalar mavjud bo'lib, ular qabul qilingan taqdirda, xalqaro maydonda terrorizmga qarshi huquqiy kurash sifatini bashorat qilish imkonini beradi.

Loyihaning yutuqlari orasida quyidagilar ta'kidlanadi: terrorizmga qarshi xalqaro huquqiy kurashni shakllantirish; terrorchilik jinoyatini aniqlash taklifi; faqat terrorchilik harakatlarini ta'qib qilishni rad etish; "xalqaro" belgisini davlatlararo yurisdiksiyaning boshlanishi uchun shart sifatida aniqlash; terrorchilik jinoyati holatida inson huquqlarini himoya qilishga bag'ishlangan qoidalar to'plamini yaratish; davlatlar o'rtasidagi hamkorlik qoidalarini belgilash va o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish; an'anaviy sohada terrorchilik harakatlarini siyosiy jinoyatlar toifasidan keskin chiqarib tashlash. Loyiha tarqoq konvensiyalarida belgilangan an'anani davom ettirib, terrorchilik faoliyatini bosti-

rish va ta'qib qilishda ishtirokchi davlatlarning milliy yurisdiksiyasiga e'tibor qaratadi.

O'tkazilgan tahlillar davomida Loyihaning mavjud ko'rinishida bir qator kamchiliklar aniqlandi. Ulardan ba'zilariga yanada aniqlik kiritilib, ushbu o'zgarish hujjatning maqsadlariga ta'sir o'tkazmaydi.

Loyihada nazarda tutilgan chora-tadbirlarning yordamchi xarakteri terrorizmga qarshi xalqaro huquqiy kurashni ijobiy va izchil rivojlantirishga qaratilgan emas. Hujjat shuni ko'rsatadiki, mavjud terrorizmga qarshi kelishuvlarni birlashtirgan yagona izchil va ichki mantiqiy tizim va natijada paydo bo'ladigan mexanizmni ta'minlovchi yangi keng qamrovli konvensiyani yaratish eng yaxshi yechim bo'ladi. Keng qamrovli konvensiyaning sohaviy kelishuvlardan ustun bo'lishi nazarda tutilgan yondashuv mantiqan to'g'ri sanaladi hamda terrorizmga qarshi kurashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Global Terrorism Index 2020. Measuring the impact of terrorism. Available at: <https://visionofhumanity.org/wp-content/uploads/2020/11/GTI-2020-web-1.pdf/> (accessed 26.09.2022).
2. Measures to eliminate international terrorism. Resolution Adopted by the General Assembly. The report of the Sixth Committee (A/54/615). 54/110. Fifty-fourth session. A/RES/54/110. 2 February 2000 Para 12. Available at: <http://www.un.org/ru/documents/> (accessed 26.09.2022).
3. Draft comprehensive convention on international terrorism. Ad Hoc Committee Report, UN Doc. A/61/37.
4. Saul B. Defining terrorism in international law. P. 184.
5. Report of the Ad Hoc Committee established pursuant to General Assembly resolution 51/210 of 17 December 1996. Sixteenth session. 8-12 April 2013. Doc. A/68/37. Clause 11 App. III. Available at: <http://www.un.org/ru/documents/ods.asp?m=A/68/37/>.
6. Measures to eliminate international terrorism. Ad Hoc Committee established by General Assembly resolution 51/210 of 17 December 1996. 15 July, 2015. Available at: <http://legal.un.org/terrorism/new-logo.gif/>.
7. Resolution of the UN General Assembly of December 14, 2015. Doc. A/RES/70/120. P. 24. Available at: <https://documents-dds-ny.un.org/doc/UN+DOC/GEN/N15/429/15/PDF/N1542915.pdf?OpenElement>.
8. Resolution 72/123 of the UN General Assembly of December 7, 2017 on the report of the Sixth Committee (A/72/467) no. Doc. A/RES/72/123. Available at: <https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N17/433/03/PDF/N1743303.pdf?OpenElement/>.

9. Chernyad'yeva N.A. Mezhdunarodnyy terrorizm: proiskhozheniye, evolyutsiya, aktual'nyye voprosy pravovogo protivodeystviya [International terrorism: origin, evolution, topical issues of legal counteraction]. Moscow, Prospekt, 2017, 336 p.
10. Hmoud M. Negotiating the draft comprehensive Convention on international terrorism. Major Bones of Contention. *Journal of International Criminal Justice*, 2006, no. 4, pp. 1032–1033.
11. Politov S.I. Sovremennyy mezhdunarodnyy terrorizm kak ugroza natsional'noy bezopasnosti Rossii [Modern international terrorism as a threat to Russia's national security]. PhD thesis. Moscow, 2007, p. 20.
12. Legal Committee Urges Conclusion Of Draft Comprehensive Convention On International Terrorism. Doc. GA/L/3433.
13. Young R. Defining terrorism. P. 55.
14. Report of the Ad Hoc Committee established by General Assembly resolution 51/210 of 17 December 1996 Thirteenth session. 29 June to 2 July 2009. Annex II. Reports on the informal contacts on the draft comprehensive convention on international terrorism. Para 5 (b). // Doc A/64/37.
15. Statement by Mr. Wanjuki Muchemi, Solicitor General to the Sixth Committee of the 62nd Session of the United Nations General Assembly on Agenda Item 108. Measures to Eliminate International Terrorism. 11th October, 2007. Available at: http://www.globescope.com/edo/final/images/index_03.jpg/.
16. Filippo M.D. Terrorist crimes and international co-operation. *European Journal of International Law*, 2008, June, vol. 19, iss. 3, 564. DOI: 10.1093/ejil/chn027.
17. Jenkins B.M. International terrorism. The Other World War. Prepared under the Project AIR FORCE study effort Implications of Terrorism for the Air Force, 1985, p. 8.
18. Fletcher G.P. The indefinable concept of terrorism. The Indefinable Concept of Terrorism. *Journal of International Criminal Justice*, 2006, no. 4, p. 900. DOI: 10.1093/jicj/mql060.
19. Derian J.D. Critical practices of international theory. ISBN 9780415772419. 2009, p. 71.
20. Attempts to reach a fixed, universally accepted definition of international terrorism have been frustrated both by changes in terrorist methodology and the lack of any precise definition of the term terrorism. U.S. Department of State, Patterns of Global Terrorism. Available at: <http://www.state.gov/s/ct/rls/pgtrpt/2002/html/19997.htm/>.
21. Saul B. Defining Terrorism in International Law. 2021, November-December, p. 185.

UDC: 342.5(045)(575.1)

DAVLAT EKOLOGIK NAZORATINI AMALGA OSHIRUVCHI MAXSUS VAKOLATLI DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Ahrorov Adhamjon Asrorqul o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi
kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-8193-167X
e-mail: adxam.axrorov@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat ekologik nazorati tushunchasi, uning asosiy vazifalari va undan ko'zlangan maqsad, davlat ekologik nazoratining turlari, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida davlat nazoratini amalga oshirish zarurati borasida mahalliy va xorijlik huquqshunos olimlarning fikrlari, shuningdek, atrof-muhitning ekologik monitoringi tizimini takomillashtirish masalalari, ekologik nazoratni amalga oshirishdagi mavjud kamchiliklar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar, davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi subyektlar doirasi hamda davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organlari tizimi va ularning vakolat doirasi tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organlari tizimini optimallashtirish masalasi xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida yoritib berilgan. Shu bilan birga, davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish yuzasidan asoslantirilgan takliflar ishlab chiqilgan. Xususan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasida amalda bo'lgan qonunchilik asosida mamlakatimizda ham davlat ekologik nazoratini amalga oshirish vakolatini yagona davlat boshqaruv organiga berish masalasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat ekologik nazorati, maxsus vakolatli davlat organlari, atrof-muhit, moratoriy, ekologik nazorat subyektlari, tabiatdan foydalanuvchilar.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ СПЕЦИАЛЬНО УПОЛНОМОЧЕННЫХ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ, ОСУЩЕСТВЛЯЮЩИХ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ КОНТРОЛЬ

Ахроров Адхамжон Асроркул угли,
преподаватель кафедры «Административное
и финансовое право» Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются понятие государственного экологического контроля, его основные цели и задачи, виды государственного экологического контроля, взгляды отечественных и зарубежных правоведов на необходимость государственного контроля в области охраны окружающей среды, рационального природопользования, а также экологического мониторинга. Анализируются статистические данные о существующих

недостатках в осуществлении экологического контроля, круг субъектов государственного экологического контроля, а также система специально уполномоченных государственных органов, осуществляющих государственный экологический контроль, и объем их функций. Также освещен вопрос оптимизации системы специально уполномоченных государственных органов, осуществляющих государственный экологический контроль в Республике Узбекистан, на основе опыта зарубежных стран. Вместе с тем разработаны обоснованные предложения по совершенствованию системы специально уполномоченных органов государственного управления, осуществляющих государственный экологический контроль. В частности, в соответствии с законодательством, действующим в Российской Федерации и Республике Казахстан, был проанализирован вопрос о передаче полномочий по осуществлению государственного экологического контроля в нашей стране единому государственному органу.

Ключевые слова: государственный экологический контроль, специально уполномоченные государственные органы, окружающая среда, мораторий, субъекты экологического контроля, природопользователи.

SOME ISSUES OF IMPROVING THE SYSTEM OF SPECIALLY AUTHORIZED GOVERNMENT BODIES EXERCISING STATE ENVIRONMENTAL CONTROL

Akhrorov Adkhamjon Asrorkul ugli,

Teacher of the Department of
Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article discusses the concept of state environmental control, its main tasks and functions, types of state environmental control, and the views of domestic and foreign legal scholars on the need for state control in the field of environmental protection and rational nature management, as well as environmental monitoring, statistical data on existing shortcomings in the implementation of environmental control, the circle of subjects of state environmental control, the system of specially authorized state bodies exercising state environmental control, and the scope of their analysis. The issue of optimizing the system of specially authorized state bodies exercising state environmental control in the Republic of Uzbekistan is also highlighted, based on the experience of foreign countries. At the same time, substantiated proposals have been developed to improve the system of specially authorized government bodies exercising state environmental control. In particular, in accordance with the legislation in force in the Russian Federation and the Republic of Kazakhstan, the issue of transferring the powers to exercise state environmental control in our country to a single state body was analyzed.

Keywords: state environmental control, specially authorized state bodies, environment, moratorium, subjects of environmental control, users of natural resources.

Kirish

Mamlakatimizda atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirish sohasida izchil ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni bilan "2030-yilgacha

bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyaning asosiy vazifalaridan biri atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida davlat nazoratini, shuningdek, atrof-muhitning ekologik monitoringi tizimini takomillashtirish ekanligi belgilandi. Bundan tashqari, 2020-yil 29-sentabrdagi "Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq

ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4845-son Prezident qaroriga ko'ra bir qator yangi qoidalar joriy qilindi. Unga ko'ra, 2021-yil 1-yanvardan boshlab:

aholi tomonidan Davlat ekologiya qo'mitasining internet tarmog'idagi maxsus axborot tizimiga yuborilgan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar haqidagi fotosuratlar va videoyozuvlar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi;

huquqbuzarlik holatlari to'g'risidagi fotosuratlar va videoyozuvlarni yuborgan shaxslar huquqbuzardan undirilgan jarima miqdorining o'n besh foizi miqdoridagi pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi;

huquqbuzarlik holatlari to'g'risida yuborilgan fotosuratlar va videoyozuvlardagi huquqbuzarlarning shaxsini aniqlash Davlat ekologiya qo'mitasining hududiy organlari so'roviga asosan ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi;

huquqbuzarlik holatlari to'g'risidagi fotosuratlar, videoyozuvlar va xabarlarini taqdim etgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, mamlakatimizda ekologik sohadagi huquqbuzarliklar soni kamayganicha yo'q. Misol uchun, Prezidentning 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni bilan davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlari kesilishiga 2019-yil 1-noyabrdan 2020-yil 31-dekabrgacha moratoriy joriy etilgan edi. Shunga qaramasdan, ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda daraxtlarni kesishga moratoriy joriy qilingan davr mobaynida birgina Toshkent shahri bo'yicha jami 24236 tup daraxtni kesishga oid jismoniy va yuridik shaxslardan 1690 ta murojaat kelib tushgan. O'rganishlar natijasida 15,5 mingdan ortiq daraxtlarni saqlab qolishga erishilgan. Shuningdek, joriy yilning o'tgan 11 oyi-

da daraxtlarning noqonuniy kesilishi bilan bog'liq 307 ta holat aniqlangan. Shundan 297 tasi ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanib, aybdorlarga 428 mln so'm jarima belgilangan, umumiy yetkazilgan zarar summasi esa 1 mlrd 305 mln so'mni tashkil etgan.

Bundan tashqari, 9 holatda tabiatga juda katta, aniqlik mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 300 baravari, ya'ni 67 mln so'mdan ko'p zarar yetkazilgani sababli jinoiy ish qo'zg'atilgan. Bu bo'yicha tegishli hujjatlar prokuratura organlariga taqdim etilgan. Tabiatga yetkazilgan zarar esa 1 mlrd 881 ming so'mni tashkil etgan [1]. Agar ushbu sonlarni respublika miqyosida olsak, tabiatga yetkazilgan zarar miqdorining ko'lami yanada yirik ko'rinishda bo'ladi. Bunday huquqbuzarliklarning oldini olish, tabiatni asrab-avaylash, tabiatdan foydalanuvchilarning atrof-muhitga mas'uliyatini oshirishda davlat ekologik nazoratining tutgan o'rni beqiyosdir.

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida huquqiy fanlarda ilmiy metodlar: taqqoslash, qiyosiy-huquqiy, induksiya va deduksiya hamda boshqa metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Mamlakatda mavjud ekologik muam-molarni bartaraf etishda davlatning ekologik boshqaruvga oid faoliyati, shuningdek, ekologik nazoratni amalga oshirish masalalari dolzarb hisoblanadi.

T.I. Makarovaning fikricha, ekologik boshqaruv atrof-muhitni muhofaza qilishni davlatning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, takror ishlab chiqarishni tashkil etish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikka erishish, shuningdek, qonun ustuvorligi va fuqarolarning konstitutsiyaviy kafolatlarini ta'minlashdagi faoliyati sifatida belgilaydi [2, 160-b.].

I.S. Surkova esa ekologik boshqaruvni (tabiiy obyektlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi boshqaruvni) tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va

atrof-muhitni muhofaza qilishni optimal-
lashtirishga qaratilgan davlat hokimiyati ijro
etuvchi organlari va mahalliy o'zini o'zi bosh-
qaruv organlarining tashkiliy-huquqiy faoli-
yati deb hisoblaydi [3, 102-b].

T.I. Makarova hamda I.S. Surkovalar-
ning fikrlarini rad etmagan holda aytishimiz
mumkinki, davlat ekologik boshqaruvi-
ni amalga oshirishda ekologik nazoratning
roli beqiyosdir. Chunki vakolatli davlat or-
ganlari ekologik nazoratni amalga oshirish
orqali ekologik sohani tartibga soluvchi
qonun hujjatlariga rioya qilinishini ta'min-
lash imkoniga ega bo'ladilar. Shu bilan bir-
ga, nafaqat, qonun hujjatlariga rioya etilishi
ta'minlanadi, balki atrof-tabiiy muhitga zarar
yetkazayotgan yoki zarar yetkazishi mumkin
bo'lgan faoliyatlarga ham chek qo'yilishga
xizmat qiladi. Shu sababli O'zbekiston Res-
publikasi Prezidentining 2022-yil 28-yan-
vardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan
Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strate-
giyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmonida
atrof-muhitning ifloslanish darajasini ba-
holash mexanizmlarini takomillashtirish,
atrof-muhitni kuzatish, uning ifloslanish
darajasini prognoz qilish, davlat ekologik
nazoratini doimiy axborot bilan ta'min-
lash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va
atrof-muhitga ta'siri ustidan monitoringni
amalga oshirish ustuvor vazifa etib belgilan-
di.

Shu o'rinda ekologik nazorat tushun-
chasiga to'xtalib o'tish lozim. Ta'kidlash joiz-
ki, ekologik nazorat tushunchasiga bir qator
milliy va xorijiy huquqshunos olimlar to-
monidan ta'rif berilgan. Jumladan, Sh.X. Fay-
ziyevga ko'ra, "Atrof-muhitni muhofaza qilish
sohasida davlat ekologik nazorati bu – dav-
lat hokimiyati va boshqaruvi organlarining
atrof-muhit holatini tekshirish, iqtisodiy ish-
lab chiqarishda barcha vazirliklar, idoralar,
yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan
ekologik qonunchilik va ekologik xavfsizlik
talablariga rioya etilishi ustidan nazorat qi-
lish va talablarni aniq bajarishga qaratilgan

qat'iy choralar ko'rish, shuningdek, ehtimoliy
huquqbuzarliklarni bartaraf etishga qaratil-
gan (kompleks va tizimli nazorat asosidagi)
faoliyati" [4, 195-b.].

Shuningdek, Y.O. Jo'rayevning ta'kidlashi-
cha, "Ekologik nazorat – korxona, muassasa,
tashkilotlar, vazirliklar, davlat qo'mitalari,
idorolari va fuqarolar tomonidan atrof-tabiiy
muhitni muhofaza qilish tabiiy resurslardan
oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsiz-
likni ta'minlash bo'yicha talablarga rioya eti-
lishini tekshirish, atrof-tabiiy muhit holatini
o'rganish va monitoringini yuritish, ekologik
ekspertiza o'tkazish, shuningdek, ushbu so-
hada boshqa tashkiliy-huquqiy chora-tad-
birlarni amalga oshirishdan iborat" [5, 8-b.].
L.V. Chxutiashvilining fikriga ko'ra, ekologik
nazorat ekologik faoliyatning huquqiy shakli
sifatida ekologik qonunchilikka rioya etilishi-
ni ta'minlash bo'yicha harakatlar tizimi hi-
soblanadi [6, 156-b.].

Rossiyalik huquqshunos olim O. Sarki-
sovning ta'kidlashicha, ekologik nazorat
tizimi atrof-muhit holatini monitoring qi-
lish davlat xizmati, davlat, ishlab chiqarish
va jamoatchilik nazoratidan iborat. Ekologik
nazorat atrof-muhitni muhofaza qilishni
boshqarishning eng keng tarqalgan tash-
kiliy-huquqiy vositalaridan biridir. U tabiiy
resurslardan foydalanish va atrof-muhit-
ga ta'sir qilish bo'yicha faoliyatning barcha
bosqichlarida amalga oshiriladi. Unda o'z
maqomi, idoraviy mansubligi, qo'llanadigan
usullari va vakolat doirasi bilan farq qiluvchi
ko'plab organlar va shaxslar ishlaydi. Shun-
day qilib, ba'zi subyektlar faqat atrof-muhitni
muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatla-
riga rioya etilishini va bajarilishini tekshira-
di, boshqalari esa davlat atrof-muhitni bosh-
qarish sohasida nazoratni amalga oshirish
huquqiga ega.

Davlat ekologik nazorati davlat nomi-
dan maxsus vakolatli organlar va mansab-
dor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.
U idoradan tashqari va idoraviy xarakterga
ega bo'lib, davlat atrof-muhitni muhofaza

qilish boshqaruvining funksiyalaridan biri hisoblanadi, zarurat tug'ilganda ma'muriy majburlov choralarini qo'llaydi (faoliyatni to'xtatib turish, tabiiy resurslardan foydalanish huquqidan mahrum qilish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jarima va boshqa ma'muriy jazolar).

Nazorat qilinadigan faoliyat bosqichiga qarab profilaktik va joriy nazorat, predmetiga ko'ra esa umumiy va maxsus turlarga bo'linadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, umumiy ekologik nazorat Rossiya Federatsiyasi Prezidenti, Rossiya Federatsiyasi hukumati va umumiy vakolatli yoki maxsus vakolatli boshqa subyektlar tomonidan amalga oshiriladi. Maxsus nazorat atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida vakolatli organlar va ularning mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi [7, 117-b.]. O. Sarkisovning fikridan bilishimiz mumkinki, Rossiya Federatsiyasida ham ekologik nazoratni umumiy va maxsus vakolatli davlat organlari amalga oshiradi.

S.A. Balashenkoning fikricha, ekologik nazoratning obyekti quyidagilardir: tabiiy muhitning holati va o'zgarishi; vazirliklar, boshqa respublika davlat hokimiyati organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha ishlari; korxonalar va fuqarolarning tabiatni muhofaza qilish qonunchiligiga rioya qilish faoliyati [8, 164-b.].

N.E. Gorkovenkoning fikriga ko'ra ekologik nazorat tizimi atrof-muhit holatini monitoring qilish bo'yicha davlat xizmati, davlat, ishlab chiqarish va jamoatchilik nazoratidan iborat [9, 3-b.].

Nazorat bosqichiga qarab profilaktik, joriy va yakuniy ekologik nazorat ajralib turadi [10, 137-b.].

Yuqorida keltirilgan huquqshunos olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, ekologik nazorat atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olishga qaratilgan davlatning asosiy

nazorat funksiyalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasidagi nazorat tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta'minlashning asosiy vositasi hamdir.

Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi tizimida, yuqorida aytib o'tilganidek, ekologik nazorat muhim o'rin tutadi. Atrof-muhit nazoratini ikki nuqtayi nazardan ko'rish mumkin. Birinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilishni boshqarish funksiyasi sifatida. Shu ma'noda bu mustaqil faoliyat turi bo'lib, uning mazmuni boshqariladigan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, ularni qayta ishlash, baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun oldindan belgilangan maqsadlar uchun uzatishni o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish va ularni tartibga soluvchi huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishning kafolati sifatida atrof-muhitni boshqarishda qonun ustuvorligini ta'minlash yo'li hisoblanadi [11, 153-b.].

Ekologik nazorat sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari faoliyatini tahlil qilishdan oldin ekologik nazorat subyektlarini aniqlab olish zarur. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuniga asosan, bugungi kunda yurtimizda ekologik nazorat subyektlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- maxsus vakolatli davlat organlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari;
- nodavlat-notijorat tashkilotlari;
- fuqarolar.

Ko'rib turganimizdek, qonunchiligimizga muvofiq ekologik nazorat subyektlari umumiy va maxsus vakolatli organlarga ajratiladi. Professor Sh.X. Fayziyevning ta'kid-

lashicha, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatni boshqarish sohasidagi umumiy vakolatli davlat boshqaruv organlari, birinchidan, umumiy majburiy ekologik standartlar va talablarni belgilaydi, ikkinchidan, boshqa subyektlar tomonidan ekologik qonunchilik talablariga rioya qilinishi bo'yicha boshqaruv faoliyatini amalga oshiradi, uchinchi, davlat boshqaruv organlari, shuningdek, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Davlatning ekologik siyosatini amalga oshirishning ma'muriy-huquqiy mexanizmida maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari muhim rol o'ynaydi [12, 182-b.].

Ekologik nazorat sohasidagi vakolatli organlar ko'pligi sababli maqolamizda faqatgina maxsus vakolatli davlat organlari faoliyatini tahlil qilishni lozim topdik. Hozirgi vaqtda respublikamizda ekologik nazoratni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organlari 8 tani tashkil etib, ularning ro'yxati va nazoratni amalga oshirish sohasi quyidagi jadvalda aks etgan.

No	Vakolatli organ	Ekologik nazoratni amalga oshirish sohasi
1	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi	atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida, ushbu qismning uchinchi-to'qqizinchi xat-boshilarida nazarda tutilgan sohalarni nazorat qilish bundan mustasno
2	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi	atrof-muhitning radioaktiv, kimyoviy, biologik moddalar bilan ifloslanishi, ichimlik suvi ta'minoti, atmosfera havosiga fizik omillarning zararli ta'sir ko'rsatishi yuzasidan
3	O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi	sanoat xavfsizligiga, radiatsion xavfsizlikka, yerdan foydalanilayotganda ishlarining bexatar olib borilishiga rioya etilishi yuzasidan

4	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi	avtomototransport vositalarining ishlatilishida atmosfera havosining ifloslanishi yuzasidan
5	O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi	sun'iy suv obyektlarining suvidan foydalanilishi va iste'mol qilinishi yuzasidan
6	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi	o'simlik dunyosini himoya qilish bo'yicha davlat karantin qoidalarining bajarilishi yuzasidan
7	O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi	hayvonot dunyosini himoya qilish bo'yicha veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalarini va normalarining bajarilishi yuzasidan
8	O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi	yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan, yerlarning ishlab chiqarish chiqindilari hamda boshqa chiqindilar, radioaktiv, kimyoviy, biologik moddalar va oqova suvlar bilan ifloslanishi bundan mustasno.

Mazkur organlarning har biri o'z vakolati doirasida turli obyektlarga nisbatan ekologik nazoratni amalga oshiradi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda ekologik nazoratni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organlari haddan tashqari ko'p. Vaholanki, ko'plab xorijiy mamlakatlarda ekologik nazorat yagona davlat organi amalga oshiradi. N.V. Popov va S.Y. Rodchenkoning ta'kidlashicha, Rossiya Federatsiyasida davlat ekologik nazorati federal va hududiy turlarga bo'linadi [13, 77-b.]. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi hukumati 2021-yil 30-iyundagi 1096-son qarori bilan tasdiqlangan "Federal davlat ekologik nazorati to'g'risida"gi nizamning to'rtinchi bandiga muvofiq davlat ekologik nazorati tabiiy resurslardan foydalanishni nazorat qilish federal xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Qozog'iston Respublikasining Ekologiya kodeksi 177-moddasiga ko'ra, davlat ekologik nazoratini atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli organ tomonidan tayinlanadigan quyidagi mansabdor shaxslar amalga oshiradi:

- 1) Qozog'iston Respublikasi Bosh davlat ekologik inspektori;
- 2) Qozog'iston Respublikasi Bosh davlat ekologik inspektorining o'rinbosari;
- 3) Qozog'iston Respublikasining katta davlat ekologik inspektorlari;
- 4) Qozog'iston Respublikasi davlat ekologik inspektorlari;
- 5) viloyatlar, respublika ahamiyatiga ega shaharlar, poytaxtning bosh davlat ekologik inspektorlari;
- 6) viloyatlar, respublika ahamiyatiga ega shaharlar, poytaxtning katta davlat ekologik inspektorlari;
- 7) viloyatlar, respublika ahamiyatiga ega shaharlar, poytaxtning davlat ekologik inspektorlari.

Ko'rib turganimizdek, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasida ham ekologik nazoratni amalga oshirish yagona vakolatli organga yuklatilgan. Davlat ekologik nazoratining yagona davlat boshqaruvi organiga yuklatilishi turli organlar o'rtasidagi o'zaro vakolatlar takrorlanishining oldini olishga xizmat qiladi va davlat ekologik nazoratining markazlashgan tizimini yaratish imkonini beradi. Natijada davlatning nazorat funksiyasini to'laqonli amalga oshirish hamda ekologik nazoratni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadga erishishga olib keladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Professor Sh. Fayziyevning ta'kidlashicha, davlat nazorati funksiyalarining turli davlat organlari o'rtasida taqsimlanishi bir-birini takrorlashiga olib keladi va davlat ekologik nazorati samaradorligini pasaytiradi [14, 198-b.]. Ushbu fikrni to'liq quvvatlagan holda ekologik nazoratni amalga oshirishni yagona vakolatli organga yuklash maqsadga muvofiq deyishimiz mumkin.

Ta'kidlash kerakki, rossiyalik huquqshunos olim Y.N. Starilovning fikricha, ijro hokimiyati organlarining tuzilishini aniqlashda samarali davlat boshqaruvini qurishning quyidagi ko'plab omillarini hisobga olish talab etiladi: muayyan organni tashkil qilishning aniq iqtisodiy va siyosiy sharoitlarda maqsadga muvofiqligi; mavjud sharoitlarda uning faoliyatiga muvofiqligi; texnologiya boshqaruv texnikasi sohasidagi yangi yutuqlarni hisobga olish; ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan davlat boshqaruvining barcha muhim funksiyalarini majburiy ravishda amalga oshirish; boshqaruvning funksional va hududiy tamoyillarini hisobga olish; boshqaruv organlari o'rtasida maxsus gorizontaal aloqalarning mavjudligi; boshqaruv organlarining vakolatlarini faqat qonunlar asosida amalga oshirish; har bir ijro etuvchi hokimiyatning tashkiliy tuzilishini ishlab chiqish va tasdiqlash [15].

Y.N. Starilovning fikriga to'liq qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasida ham davlat boshqaruvi organlarini tuzishda yuqorida keltirilgan omillarni chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Xulosalar

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida xulosa qilishimiz mumkinki, hozirda ekologik nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari vakolatlarini qayta ko'rib chiqish orqali davlat ekologik nazoratini amalga oshirishni yagona vakolatli organ – Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga o'tkazish lozim, deb hisoblaymiz. Bu holatda kadrlar bilan bog'liq muammoni amalda davlat ekologik nazoratini olib boruvchi turli davlat organlarida faoliyat yurituvchi maxsus ixtisoslikdagi xodimlarni Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi shtat jadvali tarkibiga o'tkazish hisobiga hal qilish mumkin. Bu o'zgarish ekologik nazoratni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadni to'laqonli amalga oshirishga va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Odamlar jarima to'lab, yana daraxt kesishni davom ettiryapti [People continue to cut trees after paying fines]. Available at: <https://www.gazeta.uz/oz/2021/07/31/trees/#/>.
2. Balashenko S.A., Makarova T.I., Lizgarov V.E. *Ekologicheskoye pravo* [Environmental law]. Minsk, 2015, 402 p.
3. Surkova I. S. *Ekologicheskoye upravleniye: problemy teoretiko-pravovogo opredeleniya* [Ecological management: problems of theoretical and legal definition]. *Yuridicheskiye issledovaniya – Legal Studies*, Stavropol, 2013, no. 1, pp. 100–104.
4. Fayziyev Sh.X. *Teoreticheskiye problemy pravovogo obespecheniya ekologicheskoy politiki Respubliki Uzbekistan* [Theoretical problems of legal support of the environmental policy of the Republic of Uzbekistan]. PhD thesis. Tashkent, TSUL, 2004.
5. Utegenov O.D. *Jamoat ekologik nazoratini huquqiy tartibga solish* [Legal regulation of public environmental control]. Tashkent, Fan va texnologiyalar Publ., 2011.
6. Chkhutiashvili L.V. *Sovershenstvovaniya gosudarstvennogo ekologicheskogo kontrolya (nadzora)* [Improving state environmental control (supervision)]. *Russian law*, 2016, no. 9, pp. 155–162.
7. *Ekologicheskoye pravo* [Environmental law]. Kazan, Centr innovatsion texnology, 2014, 335 p.
8. Balashenko S.A. *Gosudarstvennoye upravleniye v oblasti okhrany okruzhayushchey sredy* [State administration in the field of environmental protection]. 2000, 341 p.
9. *Environmental control and audit in nature management: a course of lectures*. Krasnodar, 2015, 62 p.
10. Bogolyubova S.A. *Ekologicheskoye pravo* [Environmental Law]. Yurayt, 2011, 482 p.
11. *Okhrana okruzhayushchey prirodnoy sredy: postateynny kommentariy k Zakonu Rossii* [Protection of the natural environment: Article-by-article commentary to the Law of Russia]. Moscow, 1993, p. 153.
12. Popov N.V., Radchenko S.Y. *Environmental management and governance of natural resources. Public Administration Issues*, 2013, no. 4.
13. Starilov Yu.N. *The system of federal executive bodies: the formation of a transparent law making or government procedures?* *Bulletin of the Voronezh State University*, 2016, no. 3.
14. *Upravleniye prirodnopol'zovaniyem* [Environmental management]. Eds. S.M. Nikonorov, M.V. Palt. Moscow, 2017, 200 p.
15. Rusin S.N. *Organizatsionnyy mekhanizm okhrany okruzhayushchey sredy: naslediye professora V.V. Petrova i sovremennyye problemy* [Organizational mechanism of environmental protection: the legacy of Professor V.V. Petrova and modern problems]. *Environmental Law*, 2014, no. 5–6. pp. 43–47.
16. Rusin S.N. *Gosudarstvennoye upravleniye v oblasti okhrany okruzhayushchey sredy* [State administration in the field of environmental protection]. *Proceedings of the FII All-Russian Conference on Management Problems*, Moscow, 2014. Available at: <http://vspu2014.ipu.ru/>.

UDC: 347(045)(575.1)

SANOAT MULKI HUQUQI TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Mexmonov Qambariddin Miradxamovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0001-7042-9003

e-mail: q.mehmonov@tsul.uz

Annotatsiya: Maqolada sanoat mulki huquqi tushunchasi va mohiyati tahlil etilgan. Taklif etilgan tadqiqot sanoat mulki huquqi tushunchasi va mazmun-mohiyati, tatbiq etiladigan huquqiy rejim, sanoat mulki huquqiga oid munosabatlarning rivojlanish tendensiyalari haqida to'liq ma'lumot olishga imkon beradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda intellektual mulk obyektlarining yaratilishi va huquqiy muhofaza hujjati (patent) berilishi tendensiyasi huquq egalarining huquqlari yetarlicha himoyalanganmagani bilan asoslanadi. Shu bilan birga, sanoat mulki obyektining patentga layoqatli shartlari, himoya hujjati berilishi shartlarining murakkabligi huquqiy himoyani amalga oshirishni murakkablashtiradi. Huquq egalari o'z huquqlarini amalga oshirishda nafaqat milliy qonunchilikdan, balki xalqaro miqyosda ham himoya olish imkoniyatlaridan samarali foydalanmayapti. Sanoat mulki obyektlari rejimini aniqlash tahlili shuni ko'rsatadiki, aniq huquqiy chora-tadbirlar, mexanizmlarni qo'llash orqali O'zbekistonda sanoat mulki obyektlari yetarlicha huquqiy himoya ostiga olinishi mumkin. Mazkur muammolarni huquqiy tartibga solish uchun O'zbekistonning intellektual mulk sohasidagi qonunchiligini xalqaro talablarga moslashtirish hamda sanoat mulki obyektiga nisbatan huquqni himoya qilishni ta'minlash kerak. Muallif ushbu masalalarning huquqiy yechimini topishda asosiy yo'nalish axborot texnologiyalari, sun'iy intellektdan foydalanish bo'lishi zarur, degan qat'iy pozitsiyani ko'rsatadi. Biroq hozircha sun'iy intellekt huquq subyekti sifatida tan olinishidan yiroqda. Shuningdek, maqolada olimlarning ilmiy nuqtayi nazarlari, innovatsion rivojlanish davrida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi strategiyasi, sanoat mulkiga doir nizolarni hal qilish masalalari atroflicha o'rganilgan. Xulosada muallif muayyan xulosalarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: intellektual mulk, sanoat mulki obyektlari, huquqiy rejim, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, mutlaq huquq, sun'iy intellekt, huquq subyekti.

ПОНЯТИЕ И СУЩНОСТЬ ПРАВ ПРОМЫШЛЕННОЙ СОБСТВЕННОСТИ

Мехмонов Камбариддин Мирадхамович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье анализируется гражданско-правовой режим объектов промышленной собственности. Предлагаемое исследование дает полное представление о объектах промышленных прав, содержании правового режима, тенденциях развития отношений, связанных с объектами промышленной собственности. В последние годы тенденция создания интеллектуальной собственности в Узбекистане и выдача документов правовой защиты (патентов) показывает недостаточность правовой защиты правообладателя. В то же время условия патентоспособности объектов промышленной собственности, сложность условий выдачи охранного документа затрудняют реализацию правовой защиты. Осуществляя

свои права, правообладатели неэффективно используют возможности для защиты, установленные национальным законодательством, но и международно-правовыми нормами. Анализ правового режима объектов промышленной собственности показывает, что данные объекты в Узбекистане могут быть адекватно защищены с применением конкретных правовых мер и механизмов. Для законодательного урегулирования этих вопросов необходимо привести законодательство Узбекистана в области интеллектуальной собственности в соответствие с международными требованиями и обеспечить защиту прав на объекты промышленной собственности. Автор твердо придерживается позиции, что основным направлением в поиске правового решения этих вопросов должно стать использование информационных технологий, искусственного интеллекта. Но пока еще рано признание правосубъектности искусственного интеллекта. В статье также исследуются научные взгляды ученых, стратегия законодательства Республики Узбекистан в период инновационного развития, урегулирование споров по поводу изобретений. В заключение автор делает определенные выводы.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, объекты промышленной собственности, правовой режим, изобретение, полезная модель, промышленный образец, исключительное право, искусственный интеллект, субъект права.

CONCEPT AND ESSENCE OF INDUSTRIAL PROPERTY RIGHT

Mekhmonov Kambariddin Miradkhamovich,

Researcher of Tashkent State University of Law, PhD

Abstract. The article analyzes the civil law regime of industrial property objects. The proposed study gives a complete picture of the objects of industrial rights, the content of the legal regime, trends in the development of relations related to objects of industrial property. In recent years, the trend of creating intellectual property in Uzbekistan and issuing documents of legal protection (patents) shows the lack of legal protection for the right holder. At the same time, the conditions for the patentability of industrial property objects, and the complexity of the conditions for issuing a title of protection make it difficult to implement legal protection. In exercising their rights, right holders inefficiently use the opportunities to protect not only national legislation but also international legal norms. An analysis of the legal regime of industrial property objects shows that these objects in Uzbekistan can be adequately protected by the use of specific legal measures and mechanisms. For the legislative settlement of these issues, it is necessary to bring the legislation of Uzbekistan in the field of intellectual property in line with international requirements and ensure the protection of the right to objects of industrial property. The author firmly adheres to the position that the main direction in the search for a legal solution to these issues should be the use of information technology and artificial intelligence. But it is too early to recognize the legal personality of artificial intelligence. The article also explores the scientific views of scientists, the strategy of the legislation of the Republic of Uzbekistan in the period of innovative development, and the settlement of disputes over inventions. In conclusion, the author draws certain conclusions.

Keywords: intellectual property, industrial property, legal regime, invention, utility model, industrial design, exclusive right, artificial intelligence, subject of law.

Kirish

Ma'lumki, intellektual faoliyat insoniyat oldida turgan asosiy muammolarni hal qilish va rivojlanishga ta'sir ko'rsatadigan muhim omildir. Aynan aqliy faoliyat tamaddunlar rivojlanishi, qo'l mehnatining yengillashishi,

insoniyat duch keladigan xavf-xatarlarni samarali va to'g'ri hal etishga xizmat qilgan. Shu bois intellektual faoliyat natijalarining huquqiy maqomini belgilash, ularga doir qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Sanoat mulki huquqi vujudga kelgan davrda va undan keyin ham “istisnoli huquq” (kelgusi o‘rinlarda mutlaq huquq, mustasno huquq kabilar ayniy ma’noda qo‘llanadi) konsepsiyasi zahirida barchaning manfaatdor bo‘lishi prinsipi yotadi. Bunda huquq egasiga muayyan vaqtda afzallik, ustunlik taqdim etilgan bo‘lsa, boshqalardan ushbu huquqqa rioya etish talab qilingan.

Yangi texnologiyalar yaratilishi va dunyo bo‘ylab tarqalishi shiddat bilan oshib bormoqda. Biroq mazkur jarayondan – texnologiyalarning rivojlanishi va tarqalishidan barcha birdek manfaat topyaptimi? Asosiy muammo aynan barchaning manfaatdorligi yetarli darajada ta‘minlanmagani bilan bog‘liq. Ayrim huquq egalari katta foyda topgani holda boshqalarning zarar ko‘rishi yoki turli huquqiy chegaralarda qolib ketishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Manfaaddorlikda “oltin ko‘prik” topilishi ushbu manfaatni ta‘minlashga xizmat qilmog‘i zarur.

Sanoat mulki huquqini tushunish, uning mohiyatini ochib berish orqali bugungi rivojlanish sharoitida ushbu intellektual mulk obyekti o‘rnini aniqlash zaruriyati mavjud. Zero, sanoat rivoji har doim rivojlanishning muhim omili sifatida butun dunyoda tan olingan. Shu bois sanoat mulki obyektlarining patentga layoqatlilik shartlari, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqiy muhofazani belgilashga doir masalalar alohida dolzarblik kasb etadi.

Sivilistika fanida sanoat mulki obyektlarini tijoratlashtirish tendensiyasi haqida bir qator fikrlar ilgari surilgan. 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab sanoat mulkini tijoratlashtirish kuchayib borayotgani haqida ko‘p bora aytilgandi. Texnologiya bozorlari iqtisodiy o‘rinishning muhim omili bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, ular ixtirochi va huquq egalari o‘rtasida mehnat taqsimotini ta‘minlashda alohida o‘rin tutadi.

Sanoat mulki huquqi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar jamoatchilikka taqdim qilinar ekan, amaldagi qonunchilik ma‘lum bir patentga

kim egalik qilishini aniq belgilashga imkon bermasligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, sanoat mulkiga bo‘lgan huquqni o‘zgartirishga e‘tibor qaratsak, patent idoralarida asl talabnoma beruvchilarning shaxsini oshkor etish uchun qat‘iy qonuniy talablar mavjud bo‘lsa-da, ularning talablari patent huquqlari o‘tkazilgandan keyin huquqni oshkor qilish bo‘yicha ancha qat‘iy emasligi ko‘rinadi. Boshqacha aytganda, patentning egasi o‘zgarigandan so‘ng haqiqiy egalarni aniqlash ehtimoli sezilarli darajada kamayadi.

Xorijiy davlatlar olimlari mazkur masalada uzoq yillardan buyon tadqiqotlar olib bormoqda. Xususan, P.P. Battaxov [1, 53–56-b.], B.B. Sulaymanov [2, 23-b.], A.G. Matveyev, V.N. Sinelnikova [3, 294–295-b.], J.M. Otero Lastres [4, 781-b.], C. Fernandez-Novoa, J.M. Botana Agra, X. Seuba [5] A. George [6] va boshqalarning tadqiqot natijalari e‘lon qilingan. Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) [7] bu borada turli mavzularda konferensiyalar, kollokviumlar, kurslar tashkil etib ushbu sohada doimiy ravishda amaliy ishlar olib bormoqda. Xususan, tashkilot bosh direktori Frensis Garri [8] bu borada o‘z nuqtayi nazarini bayon qilgan.

Fuqarolik huquqining nisbatan murakkab va jadallik bilan rivojlanayotgan intellektual mulk tarmog‘i borasida sohalararo o‘tkazilgan tadqiqotlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, hozirgi kunda intellektual mulkning har bir obyekti alohida tadqiq etilmoqda. Intellektual mulk ko‘plab huquqiy tadqiqotlarning asosiy mavzularidan biriga aylangan.

Bundan tashqari, Jahon Savdo Tashkiloti o‘tkazgan tadqiqot doirasida Ting-Wei (Alex) Chiang va Xiaoping Wu [9, 41-b.] tomonidan JSTga a‘zo davlatlarda COVID-19 qarshi innovatsion va patent faoliyati o‘rganilgan. Unda mualliflar sanoat mulki obyekti sifatida dori vositalarining patent landshafti masalalarini tadqiq etishadi. Har bir COVID-19 vaksinasida ishtirok etgan patent oilalari sonida keng farqlar mavjud bo‘lib, bu vaksinani ishlab chiqish uchun qo‘llanadigan turli texnologik

platformalarni aks ettiradi. To'rtta texnologik platformaning har biri o'z afzalliklari va kamchiliklariga ega. Ishda patent oilasining huquqiy holatini mamlakat darajasida tahlil qilish, oxir-oqibatda, milliy siyosat va qaror qabul qiluvchilar uchun texnologiyalar transferini rag'batlantirish afzalliklari taklif qilinadi. Bunda asosiy e'tibor COVID-19 qarshi innovatsion va patent faoliyatiga qaratilib, dunyo davlatlarida ushbu jarayon qanday tendensiyalarda ketayotgani alohida tahlil qilinadi.

Deshpande Rohan, Kamath Karan tadqiqotida sun'iy intellekt yaratgan, sanoat mulki hisoblangan ixtiroga nisbatan huquqlar va uning yaratuvchiga tegishli bo'lishiga doir masalalar Hindiston huquqi nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Unda mualliflar sun'iy intellektga huquq berilishi tegishli majburiyatlarga hamda majburiyatlarni ixtirochi yoki huquq egasiga yuklashning huquqqa mosligini ko'taradi, deb ko'rsatadi. Patent idoralari sun'iy intellekt ixtiro yaratishiga, huquq egasining insofliligini aniqlashga doir murakkab masalalarni aniqlash uchun tegishli texnologiyalar bilan qurollangan bo'lishi zarur [10], degan xulosalarga keladi. Shuningdek, sun'iy intellektga subyekt maqomi berilishi yoki berilmasligi masalasi tahlil qilingan.

Russell L. Parr amalga oshirgan tadqiqot ishida ta'kidlanishicha, yuqori haq (royalti) to'lash evaziga ba'zan mavjud mahsulotlarga shunchaki yaxshilanishlar qo'shadigan ixtirolardan farqli o'laroq mahsulot mohiyatini ko'rsatadigan ixtirolar o'zaro bog'liqlikda bo'ladi. Yaxshilanadigan xususiyatga ega ixtiro past haq to'lanishi evaziga ushbu obyektni boshqarishi kerak degani emas, chunki bunda xususiyat yaxshilangan mahsulot uchun yuqori sotuvlar yoki foyda keltirgani ko'rsatilishi mumkin bo'ladi, deb hisoblaydi [11, 651-b.]. Bu o'z navbatida ixtirolarga qo'yilgan talablar va uning mohiyatini aniqlashga doir tahlillarni ilgari surishga imkon bergan.

Aksariyat tadqiqot ishlarida sanoat mulki obyektini huquqiy muhofaza qilishda uni keng ma'noda tushunish va talqin etish, antimonopol qonunchiligini tatbiq etish, aniqlashga e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston, umuman Markaziy Osiyo davlatlarida sanoat mulki obyektlari masalasi, ushbu sohadagi qonunchilikni qo'llashda yuzaga keladigan muammolar shu kunga qadar muayyan konseptual hamda yangicha yondashuv asosida nazariy va amaliy nuqtayi nazardan tadqiq etilmagan.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida to'rtta savolga javob berishga harakat qilindi: birinchidan, sanoat mulki obyektlarini huquqiy muhofaza qilishga doir qonunchilik qay darajada samarali; ikkinchidan, ushbu sohadagi huquqni qo'llash amaliyoti qay darajada shakllandi; uchinchidan, qonunchilikdagi bo'shliqlarni xalqaro tajriba asosida to'ldirish zarurati mavjudmi, to'rtinchidan, kelajakda sanoat mulki obyektlarini huquqiy muhofaza qilish qanday amalga oshiriladi.

Mazkur savollarga javob tariqasida mualliflik nuqtayi nazari ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Ushbu maqola sanoat mulki obyektlarini huquqiy muhofaza qilishni konseptual, nazariy va amaliy tushunishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, statistik, sotsiologik, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Sanoat mulki obyektini tushunishga doir doktrinalarga to'xtaladigan bo'lsak, ayrim mualliflar bu borada sanoat mulki huquqi uning obyektiv mazmunini ifodalovchi yuridik mustahkamlangan huquqiy normalar tizimi sifatida mavjud emas. Sanoat mulki huquqini mualliflik huquqi kabi intellektual mutlaq huquq turi sifatida ajratish faqat doktrinal darajada amalga oshiriladi va xalqaro darajadagi hujjatlarga asoslanadi [1, 53-56-b.].

Fikrimizcha, avvalo sanoat mulki obyekti mazmunining doktrinalarda belgilanishi, ushbu obyektni to'g'ri tushunish va talqin qilishga yordam beradi. Har bir mamlakat o'z milliy huquq tizimini mustaqil ravishda belgilaydi. Shunday ekan, xalqaro darajadagi huquqiy hujjatlarga (Konvensiya, bitim) ham o'z manfaati yuzasidan qo'shiladi. Biroq bunday hujjatlarning qabul qilinishi faqat ushbu hujjatlardan ko'r-ko'rona foydalanishni anglatmaydi. Ba'zi hollarda turli shartlar, ma'lum bandlarni qabul qilmaslik, pisdalarni belgilash yoki muddat o'rnatish kabi holatlar ham mavjud bo'ladi.

"Sanoat mulki" iborasini tom ma'noda tushunmaslik lozim. Ushbu iborani qo'llash XVIII–XIX asrlarda Yevropa mamlakatlari-da huquqiy yorliq patent orqali muhofaza qilinadigan ixtirolar – texnik xarakterdagi yechimlar asosan sanoat sohasida qo'llan-gani bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda sanoat mulki nafaqat sanoatda, balki amaliyotning, tur-mushning hamma sohalarida keng qo'llanadi [12, 126-b.].

Fuqarolik kodeksining 1032-moddasiga ko'ra, intellektual mulk obyektlari davlat organi tomonidan beriladigan huquqiy muhofaza hujjati asosida himoya qilinadi. Bu FKning 1082-moddasiga asosan ixtiro, foydali model sanoat namunasi yaratilish fakti bo'yicha emas, balki maxsus huquqiy muhofaza yorlig'i – patent berilgan taqdirda himoya qilina-di deganidir.

Muayyan ilmiy tadqiqotlar asosida yotgan g'oya, mazmun va mohiyatni to'liq tushu-nib olish uchun aksariyat olimlar tomonidan "doktrina" tushunchasi qo'llanadi. B.B. Sulay-manovning fikricha, "doktrina" huquqiy fan, manba, ya'ni huquqiy normaning tashqi ifoda-lanishi, huquq shakli va ommaviy hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadigan huquqiy hujjatning nomi sifatida ko'rinadi [2, 23-b.].

O. Oqyulov misol keltirib aytadiki, agar okeandagi yirik muz bo'lagi (aysberg)ga o'x-shatadigan bo'lsak, fuqarolik-huquqiy fan – yirik muz bo'lagi (aysberg), uning ko'rinib

turgan qismi bu – doktrina, uning ko'rinmay-digan tarafi esa boshqa ilmiy fikrlar va g'oya-lar, ishlanmalar hisoblanadi. Doktrina norma ijodkorligi faoliyati va huquqni qo'llash faoli-yati uchun o'ziga xos mo'ljal vazifasini o'taydi [13, 36-b.]. Demak, sanoat mulki mazmunini to'laonli anglab yetish, uning boshqa in-tellektual mulk obyektlaridan farqli xususi-yatlarini tushunish uchun bu boradagi ilmiy nuqtayi nazarlar va amaliy muammolarni tahlil etish maqsadga muvofiq.

Fikrimizcha, doktrinaning asosiy maz-muni huquqiy normalarni mavjud qoidalar, umum tan olingan huquqiy normalar, huquq normasi mazmuni ilmiy jihatdan asoslangan va to'g'ri tushunishga imkon beradigan g'oya-larda ifodalanadi. Shu bois doktrinalar ilmiy qarashlar, yondashuvlar, masalaning to'g'ri va maqbul yechimiga doir muayyan qoidalar-ni shakllantirishda namoyon bo'ladi. Butun dunyoda mavjud bo'lgan sanoat mulki huquqi obyektlarini tushunishga doir doktrina sa-noat mulki huquqi obyektlarining turlari orqali aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Intellektual mulk ta'rifiga kiradigan bar-cha obyektlar bir qator xususiyatlarni bir-lashtiradi:

nomoddiylik – ushbu obyektlar u yoki bu moddiy shaklda namoyon bo'lishi mumkin, ammo intellektual mulk sifatida shakl emas, balki obyektning o'zi tan olinadi va himoya qilinadi;

yangilik (originallik) – har bir yangi yaratilgan intellektual mulk obyekti avval yaratilgan obyektlarga – garchi ular qay-ta ishlangan yoki tarkibi o'xshash mahsulot bo'lsa ham – takrorlanmas (unikal) hisobla-nadi;

sun'iy yaratilganlik – intellektual mulk obyekti har doim inson tomonidan yaratiladi, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan tabiiy obyektlar intellektual mulk obyekti bo'la olmaydi.

Intellektual mulk obyektlari shartli ra-vishda bir-biridan huquqiy rejimiga ko'ra farq qiladigan uch guruhga bo'linadi:

1) fan, adabiyot va san'at asarlari. Mazkur toifa, shuningdek, mualliflik huquqi bilan himoyalangan va davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab etmaydigan elektron hisoblash mashinalari (EHM) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini ham o'z ichiga oladi;

2) sanoat mulki obyektlari va xususiy aloqmatlarini aks ettiruvchi vositalar. Ushbu birlashmaga ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovarlar chiqarilgan joy nomi kiradi. Mazkur turdagi obyektlar davlat ro'yxatidan o'tkazishni huquq egasining xohishiga ko'ra talab qiladi;

3) noan'anaviy obyektlar. Bunga seleksiya yutuqlari, integral mikrosxemalar topologiyalari va nou-xaular kiradi [14, 20-21-b.].

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, intellektual mulk obyektlariga nisbatan mualliflik-huquqiy, patent-huquqiy va noan'anaviy obyektlar (har ikki huquqiy himoya shakli va alohida rejimni talab qiladigan obyektlar) kiradi.

Intellektual mulk huquqi, shu jumladan, sanoat mulki huquqi obyektlarini huquqiy tartibga solishga doir xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish mazkur sohani tartibga solish tizimini takomillashtirishga bo'lgan qiziqishni ham ko'rsatadi. Intellektual mulkning muayyan yangi obyektlari, ayniqsa, texnologiya, ular bilan bog'liq sanoat mulki obyektlari rivojlangan mamlakatlarda yaratiladi. Ularni huquqiy ta'minlash ham ilk bora xorijda aprobatsiyadan o'tishi tabiiy. Bu esa muayyan bir davlat miqyosida tor doirada huquqiy tartibga solishni istisno etadi. Shu bois "har doim velosiped ixtiro qilgandan ko'ra xorijda yaratilgan "qulay velosiped modelini", ya'ni huquqiy konstruksiyani milliy tizimga kiritish qulayroq" [15, 36-b.; 17-b.] bo'lishi tabiiy. Mazkur tadqiqot mavzusi ham aynan shu qoidadan kelib chiqib, xalqaro tajribada sinovdan o'tgan masalalar bo'yicha milliy qonunchilikda yechim topish bilan bevosita bog'liq.

Intellektual mulk obyektlariga nisbatan qo'llanadigan doktrinalardan biri – Fair use,

ya'ni "insofli foydalanish" doktrinasidir. Ushbu doktrina AQSHning mualliflik huquqiga doir qonunchiligiga singdirilgan bo'lib, muayyan holatlarda mualliflik huquqi egasining roziligisiz va unga haq to'lamagan holda tanqid, yangiliklar hisoboti, ta'lim va ilmiy-tadqiqot ishlarida so'zma-so'z havola olishga imkon beradi. Mazkur prinsip mualliflik huquqiga doir milliy qonunchiligimizga ham singdirilgan.

Avvalo sanoat mulki obyektiga nimalar kirishiga aniqlik kiritib olish zarur. 1883-yilda dastlab "sanoat mulki" atamasi Sanoat mulkini muhofaza qilish to'g'risidagi Parij konvensiyasida qo'llangan. O'sha davrda intellektual mulkning ayrim turlari yig'indisi sifatida: ixtiroga, sanoat namunasi va tovar belgisiga nisbatan patent tushunilgan. Demak, bu holat sanoat bilan bevosita bog'liq bo'lgan va ushbu sohada vujudga kelgan hamda tatbiq etilgan. Shu bois mohiyatan sanoat mulki obyektlari aynan sanoat sohasida qo'llangani munosabati bilan shu nom ostida birlashtirilgan.

Parij konvensiyasi sanoat mulkini keng ma'noda talqin etib, sanoat mulkning muhofaza obyektlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: 1) ixtirolar; 2) foydali modellar; 3) sanoat namunalari; 4) tovar belgilari; 5) xizmat ko'rsatish belgilari; 6) firma nomi; 7) geografik nomlar; 8) tovarning kelib chiqish joyi nomi; 9) g'irrom raqobatning oldini olish (1-, 2-modda). Bundan kelib chiqadiki, vaqt o'tishi bilan sanoat mulki obyektlari doirasi muayyan darajada kengaygan. Go'yoki sanoat mulki obyektlari doirasi uning mazmun-mohiyatiga mos kelmaydigandek ko'rinadi. Hozirgi kunda ham sanoat mulki obyektlarining ushbu turlari Parij konvensiyasi mazmunida saqlanib qolgan. Demak, sanoat mulki obyektini keng ma'noda tushunilishi qabul qilingan va u nafaqat sanoat, balki tijorat, qishloq xo'jaligi, qazish sanoati sohalari, shuningdek, har qanday sanoat yoki tabiiy ishlab chiqariladigan mahsulotlar: vino, don, tamaki, gul, un, kimyo, axborot-kommu-

nikatsiya texnologiyalari va boshqa sohalarni ham qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 25-dekabrdan yuqoridagi konvensiya a'zosi hisoblanadi [16] va, tabiiyki, o'zining milliy qonunchiligini unda belgilangan talablarga moslashtirishga harakat qilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonunida ikki tomonlama yondashuv kuzatiladi. Bu o'rinda qonun chiqaruvchi "ixtiro, foydali model va sanoat namunasi" tushunchalarini sanoat mulki obyektlari bilan birga ayniy tushuncha sifatida ifodalaydi. Qonunning nomlanishidagi sanoat mulki obyektlari sifatida ixtiro, foydali model va sanoat namunasi sanab o'tilgan va ushbu holat qonunning bir qator (6–8 va boshqa) moddalarida normalangan. Qonunning 2-moddasida esa sanoat mulki obyektlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir, deb belgilanadi va "sanoat mulki obyekti" iborasi boshqa (2–5, 9–11 va boshqa) moddalarda ham qo'llanadi.

Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti (BIMT) *World Intellectual Property Organization (WIPO)* (hozirga qadar 193 ta davlat a'zo hisoblanadi) tomonidan chop etiladigan adabiyotlarda esa sanoat mulki tor doirasida talqin qilinadi. Unga ko'ra sanoat mulki bozorda xaridorlarga tovarlar va xizmatlar haqida axborot berishda foydalaniladigan belgilar sifatida tushuniladi [16]. Professor Otero Lasters (*Otero Lastres*) esa sanoat mulki sifatida himoya qilinadigan obyektlarni ikki guruhga bo'ladi: shaxsiylashtirish vositalari hamda texnik ijod mahsuli – patentlash obyekti [4, 781-b.].

Fikrimizcha, o'simliklarning yangi navi va hayvonlarning yangi zoti (seleksiya yutuqlari), ishlab chiqarish sirlari (nou-xou, tijorat siri) hamda geografik nomlarni ham e'tibordan chiqarib bo'lmaydi. Garchi ushbu obyektlarning ayrimlari, ya'ni ishlab chiqa-

rish sirlari (nou-xou, tijorat siri) hamda geografik nomlar sof ijodiy faoliyat natijasida yaratilmasa-da, O'zbekiston Respublikasida boshqa sanoat mulki obyektlari qatorida, garchi alohida huquqiy rejimda bo'lsa-da, huquqiy muhofaza ostiga olingan obyekt hisoblanadi.

Milliy statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, sanoat mulkining muhim tarkibiy qismini tashkil etuvchi ixtirolarga nisbatan 2015-yilda milliy talabnomalar 288 ta, xalqaro talabnomalar 219 ta, 2016-yilda milliy talabnomalar 353 ta, xalqaro talabnomalar 202 ta, 2017-yilda milliy talabnomalar 357 ta, xalqaro talabnomalar 196 ta, 2018-yilda milliy talabnomalar 470 ta, xalqaro talabnomalar 180 ta, 2019-yilda milliy talabnomalar 374 ta, xalqaro talabnomalar 169 tani tashkil etgan [17].

Bundan ko'rinadiki, ixtiroga nisbatan na faqat milliy talabnomalar, balki xalqaro talabnomalar asosan o'sish ko'rsatkichiga ega. Bu esa huquqiy tartibga solish mexanizmini takomillashtirish, mavjud muammolarni aniqlash va tizimli tahlilga doir tadqiqotlar davomli bo'lishini ko'rsatadi. Jahonda mavjud yondashuvlar, huquqiy konsepsiyalar o'rganilishini taqozo etadi.

Bu o'rinda sanoat mulki obyekti sifatida nima tan olinadi, degan o'rinli savol tug'iladi. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga ko'ra, har qanday sohada mahsulotga (xususan, qurilma, modda, mikroorganizm shtammi, o'simliklar yoki hayvonlar hujayralarining turlariga) hamda usulga (moddiy vositalar yordamida moddiy obyekt ustida xatti-harakatlarni amalga oshirish jarayoniga) taalluqli bo'lgan texnik yechim ixtiro sifatida e'tirof etiladi. Demak, bu o'rinda *mahsulot* hamda *usul*ga nisbatan ixtiro huquqiy muhofaza ostiga olinadi. Xuddi shunday talab foydali modelga nisbatan ham qo'llanadi. Bunda patentga layoqatlilik sharti bo'yicha ushbu sanoat mulki obyektlari farqlanadi. Sanoat namunasi

esa buyumning tashqi ko‘rinishini ifodalaydigan badiiy-konstruktorlik yechimi bo‘lmo‘g‘i zarur.

XXI asr intellektual mulk obyektlari ro‘yxatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Bu o‘rinda avvalo mualliflik huquqi obyektlari ro‘yxati ochiq bo‘lishi maqsadga muvofiqmi, degan savolga ham javob izlash o‘rinli bo‘ladi. Anglo-amerika huquq tizimida mualliflik-huquqiy muhofaza qilinadigan asarlar ro‘yxati yopiq bo‘lgan. Masalan, AQSHning mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunining § 102-muvofiq, mualliflik asarlari ro‘yxati aniq cheklangan. Biroq 1980-yilda ushbu ro‘yxatga adabiy asarlar tushunchasini kengaytirish hisobiga kompyuter dasturlari kiritilgan (§ 101). 1990-yilda esa § 102-sifatida arxitektura asari kiritilgan [18].

XXI asr boshiga kelib mualliflik huquqi bilan muhofaza ostiga olinadigan asarlar doirasi yanada kengaymadi. Kompyuter dasturi, ma‘lumotlar bazasi, veb sayt, videoo‘yinlar uchinchi sanoat inqilobining natijasi hisoblanadi. Kompyuter dasturi va ma‘lumotlar bazasi XX asr oxiridayoq ko‘plab mamlakatlar (shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi) ning qonunchiligiga mualliflik huquqi obyekti sifatida kiritilgan edi.

A.A. Kravchenkoning fikricha, mualliflik huquqi va turdosh huquq doirasida veb sayt muayyan shartlar mavjud bo‘lganda 1) kompyuter dasturi; 2) dizaynerlik yechimi; 3) hosila asar; 4) mualliflik huquqi obyekti sifatida ma‘lumotlar bazasi; 5) turdosh huquq obyekti sifatida ma‘lumotlar bazasi huquqiy jihatdan tan olinadi [19, 214-b.].

Bundan ko‘rinadiki, birgina mualliflik-huquqiy himoya ostidagi obyekt intellektual mulkning turli institutlari bilan bog‘liqlikda ham mavjud bo‘lishi mumkin. Biroq huquqiy himoyaga olish zarurati yuzaga kelganda qanday yo‘l tutish masalasi ba‘zan muammoli bo‘lib chiqadi.

Mualliflik huquqiga doir sud amaliyotiga murojaat qiladigan bo‘lsak, 2006-yil 13-iyunda Fransiya apellyatsiya sudi “Dior’s Dune”

parfyumeriya nizosi bo‘yicha “Atirning hidi mualliflik huquqi obyekti hisoblanmaydi” degan xulosaga kelgan. Sudning nuqtayi nazariga ko‘ra, atirning hidi nou-xauning oddiy amalga oshirilishi bo‘lib, mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunchilik mazmuni talabiga ko‘ra, asar sifatida mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinadigan ifodalalash shakli hisoblanmaydi [20]. Bundan farqli ravishda Niderlandiya Oliy sudi atirning hidi agar original bo‘lsa, mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinishi mumkin, degan xulosaga kelgan [20].

Yuqoridagi nizo yuzasidan shuni aytish mumkinki, garchi mualliflik huquqi obyektlari ro‘yxati ochiq bo‘lsa-da, Fransiya sudiga mualliflik huquqi obyektlarining ro‘yxati ochiqligi atirning hidini himoya qilishga asos bo‘lmagan va mualliflik huquqi yetarli darajada aniqlikda va obyektiv ravishda identifikatsiya qilinadigan ijodiy natijani huquqiy muhofaza ostiga oladi, deb hisoblaydi [21].

Yevropa ittifoqining 2001/29 direktivasi mazmuniga ko‘ra ham oziq-ovqat mahsulotining hidi asar sifatida baholanishi mumkin emas. Yevropa ittifoqining sud amaliyoti mahsulotning hidi mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinmasligi masalasini hal qilgan bo‘lsa-da, buni mualliflik-huquqiy himoya ostiga olish mumkin bo‘lgan obyektlarning barchasi uchun ham birdek yechim sifatida baholab bo‘lmaydi.

A.G. Matveev va V.N. Sinelnikovaning fikricha, XXI asrda yangi ikkita turdosh huquq obyekti vujudga kelgan. Birinchidan, ommaviy axborot vositalari nashrlari yangiliklaridan agregatorlar orqali onlayn foydalanish (masalan, “GoogleNews”, “Yandeks.Novosti”); ikkinchidan, sport musobaqasi tashkilotchilarining muayyan musobaqalarni yozib olish va namoyish etish huquqi yoki barchaning e‘tiboriga yetkazish huquqi mavjud [22, 294–295-b.].

Mualliflik huquqi obyektlari ro‘yxati ochiq bo‘lgani bois undan kelib chiquvchi turdosh huquq obyektlari borasida ham o‘zgarishlar bo‘lishi tabiiy. Garchi media tashkilotlarining

huquqlari o'tgan asrlardayoq alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan bo'lsa-da, sport musobaqalarini o'tkazish, ularni internet vositasida iste'molchilarga yetkazish juda yirik investitsiya va biznes faoliyati sifatida qaralmoqda. Shu bois har bir intellektual mulk obyektiga huquqiy muhofaza berish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'rilishi mumkin.

Bugungi kundagi ilmiy-texnikaviy rivojlantirishning yangi yaqqol namunasi sifatida biotibbiyotdagi hujayra mahsulotlari namoyon bo'lmoqda. Mazkur obyekt intellektual mulkning yangi obyekti sifatida alohida nazarda tutilmagan. Shunga qaramasdan, insonlarda mavjud kasalliklarni davolashda faol foydalanilmoqda.

Mazkur mavzuga doir ayrim huquqiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, unda asosiy e'tibor biopatentni huquqiy tartibga solish va rivojlantirish muammolariga qaratilgan. Biopatent huquqi intellektual mulkning alohida instituti sifatida alohida huquq sohasi bo'lib ajratib chiqarilishi lozim. Bunda sanoat mulkning alohida jihatlari yig'indisi (mikrobiologik material va molekulyar darajadagi biologik material) sifatida ko'rilishi taklif qilinadi [23, 175-b.].

Huquq sohalari orasida an'anaviy huquq sohalari asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi va h.k. Biroq biopatent huquqi alohida huquq sohasiga da'vo qilinishida uning huquqiy metodologiyasi, tartibga solish predmeti va metodi, tizimi mavjud bo'lishi va tan olinishi zarur. Boshqa tarafdin esa huquq instituti sifatida e'tirof etilishi uchun muayyan yuridik normalar tizimida o'zaro bog'langan normalar guruhi bo'lishi lozim. Huquqiy institut muayyan munosabatlar turini tartibga soluvchi nisbatan kichik barqaror huquqiy normalar guruhi, ijtimoiy munosabatlarning o'z mazmuniga ko'ra, o'xshash va yaqin muayyan bir turini tartibga soladigan huquq normalari guruhi-dan iborat bo'ladi [24, 541-b.]. Shu bois intellektual mulk obyektining muayyan insti-

tut doirasida o'rganiladigan obyekti alohida huquq sohasi sifatida tan olinishi maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

RFda tibbiy davolanish maqsadlarida biotibbiyot mahsulotlari muomalasini tartibga soluvchi alohida qonun qabul qilingan [28]. Bu qonun biotexnologiya sohasini tartibga soluvchi muhim tartibga solish yukiga ega bo'lgan qonun sifatida ko'rilishi mumkin. Biroq yangi biotexnologiya mahsulotlarini ishlab chiqarish, aprobatsiyadan o'tkazish, uni qo'llash bevosita inson omili bilan bog'liq. Uning sinovdan o'tishi uchun muayyan inson resurslari safarbar etiladi. Mazkur jarayonda insonning ishtiroki ixtiyoriylik prinsipiga asoslanishi, xavfsizlik tizimi qo'llanishi zaruriy shart.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunining 34-moddasida insonni obyekt sifatida jalb etib, biologik-tibbiy tadqiqot o'tkazishga faqat laboratoriya tajribalari o'tkazilganidan va fuqaroning yozma roziligi olinganidan keyingina davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida yo'l qo'yilishiga doir muhim prinsip belgilab qo'yilgan.

Qayd etish lozimki, rivojlangan mamlakatlarda biotibbiyotga doir tadqiqotlar asosiy o'rinni egallamoqda. Olingan natijalar esa yirik daromad keltirishi bilan bir qatorda huquqiy tartibga solish tizimiga ham ega. Bu borada alohida xalqaro darajada qabul qilingan hujjatlar ham mavjud [25].

Xulosalar

Kam ahamiyatli ixtirolar va inqilobiy ahamiyatga ega bo'lgan ixtirolarga nisbatan bir xil yondashuv bo'lishi to'g'rimi? Avvalo har qanday patent egasi o'zining mutlaq huquqini qo'lga kiritish orqali bozorda monopol mavqeni ta'minlash va ko'p foyda olishni ko'zlaydi. Boshqa tarafdin esa raqobatchilarning ishlab chiqarish va bozorda huquqining yo'qligi soha rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Bu borada huquq egasining o'zi erk-irodasi asosida mazkur masalaga yondashadi.

2018-yilda patent, tovar belgilari va sanoat namunalari nisbatan soʻralgan talabnomalarning uchdan ikki qismi Osiyo mamlakatlari hisobiga toʻgʻri kelgan. Bunda Xitoyning oʻzi soʻragan patentlar soni (1,54 million) butun dunyo boʻyicha koʻrsatkichning deyarli yarmiga toʻgʻri kelgan. Mazkur yilda novatorlar tomonidan jaʼmi 3,3 million patent talabnomalari berilgan va toʻqqiz yillik oʻsish tendensiyasi oʻzgarmasdan qolgan va u 5,2 foizni koʻrsatgan. 2018-yilda amaldagi patentlar 6,7 foizga oʻsgan va 14 millionni tashkil etgan. Shundan deyarli 3,1 million patent AQShda amal qilgan, keyingi oʻrinlarda Xitoy (2,4 million) va Yaponiya (2,1 million) turadi. AQShda amalda boʻlgan patentlarning aksariyati chet eldan kelgani kuzatilgan [26]. 2020-yilda Xitoyda birgina sanoat namunasiga nisbatan 795 504 ta talabnoma taqdim etilgan. Bu koʻrsatkich dunyo boʻylab taqdim etilgan talabnomalarning 55 % ini tashkil etadi.

Sanoat mulki obyekti haqidagi maʼlumotlarning ochiqligi asosan hamkorlik qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilarning fikricha, patentlar olimlarni sanoatchilar bilan hamkorlik qilishga undaydi. Bu borada muayyan tajribalar ham yaratilgan. Jumladan, dastlabki yarim sintetik penitsillin ishlab chiqarishda aynan shunday holat kuzatilgan. Sheyxan (huquq egasi)ning patent olishga boʻlgan motivi “Bristol Laboratories” bilan hamkorlik qilish boʻlgan. “Beecham” kompaniyasida patent muhofazasining mavjudligi “Bristol Laboratories” kompaniyasiga tegishli boʻlgan ishlab chiqarish sirlari nou-xou bilan oʻrtoqlashishga koʻndirishga urintirgan. Biroq ushbu harakat natija bermagan va ular oʻrtasida uzoq muddatli nizo koʻrib chiqilgan [27].

Yuqoridagilardan koʻrinadiki, inqilobiy ixtirolar tez va koʻp xarajatlarsiz, asosan sanoati rivojlangan mamlakatlarda tarqalgan. Huquq egasida patent mavjud boʻlsa-da, muayyan doirani qamrab olishga xalaqit bermagan. Fleming tomonidan penitsillinning

yaratilishi ham bu kabi obyekt patentlanmasligiga olib keldi. Patentlash jarayonining mavjud boʻlmasligi esa dorilar tez tarqalishiga sabab boʻlgan.

Bugungi kunda sunʼiy intellektga (*Artificial Intelligence – AI*) asoslangan sanoat mulki obyektlariga huquqiy muhofaza hujjatlarini olish jarayoni keng kuzatilmoqda. Agar eʼtibor qaratadigan boʻlsak, 1998-yildan sunʼiy intellekt sohasida doimiy oʻsish kuzatilgan. Har yili 2012-yildan boshlab to 2017-yilgacha 103 ta kompaniya mutlaq huquqni qoʻlga kiritgan.

“Alphabet” kompaniyasi (uning portfeliga “Google”, “DeepMind”, “Waymo” va “X Development” kiradi) ixtirolarga beriladigan talabnomalar (3 814 ta) boʻyicha faqatgina 10-oʻrinni egallaydi va sunʼiy intellekt sohasida huquqiy muhofaza olgan kompaniyalarning yetakchisi hisoblanadi. “Apple” va “Microsoft” kompaniyalari ham boshqa tashkilotlar va ularga tegishli huquqlarni xarid qilish bilan faol shugʻullanishgan. “IBM” va “Intel” kabi kompaniyalar asosiy eʼtiborini yetuk kompaniyalarga qaratgan boʻlsa-da, olingan kompaniyalar – startaplar hisoblanadi hamda ulardan baʼzilarining potfelida patentlar boʻlsa, boshqalarida hech qanday huquqiy muhofaza hujjatlari boʻlmagan. Yaʼni kompaniyalar xarid qilishning asosiy maqsadi muayyan aktivlarni, professional kadrlarni, shuningdek, maʼlumotlar bazasi, nou-xau va boshqa intellektual mulk huquqlarini qoʻlga kiritish hisoblanadi [8].

Texnologiyalarning rivojlanishi va tarqalishidan barcha birdek manfaatdor boʻlishi borasida esa yondashuvlar yakdilligi koʻzga tashlanmaydi. Texnologiyalar bozorida sanoat mulki obyektiga nisbatan patentlar haqidagi maʼlumotlarning shaffof emasligi salbiy oqibatlar bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Shu bois patent egalari haqida maʼlumotlar ochiqligini taʼminlash maqsadida patent idoralari kelgusida patent haqida aniq, oʻz vaqtida beriladigan axborotlar ochiqligini kafolatlashi zarur.

Arina Gorbatyuk va Adrian Kovach patentlar haqidagi ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash yuzasidan keskin choralar ko'rili-shini taklif qiladilar. Xususan, birinchidan, patentga talabnoma beruvchilar va huquq egalari shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish talabi mutlaq huquq egalari va ularning asosiy yuridik shaxslarining nom-lari, ro'yxatdan o'tgan manzillari va aloqa ma'lumotlari bilan cheklanishi, ikkinchidan, patentning amal qilish muddati davomida o'zgarishlar qachon sodir bo'lishidan qat'i nazar ular paydo bo'lgandan keyin oqilona vaqt oralig'ida huquqning o'zgarishini qayd etish, uchinchidan, huquq egalari haqidagi axborotni oshkor qilmaslik talabiga rioya qil-maslik patentni bekor qilishga olib keluvchi jazo chorasi qo'llanishiga sabab bo'lishi va nihoyat, huquq egasi haqidagi ma'lumotlarni yuborish va olish uchun onlayn, kirish oson va bepul platformani taqdim etish orqali po-tensial yuk va xarajatlarni minimallashtirish taklif qilinadi [28, 539–540-b.].

Fikrimizcha, texnologiyalarning rivojla-nishi va tarqalishidan barcha birdek man-faatdor bo'lishini ta'minlash uchun avva-lo huquq egalari va iste'molchilarning manfaatdorligi ta'minlanishi, huquq jazolov-chi funksiyasidan ko'ra rag'batlantirish vazi-fasini bajarishiga e'tibor qaratish zarur. Zero, xususiy-huquqiy munosabatlar ishtirokchi-larining tengligi, huquqlarni amalga oshirish boshqa shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi, munosabat ishtirokchilarining halol, oqilona va adolat bilan harakat qilishi nazarda tutiladi.

Hozirgi vaqtda intellektual mulk huquqi sohasidagi mavjud muammolardan biri intel-lektual mulkning mavjud tizimiga asoslanuv-chi transparentlik prinsipi bilan bevosita bog'liq. Haqiqatan ham garchi har doim ham huquqiy muhofaza hujjati talab qilinmasa-da (masalan, mualliflik huquqiy himoya obyektiga), har qanday subyekt istalgan intellek-tual mulk obyektiga nisbatan huquqiy muho-

faza hujjatini olishi mumkin. Bunda sanoat mulki obyektiga nisbatan huquqiy muhofaza hujjatini olishning muayyan shartlari mav-jud. Avvalo talabgor yangi texnologiya, yangi buyum yoki yangi xizmatga nisbatan axborot-ni oshkor qilishi zarur. Ya'ni boshqa shaxslar texnologiya, buyum yoki xizmatning kimga tegishliligi hamda u bilan bog'liq huquqlar haqida ma'lumot olishiga imkon beradi. Bun-day yondashuv o'ziga xos o'rin tutadi. Chunki asosiy maqsad mavjud huquqlarni samarali ayirboshlash va ulardan texnologiyani rivoj-lantirish va qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik-ni rivojlantirish hamda ijtimoiy taraqqiyot maqsadida faol foydalanishga imkon berishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, intellektual mulk tizimining mu-him jihati transparentlikdir. Bir qator yangi texnologiyalar, kripto-aktiv, kriptovalyuta, elektron to'lovlar, "blokcheyn" kabi yangi tex-nologiyalarning vujudga kelishi tegishli yo-zuvlarni, ma'lumotlarni saqlay oladigan mu-kammal tizim mavjud bo'lishini taqozo etadi. Bu esa davlat hamda xususiy soha chegarasi-ni butunlay yo'q qilib yuborishi mumkin.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, sanoat mulki huquqi obyektlari doirasi doimiy ra-vishda kengayib bormoqda. Har bir obyekt-ning xususiyati, tavsifi, texnik xususiyatlari, qo'llanish sohasi va boshqa mezonlar ishlab chiqilishi, xavfsizlikni huquqiy ta'minlash asosiy e'tiborda bo'lmog'i zarur.

Sanoat mulki obyektlarini huquqiy muho-faza qilishning doktrinal asoslari hamda huquqiy tartibga solish manbalarining o'zaro nisbatini aniqlash, bu borada huquqiy man-balarning doktrinal aniqlangan prinsiplar, qoidalar, tushunchalarga zid kelmasligiga doir tizim mavjud bo'lishi zarur. Aks holda huquqiy tartibga solish manbayida muayyan maqsadlar ko'zlansa-da, pirovardida, prinsi-pal qoidalarga zid kelgani sababli ushbu nati-jaga erishib bo'lmasligi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida sanoat mul-ki huquqi obyektlarini huquqiy tartibga

soluvchi qonunchilikni zamonaviy talablarga mos ravishda doimo takomillashtirib borish, qonun hujjatlari nisbatini aniq belgilash

muhim ahamiyatga ega. Qonunlardagi normalarni qaytarish, turli ma'nolarda ifodalashdan butunlay voz kechish lozim.

REFERENCES

1. Battakhov P.P. Ponyatiye i znachenkiye prava promyshlennoy sobstvennosti: zakon i doktrina [The concept and meaning of industrial property law: law and doctrine]. *Severo-kavkazskiy yuridicheskiy vestnik – North Caucasian Legal Bulletin*, 2013, pp. 53–56.
2. Suleymanov B.B. Metodologicheskiye aspekty pravovoy doktriny. Doktrina prava [Methodological aspects of legal doctrine. Doctrine of law]. Tambov, 2009, p. 23.
3. Matveev A.G., Sinelnikova V.N. Ob'ekty intellektual'noy sobstvennosti, poluchayushiye okhranu v XXI veke [Intellectual Property Objects to be Protected in the 21st Century]. *Vestnik permskogo universiteta – Bulletin of the Perm University*, 2019, pp. 294–295.
4. Otero L.J.M., Fernández-Nóvoa C., Botana Agra J.M. Manual de la Propiedad Industrial. 3rd ed. Madrid, Marcial Pons, 2017, p. 781.
5. Seuba H. The global regime for the enforcement of intellectual property rights. DOI: 10.1017/9781108231510/. Available at: <https://www.cambridge.org/core/terms/>.
6. George A. Constructing intellectual property. DOI: 10.1017/CBO9781139035361/. Available at: <https://www.cambridge.org/core/terms/>.
7. Global Innovation Index 2022: Switzerland, the U.S., and Sweden lead the Global Innovation Ranking; China Approaches Top 10; India and Türkiye Ramping Up Fast; Impact-Driven Innovation Needed in Turbulent Times. Available at: <https://www.wipo.int/portal/en/index.html/>.
8. Frensis Garri o budushhem intellektualnoy sobstvennosti: vozmozhnosti i problemy [Francis Gurry on the Future of Intellectual Property: Opportunities and Challenges]. Technology Trends WIPO Report 2019 Abstract Artificial Intelligence. 2019, September. Available at: https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/ru/wipo_pub_1055_exec_summary.pdf/.
9. Ting-Wei Ch., Xiaoping W. Innovation and patenting activities of Covid-19 vaccines in wto members: analytical review of medicines patent pool (mpp) Covid-19 vaccines patent landscape (vaxpal). *Staff Working Paper*, ERSD-2022-01, 2022, February 10, p. 41.
10. Patentability of inventions created by AI – the DABUS claims from an Indian perspective. *Journal of Intellectual Property Law & Practice*, 2020. DOI: 10.1093/jiplp/jpaa146/.
11. Russell L. Parr. Intellectual property valuation, exploitation, and infringement damages. John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey, 2018, p. 651.
12. Oqyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomi [Legal status of intellectual property]. Tashkent, TSUL, 2000.
13. Konseptual'no-teoreticheskiye osnovy sovremennogo grazhdanskogo kodeksa Respubliki Uzbekistan [Conceptual and theoretical foundations of the modern civil code of the Republic of Uzbekistan]. Civil legislation of the Republic of Kazakhstan and other post-Soviet countries: past, present, future. Proceedings of the International scientific and practical conference. Almaty, Research Institute of Private Law of the Caspian University, 2017, pp. 66–76.

14. Xodjayev B. Et al. Intellektual faoliyat natijalarini tijoratlashtirish va baholash [Commercialization and evaluation of the results of intellectual activity]. Tashkent, 2021, pp. 20–21.
15. Mekhmonov K. Issues of legal regulation of relations related to information and communication technologies. *Review of law sciences*, 2020, p. 17.
16. Madrid (Marks) Notification, no. 169. Available at: <https://wipolex.wipo.int/ru/treaties/parties/remarks/UZ/2/>.
17. INDUSTRIAL PROPERTY PROTECTION Ministry of Justice. Intellectual property e-state services portal. Available at: <http://my.ima.uz/>.
18. U.S. Copyright Office. Available at: <https://www.copyright.gov/title17/title17.pdf/>.
19. Kravchenko A.A. Pravovoy rezhim internet-sayta kak kompleksnogo ob`yekta prava intellektual'noy sobstvennosti [Legal regime of the Internet site as a complex object of intellectual property rights]. PhD thesis. Moscow, 2015, p. 214.
20. Court of Cassation, Civil Chamber 1, 2006, June 13, 02-44.718. Available at: <https://www.legifrance.gouv.fr/affichJuriJudi.do?oldAction=rechJuriJudi&idTexte=JURITEXT000007056062&fastReqId=257361910&fastPos=1/>.
21. Kecofa/Lancôme. HR, 2006, June 16, LJN AU8940. Available at: <https://uitspraken.rechtspraak.nl/inziendocument?id=ECLI:NL:HR:2006:AU8940/>.
22. Court of Cassation, civil, Commercial Chamber, December 10, 2013, 11-19.872. Available at: <https://www.legifrance.gouv.fr/affichJuriJudi.do?oldAction=rechJuriJudi&idTexte=JURITEXT000028329512&fastReqId=1235557305&fastPos=1/>.
23. Biryukova I.V. Problemy pravovogo regulirovaniya biopatenta i yego sovershenstvovaniye [Problems of legal regulation of biopatent and its improvement]. PhD thesis. Tashkent, 2006, p. 175.
24. Matuzov N.I., Malko A.V. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of Government and Rights]. Moscow, 2005, 541 p.
25. Universal Declaration on the Human Genome and Human Rights. Available at: <http://www.unesco.ru/ru/?module=news&action=theme&id=116/>.
26. International Declaration on Human Genetic Data. Available at: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/genome_dec.shtml/.
27. Universal Declaration on Bioethics and Human Rights. Available at: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/bioethics_and_hr.shtml/.
28. Global IP Performance: Patent, Trademark and Design Applications Hit Record Levels in 2018. Available at: https://www.wipo.int/pressroom/ru/articles/2019/article_0012.html/.
29. Report on the state of intellectual property in the world. Revolutionary innovation and economic growth. Available at: https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/ru/wipo_pub_944_2015.pdf/.
30. Gorbatyuk A., Kovacs A. Patent notice (failure) in the era of patent monetization. 2022, pp. 506-542. DOI: 10.1007/s40319-022-01172-z/.

UDC: 347.2(045)(575.1)

FRANSIYADA MULK HUQUQI HAMDA BOSHQA ASHYOVIIY HUQUQLAR

Koryogdiyev Bobur Umidjon o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0000-0001-6953-4076
e-mail: boburkoryogdiyev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tadqiqotda amaldagi Fransiya fuqarolik kodeksi bo'yicha Fransiya fuqarolik huquqi ko'rib chiqiladi. Maqolada feodal taqiq va cheklovlardan xoli yangi burjua huquqini shakllantirish uchun ashyoviy huquqlar, xususan, mulk huquqi va uni himoya qilish usullari, shuningdek, Rim huquqining ta'siri, inqilobiy qonunchiligi va kanon huquqini tartibga soluvchi normalar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, Fransiya fuqarolik huquqining o'ziga xosliklari, jumladan, xususiy huquqning institutsiyaviy xarakterda ekanligi va huquqdagi dualizm haqida tahlil olib borilgan. O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi Fransiya Respublikasining huquq tizimi bilan bir xil huquq oilasi nuqtayi nazaridan o'xshash bo'lsa ham, huquqning har bir mamlakat ijtimoiy hayoti va milliy qadriyatlariga moslashishini hisobga olib, ashyoviy huquqqa oid ayrim farqlar ham tahlil qilindi. Xususan, mamlakatimiz fuqarolik qonunchiligida mavjud bo'lgan egalik qilish huquqi konsepsiyasi Fransiya Respublikasidan farq qilib, jimsiz ashyolar ham mulk deb e'tirof etilgani uchun bunday huquq mavjud emas, degan nazariya ham mavjud. Qolaversa, Fransiya Respublikasida qonuniy mulkka ega bo'lish asoslari orasidagi egalik muddati, mulk huquqini qo'lga kiritish nisbatan mulkdor manfaatlarini ko'proq himoya qilgan holda, ko'chmas mulkka nisbatan 30 yilni tashkil etib, agar faktik egallovchi insofli (good faith) harakat qilsa, bu muddatni qisqartiruvchi omil ekanligi ham o'ziga xosliklaridan biri ekanligi o'rganib chiqildi.

Kalit so'zlar: corpus iuris civilis, ashyoviy huquq (iura in rem), shaxsiy huquq (iura ed rem), vindikatsion da'vo, negator da'vo, "numerus clauses" tamoyili.

ПРАВО СОБСТВЕННОСТИ И ДРУГИЕ ВЕЩНЫЕ ПРАВА ВО ФРАНЦИИ

Корёгдиев Бобур Умиджонович,
преподаватель кафедры «Гражданское право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данном научном исследовании рассматривается гражданское право Франции согласно действующему гражданскому кодексу Франции. В статье анализируются виды вещного права, в частности право собственности и способы его защиты, а также влияние римского права, революционного законодательства и норм, регулирующих каноническое право, на формирование нового буржуазного права, свободного от феодальных запретов и ограничений. Также были проанализированы особенности французского гражданского права, в том числе институциональный характер частного права и дуализм в праве. Хотя правовая система Республики Узбекистан схожа с правовой системой Французской Республики с точки зрения правовой семьи, были также проанализированы некоторые различия, связанные с вещными правами, с учетом адаптации закона к общественной жизни и национальным ценностям

каждой страны. В частности, понятие права собственности, существующее в гражданском законодательстве нашей страны, отличается от понятия Французской Республики, а также существует теория о том, что такого права не существует, поскольку имуществом признаются даже нематериальные вещи. Кроме того, во Франции право собственности на недвижимое имущество приобретается вместе со сроком владения в 30 лет, предусмотрена надежная защита интересов фактического собственника, если он является добросовестным. Были изучены факторы, укорачивающие данный период.

Ключевые слова: *corpus iuris civilis*, вещное право (*iura in rem*), личное право (*iura ed rem*), виндикационное требование, иск негатора, принцип *numerus clauses*.

OWNERSHIP AND OTHER PROPERTY RIGHTS IN FRANCE

Koryogdiev Bobur Umidjon ugli,

Lecturer of the Civil Law Department of
Tashkent State University of Law

Abstract. *In this scientific study, the civil law of France has been investigated according to the current French civil code. The article analyzes material rights, in particular, property rights and methods of their protection, as well as the influence of Roman law, revolutionary legislation, and norms regulating canon law, for the formation of a new bourgeois law free from feudal prohibitions and restrictions. Also, the peculiarities of French civil law, including the institutional nature of private law and dualism in law, have been analyzed. Although the legal system of the Republic of Uzbekistan is similar to the legal system of the French Republic from the point of view of the same legal family, some differences related to material law have also been analyzed, taking into account the adaptation of the law to the social life and national values of each country. In particular, the concept of the right of ownership existing in the civil legislation of our country is different in the Republic of France, and there is also a theory that such a right does not exist because even intangible things are recognized as property. In addition, it has been studied that in the Republic of France, the acquisition of property rights using the period of ownership is 30 years in relation to immovable property, with greater protection of the owner's interests, if the factual owner is honest (good faith) and it is a factor that shortens the period.*

Keywords: *corpus iuris civilis*, material right (*iura in rem*), personal right (*iura ed rem*), vindication claim, negator claim, principle of “*numerus clauses*”.

Kirish

Odat huquqi hamda Rim huquqini tanlash kerak bo'lgan davrda Fransiyaning butun aholisi uchun Fuqarolik kodeksi ustida ish olib borildi. 1793-yilda Fransiya Revolyutsiyasi davrining mashhur zodagon, huquqshunos hamda o'sha vaqtdagi Parmaning Gersogi Kambaser (*Jean-Jacques-Régis de Cambacérès*) Fransiya uchun Fuqarolik kodeksining birinchi loyihasini taqdim etdi, biroq ushbu loyiha darhol rad etildi. Ikkinchi taklif 1794-yilda berilgan, ammo u ham rad etilgan. Kambaser 1796-yilda Napoleon Bonapart 1799-yilda

hokimiyat tepasiga kelganda ham ko'rib chiqilayotgan yakuniy loyihani ishlab chiqdi [1]. Napoleon qonunchilik jarayonini to'xtatmadi va Fransiya Fuqarolik kodeksi loyihasini taqdim etadigan atigi to'rt kishidan iborat komissiya tuzdi. Bu komissiya tarkibida “*pays de droit coutumier*”dan ikkita vakil – Tronchet va Bigot de Préameneu hamda “*pays de droit écrit*”dan ikkita vakil – Malevil va zamonasining nufuzli huquqshunos hamda siyosatshunosi Portalis ham bor edi.

Inqilob davrida kuchli targ'ib qilingan individuallik, erkinlik, tenglik, ma'rifat haqida-

gi falsafiy g'oyalarga qaramay, yangi Fuqarolik kodeksining mulk huquqi qismi juda an'anaviylik kasb etdi. Komissiya o'z g'oyalarini XVIII asrdagi Potierning mulk huquqiga asosladi. Rim huquqi va fransuz odat huquqi bo'yicha mutaxassis bo'lgan Potier mulkchilik va mulk huquqi haqidagi g'oyalarini, asosan. Rim tizimiga asoslangan holda ishlab chiqdi [2]. Mulk huquqining bu tizimi ashyoviy huquq va shaxsga doir huquqlar (majburiyat huquqi) o'rtasidagi tub farqni o'z ichiga olgan. Potier bu huquqlarni *"iura in rem"* va *"iura ad rem"*larga bo'ldi [3]. *iura in rem* huquq obyektiga taalluqli bo'lgan bo'lsa, *iura ad rem* huquq subyektiga tegishli edi.

Aynan shu ikki xil huquq tushunchalari tizimi Fransiya Fuqarolik Kodeksining asosini tashkil qiladi. Biroq, garchi majburiyat huquqi va ashyoviy huquqlar Fransiya xususiy huquqining alohida sohalari hisoblanadigan, Germaniya Fuqarolik Kodeksi singari ular o'rtasidagi chuqur prinsipial bo'linish belgilanmagan. Fransiya kodeksi Rim huquqidan ilhomlangan holda, huquqlarning ushbu ikki turiga asoslangan bo'lsa-da, ikki turdagi huquqlarni aralashtirib yuborgan nemis odat huquqi shaxslar huquqiga ta'sir ko'rsatgan va shuning uchun majburiyatlar huquqi mulk huquqini bir ma'noda shakllantirgan hamda alohida huquq sohasini tashkil etmasligini ko'rish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mulk huquqini shakllantirish nuqtayi nazaridan, shaxslarning huquqiy munosabatlardagi ishtirokiga mulk huquqiga ega bo'lish yoki bunday huquqlarni yaratish huquqi sifatida qaraladi. Fransuz huquqida shaxsiy huquqlar uchun qo'llaniladigan yana bir atama shuning uchun *droit de créance* hisoblanadi.

Fransiya Fuqarolik Kodeksida fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining avtonomiyasi, mulk huquqiga zid ravishda, majburiyatlar huquqi, xususan, shartnoma huquqining boshlang'ich nuqtasi va asosiy tamoyili sanaladi. Mulk huquqi va majburiyatlar huquqi huquqlarning har xil turlari bilan

bog'liq ekanligidan kelib chiqib, huquq sohalari xususiy huquqning yangi tizimini ifodalash va shartnoma hamda mulk huquqi aralash ifodalangan feodal tuzumga qaytishning oldini olish uchun kodeksning alohida-alohida bo'limlari sifatida ko'rib chiqilgan. Shuning uchun mulk huquqi va majburiyatlar huquqi fransuz huquqida, garchi Germaniya Respublikasi kabi to'liq bo'lmasa ham, ma'lum darajada bir-biridan ajratilgan.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, inqilob ruhini butun Fransiya Fuqarolik Kodeksida ko'rish ashyoviy huquqlarning yana bir o'zi xosligi bo'ldi. Majburiyatlar huquqida, garchi mulk huquqiga xizmat qilish uchun yaratilgan bo'lsa-da, qonun bilan bo'ladigan cheklolarnigina istisno etganda, boshlang'ich nuqta shartnoma erkinligi bo'ldi. Fuqarolik kodeksining 6-moddasi bu borada shunday qoidani legallashtiradi: *"Jamoat tartibi yoki axloqiy me'yorlarga ega bo'lgan qonunlar va nizomlar xususiy shaxslar o'rtasidagi kelishuvga ko'ra buzilishiga yo'l qo'yilmaydi"* [4].

Majburiyat, xususan, shartnoma huquqidan farqli o'laroq, ashyoviy huquqda boshlang'ich nuqta taraflarning erkinligi emas, balki mulk huquqini yaratishda tomonlar erkinligi cheklanishi hisoblanadi. Shuning uchun mulk huquqi tushunchalari Fuqarolik Kodeksi bilan belgilanadi va faqat qonun chiqaruvchi nazarda tutgan hollardagina fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining mustaqilligini ta'minlaydi.

Ashyoviy huquqlar deganda, Fransiya qonunchiligi mulkchilikning unitar tushunchasi, ya'ni to'liq ashyoviy huquq, shuningdek, mulk huquqidan tashqari bir qancha boshqa ashyoviy huquqlarni nazarda tutadi. Ko'rinib turibdiki, bunday bo'linish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksidagi ashyoviy huquqlar institutining mulk huquqi va o'zgalarning mulkiga bo'lgan cheklangan ashyoviy huquqlarga bo'linishi bilan bir xillik kasb etgan.

Fransiya Respublikasining Fuqarolik kodeksiga 1804-yil ilk bor ommaga tanish-

tirilganidan beri bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar qonunlar hamda sud amaliyoti orqali kiritildi. Xususan, mulk huquqi qoidalari 2006-yil 23-martgacha katta o'zgartirishlarga uchramadi [5]. 2006-yilda hukumat Professor Grimaldiga o'xshagan yetuk nazariy olim va huquqshunoslari mavjud komissiya orqali mulkiy huquqlarni himoya qilish haqida qonun loyihasi ishlab chiqdi. Ushbu qonun loyihasigacha bunday huquqlarni himoya qilish usullari va ular bilan bog'liq da'volarni bir nechta qonun hujjatlari, jumladan, Fuqarolik kodeksi, Savdo kodeksi hamda sud amaliyoti qoidalarida tarqoq holda uchratish mumkin edi. Loyiha esa qoidalarni yagona qonunga jamladi. Bundan tashqari, 2006-2007-yillar davomida qonun chiqaruvchi mulk huquqiga ega bo'lish tartib-qoidalariga o'zgartirish kiritish orqali ashyoviy huquqlar bilan bog'liq fuqarolik qonunchiligi normalarini isloh qildi [6]. Xususan, Fransiyada "*fiducie – ishonchga asoslangan*" [7] nomi bilan ma'lum bo'lgan hamda mulkiy huquqlarga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ishonchli boshqaruv instituti qayta ko'rib chiqildi. Garchi mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomalarning bir turi hisoblansa-da, mulk huquqiga aloqador jihatlari yetarlicha ekanligi uchun bunday o'zgartirishning mulk huquqi islohotlarida ta'kidlanishi ajablanarli emas. Jumladan, mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi orqali mulkdorning tipik huquqlari bo'lgan egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish hamda mulk huquqini himoya qilish bilan bog'liq huquqlarini ancha cheklaydi. Qolaversa, Fransiyada ushbu institut ancha yillar oldin to'xtatilgan bo'lib, uning qayta joriy qilinishi haqiqiy reforma hisoblanar edi.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida asosiy masalalar qatorida Fransiyada mulk huquqiga oid qonunchilikning inqilob davridan bugungi kungacha kiritilgan o'zgarishlar asosidagi tahlil, fransuz xususiy huquqining o'ziga xosligi va

mulk huquqini himoya qilish tartibi muhokama qilingan.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, statistik, sotsiologik, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.


Tadqiqot natijalari tahlili

Bugungi kunga kelib, nafaqat roman-german huquq tizimining bir tarmog'i sifatida, roman huquqining davomchisi o'laroq, balki mamlakatlar fuqarolik qonunchiligini kodifikatsiyalashda asosiy o'rin egallovchi, 1804-yilda institutsiyaviy xarakter (Yustinian kodifikatsiyasining bir qismi bo'lgan rim huquqi bo'yicha oddiy darslikning institutsiyalarini kodeksni tartiblashda o'zlashtirgan) kasb etgan holda yaratilgan Napoleon kodeksi bilan o'zining xususiy huquq tizimini yaratgan Fransiya Respublikasi fuqaroviy-huquqiy normalarni Fuqarolik kodeksida quyidagicha guruhlashtiradi: 1-kitob "Shaxslar" deb nomlanadi (huquq subyektlari). Ushbu qismning o'ziga xosligi fransuz fuqaroligini olish asoslari va tartibi, qolaversa, oila huquqi normalari aynan 1-kitobning bo'limlari hamda boblaridan o'rin egallaydi; 2-kitob ashyolar (huquq obyektlari) va ashyoviy huquqlarga bag'ishlangan. E'tiborli jihati ushbu kitobda faqat ashyoviy huquq umumiy tushunchasi, turlari hamda mulklarning turlari o'rin olgan; 3-kitob mulk huquqining qo'lga kiritilish usullarini legallashtiradi (bu o'z ichiga mulk huquqining asoslari bo'lgan bitimlar, shartnomalar, vorislik huquqi kabilarni ham o'z ichiga oladi); 4-kitob huquqni himoya qilishga bag'ishlanadi (o'ziga xosligi mulk huquqi, ashyoviy huquq, shuningdek, shaxslarga oid huquqlarning ham himoyasi ushbu kitobdan o'rin olgan); 5-kitob Fransiyaning dengiz orti provinsiyasi hisoblangan Mayotte departamenti uchun alohida qoidalarga bag'ishlanadi (Mozambik kanalida joylashgan Fransiya departamenti, rasmiy tili fransuz). Fuqarolik qonunchiligining bunday guruhlanishi Fran-

siya huquq tizimining institutsionallik xususiyatini aks ettiradi.

Fransiya fuqarolik huquqi dualizm xususiyati bilan ham o'ziga xosdir. Fuqarolik muomalasi ishtirokchilari bo'lgan jismoniy hamda yuridik shaxslar ikkita kodeksda alohida qoidalar bilan tartibga solingan. Jismoniy shaxslar haqidagi qoidalar Fuqarolik kodeksida berilgan bo'lsa, yuridik shaxslar haqidagi normalar Savdo kodeksi hamda Kompaniya

qonunida rasmiylashtirilgan. Normalarning bunday bo'linishi moddiy huquqdagi dualizmlilik sifatida baholanadigan bo'lsa, Fransiya protsessual huquqida ham dualizmlilik xususiyati mavjuddir. Bu Fransiya sud tizimining bo'linishida o'z aksini topgan. Jumladan, Fransiya Respublikasi sud tizimi ikki – “*Ordre Judiciaire*” hamda “*Ordre Administratif*” [8] larga bo'linib, nizolarni hal qiladi. Ushbu bo'linishni quyidagi sxemadan tushunib olish mumkin.



Sxema. Fransiya sud tizimining bo'linishi*

* Sxema muallif tomonidan Fransiya Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan tuzilgan.

Fuqarolik huquqining bunday o'ziga xosligi mulk huquqi institutiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmagan. Garchi Fransiyada mulk huquqi xususiy huquq predmeti hisoblan-sa-da, o'z navbatida, shaxslarning mulkka ega bo'lishi ularning fundamental konstitutsiyaviy huquqi ham sanaladi. Mulkiy huquqlarni faqatgina Fuqarolik kodeksida emas, shuningdek, 1789-yildagi “Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi” hamda Fransiya Respublikasi Konstitutsiyasida ham uchratish mumkin.

1789-yilgi Deklaratsiyaning 17-moddasi-ga ko'ra, mulk huquqi daxlsiz va muqaddas huquq bo'lganligi sababli hech kim undan mahrum bo'lishi mumkin emas, qonunda belgilangan jamoat maqsadlari uchun zarur bo'lgan hollar bundan mustasno. Bunda ham faqat mulkdorga zararni adolatli ravishda qoplash sharti bilan ularning mulk huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

Qolaversa, Fransiya Konstitutsiyasida har kimning mulkdor bo'lish huquqi ta'kidlanadi. Mulkchilikning konstitutsiyaviy konsepsiyasi

juda muhim bo'lsa-da, mulkka oid qoidalar-ning aksariyati Fuqarolik kodeksida ko'rib chiqiladi. Mulk huquqi, birinchi navbatda, xususiy huquq va faqat unga nisbatan ushbu huquqni davlat aralashuvidan himoya qilish konstitutsiyaviy tushunchadir.

Fransiya Fuqarolik kodeksining "Mulk huquqi to'g'risidagi umumiy qoidalar" deb nomlanuvchi 2-kitobning II bo'limi 544-moddasiga muvofiq, mulk huquqi quyidagicha belgilangan:

Mulkchilik – bu ashyodan, qonun hujjatlarida to'g'ridan to'g'ri cheklangan holatni istisno qilgan holda, mutlaq tarzda foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir.

Demak, fransiya qonunchiligi nazdida ham mulk huquqi quyidagi klassik elementlardan iborat: 1) foydalanish huquqi (*usus*); 2) tasarruf etish huquqi (*abusus*); 3) faktik egalik qilish (*fructus*) – ashyoni amalda ushlab turishga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish huquqlari. Ushbu huquqlar nafaqat mulk huquqiga yakdil ta'rif berish, qolaversa, mulk huquqini boshqa ashyoviy huquqlardan ajratish uchun ham xizmat qildi. Masalan, Fransiya Fuqarolik kodeksida uchraydigan, Rim huquqida shaxsiy servitutlardan biri hisoblangan *usufrukt* faktik egallovchida mulkni tasarruf etish huquqi mavjud bo'lmagani sababli mulk huquqiga emas, o'zgalarining mulkidan cheklangan tarzda foydalanish huquqiga egaligi asoslantiriladi [9].

Mulk huquqi xususida tahlil olib borilganda, shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, Fransuz sivilist olimlarining mulk huquqiga xususiy huquq jihatdan yondashuvlari uch xil xarakter kasb etadi. Ularning fikricha, Fransiya mulk huquqining o'ziga xos uch xil xususiyati mavjud.

Birinchidan, mulk huquqi *mutlaqdir*. Mulk huquqidan ushbu xususiyatni ajratib olishdan maqsad fransuz sivilistlarining fikricha, birinchi navbatda, feodal tuzumning tarqoq va nisbiy, mutlaq bo'lmagan mulk tushunchasini rad etish sifatida qaralishi kerak [10]. Mulk huquqidagi mutlaqlik mohiya-

ting yana bir izohi loyiha mualliflarining mulk huquqini ular tan olgan boshqa mulkiy huquqlardan farqlash niyatida ekanligida ko'rish mumkin [11]. Fransiya Fuqarolik Kodeksi tizimida mulk huquqidan boshqa huquqlarni yaratish usuli mulk huquqidan foydalanish orqali vujudga keladi. Bu huquqlar mulk huquqidan ko'ra, mazmunan cheklanganligi sababli mulk huquqi ushbu ma'noda mutlaqlik kasb etadi.

Feodal tizimdagi nisbiy mulkchilikni rad etish va mulk huquqining boshqa ashyoviy huquqlardan farqlanishi bilan birga huquqning mutlaqligini mulkdorning cheksiz, kamida prinsipial jihatdan cheklanmagan vakolatlarida ham ko'rish mumkin. Biroq Fransiya fuqarolik kodeksi 544-moddasining oxirgi qismi mulkdor vakolatlarini cheklashga imkon beradi. Bu Fuqarolik Kodeksini ishlab chiquvchilar, garchi mulkdorning cheksiz vakolatlari haqidagi tabiiy huquq ta'limoti ta'sirida bo'lsa-da, XIX-XX asrlarda sud amaliyoti bilan o'rnatilgan cheklovlarni o'z ichiga oladi.

XIX asrning boshlarida qisman tabiiy huquq nazariyalari ta'sirida huquqning "liberal" qarashi shaxsni o'ta muhim deb hisoblagan. Mulk huquqiga nisbatan bu shaxsiy mulkka bo'lgan cheklovlarni rad etishga olib keldi. Bular shaxs erkinligining ana shu asosiy prinsipining buzilishi sifatida baholandi [12]. Biroq XIX asrning ikkinchi yarmida Fransiya qonun chiqaruvchi organi, shuningdek, sudlar ham mulkdorning vakolatlariga umumiy cheklashlar kirita boshladilar.

Bunga erishish uchun sudlar fransuz tilida *abus de droit* deb nomlanuvchi "huquqlarni suiiste'mol qilish" doktrinasidan foydalan-ganlar [13]. Huquqlarni suiiste'mol qilish sud amaliyotida qo'shnilar o'rtasidagi mulk huquqi sohasida dolzarbdir. Mulkdor o'z huquqidan foydalanish natijasida boshqaning huquq hamda manfaatlarini buzadigan bo'lsa, mulk huquqi daxlsizligi ushbu chegarada to'xtaydi. Bundan tashqari, mulk huquqining cheklanishiga mulkdorning o'ziga qarashli mutlaq ashyoviy huquqlarining ba'zi ele-

mentlarini shartnoma orqali yoki shartnoma-dan tashqari o'tkazish bilan cheklanishi ham mumkin.

Mulk huquqining ikkinchi xarakteri *eks-klyuzivlikdir*. Mulk huquqining maxsuslik xususiyati ashyoga faqatgina uning mulkdori egalik qilishi, foydalanishi hamda tasarruf qilishi mumkinligini anglatadi. Bundan tashqari, mulkdorda boshqalarni uning ashyosidan foydalanish, egalik qilish yoki tasarruf qilishdan tiyib turish huquqi, ya'ni "*ius erga omnes*" huquqi mavjud. Mulkdorning eksklyuziv mulk huquqlari vaqtinchalik boshqa shaxsga o'tkazilganda, nisbatan o'z xususiyatini yo'qotadi.

Uchinchi xususiyat mulk huquqining *muddatsiz amal qilishidir*. Mulk huquqi u yaratilgan obyekt mavjud bo'lgunga qadar davom etishi ko'zda tutilgan [14]. Mulk huquqi unitar va mutlaq bo'lganligi sababli mulkchilik huquqining vaqtinchalik turi ushbu tamoyillarning buzilishiga olib keladi. Bundan tashqari, mulkdor o'z huquqidan foydalanmasa ham mulk huquqi mavjud bo'lib qoladi. Ushbu tamoyil nafaqat yuqorida qayd etilgan Inson va Fuqaro huquqlari deklaratsiyasining 2-moddasi, shu bilan birga, Fransiya Kassatsiya sudining sud amaliyotidan ham kelib chiqadi.

Fransuz huquqida Fuqarolik kodeksi barcha da'volar, jumladan, mulk huquqini himoya qiluvchi vindikatsion da'volar ham o'ttiz yildan so'ng o'z kuchini yo'qotadi, deb belgilab qo'yilgan edi. Biroq 1905-yilda kassatsiya sudining qaroriga ko'ra, mulk huquqini himoya qilish to'g'risidagi da'vo muddat bilan cheklanishi mumkin emas. Sababi muddat bilan cheklanishi mulk huquqining yuqorida ta'kidlangan o'ziga xos tamoyillari, xususan, mulk huquqining muddatsiz amal qilish tamoyiliga zid ekanligini asos qilib keltirishadi.

Bundan tashqari, milliy olimlarimiz, xususan, huquqshunos, professor N.Imomovning Fransiyada mulk huquqi tamoyillarini o'rganishda aniqlagan yana bir tamoyillaridan biri "bir ashyoga nisbatan ikkita to'liq mulk huquqi

bo'lishi mumkin emas" degan Rim huquqining asosiy tamoyilidan kelib chiqadi. Mulk huquqi yagona va bo'linmasdir. Bo'lingan yoki ikkilangan mulk bo'lishi mumkin emas. Mulk huquqining ushbu doirasiga sig'maydigan hayotiy vaziyatlarining xususiyatlari yo o'zgar mulkiga bo'lgan huquqlar yoxud u yoki bu obyektga nisbatan u yoki bu subyektning mulk huquqining o'ziga xosliklarini belgilab qo'yishda ifodalanishi mumkin [15].

Roman-german huquq tizimi mamlakatlari qonunchiligida mulk huquqining tamoyillariga to'xtalib, I.B. Zokirov quyidagi tahlilni bayon etadi: "Qit'a huquq tizimi amal qilayotgan tamoyillardan yana biri – bu mulk huquqining eng to'laqonli tamoyilidir. Yevropa davlatlari qonunchiligida mulk huquqining tarkibiy qismlari (mulkdor – egallash, tasarruf etish, foydalanish va himoya qilish huquqlari) turlicha ifodalanadi, ba'zan esa hatto g'aroyib vakolat ham (masalan, mol-mulkni yo'q qilib tashlash huquqi) belgilab qo'yilgan. Biroq ayni vaqtda ushbu vakolatlar "eng mutlaq tarzda", "mulkdorning xohishiga ko'ra", "mustaqil tarzda" amalga oshirilishi belgilangan. Xuddi shu bilan mulk huquqini boshqa ashyoviy yoxud majburiyat huquqi bilan taqqoslaganda, mazmunan doim keng va mustaqil ekanligi ta'kidlanadi [16].

Mulk huquqi tituli. Mulk huquqi titulini qo'lga kiritishda, birinchi navbatda, sudning vakolatlari hamda vazifalarini ta'kidlash kerak. Agar sudya nizoli mol-mulk muqarrar ravishda unga egalik huquqini da'vo qilayotgan ikki shaxsdan biriga tegishli deb hisoblab, taraflar hukmning ustunligini isbotlay olmaganliklarini bahona qilib, ularning arizalarini qanoatlantirishdan bosh tortsa, odil sudlovni rad etish hisoblanadi [17].

Sudya, shuningdek, ikki tarafdan qaysi biri mulk egasi ekanligini aniqlashning iloji yo'qligini aniqlaganda, har ikkala tomon ham mulkka teng ulushda mulkdor ekanligi to'g'risida qaror qabul qila olmaydi. Bundan tashqari, mulkka bo'lgan titolni belgilashda mulk huquqi prezumpsiyasi ham inobatga

olinadi. Aynan mulk huquqini tan olishni talab qiluvchi shaxs sudlanuvchining ixtiyorida bo'lgan yerga o'zining egalik huquqini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etishi kerak.

Tasdiq erkinligi – ko'chmas mulkka egalik huquqini isbotlash usullari bepul bo'lganligi sababli huquqni tasdiqlovchi hujjatning mavjudligi sertifikatlar yoki to'lov hujjatlari taqdim etilishi bilan tasdiqlanishi mumkin. Ko'char mulk aylanmasi sohasida sud ruxsat etilgan dalillar doirasini oldindan cheklay olmaydi [18].

Agar taraflar mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim eta olmasalar, ishni mohiyatan ko'rayotgan sud ishning faktlari va holatlarida mulkchilik izlari hamda hal qiluv qarorining boshqa joyda topib bo'lmaydigan elementlarini izlashi shart. U, xususan, kadastr ma'lumotlari, soliqni to'lash, guvohlarning so'zlari, hudud topografiyasi va ekspert xulosasi asosida oqlovchi da'voni qabul qilishi mumkin.

Fransiyada mulk huquqini himoya qilish. Mulk huquqini himoya qilishda uning konstitutsiyaviy qiymati birlamchi ahamiyat kasb etadi. Mulk huquqi konstitutsiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy huquq hisoblanadi. Inson huquqlari deklaratsiyasida nazarda tutilgan prinsiplarning o'zi ham mulk huquqlarining asosiy qiymatini ko'rsatish nuqtayi nazaridan konstitutsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, ularning saqlanishi erkinlik, xavfsizlik va majburlashga qarshilik ko'rsatish bilan bir xil darajaga ko'tarilgan siyosiy jamiyatning maqsadlaridan biri, shuningdek, ushbu huquq egalari tomonidan berilgan kafolatlar va davlat hokimiyati imtiyozlari sanaladi.

Qonun chiqaruvchi mulk huquqi chegaralarini o'zi xohlagancha belgilashda erkindir.

Asosiysi, mulk huquqi tushunchasi va uning tarkibiy elementlari qonuniy jihatdan aniqlangan:

- 1) ashyodan to'liq foydalanish huquqi;
- 2) ashyoni mutlaq tasarruf etish huquqi;
- 3) ashyoga faktik egalik qilish huquqi (FFK 544-modda).

Fransiya Fuqarolik kodeksining 544-moddasini qo'llash bo'yicha sud amaliyoti faktik ekspropriatsiyani taqiqlaydi. Mulk huquqini istalmagan tarzda o'tkazish faqat standart ekspropriatsiya tartibida amalga oshirilishiga yo'l qo'yiladi.

Xulosalar

Xulosa qilib aytish mumkinki, Fransiya huquq tizimi mulk huquqini xususiy huquqni institutlarga bo'lgan dominant davrdagi Rim imperiyasidan andoza olib normalagan davlatlardan biri hisoblanadi. Respublikada mulk huquqi qoidalari mulkdor huquqlarini ko'proq himoya ostiga oladi. Buni birgina egalik muddatini qo'llab, mulk huquqiga ega bo'lish davomiyligini amaldagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan solishtirish orqali bilish mumkin. Fransiya Fuqarolik kodeksiga ko'ra, faktik egallovchi mulkka o'ziniki kabi oshkora hamda halol 30 yil davomida egalik qiladigan bo'lsa, mulk huquqi titulini o'sha ashyoga nisbatan qo'lga kiritadi. O'zbekistonda esa ushbu muddat $15+3=18$ yilni tashkil etadi. Bunda 3 yil umumiy da'vo muddati hisoblanadi. Bundan tashqari, Fransiyada mulk huquqini ashyoviy huquq va shaxsga doir huquqlar (majburiyat huquqi) o'rtasidagi tub farqlar bilan bo'lib o'rganish o'rganishning klassik usuli hisoblanadi.

REFERENCES

1. Gordley, 1994, pp. 486–487.
2. Radonjic A. The abuse of ownership: a social justice perspective. *European Property Law Journal*, 2021, vol. 10, no. 2-3, pp. 263–276. DOI: 10.1515/eplj-2021-0013 SMASH/.

3. Zimmermann R. Roman Law, Contemporary Law, European Law. The Civilian Tradition Today, Oxford, Oxford University Press, 2001.
4. Decree of 11 August 1789 Abolishing the Feudal System, Arts. III, IV, V, IX and XI, Lévy & Castaldo, 2002, p. 433.
5. Akkermans B. The principle of *numerus clausus* in European property law. Maastricht University, 2008. DOI: 10.26481/dis.20081017ba/.
6. Tomsinov V.A. Stat'i o prave sobstvennosti v grazhdanskikh kodeksakh Frantsii i Germanii [Articles on the right of ownership in the civil codes of France and Germany]. *Bulletin of Moscow University*, 2007, Series Right, no. 11 (2), pp.108–110.
7. Présentation de l'ordre judiciaire [Presentation of the judiciary]. Available at: <http://www.justice.gouv.fr/organisation-de-la-justice-10031/lordre-judiciaire-10033/>.
8. Kakourova N.A. Imushchestvo i vidoizmeneniya sobstvennosti v grazhdanskom prave Frantsii v XIX veke [Property and modifications of property in French civil law in the 19th century]. *Sibirskiy yuridicheskiy vestnik – Siberian Legal Bulletin*, 2010, no. 2, pp. 8–14.
9. Carbonnier 2000, p. 129, critically see Derine, 1955, pp. 42–43.
10. Koryakin V.M. Grazhdanskoye pravo zarubezhnykh stran (kurs lektsiy v skhemakh) [Civil law of foreign countries (a course of lectures in diagrams)]. Moscow, MIIT Law Institute, 2011.
11. Zwölve W.J. Hoofdstukken uit de Geschiedenis van het Europees Privaatrecht [Chapters from the History of European Private Law]. 2nd ed. Deventer, Kluwer, 2003.
12. Zimmermann R. Europeanization of Private Law. Eds. M. Reimann & R. Zimmermann. The Oxford Handbook of Comparative Law, Oxford, Oxford University Press, 2006, pp. 539–578.
13. Imomov N.F., Babajanova D.I. Xorijiy mamlakatlar fuqarolik huquqi: umumiy tavsif (ayrim mamlakatlar misolida) [Citizenship law of foreign countries: general description (on the example of some countries)]. Tashkent, TSUL, 2018, pp. 26–29.
14. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi [Civil rights]. Part I. Tashkent, TSUL, 2009, p. 58.
15. Long M., Weil P., Braibant G. et al. Les grands arrêts de la jurisprudence administrative [The major judgments of administrative case law]. 21st ed. Dalloz, 2017.
16. Seiller B. Droit administratif [Administrative law]. 6th ed. Flammarion, Champs University, 2016, vol. 1-2.
17. Plessis B. Droit administratif général [General administrative law]. Lexisnexis, 2016.
18. Yushkevich V.A. Napoleon Pervyy na poprishhe grazhdanskogo pravovedeniya i zakonodatel'stva [Napoleon the First in the field of civil jurisprudence and legislation]. *Civilistic Studies: Civil Law Yearbook*. Ed. B.L. Haskelberg. D.O. Tuzova. Moscow, 2006, iss. 57.
19. On Portalis see Derine 1955, p. 53 et seq.
20. Lévy & Castaldo, 2002, p. 432.
21. Zweigert & Kötz, 1998, p. 82.
22. Droits personnels and droits réels, Ketelaar, 1978, p. 18,
23. Terré & Simler, 1998, p. 107.

UDC: 347.9(045)(575.1)

ELEKTRON FUQAROLIK ISHI (E-SUD) TIZIMIDA SUD ISHLARINI BOSHQARISH

Pirmatov Otabek Shavkatovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Fuqarolik protsessual va

iqtisodiy protsessual huquqi kafedrası dotsenti,

yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-0774-661

e-mail: pirmatov.otabek.89@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik sud ishlarini yuritishda *Electronic Court Case Management System* tizimini tatbiq etish masalalari yoritilgan bo'lib, uning fuqarolik sudi ishlari tizimida ish hujjatlarini qabul qilish, sud ishlarini taqsimlash, sud ishlarini ko'rishga tayyorlash, sud ishlarini ko'rish, sud qarorlarini qabul qilish, sud hujjatlarini yuborish va arxivlash kabi jarayonlarini qamrab olishiga to'xtalib o'tilgan. *Electronic Court Case Management System* elektron sud ishlarini yuritish, ularni avtomatlashtirish tizimi orqali boshqarish hamda hujjatlar, shu jumladan, sud hujjatlarini elektron tarzda uzatish, qayta ishlash, saqlashga mo'ljallangan tizim ekanligi tavsiflab berilgan. Maqolada *Court Case Management System* sud hujjatlarini ro'yxatga olish, ularni tahrirlash, to'ldirib borish, keraksiz hujjatlarni o'chirish, fuqarolik sudi ishiga doir sud hujjatlarini oson topish, umuman olganda, sud hujjatlarining yig'ma jildini elektron tayyorlashga imkon berishi bayon etilgan. Shuningdek, mazkur maqolada dunyoning rivojlangan mamlakatlari sud tizimida *Court Case Management System* ishlash tartibi hamda afzalliklari ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, odil sudlov, raqamlashtirish, *Electronic Court Case Management System*, interaktiv xizmatlar portali, elektron to'lov.

УПРАВЛЕНИЕ СУДЕБНЫМИ ДЕЛАМИ В СИСТЕМЕ ЭЛЕКТРОННОГО ГРАЖДАНСКОГО ДЕЛА (E-SUD)

Пирматов Отабек Шавкатович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

доцент кафедры «Гражданское процессуальное

и экономическое процессуальное право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы применения *Court Case Management System* при ведении гражданского судопроизводства, речь идет об освещении таких процессов, как прием гражданских судебных документов, распределение судебных дел, подготовка к судебному разбирательству, рассмотрение судебных дел, принятие судебных решений, направление и архивирование судебных документов в системе *Court Case Management System*. *Electronic Court Case Management System* описывается как система для ведения электронных судебных дел, управления ими через систему автоматизации, а также электронной передачи, обработки и хранения документов, включая судебные документы. В статье указывается, что *Electronic Court Case Management System* позволяет регистрировать

судебные документы, редактировать судебные документы, заполнять их сторонами, удалять ненужные документы, легко находить судебные документы по гражданским делам, в целом подготавливать гражданское дело в электронном виде. Также в данной статье рассматривается опыт развитых стран мира по работе Electronic Court Case Management System в судебной системе и его преимущества.

Ключевые слова: искусственный интеллект, правосудие, цифровизация Electronic Court Case Management System, портал интерактивных услуг, электронный платеж.

CASE MANAGEMENT IN THE ELECTRONIC CIVIL CASE SYSTEM (E-COURTS)

Pirmatov Otabek Shavkatovich,

Associate Professor of the Department of
Civil Procedural and Economic Procedural Law,
Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. This article discusses the application of the Court Case Management System in the conduct of civil proceedings, and issues such processes as the reception of civil court documents, the distribution of court cases, the preparation for trial, the consideration of court cases, the adoption of court decisions, the direction and archiving of court documents in the Court Case Management System are also covered. Electronic Court Case Management System is described as a system for conducting electronic court cases, managing them through an automation system, as well as an electronic transmission, processing, and storage of documents, including court documents. In general, the article states that the Electronic Court Case Management System allows you to register court documents, edit court documents, fill them in by the parties, delete unnecessary documents, and easily find court documents in civil cases, in general, electronic preparation of a civil case in an electronic form. This article also describes how the Electronic Court Case Management System works in the judicial system of developed countries of the world and its advantages.

Keywords: artificial intelligence, justice, digitalization, Electronic Court Case Management System, interactive services portal, electronic payment.

Kirish

Yurtimizda fuqarolar huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida aholining o'z qonuniy huquq va manfaatlarini qonuniy yo'llar bilan himoya qilishga odatlangani sari sudlarimizda ko'rib chiqilayotgan ishlar soni izchil ortib, fuqarolik sudi ishlarining turlari va ko'lammi kengayib, murakkablashib bormoqda. Sudyalar soni sezilarli darajada oshirib bo'lmaydigan sharoitda sudyalar faoliyati samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalarini sud jarayonlariga tatbiq etish orqali fuqarolarimizga qulaylik va imkoniyatlar yaratiladi.

Ma'lumki, fuqarolik protsessual huquq nazariyasida ish yuritish bosqichlari to'g'risida o'zbek protsessualist olimlari: Sh. Shoraxmetov, E. Egamberdiyev, M. Mamasiddiqov, Z. Esanova, D. Habibullayevlar o'zlarining ilmiy asarlarida turkumlab o'tishgan. Xususan, D. Habibullayev fuqarolik protsessini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) fuqarolik ishini qo'zg'atish;
- 2) ishni sudda ko'rishga tayyorlash;
- 3) sudda ishni ko'rish;
- 4) sud qarorlarini ustidan shikoyat berish va ularni qayta ko'rish;
- 5) sud qarorlarini ijro etish [1, 15-b.].

Material va metodlar

Anglo-sakson huquq oilasi mamlakatlari-da fuqarolik ish yuritish bosqichlari Court

Case Management nomi ostida turlicha turkumlanadi. Anglo-sakson huquq oilasi mamlakatlari milliy protsessual qonunchiligidan kelib chiqib Electronic Court Case Management System turlicha bo'lishi mumkin. Electronic Court Case Management System (ECCMS) arizani qabul qilishdan boshlab sud qarori ijrosigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Avstraliyalik olim J. Vud ECCMS xususiyatlarini quyidagicha xarakterlaydi [2]:

- a) nizolarni erta hal qilish;
- b) protsess vaqtini qisqartirish;
- c) sud resurslaridan samaraliroq foydalanish;
- d) sinov standartlarini o'rnatish;
- e) ishlarni nazorat qilib borish;
- f) axborot texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash;
- g) sud xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish;
- h) kelgusida qilinadigan ishlarni rejalashtirish;
- i) jamoatchilik oldida javobgarlikni oshirish;
- j) sud tizimida samarasiz faoliyatlarni qisqartirish.

Tadqiqot natijalari

Hozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlar sud tizimida dasturiy ta'minotni ishlab chiqish texnologiyasi, ma'lumotlar bazasi texnologiyasi va tarmoq texnologiyasining jadal rivojlanishidan foydalangan holda ECCMS tatbiq etilmoqda.

Huquqshunos olim Gilbert Djuma ECCMS to'g'risida quyidagi fikrlarni bildirib o'tdi: "E-sud tizimida sud ishlarini boshqarish sud hujjatlarini elektron shaklda topshirish, elektron xizmat ko'rsatish, ishlarni elektron ko'rib chiqish, elektron to'lov va kvitansiya hamda elektron so'rovnomalarni yuborish imkonini beradi" [3].

Shuningdek, amerikalik huquqshunoslar Maykl Grinvud va Geri Bokveglar quyidagicha fikr bildirib o'tishgan: "Elektron sud ishlari boshqarish internet orqali har qanday sud ishi va sud ma'lumotlarini elektron shaklda topshirish va tarqatish imkonini berdi, foyda-

lanuvchilar ushbu ma'lumotni har qanday holatda sud qayerda joylashgani va qaysi vaqtda kiritishining ahamiyati yo'q.

Ushbu yondashuv fayllar yoki hujjatlarga takroriy ma'lumotlarni kiritishni sezilarli darajada qisqartirdi, xatolarni kamaytirdi yoki hujjatlar yo'qotilishini bartaraf etdi" [4, 3-b.].

Maykl Grinvud va Geri Bokveglarning fikriga qo'shilgan holda shuni aytishimiz mumkin, ECCMS da'vo arizalari (arizalar, iltimosnomalar)ni topshirishdan tortib ijro varaqasini olishgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Yana bir amerikalik olim Ervin Ruzning fikricha, elektron sud ishlarini boshqarish tizimlari turli darajadagi murakkablikdagi sud ishlarida qo'llanishi mumkin. Eng asosiysi, sud ishi materiallari va hujjatlari ustidan nazoratni ta'minlash, ma'lumotlar almashinuvini yaxshilashdir [5, 4-b.].

ECCMS sud xodimlariga ham ancha qulayliklar yaratib, kerakli sud hujjatlarini topish, ularni tayyorlash, tahrirlash kabi imkoniyatlarni beradi.

Elektron sud ishlarini boshqarishning afzalliklarini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

- sud va taraflar, shuningdek, sud hamda odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslar o'rtasida axborot almashishning samarali usuli sanaladi;

- fuqarolik ishini ko'rishga tayyorlash muddatini qisqartirish imkonini beradi;

- sudyalarning va sud xodimlari qo'lida bo'lgan hujjatlarni boshqarish hamda videokonferensiyalar, onlayn hamkorlikda ishlash imkoniyatini beradi;

- davlat xizmatchisi va fuqaro o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi, ularning jonli muloqotini kamaytirish orqali korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi;

- sud tizimi faoliyatining shaffofligini oshiradi, ya'ni zamonaviy axborot texnologiyalari sud faoliyati nazoratini osonlashtiradi yoki yaxshilanishiga imkon beradi;

– fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining sudga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Electronic Court Case Management System ikki xil interfeys orqali xizmat ko'rsatadi: birinchi interfeys taraflar uchun, ikkinchisi sud xodimlari uchun mo'ljallangan.

Tizim orqali advokatlik firmalari, yuridik xizmat ko'rsatuvchilar, taraflar ro'yxatdan o'tkazish imkonini beradi. Ro'yxatdan o'tgandan so'ng barcha subyektlar tizim orqali sud hujjatlarini topshirishlari va sud xizmatidan foydalanishlari mumkin.

Dastlab ECCMS 1995-yilda AQShning birinchi instansiya sudlari devonxonasida sud xodimlari ishini yengillashtirish uchun tashkil etilgan. 1996-yildan AQShning bankrotlik ishlari bo'yicha sudlarida ham amaliyotga tatbiq etila boshladi. 2005-yildayoq AQShning 80 % sudlari elektron sud ishlarini boshqarish tizimiga o'tib bo'lgandi [6].

Yana bir amerikalik mutaxassis (AQSh Oliy sudi va bir qator xorijiy davlatlarda ishlagan) Jeyms Makmillanning fikriga ko'ra, ECCMS tizimi sud ishlarini boshqarishda va bajarishda yordam beradi. Shuningdek, sud faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashadi va korrupsion harakatlarning oldini olishga qarshi kurashadi [7].

Yurtimizda ham ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy sohaning turli tarmoqlarida korrupsiyaga qarshi kurash olib borilmoqda. Jumladan, sohalarda inson omilini kamaytirish va ular faoliyatini raqamlashtirish amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda juda ko'plab xorijiy davlatlar sud tizimida Electronic Court Case Management System yo'lga qo'yilgan bo'lib, mazkur tizim ba'zi mamlakatlar qonunchiligida ham o'z aksini topgan.

Hindiston Respublikasining "Sud muhokamasi qoidalari to'g'risida"gi Qonunining 86-moddasida elektron sud ishlarini boshqarish to'g'risida band mavjud. Ushbu moddaga ko'ra, sud ishlarini boshqarish tizimi barcha Hindiston sudlari foydalana oladigan tarmoqqa ulangan dasturiy ta'minot tizimi

bo'lib, u har qanday holatda ham barcha tegishli hujjatlarni qabul qilishi, qayta ishlashi, saqlashi, olishi, uzatishi va ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, mazkur moddaga asosan, elektron ariza berish (e-Filing) imkoniyati mavjud bo'lib, elektron ariza berish Hindiston e-Filing tizimidan foydalangan holda har qanday Hindiston sudiga hujjatlarni topshirish usuli hisoblanadi.

Qonunga muvofiq elektron hujjat (ariza) topshirish faks yoki elektron pochta orqali yuborishni o'z ichiga olmaydi [8].

Tadqiqot natijalari tahlili

Mamlakatimiz sud tizimida ham qaysidir ma'noda elektron sud ishlarini boshqarish, xususan, protsessual qonunchiligimizda yo'lga qo'yilgan.

Fuqarolik ishi elektron shaklda shakllantirilishi mumkin.

Elektron shaklda shakllantirilgan fuqarolik ishining qog'ozdagi ko'chirma nusxasi bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 5-moddasida elektron fuqarolik sud ishiga oid bandlar kiritilgan. Mazkur normaga ko'ra, fuqarolik ishi elektron shaklda shakllantirilgan taqdirda ishda ishtirok etuvchi shaxslar va fuqarolik sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari hujjatlarni sudga elektron shaklda taqdim etishga haqli. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va fuqarolik sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari sudga taqdim etgan yozma hujjatlar ishga elektron shaklda qo'shib qo'yiladi, shundan so'ng yozma hujjatlar ularni taqdim etgan shaxslarga qaytariladi.

Fuqarolik ishi elektron shaklda shakllantirilgan taqdirda sud hujjatlari sudyaning (sudyalarining) elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi, sud majlislarining hamda protsessual harakatlarning bayonnomalari esa raislik qiluvchining va sud majlisi kotibining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Elektron shaklda shakllantirilgan fuqarolik ishini boshqa sudga yoki o'zga organ-ga o'tkazish axborot tizimi orqali amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining interaktiv xizmatlar portali <https://my.sud.uz/#/> elektron sud ishlarini boshqarishga yordam beradi. Bu portal orqali yurtimizda ECCMS qisman yo'lga qo'yilgan deyishimiz mumkin.

E-sud tizimida sud ishlarini boshqarish quyidagi sud jarayonlarini qamrab oladi:

- fuqarolik sud ishlari hujjatlarini qabul qilish;
- sud ishlarini taqsimlash;
- sud ishlarini ko'rishga tayyorlash;
- sud ishlarini ko'rish;
- sud qarorlarini qabul qilish;
- sud hujjatlarini yuborish va arxivlash.

ECCMSning asosiy elementlaridan biri bu e-Filing tizimi bo'lib, barcha yuridik adabiyotlarda fuqarolik sud ishlarini yuritishni raqamlashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi to'g'risida yozishgan.

2021-yilda qabul qilingan Yevropa Ittifoqining Yevropa komissiyasi tomonidan odil sudlov samaradorligi bo'yicha "Elektron sudga ariza berish (E-Filing) va ularni raqamlashtirish" bo'yicha yo'riqnomada e-Filing'ga ta'rif berilgan. Unga ko'ra, e-Filing – suda ishtirok etishni osonlashtiradigan texnologik yechimlarni anglatadi. Shuningdek, sudlar hamda taraflar o'rtasida ma'lumotlar va elektron hujjatlarning o'zaro almashinuvini ta'minlaydigan raqamli kanal ham hisoblana-di [9]. Yevropa Ittifoqining "Elektron sudga ariza berish (e-Filing) va ularni raqamlashtirish" bo'yicha yo'riqnomasida e-Filing'ning o'ziga xos xususiyatlari belgilab berilgan. Shuningdek, mazkur yo'riqnomada Yevropa Ittifoqi mamlakatlari sud tizimini raqamlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham belgilab berilgan.

e-Filing tizimi dastlab AQSh davlat sudlarida paydo bo'lgan, shu bois amerikalik huquqshunoslar e-Filing tizimi to'g'risi-

da birinchilarda bo'lib o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Amerikalik olimlar Uilyam Fenvik va Robert Brovnstounlar e-Filing tizimi haqi-da ilk fikr-mulohazalarini bildirishgan. Xusu-san, ularga ko'ra, e-Filing ma'lumotlarning elektron shakli bo'lib, qog'ozda saqlashga qarshi kurashning samarali usulidir. e-Filing huquq tizimida, xususan, ma'muriy qarorlar qabul qilishda yoki fuqarolik sudi ishlarini ko'rishda katta ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Biroq e-Filing tizimi sudlardan, davlat organ-laridan, huquqshunoslardan, fuqarolardan katta o'zgarishlarni talab qiladi.

Uilyam Fenvik va Robert Brovnstounlar aytganidek, sud ishlarini raqamlashti-rish davlatdan, jamiyatdan va insonlardan zamonaviy texnologiyalarga moslashishni talab qiladi. Mamlakatimizda ham raqam-lashtirish ishlari davlat organlari faoliyatida, xususan, elektron hukumat doirasida amalga oshirildi va One ID doirasida bu ishlar davom etib kelmoqda, shuningdek, yurtimizda fuqa-rolik ishlari bo'yicha sudlar va iqtisodiy sud-larda ham dastlab ishlarni elektronlashtirish olib borildi [10, 182-b.].

e-Filing tizimi haqida amerikalik hu-quqshunos Tom Smit fikr bildirib o'tgan. e-Filing tizimining xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi [11]:

- universal xizmat (barcha sudlarga, har qanday ish yuritish turiga, har qanday hujjat va har qanday murojaatni yuborish imkoniyati);
- komplekslik, arizalar, dalillar, davlat boji to'lov kvintansiyalarini elektron saqlash im-koniyati;
- taraflarning har qanday ish turi bo'yicha va turli hududda (turli shtatlarda, turli yuris-diksiyalarda) murojaat qilish huquqi;
- IT texnologiyalarning rivojlanishiga his-sa qo'shish;
- turli shtatlarda joylashgan fuqarolarga xizmat ko'rsatish.

Oradan yigirma yil o'tib mazkur tizim dunyo bo'ylab ommalashib bormoqda. Haqiqatan ham e-Filing tizimi orqali har qan-

day fuqarolik ishlari bo'yicha ariza berish mumkin, har qanday hujjatni va elektron dalillarni taqdim qilish, davlat bojini to'lash mumkin.

Amerikada dastlab e-Filing tizimi EC-CMSning birinchi ko'rinishlaridan biridir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shtatlar sudlari milliy markazi tomonidan AQShning turli shtatlari sudlari turli nomdagi e-Filing tizimlarini ro'yxatga olgan. Masalan, Arizona shtatida Arizona apellyatsiya sudlarining e-Filing tizimi, Kolorado shtatida fuqarolik va ma'muriy sud ishlari bo'yicha IIS Projects Colorado Courts, Jorjiya shtatida e-Filing, Michigan shtatida Washtenaw County Trial Court Electronic Filing, Nyu York shtatida Filing by Electronic Means, poytaxt Vashington okrugida Electronic Case Filing hamda Oliy sud uchun e-Filing Project tizimi [12] va har shtatda ko'plab boshqa tizimlar ishlab kelmoqda.

Shu bois AQShning har bir shtati qonunchiligida e-Filing tizimi to'g'risidagi normalar mavjud, xususan, Kaliforniyaning "Sudlar to'g'risida"gi Qonunida barcha fuqarolik ishlarida sud hujjatlari e-Filing tizimi orqali topshirilishi mumkinligi bayon etilgan. Shuningdek, sud hujjatlari e-Filing tizimi orqali topshirilganda protsessual muddatlarga rioya qilinishi ham qayd etilgan [13].

Havayi shtati Oliy sudi e-Filing tizimi va undan foydalanish bo'yicha maxsus qoidalar ishlab chiqqan. Ushbu qoidalarda e-Filing tizimi va undan sud protsessida foydalanish tartibi belgilangan [14].

Nevada shtati Oliy sudi tomonidan ham e-Filing tizimi qoidalari qabul qilingan. Mazkur qoidalarda Nevada shtati sudlarida Court Case Management System va e-Filing tizimidan foydalanish tartibi belgilab berilgan [15].

Bu tizim dastlab 1991–1997-yillarda AQSh davlat organlari va sudlarida paydo bo'lgan bo'lsa-da, Hindiston, Malayziya, Indoneziya, Janubiy Koreya, Singapur kabi

mamlakatlarning elektron sud tizimida faol ishlatilmoqda.

Indoneziyalik huquqshunos olimi Rahmonyor Helmia e-Filing tizimi (elektron hujjat topshirish) haqida quyidagilarni bildirib o'tadi: "e-Filing – sud ish hujjatlari-ni markaziy onlayn ro'yxatga olish. Ushbu amaliyot foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgandan so'ng amalga oshiriladi".

e-Filing orqali ishni onlayn ro'yxatdan o'tkazishning afzalliklari quyidagilarda ko'rinadi [16, 272-b.]:

- 1) ro'yxatdan o'tish orqali vaqt va pul tejalandi;
- 2) sud xarajatlari to'lashning turli shakllari yoki to'lov usullari yoxud har xil banklar orqali to'lash;
- 3) hujjatlar arxivlash va ularga turli joylar hamda turli vositalar orqali kirish mumkin;
- 4) ma'lumotlarni tez olish imkoniyatini beradi.

Malayziyalik yuridik fanlari doktori Dipali A. Puroxit fikriga ko'ra, e-Filing – qog'ozsiz, onlayn tartibda hujjatlarni ishlash tizimidir [17, 16-b.].

Elektron hujjatni topshirish (e-Filing)ning afzalliklari pul tejash imkoniyatini beradi. Fuqarolik sud ishi hujjatlarini ish vaqtidan tashqari topshirish va hujjatlar holatini ko'rish imkoniyatini beradi. Fuqarolik ishlari bo'yicha suddan chaqiruv qog'ozlari, hal qiluv qarorlarini elektron shaklda olish mumkin bo'ladi. Pochta xarajatlari va qog'ozga sarflar kamayishiga olib keladi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud fuqarolik sud hujjatlarini elektron saqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sud hujjatlarini olishdagi kechikishlarning oldi olinadi. Fuqarolarning sudlarga hujjatlarni olib borishdagi vaqtini tejash mumkin bo'ladi. Elektron topshirilgan yoki skanerlangan fuqarolik sud ishlarini istalgan vaqtda ko'rish mumkin bo'ladi.

e-Filing orqali ishni onlayn ro'yxatdan o'tkazishda taraflar foydalanuvchi sifatida ro'yxatdan o'tadilar. Fuqarolik ishlari

bo'yicha sudlarga mo'ljallangan platformalar barcha uchun ochiq bo'lishi kerak. Albatta, taraflar tizimning login va parolini boshqa kishiga bermaslik va yo'qotmasliklari lozim. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, fuqarolik sudi ishlarini yuritishda taraflar sud protsessida o'z vakillari orqali ishtirok etishlari mumkin. Shu bois xorijiy davlatlarda shartnomaviy va-killikning asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lgan advokatlariga alohida ro'yxatdan o'tish imkoniyati belgilangan.

Hindistonda "Sud muhokamasi qoidalari to'g'risida"gi Qonunning 88-moddasida e-Filing tizimida sud xodimining harakatlari bayon etilgan. Unga ko'ra, sud kotibi elektron hujjatlarni quyidagi hollarda rad etishi mumkin [8]:

a) ariza berish uchun davlat bojini to'lamagan bo'lsa;

b) foydalanuvchi noto'g'ri SMS kiritgan bo'lsa;

d) ariza beruvchi arizani qaytarib olishni so'ragan bo'lsa.

Xulosalar

Bizning nazarimizda, FPKga e-Filing tizimiga oid normalar kiritishimiz zarur. FPKning 206-moddasiga quyidagicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) sudyaning topshirig'iga binoan quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

1) sudyaga kelib tushgan arizalarni o'rganadi va ularni ko'rish yuzasidan takliflar kiritadi, sud hujjatlari loyihalarini tayyorlaydi;

2) sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) e-Filing tizimi orqali kelib tush-

gan arizalarni ko'rib chiqadi, kamchiliklari to'g'risida taraflarni xabardor qiladi, onlayn sud majlisi to'g'risida ma'lumotlar va boshqa sud hujjatlarini taraflarning tizimdagi profil-lariga yuboradi;

3) ishni sud muhokamasiga tayyorlash vazifalarini hal qilishda, shu jumladan, ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasini aniqlashda va boshqa shaxslarni jalb qilish to'g'risidagi masalani hal etishda ishtirok etadi;

4) sud protsessini tayyorlashni va o'tkazishni tashkil etishda ishtirok etadi;

5) arizalar va murojaatlar, shuningdek, ko'rilishi keyinga qoldirilgan yoki ish yuritish to'xtatib turilgan ishlar o'z vaqtida ko'rilishi ta'minlanishini tashkil etadi;

6) taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilarini ishni ko'rish vaqti va joyi haqida xabardor qiladi.

Sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) sudyaning topshirig'iga binoan boshqa harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Mamlakatimizda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarimizda elektron fuqarolik sud ishlari yuritish allaqachon yo'lga qo'yilgan. Elektron sud tizimi orqali yuborilgan da'vo arizalari odatda sud devonxonasi xodimi qabul qilinib, sudyalarga elektron tarzda taqsimlanadi. Odatda Court Case Management System tizimida barcha sudyalarning login va parollari mavjud bo'ladi, bundan tashqari ishlar elektron taqsimlanadi. Shu bois sud devonxonasi xodimining yordamiga zarurat bo'lmaydi. Aslida, bu tizim orqali arizani qaytarish va rad etish to'g'risidagi ajrimlar sonini qisqartirishga olib kelishi mumkin.

REFERENCES

1. Xabibullaev D. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar) [Civil procedural law (questions and answers)]. Reprinted ed. Tashkent, 2019, 15 p.
2. Law Commission of India. Available at: https://lawcommissionofindia.nic.in/adr_conf/Mayo%20Rao%20case%20mngt%203.pdf/.

3. DLA Piper. Available at: <https://www.dlapiper.com/fr/africa/insights/publications/2020/11/africa-connected-issue-5/embracing-electronic-court-case-management-systems/>.
4. Greenwood M.J., Bockweg G. Insights to building a successful E-Filing Case Management Service: U.S.Federal Court Experience. *International Journal For Court Administration*, 2012, p. 3.
5. Rooze E.J. Differentiated use of Electronic Case Management Systems. *International Journal For Court Administration*, 2010, p. 4.
6. Professor emeritus Dr. Dr. h.c. mult. Helmut Rüßmann Richter am Saarländischen Oberlandesgericht a. D. Honorarprofessor der Eötvös Loránd Universität, Budapest. Available at: <http://ruessmann.jura.uni-sb.de/grotius/Material/ecfmar97.pdf/>.
7. McMillan J.E. The potential of computerized court case management to battle judicial corruption. National Center for State Courts, USA, 2007, version 4.
8. Indiana Rules of Court. Rules of Trial Procedure. Including Amendments made through 2022, January 1. Available at: https://www.in.gov/courts/rules/trial_proc/index.html/.
9. European Commission for the efficiency of justice (CEPEJ). Guidelines on electronic court filing (e-filing) and digitalisation of courts. Available at: <https://rm.coe.int/cepej-2021-15-en-e-Filing-guidelines-digitalisation-courts/1680a4cf87/>.
10. Fenwick W.A., Brownstone R.D. Electronic Filing: What Is It - What Are Its Implications? *Santa Clara High Technology Law Journal*, 2003, vol. 19, iss. 1, Article 5, 182 p.
11. Smith T. Presentation, CEFTS/3: California Electronic Filing Technical Standards Program. 2002, July 18. Available at: http://www.courtinfo.ca.gov/programs/efiling/documents/cefts3_introv2.ppt/.
12. National Center for State Courts (NCSC). Available at: http://www.ncsc.org/WC/Publications/KIS_ElFileStateLinksPub.pdf/.
13. California state courts. Available at: https://www.courts.ca.gov/cms/rules/index.cfm?title=two&linkid=rule2_253/.
14. Hawai'i electronic filing and service rules, SCRU-12-0000409. Adopted and Promulgated by the Supreme Court of the State of Hawai'i. Effective 2010, September 27. With Amendments as Noted. Available at: https://www.courts.state.hi.us/docs/court_rules/rules/hefsr.htm/.
15. Nevada electronic filing and conversion rules. Adopted by the supreme court of Nevada. Effective 2007, March 1. Amendments Through 2021, September 29. In the Matter of the Adoption of Statewide Electronic Filing Standards and Rules. Available at: <https://www.leg.state.nv.us/courtrules/NEFCR.html/>.
16. Helmia R. The Existence of Electronic Courts (E-Court) in realizing simple, fast and low-cost justice. *International Journal of Innovation, Creativity and Change*, 2019, vol. 8, iss. 9, 272 p.
17. Purohit D.A. A new avenue for getting justice early: E-Courts. *International Res Jour Managt Socio Human*, 2017, vol. 8, iss. 8, p. 16.

UDC: 347.998.72(045)(575.1)

HAKAMLIK MUHOKAMASIDA DA'VONI TA'MINLASH TARTIBI

Xakberdiyev Abdumurad Abdusaidovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.,
ORCID: 0000-0001-8959-6944
e-mail: a.hakberdiyev@tsul.uz

Annotatsiya. Hakamlik sudlari, bizning nazarimizda, fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biridir. Kuchli fuqarolik jamiyatisiz zamonaviy huquqiy davlatning mavjudligi va faoliyat yuritishi mumkin emas. Rivojlangan G'arb davlatlarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, fuqarolar va tadbirkorlar hakamlik sudlariga juda ijobiy munosabatda bo'lishadi, chunki hakamlik jarayonlari fuqarolik va iqtisodiy faoliyatdagi nizo hamda boshqa muammolarni tez va samarali hal qilish uchun yaratilgan. Binobarin, ayni damda mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida hakamlik sudi institutini keng rivojlantirish nihoyatda zarurdir. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda vakolatli sudlardan tashqari nizolarni muqobil tartibda hal qilishda hakamlik sudlari tomonidan ham fuqarolik va iqtisodiy nizolar bo'yicha bir qancha ishlar ko'rib chiqilishida turli muammolar uchrab turibdi. Mazkur maqolada hakamlik muhokamasida da'voni ta'minlash tartibi masalasi xorijiy tajribani tahlil qilgan holda o'rganib chiqilgan. Shuningdek, da'voni ta'minlashda hakamlik sudining vakolatli (davlat) sudlar bilan o'zaro munosabati, da'voni ta'minlash tartibi va kamchiliklari o'rganib chiqildi. Shu bilan bir qatorda, da'voni ta'minlash tartibi bo'yicha milliy qonunchiligimizga taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: hakamlik sudi, vakolatli sud, hakamlik muhokamasi, da'voni ta'minlash, arbitraj, normativ-huquqiy hujjat, qonun, kodeks.

ПОРЯДОК ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИСКА В ТРЕТЕЙСКОМ РАЗБИРАТЕЛЬСТВЕ

Хакбердиев Абдумурад Абдусаидович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD), и. о. доцента
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Третейские суды, на наш взгляд, являются одним из основных институтов гражданского общества. Современное правовое государство не может существовать и функционировать без сильного гражданского общества. Опыт развитых западных стран показывает, что граждане и предприниматели весьма положительно относятся к третейским судам, поскольку третейские процессы призваны быстро и эффективно разрешать споры и другие проблемы в гражданско-экономической деятельности. Поэтому в условиях дальнейшего углубления демократических реформ и формирования гражданского общества в нашей стране крайне необходимо широко развивать институт третейского суда. Отмечено, что на сегодняшний день, помимо компетентных судов, возникают различные проблемы при рассмотрении ряда дел гражданских и хозяйственных споров третейскими судами. В данной статье исследуется вопрос о порядке обеспечения иска в третейском процессе путем анализа зарубежного опыта. Также изучено взаимодействие третейского суда с компетентными (государственными) судами, порядок обеспечения иска и его недостатки. Кроме того,

разработаны предложения и рекомендации для национального законодательства о порядке обеспечения иска.

Ключевые слова: третейский суд, компетентный суд, третейское разбирательство, обеспечение иска, арбитраж, нормативный правовой акт, закон, кодекс.

PROCEDURE FOR SECURING A CLAIM IN ARBITRATION PROCEEDINGS

Khakberdiev Abdumurad Abusaidovich,

Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law,
PhD in Law

Abstract. Arbitration courts, in our opinion, are one of the main institutions of civil society. A modern legal state cannot exist and function without a strong civil society. The experience of developed Western countries shows that citizens and entrepreneurs have a very positive attitude towards arbitration courts since arbitration processes are designed to quickly and efficiently resolve disputes and other problems in civil and economic activities. Therefore, in the context of the further deepening of democratic reforms and the formation of civil society in our country, it is extremely necessary to widely develop the institution of arbitration. At the same time, it should be noted that today, in addition to competent courts, various problems arise when considering a number of cases of civil and economic disputes by arbitration courts. This article examines the issue of the procedure for securing a claim in the arbitration process by analyzing foreign experience. The interaction of the arbitration court with the competent (state) courts, the procedure for securing a claim, and shortcomings are also studied. In addition, proposals and recommendations for our national legislation on the procedure for securing a claim are developed.

Keywords: arbitration court, competent court, arbitration proceedings, securing a claim, arbitration, normative legal act, law, code.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya-si mulkchilikning barcha shakllari tengligini belgilab beradi, xususiyl mulkning erkin rivojlanishini kafolatlaydi, jamiyatning bozor iqtisodiyoti taraqqiyot yo‘liga o‘tishini oldindan belgilab beradi. Shuningdek, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsiz bo‘lib, mazkur huquq va erkinliklardan sudning qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kimning haqi yo‘qligini belgilab berdi.

Bugungi kunda mamlakatning bozor iqtisodiyotiga jadal ravishda o‘tishi va fuqarolik muomalasining rivojlanishi bilan nizolar soni bir necha baravarga ko‘paydi, desak adashmagan bo‘lamiz. Zamonaviy dunyo amaliyotida nizolarning asosiy qismi, shu jumladan, fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi hamda tadbirkorlik subyektlari

o‘rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolar-ning 80–90 foizida muqobil tartibda hal qilish usullaridan foydalaniladi, ular orasida esa asosiy o‘rinni bevosita hakamlik muhokamasi egallab kelmoqda.

Hakamlik sudi yurituvdagi ish bo‘yicha vakolatli sud tomonidan da‘voning ta‘minlanishi bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir.

Da‘voni ta‘minlash choralari bu – agar hakamlik sudi tomonidan qabul qilingan qarorning ijrosi qiyinlashishi yoki ijro etilmay qolgan hollarda vakolatli sud tomonidan qabul qilinadigan choralardir [1].

Hakamlik muhokamasida da‘voni ta‘minlash masalasi turli mamlakatlarda turlicha hal qilinadi. Xususan, Angliyada 1996-yil qabul qilingan “Arbitraj to‘g‘risida”gi Qonun-ning 1-qismi 39-moddasiga muvofiq, hakamlik (arbitraj) sudi vakolatli suddan mustaqil ravishda da‘voni ta‘minlash choralarini qo‘l-

lash huquqiga ega. Bunda hakamlik (arbitraj) sudi mazkur nizo o'zining ish yurituvda bo'lishi lozim. Hududiylik bo'yicha yoki o'zga hakamlik (arbitraj) sudining yurituvdagi ishlar bo'yicha da'voni taminlash yuzasidan chora ko'rishga vakolati mavjud emas [2]. Agar manfaatdor shaxs o'z arizasida da'voni taminlash turlaridan biron-biri ko'rsatilgan bo'lsa, mazkur nizo ushbu hakamlik (arbitraj) sudining yurituvda bo'lib, dalillarni saqlash, kelajakda sudning hal qiluv qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida hakamlik (arbitraj) sudi tomonidan da'voni ta'minlash bo'yicha buyruq chiqaradi. Binobarin, shoshilinch holatlarda sud tomonlarni oldindan xabardor qilmasdan da'voni ta'minlash yuzasidan buyruq chiqarishi mumkin [3].

Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda ilmiy bilishning bir qancha uslublaridan foydalanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, sintez, tarixiy, qiyosiy-huquqiy kabi uslublar qo'llangan.

Tadqiqot natijalari

Xitoy Xalq Respublikasida 1994-yili qabul qilingan "Arbitraj to'g'risida"gi Qonunning 28-, 46- va 68-moddalariga muvofiq, taraflar mulk va dalillarni saqlash hamda yurituvdagi ish doirasida boshqa da'volarni ta'minlash bo'yicha hakamlik (arbitraj) sudiga murojaat qilishi mumkin. Biroq bevosita hakamlik (arbitraj) sudi da'volarni ta'minlash bo'yicha mustaqil qaror yoki ajrim chiqarish vakolatiga ega emas. Arbitraj qonunining 28-moddasi 2-qismi va Fuqarolik protsessining 272-moddasiga binoan, mulk va dalillarni saqlash hamda da'voni ta'minlash yuzasidan faqat vakolatli (davlat) sudlar qaror qabul qilishi mumkin. Agar hakamlik (arbitraj) sudi yurituvdagi ish bo'yicha da'voni ta'minlash mumkin bo'lsa, bunday hollarda da'vogar javobgarining mol-mulki joylashgan yoki yashash joyidagi vakolatli sudga ariza bilan murojaat qiladi [4].

O'zbekistonda esa qonun chiqaruvchi hakamlik sudlariga vakolatli sud orqali da'voni ta'minlash imkonini taqdim qilib,

hal qiluv qarori ijro etilishining eng muhim prinsipi ekanligi va taraflar avvaldan sud tomonidan chiqariladigan, shu jumladan, ularning huquqlarini cheklaydigan hujjatlarga bo'ysunishga tayyorligidan kelib chiqishini belgilab berdi. Bunday choralarni ko'rmaslik sudning hal qiluv qarorlarini ijro etishni qiyinlashtiradi yoki ijroni amalga oshirishni yo'qqa chiqaradi.

Shuningdek, da'voni ta'minlash mazkur da'vo qanoatlantirilgan taqdirda da'vo talblarini amalga oshirish imkoniyatini kafolatlovchi vakolatli sud tomonidan belgilanib, tasdiqlangan choralar ko'rilishini o'zida namoyon etadi. Da'voni ta'minlashning mazmun va mohiyati shundaki, agar javobgar insofsiz harakat qilgan holda yoki choralarning umuman ko'rilmaligi natijasida hakamlik sudi hal qiluv qarorining ijro etilishiga to'sqinlik qilsa, da'voni ta'minlashda da'vogarning qonuniy manfaatlar albatta himoya qilinadi.

Ta'kidlash joizki, agar nizoni ko'rib chiqish davomida javobgar mulkni berkitishi, o'zining shaxsiy ehtiyojlari yo'lida tasarruf qilib yuborishi, o'zganing hisob raqamiga o'tkazishi yoki boshqa usullar bilan yo'q qilib yuborishi haqida yetarlicha asoslangan taxmin bo'lgan taqdirda da'voni ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar zarur bo'lib qolishi mumkin. Zarur hollarda da'vo qisman ta'minlanishi ham mumkin. Masalan, ko'rib chiqilayotgan nizo doirasida da'voni ta'minlash bir nechta talabdan iborat bo'lsa, bunday holatda uning alohida talblarini ta'minlash zarur. Biroq taqdim qilingan ham dastlabki, ham qarshi da'vo bo'yicha da'voni ta'minlashga yo'l qo'yiladi. Da'voni ta'minlash yuzasidan vakolatli sudga murojaat qilish faqatgina hakamlik muhokamasi taraflarining arizasi bo'yicha amalga oshiriladi. Da'voni ta'minlash bo'yicha murojaat hakamlik sudi tomonidan amalga oshirishi qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan. Biroq 2006-yilgi "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonunning 32-moddasi 2-qismiga

ko'ra, agar hakamlik muhokamasi taraflari boshqacha shartlashmagan bo'lsalar, hakamlik sudi hakamlik muhokamasi taraflaridan birining iltimosiga ko'ra da'voni ta'minlash choralari ko'rish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin. Lekin hakamlik sudi berilgan vakolatlardan amaliyotda to'g'ri foydalanmagani sababli 2014-yilda "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonunning 32-moddasi 2-qismi olib tashlandi [5].

Eng muhimi shundaki, da'voni ta'minlash hakamlik sudi o'z ish yurituviga qabul qilinishi bilan yoki hakamlik muhokamasi-ning har qanday bosqichida amalga oshirilishi mumkin va bunda taqdim qilingan da'volar-ning ta'minlanishi lozim. Lekin kelajakda da'vo sifatida taqdim qilinishi ko'zda tutilgan talablarni ta'minlash imkoni qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan. Demak, hali da'vo taqdim qilinmasdan turib uning ta'minlanishi qat'iyan man etiladi. Shuningdek, hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilinib, qonuniy kuchga kirgandan so'ng da'volar ta'minlanishi ham mumkin emas, desak adashmagan bo'lamiz.

Shu bilan bir qatorda, taraflar da'vosiga asosan, hakamlik sudi da'voni ta'minlab berishning bir turini boshqasi bilan almashtirishi mumkin. Da'voni almashtirishda faqatgina O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy va Fuqarolik kodekslarida nazarda tutilgan normalarga binoan da'voni ta'minlash choralari qo'llash mumkin bo'ladi. Bunda agar da'voni ta'minlash bo'yicha bir chorani ikkinchisiga almashtirish masalasi dastlab sud belgilagan chora yetarli darajada bo'lmaganda yoki o'zini oqlamaganda almashtirilishi mumkin. Masalan, hibsga olingan mol-mulk o'z dastlabki qiymatini yo'qotishi natijasida kelajakda sudning hal qiluv qarorini ijro etishga kafolat bo'la olmasa. Da'voni ta'minlashni almashtirish nafaqat da'vogar tarafning tashabbusi bilan, balki da'voni ta'minlashni qabul qilish natijasida boshqa shaxslarning ma'lum darajada huquqlarini cheklasa va uning mulkiy ahvoriga ta'sir etsa, unga

nisbatan qarshi ta'minlash choralari ko'rilgan boshqa taraf tashabbusi amalga oshirilishi ham mumkin. Da'voni ta'minlashning bir turini ikkinchisiga almashtirish haqida vakolatli sudga manfaatdor taraflar ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

Xitoylik professorlar Lyu Syaouxun va Yan Linglarning fikricha, hakamlik (arbitraj) sudi yurituvidagi ishlar doirasida da'voni ta'minlash bo'yicha vakolatli sud va hakamlik (arbitraj) sudi o'rtasidagi munosabatlar-ning uzviy bog'liqligiga qat'iy e'tibor qaratish zarur. Shu munosabat bilan ushbu holatlarda vakolatli sud hakamlik (arbitraj) sudiga yordamchi sud emas, aksincha, nazoratni amalga oshiruvchi sifatida qaralishi lozim. Bunga sabab shundaki, Xitoy Xalq Respublikasining sud tizimi hakamlik (arbitraj) sudlariga nisbatan ishonchsizlikni boshdan kechirmoqda, shuning uchun ularning ayrim faoliyatlarini vakolatli sud orqali nazorat qilib turish maqsadga muvofiqdir [6].

Milliy qonunchiligimizda da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin, lekin bu ajrimning ijrosini to'xtatmaydi. Aksincha, da'voni ta'minlashni bekor qilish to'g'risidagi yoki da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirish to'g'risidagi sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi bu ajrimning ijrosini to'xtatib qo'yadi [7].

Hakamlik sudida ko'rib chiqilayotgan da'voni ta'minlash haqidagi ariza hakamlik muhokamasi tarafiga quyidagilar bo'yicha vakolatli sudni tanlash imkonini beradi:

- a) hakamlik sudi joylashgan manzili bo'yicha;
- b) javobgarning joylashgan joyi (yashash manzili) bo'yicha;
- d) javobgarning mol-mulki joylashgan joy bo'yicha. Mazkur norma "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonunning 32-moddasi va Fuqarolik protsessual kodeksining 105-moddasida o'z aksini topgan.

Hakamlik sudida ko'rib chiqilayotgan da'voni ta'minlash haqidagi ariza hakamlik muhokamasi tomonidan hakamlik sudi joylashgan yerdagi yoxud javobgar joylashgan yerdagi yoki yashaydigan joydagi yoki javobgarining mol-mulki turgan joydagi vakolatli sudga beriladi [8].

Shu bilan birga, Iqtisodiy protsessual kodeksining 37-moddasi 4-qismida vakolatli sudni aniqlashning boshqa mezonlari ham belgilangan: a) hakamlik sudi joylashgan yerda; b) qarzdor davlat ro'yxatidan o'tgan joyda; d) agar qarzdor davlat ro'yxatidan o'tgan joy noma'lum bo'lsa, uning mol-mulki turgan joyda.

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ariza vakolatli sud sudyasi tomonidan ariza tushgan kuniyoq javobgarni va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarni xabardor qilmagan holda hal qilinadi. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi [9].

Hakamlik sudi o'z yurituvdagi ishni yuritishni to'xtatish da'voni ta'minlashni majburiy rad qilishga olib kelmaydi, chunki qonun chiqaruvchi bunday majburiyatni belgilab qo'ymagan. Natijada da'voni ta'minlashning saqlanib qolishiga olib kelishi mumkin. Mazkur masalani hal etishda vakolatli sud sud ishi bo'yicha ish yuritish to'xtatilgan davr uzoq davomli bo'lishi mumkinligini, buning natijasida javobgarining huquqini davom etuvchi va belgilanmagan muddatga cheklab qo'yishini hisobga olishi kerak bo'ladi. Javobgar tomonidan berilgan ariza bo'yicha, ya'ni da'voni ta'minlashni rad qilish to'g'risidagi masala vakolatli sud majlisida ko'rib chiqiladi, taraflarning ularga kelmasligi majlis o'tkazilishiga to'sqinlik qilmaydi. Da'voni ta'minlashni rad qilish borasidagi vakolatli sud ajrimi ustidan Iqtisodiy va Fuqarolik protsessual kodekslarida nazarda tutilgan umumiy asoslar bo'yicha shikoyat qilinishi mumkin.

Amaldagi protsessual qonunchilikka ko'ra quyidagi da'voni ta'minlash choralari mavjud [10]:

1) javobgarga tegishli mol-mulk yoki pul mablag'larini xatlab qo'yish;

2) javobgarga muayyan harakatlarni taqiqlash;

3) boshqa shaxslarga nizo predmetiga aloqador muayyan harakatlarni taqiqlash;

4) da'vogar nizolashayotgan, undirish so'zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjati yoki boshqa hujjat bo'yicha undirishni to'xtatib turish.

O'zbekiston Respublikasi IPKning 8-, 28- va 29-boblariga, FPKning 9-, 38- va 39-boblariga muvofiq, hakamlik muhokamasi bilan bog'liq ishlar vakolatli sud tomonidan ish yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha ko'rib chiqiladi.

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- ariza berilgan sudning nomi;
- taraflarning nomlari (familiyasi, ismi va otasining ismi), ularning joylashgan joyi (pochta manzili) va yashash joyi;
- nizo predmeti;
- da'voni ta'minlash choralari ko'rish zarurligini asoslash;
- da'vogar ko'rishni so'ragan da'voni ta'minlash chorasi turi;
- ilova qilingan hujjatlar ro'yxati.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksida arizachidan da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizada qarzdor davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyni ko'rsatishi talab qilinmaydi.

Shu sababli hozirgi vaqtda da'voni ta'minlash choralari ko'rish uchun ariza berilishi kerak bo'lgan vakolatli sudni aniqlashning yagona mexanizmi mavjud emasligi yaqqol ma'lum bo'lib turibdi. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonunida, O'zbekiston Respublikasi FPKda va IPKda mavjud mexanizmlar bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

Xulosalar

Yuqorida qayd etib o'tilganlardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi

Iqtisodiy protsessual kodeksining 37-moddasi 4-qismidagi bayon qilingan matni kabi O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni 32-moddasi 2-qismi va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 105-moddasi 5-qismini o'xshash tahrirda o'zgartirish orqali da'voni ta'minlash choralari ko'rish masalalarini tartibga soluvchi uchta normativ-huquqiy hujjatdagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizaga hakamlik sudiga da'vo arizasi taqdim qilinishi va bu bo'yicha ish yurituvga olingani hamda boshqa ma'lumotlar to'g'risidagi dalillar ilova qilinadi. Biroq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksida bunday dalil bo'lishi mumkin bo'lgan narsalar nazarda tutilmagan. Bizning fikrimizcha, bunday dalillarga:

a) da'vo arizasining ko'rib chiqish uchun qabul qilinishi to'g'risidagi hakamlik sudining belgisi qo'yilgan da'vo arizasining nusxasi;

b) da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilish, hakamlik sudining tarkibini shakllantirish va ishni hakamlik muhokamasiga tayinlash to'g'risidagi ajrim va boshqa mumkin bo'lgan hujjatlar kiradi.

Hakamlik sudi yurituvdagi ish doirasida da'voni ta'minlash choralari hakamlik sudida ishtirok etuvchi tarafning arizasiga binoan vakolatli sud tomonidan ko'rilishi mumkin va vakolatli sud tomonidan ariza kelib tushgan kundan keyingi kundan kechiktirmay ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilmasdan ko'rib chiqiladi (O'zR FPK 107-moddasi va IPK 96-moddasi).

IPKning 96-moddasiga ko'ra da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi, uning nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuboriladi. Biroq FPKning 107-moddasida esa da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ajrim chiqarilishi qayd etilib, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ajrim nusxasi taqdim qilinishi ko'rsatilmagan. Bundan kelib chiqadiki, fuqarolik sudi da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijasida chiqarilgan ajrim nusxasini taraflarga bermasligi qonunga zid emas, deb topilishi mumkin.

Shunga ko'ra Fuqarolik protsessual kodeksining 107-moddasi 2-qismidagi matnni "da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ajrim" so'zlaridan keyin "chiqarilib, uning ko'chirma nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuboriladi" tarzida to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. Mamasiddiqov M.M., Masadikov Sh.M., Xabibullaev D.Y., Azizov N.A., Salimova I.M. Hakamlik muhokamasi [Arbitration proceedings]. 2016, p. 64.
2. Mohamed S. A critical analysis of arbitral provisional measures in England and Wales. Brunel University, 2014, p. 45.
3. Shalaan W. Interim Measures in International Commercial Arbitration. A Comparative Study of the Egyptian, English and Scottish Law. University of Stirling, 2013, p. 122.
4. Pisacane G., Murphy L., Zhang C. Arbitration in China. Rules & Perspectives. China Law, Tax & Accounting. Springer Singapore, 2016, p. 21.
5. Arbitration in Slovakia. Available at: <https://www.international-arbitration-attorney.com/ru/arbitration-in-slovakia/>.

6. Liu X., Yang L. Redemption of Chinese Arbitration? Comments on the Civil Procedure Law (2012) and Free Trade Zone Arbitration Rules. *Chinese Journal of International Law*, 2014, no. 4, p. 656.
7. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilish tartibi [Procedure of applying to the court on civil cases]. The Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. 2016, p. 110.
8. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlilik sudlari to'g'risida"gi Qonuniga sharh [Commentary on the Law of the Republic of Uzbekistan "On Arbitration Courts"]. Available at: https://nrm.uz/contentf?doc=428849_hakamlilik_sudlari_to%E2%80%98g%98risidagi_qonunga_sharh&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana/.
9. Ibratova F.B. et al. Legal issues of observation-bankruptcy procedures applicable by the economic court of Uzbekistan. *Advanced Res. L. & Econ.*, Tashkent, 2019, p. 187.
10. Salimova I. Nizolarni hal qilishning muqobil usullari [Alternative dispute resolution methods]. 2022, p. 92.
11. Recognition and enforcement of foreign arbitral awards: a global commentary on the New York Convention in action 121. More details on such arbitration commissions, also see Lalive, supra note 1, 2016, pp. 667–668.
12. Latham & Watkins. Guide to International Arbitration. USA, 2017, pp. 20–21.
13. Rubino-Sammartano M. International Arbitration Law and Practice. 3rd Ed. London, 2014, pp. 324–335.
14. Hossain M.M. International Commercial Arbitration: the need for harmonized legal regime on court ordered interim measures of relief. University of Toronto (Canada), ProQuest Dissertations Publ., 2012, p. 10.
15. Dmitriyeva G.K. Mejdunarodny kommercheskiy arbitraj: Uchebno-prakticheskoye posobiye [International Commercial Arbitration: Study Guide]. Moscow, 1997, p. 16.

UDC: 349.6(045)(575.1)

O'RMON VA O'SIMLIK DUNYOSIGA OID HUQUQIY DOKTRINA VA NAZARIY KONSEPSIYALAR

Mahkamov Durbek Ne'matovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
dotsenti, yuridik fanlar nomzodi
ORCID: 0000-0002-6918-4616
e-mail: durbek404@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'rmon va o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanishga oid ilmiy-nazariy tushunchalar va konsepsiyalar to'g'risida fikr yuritilgan. Bundan tashqari, o'rmon hamda o'simlik dunyosi obyektlari tushunchalarining o'zaro farqli jihatlari, qonunchilikdagi tushunchalar bilan o'zaro nisbati, ilmiy-nazariy fikrlar va normativ-huquqiy hujjatlarning qiyosiy tahlili, mualliflik taklif va mulohazalari berilgan. Shu orqali o'simlik va o'rmonni muhofaza qilish o'rtasidagi huquqiy chegara masalalariga aniqlik kiritilgan hamda mualliflik pozitsiyasidan kelib chiqqan holda ilmiy munosabat bildirilgan. Bunda, asosan, mantiqiy tahlil, tarixiylik, qiyosiy-huquqiy uslublardan foydalangan holda, turli davrlarda tadqiqot olib borgan olimlar fikrlari o'rganilgan. Bundan tashqari, xalqaro huquqiy hujjatlardagi o'rmon va o'simlik dunyosini muhofaza qilishning huquqiy holati bayon etilgan. Xulosa qismida xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasidan foydalanish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini har tomonlama takomillashtirishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: o'simlik dunyosi, o'rmon, ekologik qonunchilik, tabiiy resurs, o'simlikdan foydalanish, o'rmondan foydalanish, yashil zona, ekologik hudud.

ПРАВОВАЯ ДОКТРИНА И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ КОНЦЕПЦИИ О ЛЕСНОМ И РАСТИТЕЛЬНОМ МИРЕ

Махкамов Дурбек Нематович,
кандидат юридических наук, доцент
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются научно-теоретические концепции, связанные с охраной и использованием объектов леса и растительного мира. Кроме того, представлены различные аспекты понятий лесных и растительных объектов, их соотношение с понятиями в законодательстве. Проведен сравнительный анализ научно-теоретических заключений и нормативных правовых документов, даны авторские предложения и замечания. Таким образом уточнены вопросы правовой границы между охраной растений и лесоохраной. Представлены мнения ученых, проводивших исследования в разные периоды с использованием методов логического анализа, историчности и сравнительно-правовых методов. Научный ответ на эти мнения выражен исходя из авторской позиции. Кроме того, описывается правовой статус охраны лесов и растительного мира в международно-правовых документах. В заключительной части акцентировано внимание на использовании положительного опыта зарубежных стран и комплексном совершенствовании законодательства Республики Узбекистан.

Ключевые слова: флора, лес, природоохранное законодательство, природный ресурс, использование растений, лесопользование, зеленая зона, экологическая зона.

LEGAL DOCTRINE AND THEORETICAL CONCEPTS ON THE FOREST AND PLANT WORLD

Makhkamov Durbek Nematovich,

Associate Professor of Tashkent State University of Law,
Candidate of Legal Sciences

Abstract. *This article discusses scientific and theoretical concepts related to the protection and use of forest and flora objects. In addition, various aspects of the concepts of forest and plant objects, their relationship with the concepts in the legislation are presented. A comparative analysis of scientific and theoretical conclusions and normative legal documents has been carried out, author's suggestions and comments have been given. Thus, the issues of the legal boundary between plant protection and forest protection have been clarified. The opinions of scientists who conducted research in different periods using the methods of logical analysis, historicity and comparative legal methods have been presented. The scientific response to these opinions is expressed based on the author's position. In addition, the legal status of the protection of forests and flora in international legal documents is described. In the final part, attention is focused on the use of the positive experience of foreign countries and the comprehensive improvement of the legislation of the Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *flora, forest, environmental legislation, natural resource, plant use, forest management, green space, ecological zone.*

Kirish

O'rmon va o'simlik dunyosiga oid huquqiy tushunchalarni farqlashga oid normalar va g'oyalarni, asosan, o'rmon hududi muhofaza etiladigan tabiiy hudud, biroq umumiy o'rmon hajmi ko'p bo'lmagan davlatlar qonunchiligi va olimlarning qarashlarida uchratish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining ekologik qonunchiligi va huquqshunos olimlarning tadqiqotlarida mazkur yondashuv mavjud.

Bu tendensiya davlatimiz mustaqilligidan oldin mavjud bo'lgan, zero, sobiq ittifoqdosh davlatlar qonunchiligi o'sha davrdagi "markaz" qonunchiligi va pozitsiyasidan kelib chiqqan. O'rmon va o'simlik tushunchalarining huquqiy ta'rifiga oid nazariyalar bir yoqlama bayon etilgan. Rossiya Federatsiyasining katta qismi o'rmon bilan qoplanganligi bois bildirilgan nazariy tushunchalarda ham o'rmonga ustuvorlik belgilarini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, O.S. Kolbasov, V.V. Petrov, A.B. Iskoyan, Y.A. Galinovskaya, S.A. Bogolyubov kabi olimlar aynan yuqoridagi yondashuvni yoqlagan holda tadqiqotlar olib borishgan.

Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda ilmiy bilishning mantiqiy va ilmiy uslublaridan foydalanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, tarixiylik, qiyosiy-huquqiy kabi uslublar qo'llanilgan. Bundan tashqari, empirik materiallar, xususan, statistika ma'lumotlari, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

O.S. Kolbasov 80-yillar boshida "Barcha turdagi ishlab chiqarish ehtiyojlari va aholini joylashtirish uchun foydalaniladigan maydonlarning kengaytirilishi, atrof-muhitning ifloslanishi, buning oqibatida uning tirik tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro tabiiy munosabatlarning buzilishi, dorivor va manzarali o'simliklar, gullar, rezavor mevalar va boshqalarni ochko'zlarcha yig'ish va hokazolar o'rmondan tashqarida o'sadigan yovvoyi o'simliklarning yo'qolib ketish sur'atini juda tezlashtirib yubordi" [1], deb aytib o'tgan edi.

AQSh avtomobil sanoati "otasi" Henri Ford ham o'ziga xos tarzda munosabat bildiradi: "Kimdir mashinalar va sanoatning ortib borayotgan qudrati haqida gap boshla-

sa, ko'z o'ngimda daraxtlar, gullar, qushlar, yam-yashil yaylovlarni temir mashinalarning sovuq dunyosi, ulkan zavodlar siqib chiqardi. Biz shu bilan metall mashinalar va metall odamlar dunyosiga ega bo'lamiz. Men bunday tasavvurni qabul qilmayman. Fikrimcha, mashinalardan foydalanishni puxta o'rganib olsak, hayotning mexanik qismini to'g'ri anglasak, bizda daraxtlar va qushlar, gullar va o'tloqlardan bahra olish uchun vaqt ko'proq bo'ladi" [2].

O'simlik dunyosi (o'simliklar, o'rmonlar va o'rmondan tashqaridagi o'simliklar) ni xalqaro darajada muhofaza qilish azaldan ishlab chiqarish vositalari – o'simlikchilik mahsulotlari, mulk va boshqa iqtisodiy manfaatlar hamda inson salomatligini asrash nuqtayi nazaridan amalga oshirilgan. Masalan, XIX asrdayoq quyidagi hujjatlar qabul qilingan: Fillioksera masalalari bo'yicha Xalqaro konvensiya (1881-yil 3-noyabr), unga qo'shimcha sifatida Bernda imzolangan konvensiya (1889-yil 15-aprel).

XX asrning boshi va birinchi yarmida esa Rimda o'simliklarni muhofaza qilish to'g'risidagi Xalqaro konvensiya (1929-yil 16-aprel), flora va faunani tabiiy holatida saqlab qolish to'g'risidagi Konvensiya (1933-yil) dunyo yuzini ko'rdi. Urushdan keyingi davrlarda o'rmon va boshqa o'simliklarni muhofaza qilish sohasida muayyan o'sish kuzatildi, lekin bu jarayon shakllangan yo'nalishlarni rivojlantirish bilan cheklandi. Bu davrda qabul qilingan xalqaro hujjatlar orasidan o'simliklarni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (1951-yil 6-dekabr, Rim), shuningdek, o'simliklar zararkunandalari va kasalliklari bo'yicha ma'lumot almashish, ularga qarshi kurash olib borish, fitosanitariya nazoratini tashkil qilish tartibini belgilab bergan o'simliklar karantinini qo'llash hamda ularni zararkunandalar va kasalliklardan muhofaza qilish to'g'risidagi Kelishuvni (1959-yil) alohida e'tirof etish o'rirlidir.

O'simlik dunyosi (o'rmondan tashqari) biosferaning hayvonot dunyosi, iqlim, tuproq

bilan uzviy bog'langan muhim tabiiy resursidir. Ta'kidlanadiki, o'simliklar va o'simliklar hamjamiyati o'zaro daxldor tushunchalardir [3].

O'simlik dunyosidek keng qamrovli tushunchaning eng obro'li nashrlardan biri – N.F. Reymarsning "Tabiatdan foydalanish" lug'at-ma'lumotnomasida aks ettirilmagani juda taajjublanarli. Vaholanki, ushbu asarda ko'plab atamalar, jumladan, "o'simlik" va unga tobe boshqa tushunchalar (manzarali, yo'qolib borayotgan, yem-xashak, madaniy, mezotrofik, yetishtiriladigan va b. jami 31 ta atama) ma'nosini ochib beruvchi ta'riflar keltirilgan, shuningdek, "o'simliklar" va unga daxldor antropogen, ikkilamchi, tabiiy, zonal va boshqa o'simliklar haqidagi tushunchalar (jami 11 ta tushuncha) batafsil yoritilgan [4].

Y.A. Galinovskaya o'simlik dunyosini qisqagina qilib, "Yerda makon topgan o'simlik turlari yig'indisi" deb ataydi hamda "o'simliklar", "flora" tushunchalarini uning sinonimlari sifatida e'tirof etadi [5].

V.V. Petrovning qomusiy asarida "o'simlik dunyosi" atamasi qisqa lug'atga kiritilgan. Huquqiy muhofaza obyektlarini tavsiflar ekan, u o'rmon va o'rmondan tashqaridagi o'simliklar tushunchasi va belgilariga izoh berib o'tgan. V.V. Petrov shunday yozadi: "O'rmonga daxlsiz o'simlik deganda, qonunchilik u yoki bu sabablarga ko'ra o'rmon fondiga kirmagan yovvoyi o'simlik dunyosini tushunadi" [6].

A.B. Iskoyan o'simlik dunyosi va o'rmon tushunchalari o'rtasidagi chegarani izchillik bilan o'rganar ekan, quyidagi xulosaga keladi: "O'simlik dunyosi – bu Sovet Ittifoqi hududi, shuningdek, SSSRning kontinental shelfi chegarasida tabiiy va erkin sharoitda o'sadigan yovvoyi o'simliklar (yer usti va suvdagi) yig'indisidir [7]".

Olima mazkur ta'rif "hayvonot dunyosi" tushunchasiga qiyosan shakllantirilganini ta'kidlar ekan, uning fikricha, bu yondashuv muhofaza obyektining tabiiy holatini aks ettiradi va o'simlik dunyosini yovvoyi o'simliklar

to'plami sifatida e'tirof etish, ularni tabiat resurslari va ijtimoiy narsalardan ajratib olish imkonini beradi. A.B. Iskoyan yovvoyi holda o'sadigan va madaniy (madaniylashtirilgan qishloq xo'jaligi, uy va b.) o'simliklar o'rtasidagi tafovutni ham shu nuqtayi nazardan izohlashga urinadi. Uning ta'kidlashicha, "yovvoyi turlar deb evolyutsiya yo'li bilan, Yer tabiatining tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan, o'z holatini tabiiy sharoitlarda inson ko'magisiz to'la-to'kis saqlab qoladigan o'simliklarga aytiladi [7]". So'ngra u "tiriklik" alomatlarini ta'riflab, tabiiy ravishda nobud bo'lgan, yig'ib olingan, yo'q qilib yuborilgan, qayta ishlangan, tabiiy muhitidan ajratilgan, sanoat tarmog'i mahsulotiga aylantirilgan va boshqalar o'simlik dunyosiga kirmasligini aytadi [7]. Nihoyat, u makon belgilari qiymatiga ahamiyat qaratadi va o'simlik dunyosi milliy huquq muhofazasidagi obyekt sifatida mazkur davlat hududi (quruqlik va suv hududlari) bilan cheklanishi lozimligini ta'kidlaydi.

Keltirilgan umumiy ta'riflarga tayanib, o'simlik dunyosi huquqiy muhofaza obyekt sifatida quyidagi xulosalardan iborat deyish mumkin: a) tabiiy muhit elementi; b) muayyan hudud yoki akvatoriya hududida (Yer, qit'a, mintaq, davlat va h.k.) o'sadigan, tabiiy yoki sun'iy kelib chiqishga ega, yovvoyi, madaniy, foydali, zararli, inson tomonidan o'z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan va foydalanilmaydigan o'simliklar majmuyi; d) qayta tiklanadigan tabiat resursi.

"Flora" o'simlik dunyosi tushunchasiga yondosh atamadir, ya'ni u muayyan hudud yoki alohida olingan o'simliklar hamjamiyati tarkibida yashaydigan, shuningdek, makoniy tavsifga ega, evolyutsion-tarixiy sharoitda shakllangan o'simlik turlari majmuyini bildiradi [8].

O'simliklar – bu sporalar, urug'lar, vegetativ qismlardan ko'payadigan avtotrof (parazit o'simliklardan tashqari), odatda, xlorofill-geliotrof (ikkilamchi xlorofillni yo'qotgan parazit shakllari bundan mustasno) hu-

jayralardan iborat organizmlar bo'lib, ular sellyuloza devorlariga egaligi sababli faol harakatlanishga qodir emas. Odatda, ular butun umr o'sadi va 300 ming turdan ortiq o'simlikni bag'rida jamlab, tabiatning alohida podshohligini tashkil qiladi. O'simliklar saltanati suv o'tlari (25 mingga yaqin turi bor), lishayniklar (30 mingga yaqin turi bor), moh (yo'sin) (25–27 ming turi mavjud), paprotniksimonlar (10–11 ming turi mavjud), ochiq urug'lilar (600–770 turi bor), yopiq urug'lilardan (200 mingga yaqin turi bor) tarkib topgan.

Tushunchalar ierarxiyasining navbatdagi ishtirokchisi o'rmon va shu tushuncha hosilalari, masalan, daraxtzorlar, o'rmon uchastkalari, o'rmon fondi [9], daraxtlar, butalar, lianalar va h.k.

O'rmon – qayta tiklanadigan tabiat resursi, muhim ekologik, iqtisodiy ahamiyatga ega o'rmon o'simliklari, yer, hayvonot dunyosi majmuasi [10].

V.V. Petrovning fikricha, "O'rmon tushunchasining, qonunga ko'ra, uch xususiyati bor: *biologik* – daraxt-buta va o't o'simliklar; *huquqiy* – qonunda belgilangan tartibga muvofiq ajratilgan o'rmon fondi yerlarida o'sadigan; *ekologik* – atrof-muhit holatiga ta'sir ko'rsatadigan [11].

Xuddi shu belgilar o'rmonni atrof-muhit omili sifatida park, bog' va boshqa biologik majmualardan farqlashga yordam beradi. Keyin tadqiqotchi olim quyidagi ta'rifni taklif qilgan: "O'rmon – ko'plab ekologik (muhitni muhofaza qiluvchi, iqlimni muvofiqlashtiruvchi, suv va tuproqni asrovchi), iqtisodiy (yog'och mahsulotlar, ov mahsulotlari, meva va rezavorlar, dorivor o'simliklar, texnik xomashyo va b.) va madaniy-sog'lomlashtiruvchi (rekreatsiya vositalari, davolash, salomatlikni tiklash, estetik ta'lim) vazifalarni bajara-digan ekologik komplekslar tizimi".

Muayyan o'simliklar yoki ularning umumiy o'simlik dunyosi sifatidagi majmua-sidan tashqari, huquqiy jihatdan alohida deb e'tirof etiladigan obyektlar, ya'ni kamyob va

yo'q bo'lib borayotgan o'simlik turlari va ular o'sadigan hududlar ham muhofaza obyekti sifatida namoyon bo'ladi. Adabiyotlarda bu obyektlarni tavsiflovchi tushunchalar keltirilgan. Masalan, yashash muhiti – o'simlik dunyosi obyektlarining butun hayotiy sikli davomida mavjud bo'ladigan (o'sadigan) hududi (akvatoriya). Kritik yashash muhiti – bu o'simliklar hayotiy siklining populyatsiya saqlab qolish uchun juda zarur shart-sharoitlari bilan bog'langan, aniq makon ko'rsatkichlariga ega hudud, akvatoriya uchastkalari, yashash muhitining bir qismi [12]. Populyatsiya – o'xshash turlardan ihotalangan holda, avloddan avlodga o'tib, muayyan hududni egallab kelayotgan bitta tur vakillari majmuasi. Har bir populyatsiyaning o'z evolyutsion taqdiri bor.

G'arbiy Yevropa olimlarining o'rmon va o'simlik dunyosiga oid huquqiy qarashlari o'rta asrlardagi texnik inqilob natijasida o'zgargan va muhofaza qilish elementi birmuncha oldinroq shakllangan. Bu Yevropa Parlamenti tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarga singdirilgan.

Yevropada yovvoyi tabiat (Wilderness) tushunchasining o'zi antropogen ta'sirdagi tabiat bilan uyg'unlashib ketgan. So'nggi 15 yil ichida cho'l tushunchasi Yevropada sezilarli kuchga ega bo'ldi. 2005-yilda Yevropada yovvoyi tabiatni muhofaza qilish va tiklash strategiyasini muvofiqlashtiruvchi Wild Initiative tashkil etildi [13].

O'zbekiston Respublikasi ekologik huquqiy soha namoyondalari ham o'simlik va o'rmon tushunchalarini huquqiy jihatdan aniq mezonlar asosida ilmiy izohlaydi. Aksariyat olimlar o'simlik dunyosini o'rmondan tashqari, ya'ni aniq belgilangan huquqiy maqomga ega bo'lgan hududdan tashqari tabiiy obyekti sifatida ta'riflaydi.

Professor M. Usmonovning fikricha, o'simlik dunyosi deganda, O'zbekiston Respublikasi hududida tabiiy muhitda o'sadigan yoki sun'iy yaratilgan sharoitda yetishtiriladigan barcha turdagi yovvoyi o'simliklar majmuyi

tushuniladi. O'simlik dunyosi obyektlari, birinchidan, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar; ikkinchidan, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning yashash faoliyati mahsulotlari; uchinchidan, botanika kolleksiyalari hisoblanadi. [14]

F.S. Namozov o'simlik dunyosiga quyidagicha ta'rif berishni taklif qiladi: "O'simlik dunyosi deganda, chorvachilik, ovchilik, texnik xomashyo tayyorlash, dorivorlarni yig'ish, daraxt va butalarni kesish, ilmiy-tadqiqot, madaniy-ma'rifiy, sog'lomlashtirish, rekreatsiya, tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalaniladigan yovvoyi organizmlar, daraxt, buta va o'tsimon urug'laydigan o'simliklar, qirqquloqsimonlar, mohsimonlar, suv o'tlari, lishayniklar, zamburug'lar, tabiiy o'simliklar majmuyi yig'indisi tushuniladi" [15].

G. Uzakovanning fikricha, shahar va qishloqlarda aholi uchun "qulay yashash muhiti"ni ta'minlashda yashil hududlarning miqdor mezonlarini aniq belgilab berish zarur [16].

Tadqiqot natijalari tahlili

Bizningcha, o'simlik dunyosi – davlat hududi bo'ylab yerda va suvda tabiiy erkin holda o'suvchi, shuningdek, takror yetishtirish hamda genetik fondini saqlash uchun ekib o'stiriladigan, shuningdek, o'rmondan tashqarida joylashgan yovvoyi o'simliklar yig'indisidir.

Umuman olganda, o'rmon va boshqa o'simliklarni muhofaza qilish choralari, ularning huquqiy tartibini ishlab chiqish, amalga oshirish va nazorat qilish masalasi xalqaro hamjamiyat va muayyan davlatlar, ularning ittifoqi tomonidan atrof-muhitni himoya qilishning ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi. XX asrning so'nggi yillarida xalqaro hamjamiyat va qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi tomonidan ijobiy qadamlar tashlangani kuzatilsa-da, huquqiy va tashkiliy faoliyatning mazkur yo'nalishi suv, atmosfera iqlimi, hayvonot dunyosi va boshqalarni muhofaza qilishga nisbatan kamroq faollik ko'rsatmoqda.

Nazarimizda, bu o'simlik dunyosini muhofaza qilish sohasidagi rejali va barqaror siyosatning emas, balki umumiy tabiatga ega ziddiyatli tendensiyalar bilan bog'liq bo'lsa kerak:

birinchidan, irsiy muhandislik faoliyatining gurkirib rivojlanishi ortidan atrof-muhitga nisbatan yangi tahdidlarning paydo bo'lishi, atrof-muhit bilan noqonuniy savdo qilishning keng tarqalishi;

ikkinchidan, tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga kompleks yondashuvning joriy etilishi, avvalo, barqaror rivojlanish va biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan xalqaro hujjatlarning qabul qilinishi.

Xulosalar

Bugungi nazariy yondashuvlar ertangi yangi qonunchilik tizimining poydevori bo'lishi, shubhasiz. Shu sababli tabiatning ekologik muvozanatidan kelib chiqib,

o'simlik dunyosini yaxlit tabiiy obyekt, o'rmonni esa tabiiy kompleks sifatida talqin qilishimiz, qonunchiligimizni ham optimallashtirgan holda, barcha tabiiy komplekslar uchun yagona qonun hujjati doirasida muhofaza qilishimiz maqsadga muvofiq. Zero, o'rmonni ham uning huquqiy maqomidan kelib chiqqan holda muhofaza etiladigan tabiiy hudud qatoriga kiritish eng to'g'ri yechimdir. O'rmon uchun alohida qonun ko'rinishidagi huquqiy mexanizm va tartib amal qilinishi, haqiqatan ham, o'rmon (daraxt) bilan qoplangan hudud uchun samarali hisoblanadi. Aks holda, formal ahamiyat kasb etuvchi qonunlarning soni yana bittaga oshganligi bilan ahamiyatlidir. Buning uchun huquqiy doktrina va nazariyalar huquq tizimi shakllanishida lokomotiv sifatida namoyon bo'lishi maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Kolbasov O.S. Mezhdunarodno-pravovaya okhrana okruzhayushchey sredy [International legal protection of the environment]. *International Relationships*, Moscow, 1982, p. 128.
2. Ford H. Mening hayotim [My life]. Tashkent, Nihol Publ., 2021, p. 298.
3. Dubovik O.L. Ekologicheskoye pravo [Environmental law]. Moscow, 2006, p. 149.
4. Reymers N.F. Prirodopol'zovaniye [Nature management]. Dictionary-reference. Moscow, 1990, pp. 439–441.
5. Ekologiya [Ecology]. Legal Encyclopedic Dictionary. Moscow, 2000, p. 342.
6. Petrov V.V. Ekologicheskoye pravo Rossii [Russian environmental law]. Moscow, 1995, p. 113.
7. Iskoyan A.B. Pravovoye regulirovaniye okhrany i ispol'zovaniya rastitel'nogo mira (nelesnoy rastitel'nosti) [Legal regulation of the protection and use of flora (non-forest vegetation)]. Yerevan, Yerevan University Press, 1987, p. 18.
8. Reymers N.F., Yablokov A.V. Slovar' terminov i ponyatiy, svyazannykh s okhranoy zhivoy prirody [Glossary of terms and concepts related to the protection of wildlife]. Moscow, 1982, p. 130.
9. Krassov O.I. Kommentariy k Lesnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Commentary on the Forest Code of the Russian Federation]. Moscow, 2007, p. 27.
10. Zhalinskiy A.E. Uchebno-prakticheskiy kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Educational and practical commentary on the Criminal Code of the Russian Federation]. Moscow, Eksmo, 2006, pp. 801–802.
11. European Wilderness Society Websites. Available at: <http://wilderness-society.org/>.
12. Usmonov M.B. Flora huquqi [Flora Law]. Tashkent, 2020, p. 448.

13. Ekologiya huquqi [Ecological law]. Ed. M.B. Usmanov. Tashkent, 2001, p. 182.
14. Uzakova G.Sh. Aholi punktlarida tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilishning huquqiy tartibi [Legal procedure for the use and protection of natural resources in settlements]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2021, p. 68.
15. Arts B. , Buizer M. Forests, discourses, institutions. *Forest Policy Econ.*, 2009, pp. 340-347.
16. Lizgaro V.E., Makarova T.I. 2012 Environmental law. Minsk, TetraSystems p. 160.
17. AverinaK.N. Pravovaya okhrana lesov: sravnitel'no-pravovoy analiz [Legal protection of forests: a comparative legal analysis]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2021, p. 31.

UDC: 347.963(045)(575.1)

PROKURATURA ORGANLARINING YER TO'G'RISIDAGI QONUN HUJJATLARI IJROSI USTIDAN NAZORATNI AMALGA OSHIRISH BORASIDAGI VAZIFALARI TAQSIMLANISHINING AYRIM JIHATLARI

Abduhakimov Murodullo Tog'ayevich,

Bosh prokuratura Akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0002-9544-4637

e-mail: murodill@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish vakolati berilgan prokuratura organlari doirasi, ular o'rtasida vazifalarning o'zaro taqsimlanishining ayrim masalalari, xorijiy mamlakatlarda yer munosabatlarining tartibga solinishi, chet el prokuratura organlarining yer sohasidagi vazifa va vakolatlari bilan bog'liq masalalar yoritilgan hamda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan. Xususan, yerga oid qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul bo'lgan Bosh prokuratura va hududiy prokuraturalar tegishli tarmoqlarining tashkil etilishi, ular faoliyatining takomillashtirilishi, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tashkil qilingan ixtisoslashtirilgan prokuraturalarga ham yerga oid qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazorat vazifalarining yuklanganligi holatlari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiq qilinayotgan masala bo'yicha statistik ma'lumotlar, tadqiqotchi olimlarning ilmiy qarashlari hamda mutaxassislar fikrlari keltirilib, tahlil qilinayotgan mavzuning nazariy jihatlariga ham e'tibor qaratilgan. Yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi bo'yicha prokuratura organlari tomonidan xorijiy mamlakatlar, aynan G'arb davlatlari tajribasini tahlil etish prokuratura faoliyati, asosan, sudlarda prokuror ishtirokini ta'minlash va jinoyat qonunchiligi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilganligi, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati funksiyasi yetakchi funktsiya bo'lib qolayotganligi haqida xulosa berilgan.

Kalit so'zlar: prokuratura, qonun hujjatlari, prokuror nazorati, vazifalar taqsimlanishi, yer, yer islohoti, qishloq xo'jaligi yerlari, sug'oriladigan yer, hududiy va ixtisoslashtirilgan prokuratura, xorijiy mamlakatlar, yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallash, noqonuniy qurilish, javobgarlik.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ОБЯЗАННОСТЕЙ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ ПО ОСУЩЕСТВЛЕНИЮ НАДЗОРА ЗА ИСПОЛНЕНИЕМ ЗЕМЕЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

Абдухакимов Муроdulло Тогаевич,

самостоятельный соискатель

Академии Генеральной прокуратуры

Республики Узбекистан

Аннотация. Настоящая статья посвящена анализу сферы деятельности органов прокуратуры, уполномоченных осуществлять контроль за исполнением земельного

законодательства, некоторые вопросы взаимного распределения обязанностей между ними, вопросы, связанные с регулированием земельных отношений в зарубежных странах, задачи и полномочия иностранных органов прокуратуры в земельной сфере, и включает предложения по совершенствованию законодательства. В частности, некоторые аспекты организации соответствующих подразделений Генеральной прокуратуры и территориальных прокуратур, которые отвечают за осуществление надзора за исполнением земельного законодательства, совершенствования их деятельности и деятельности специализированных прокуратур, организованных для природоохраны, также проанализированы случаи присвоения функции надзора за реализацией земельного законодательства. Кроме того, представлены статистические данные по изучаемому вопросу, научные взгляды ученых-исследователей и мнения специалистов, а также уделено внимание теоретическим аспектам анализируемого предмета. В результате изучения опыта в области контроля за исполнением законодательства в сфере землепользования в зарубежных странах, конкретно стран Запада, сделан вывод, что основная деятельность органов прокуратуры направлена на обеспечение участия прокурора в судебных процессах и реализацию государственной политики в сфере борьбы с преступлениями, а в странах СНГ функция прокурорского надзора является доминирующей.

Ключевые слова: прокуратура, законодательные акты, прокурорский надзор, распределение обязанностей, земля, земельная реформа, сельскохозяйственные угодья, орошаемые земли, территориальная и специализированная прокуратура, зарубежные страны, самовольный захват земельных участков, незаконное строительство, ответственность.

SOME ASPECTS OF THE DISTRIBUTION OF RESPONSIBILITIES OF THE PROSECUTOR'S OFFICE FOR THE SUPERVISION OF THE IMPLEMENTATION OF LAND LEGISLATION

Abduxakimov Murodullo Togaevich,
Independent Researcher of the Academy
of the General Prosecutor's Office of
the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article is devoted to the analysis of the scope of activities of the prosecutor's office authorized to monitor the implementation of land legislation, some issues of mutual distribution of responsibilities between them, issues related to the regulation of land relations in foreign countries, the tasks and powers of foreign prosecutor's offices in the land sphere, and includes proposals for improving legislation. In particular, some aspects of the organization of the relevant departments of the General Prosecutor's Office and territorial Prosecutor's offices, which are responsible for overseeing the implementation of land legislation, improving their activities, specialized prosecutor's offices organized for nature protection control tasks for the implementation of land legislation. Moreover, statistical data on the issue under study, scientific views of research scientists and opinions of specialists are also presented, as well as attention is paid to the theoretical aspects of the analyzed subject. As a result of studying the experience in the field of control over the implementation of legislation in the field of land use in foreign countries, namely in western countries, it was concluded that the main activity of the prosecutor's office is aimed at ensuring the participation of the prosecutor in a court proceeding, and in the CIS countries, the function of prosecutor's supervision is dominant.

Keywords: prosecutor's office, legislation, prosecutor's supervision, distribution of responsibilities, land, land reform, agricultural land, irrigated land, territorial and specialized prosecutor's office, foreign countries, unauthorized seizure of land, illegal construction, responsibility.

Kirish

Respublikamizda muqaddas yerlarimizni asrash, uning har bir qarich yeridan oqilona foydalanish – bevosita milliy xavfsizlik va barqarorlikka to'g'ridan to'g'ri daxldor hisoblanib, xalqimizning rizq-u ro'zi, to'kis va farovon hayoti bebaho boylik – yerdan oqilona foydalanishga chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda ekin yerlari respublika umumiy yer maydonining (44,8 mln gektar) atigi 9,7 foizini (4,3 mln gektar) tashkil etadi. Ekin yerlarining ham faqatgina 3,2 mln gektari sug'oriladigan yerlar hisoblanib, yerdan foydalanishdagi mas'uliyatsizlik, o'zibo'larchilik va noqonuniy holatlar oqibatida bunday yerlar ham yildan yilga kamayib bormoqda. Aholi sonining o'sishi, qishloq xo'jaligi yerlarining boshqa toifalarga o'tkazilishi va global iqlim o'zgarishi oqibatida so'nggi 15 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan, sug'oriladigan yer maydoni 23 sotixdan 16 sotix yoki 24 foizga kamaydi. Misol uchun, bugun Andijon viloyatida ekin yerlari u yerda istiqomat qiluvchi odam boshiga atigi 7 sotixdan to'g'ri kelmoqda. Shunday bir vaziyatda, yerdan foydalanishdagi o'zibo'larchilik va suiiste'molchiliklar oqibatida o'tgan 30 yil mobaynida qariyb 200 ming gektar sug'oriladigan yerlar qisqarib, boshqa toifali yerlarga aylangan. Birgina 2017-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrning o'zida sug'oriladigan yerlar 31,5 ming gektarga qisqarib ketgan [1].

O'zbekistonning hozirgi yangi taraqqiyot bosqichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan yer maydonlaridan samarali va oqilona foydalanishga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. "Har qarich yer – davlatning, demakki, xalqimizning bebaho boyligi hisoblanadi. Undan noqonuniy, o'zboshimchalik bilan foydalanishga hech kimning haqqi yo'q" [2], deb ta'kidlagan edilar Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev.

Bugungi kunda respublikamizda Yangi O'zbekistonni qurish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yer may-

donlarini muhofaza qilish, undan oqilona va qonunda belgilangan tartibda foydalanishni ta'minlash borasida prokuratura organlariga ko'plab vazifalar yuklanmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 11-martdagi "Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3406-sonli Farmoniga ko'ra, Bosh prokuratura, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyat prokuraturalarida qishloq xo'jaligi sohasida qonuniylikni ta'minlash hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlarini himoya qilish bo'limlari tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 24-iyuldagi "Qonunchilik ijrosini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4636-sonli Farmoniga ko'ra, yuqorida ko'rsatilgan Bosh prokuraturaning qishloq xo'jaligi sohasida qonuniylikni ta'minlash va xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlarini himoya qilish bo'limi Qishloq xo'jaligi sohasida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar prokuraturalaridagi qishloq xo'jaligi sohasida qonuniylikni ta'minlash va xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlarini himoya qilish bo'limlari qishloq xo'jaligi sohasida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limlariga o'zgartirilgan.

Mazkur islohotlar davom ettirilib, yerlardan foydalanish va uni muhofaza qilish jarayonida qonuniylikni ta'minlash, sohada qat'iy prokuror nazoratini o'rnatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi "Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 138-sonli qarori bilan Bosh prokuraturada Yer resurslari talon-toroj qilinishining oldini olish boshqarmasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalarida esa umumiy soni 56 ta shtat birligidan iborat

bo'lgan Yer resurslari talon-toraj qilinishining oldini olish bo'limlari tashkil etildi.

Ushbu mavzuga aloqador huquqiy adabiyotlar o'rganilganda, yerga oid qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishni kompleks ta'minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar mavjud emasligi, yerga oid qonunlar ijrosi ustidan nazoratning to'liq amalga oshirilishini ta'minlash hamda yer sohasidagi qonun buzilishi holatlarini aniqlashning zamonaviy to'liq metodologiyasi yaratilmaganligi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, yuqorida ko'rsatilgan tuzilmalar, hududiy prokuraturalar va unga tenglashtirilgan ixtisoslashtirilgan prokuraturalarda yerga oid qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratini ta'minlash borasida vazifalarning to'g'ri taqsimlanishida ayrim bo'shliqlar mavjud.

O'zbekistonda mazkur sohada umuman ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Xorijiy davlatlardan faqatgina Rossiya Federatsiyasida Y.G. Chervyakova, T.B. Ashitkova va O.V. Kaluginalar tomonidan Rossiya Federatsiyasining yer qonunchiligi ustidan prokuror nazorati masalalariga doir ilmiy izlanishlar olib borilgan, xolos.

Umuman olganda, ushbu mavzuni tadqiq qilishning dolzarbligi quyidagi omillarga bevosita bog'liq. Xususan:

- yerga oid qonun buzilishi holatlari juda yuqori ko'rsatkichlarni tashkil qilmoqda. Achinarlisi, bunday huquqbuzarliklar yerdan foydalanuvchilar qatorida mahalliy hokimlik va yer nazoratiga bevosita mas'ul bo'lgan idoralar xodimlari tomonidan ham ko'plab sodir etilmoqda;

- yerdan noqonuniy foydalanish, qishloq xo'jaligi, ayniqsa, sug'oriladigan yerlarning boshqa maqsadlarda ishlatilishi oqibatida yer maydonlari sezilarli darajada kamaymoqda;

- so'nggi uch yilda prokuratura organlari zimmasiga yerlardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlash bo'yicha ko'plab vazifalar yuklanib, ushbu soha prokuror

nazoratining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda;

- qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati predmeti va chegaralariga oid yondashuvlarning o'zgarib borayotganligi sababli ushbu sohada nazoratni amalga oshirishning yangicha nazariy qoidalari va tavsiyalarini ishlab chiqish hamda sohada yagona amaliyotni joriy qilish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasida yer to'g'risidagi qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati obyektining ilmiy-nazariy asoslari to'g'ri tashkil qilinganligi, yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, prokuratura organlari tomonidan qo'llanilgan prokuror nazorat hujjatlarining kamchiliklarini tahlil qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish, xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlari tomonidan yerlardan foydalanish va uni muhofaza qilish yuzasidan nazoratni amalga oshirish xususiyatlarini qiyosiy-huquqiy tadqiq etish asosida ijobiy tajribani mamlakatimizga tatbiq etish masalalari o'rganildi. Ushbu masalalar bo'yicha muallifning takliflari ishlab chiqilib, qonunchilikni to'ldirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Tadqiqot davomida tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, empirik material va statistik ma'lumotlar tahlili, qonun hujjatlarini sharhlash, kuzatuv, maxsus ilmiy va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganib borish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan oq milliy prokuraturaning paydo bo'lishi va shakllanishiga alohida e'tibor berildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari

to'g'rsida"gi PF-313-sonli Farmoniga asosan, Sobiq Sovet ittifoqi qaramog'idagi O'zbekiston SSR prokuraturasi O'zbekiston Respublikasi prokuraturasiga aylantirildi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1992-yil 24-yanvarda "O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 313-sonli qarori qabul qilinib, unda prokuror nazoratining asosiy masalalari belgilab berildi.

Bugungi kundagi prokuratura organlarining tizimi, ularning faoliyat yo'nalishlari va boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida qabul qilingan hamda 2001-yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni-da o'z aksini topdi.

Prokuratura organlarining vakolatlari markazlashganlik tamoyilidan kelib chiqib, hududiy prokuraturalar hamda maxsus prokuratura va tarmoqlarga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi mumkin. Shu o'rinda yerga oid qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratning amalga oshirilishida ularning vakolat doiralari aniq belgilanishi ham maqsadga muvofiq sanaladi. O. Kaluginaning fikriga ko'ra, qonunlar ijrosi, shu jumladan, yerdan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratining samaradorligi ko'p jihatdan prokurorning ushbu nazorat sohasini amalga oshirish bo'yicha ishini tashkil etishi bilan belgilanadi [3].

O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasida O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tizimiga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari, tumanlar va shaharlar prokuraturalari, viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi, tuman

prokuraturalariga tenglashtirilgan, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar kirishi ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi, shuningdek, ularning joylardagi bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazorat Bosh prokuratura, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalarida ikkita tarmoq tomonidan amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 7-noyabrda-gi "Qishloq xo'jaligi sohasida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi 160-sonli buyrug'ining 1-bandida [4] qishloq xo'jaligi yerlaridan maqsadli va oqilona foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshirish Bosh prokuraturaning Agrar va oziq-ovqat sohaslarini rivojlantirishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasiga yuklangan. O'z navbatida, noqishloq xo'jaligi yerlaridan maqsadli va oqilona foydalanish hamda davlat kadastri xizmati ko'rsatilishi jayronida qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish esa O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 24-noyabrda-gi "Ijtimoiy va iqtisodiy qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 166-sonli buyrug'iga [4] ko'ra, Bosh prokuraturaning iqtisodiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat va uning hududiy bo'limlariga yuklangan.

Mazkur bo'limlar, ular o'rtasida vazifalar taqsimotidagi muammolar xususida to'xtalishdan oldin mazkur tarkibiy tarmoqlarning tashkil qilinishi hamda ular oldiga qo'yilgan vazifalar haqida to'xtalish joiz.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 11-martdagi "Qishloq

xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3406-sonli Farmoniga ko'ra, qishloq xo'jaligi sohasida qonuniylikni ta'minlash va xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlarini himoya qilish bo'limlarining asosiy vazifalari etib:

- qishloq xo'jaligi sohasidagi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari hamda Hukumat qarorlarida bayon etilgan talablarning o'z vaqtida, to'liq ijro etilishini nazorat qilish;

- asosiy qishloq xo'jalik ekinlari (*paxta va g'alla*) ekiladigan maydonlar monitoringini muntazam o'tkazib turish, ekin maydonlari mahsulot ishlab chiqaruvchilar – fermer va shirkat xo'jaliklari, tuman va viloyatlar tomonidan qabul qilingan hamda tasdiqlangan shartnoma majburiyatlariga muvofiqligini tanlab, tekshirishlar o'tkazish;

- fermer va dehqon xo'jaliklariga yer ajratish borasida qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarda o'rnatilgan tartib buzilishining oldini olish kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish, mas'ul shaxslar tomonidan xizmat mavqeyi suiiste'mol qilinishi, qarindosh-urug'chilik va oshna-og'aynigarchilik munosabatlaridan foydalanish hollariga yo'l qo'ymaslik;

- yerlardan maqsadli va asrab-avaylab foydalanish, ularning unumdorligi saqlanishini ta'minlab kelayotgan fermer hamda dehqon xo'jaliklarining huquq va manfaatlarini himoya qilish;

- yerlardan qat'iy ravishda maqsadli foydalanish, sug'oriladigan ekin maydonlari muomaladan chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bo'yicha qabul qilingan shartnoma majburiyatlariga rioya etilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish;

- qishloq xo'jaligi sohasida huquqbuzarliklar profilaktikasi, shu jumladan, huquqbuzarliklarning oldini olish ekanligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-martdagi "Agrar va oziq-ovqat

sohalarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4643-sonli qarorining 4-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Qishloq xo'jaligi sohasida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi Agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar prokuraturalarining qishloq xo'jaligi sohasida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limlari agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limlari deb qayta nomlangan hamda ularga qo'shimcha 145 ta shtat birliklari ajratilgan.

Shuningdek, mazkur qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tuzilmasida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi va ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar prokurorlarining o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi transport prokurorining katta yordamchisi lavozimlari joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2021-yil 25-maydagi 233-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi to'g'risidagi nizom"ning 7-bandiga ko'ra, boshqarmaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirishga oid qonunchilik hujjatlari, Bosh prokuratura hay'ati qarorlari va ish rejalari, Bosh prokuror buyruqlari, farmoyishlari va ko'rsatmalari ijrosini qat'iy ta'minlash;

- yer va suv resurslaridan maqsadli foydalanishni ta'minlash, sug'oriladigan ekin maydonlari qonunga xilof ravishda muoma-

ladan chiqarilishining oldini olish choralari ko'rish;

- qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi klasterlar, kooperatsiyalar, fermer xo'jaliklari va boshqa korxonalarga yer ajratish borasida qonunchilik talablariga rioya etilishi, yer maydonlariga qishloq xo'jaligi ekinlari joylashtirilishining qonuniy, asosli va adolatli amalga oshirilishi ustidan nazorat o'rnatish;

- agrar va oziq-ovqat sohaslarida tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishi, suv tejovchi texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda foydalanishdan chiqib ketgan yerlarning qayta foydalanishga kiritilishini ta'minlash;

- o'rmon va o'rmon fondi yerlaridan foydalanish sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan tizimli nazoratni ta'minlash va h. k.

Eng qizig'i, yer bilan bog'liq asosiy munosabatlar qishloq xo'jaligi yerlariga taalluqli bo'lsa-da, Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi va uning yer bilan bog'liq faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish Bosh prokuratura va hududiy prokuraturalarning iqtisodiy sohadagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'yicha tarmoqlariga yuklangan.

Shu sababli ushbu ilmiy tadqiqot jarayonida yer sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo'nalishi bo'yicha Bosh prokuratura va viloyat prokuraturalarida alohida tarmoqlarni tashkil qilish, ushbu tarmoqlarga Yer kodeksining 8-moddasida ko'rsatilgan barcha yer toifalari bo'yicha qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasini yuklash maqsadga muvofiqligi haqida taklif ishlab chiqilib, ushbu taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi PQ-138-sonli qarori qabul qilinishida inobatga olingan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari tizimida maxsus prokuraturalar tashkil qilingan bo'lib, ular tomonidan ham yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi bo'yicha nazorat amalga oshiriladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni dastlab qabul qilingan vaqtda, ya'ni 1992-yil 8-dekabrda ham prokuratura organlari tizimida tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan tabiatni muhofaza qilish prokuraturalari faoliyat ko'rsatishi belgilab qo'yilgan edi. O'zbekiston Respublikasi prokurori tomonidan 1993-yil 11-oktabr kuni tasdiqlangan "Orol tabiatini muhofaza qilish prokuraturasi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, Orol tabiatini muhofaza qilish prokuraturasining asosiy vazifalari sifatida Orolbo'yi mintaqasida atmosfera havosi, yer va yer osti, hayvonot dunyosi, zakazniklar, qo'riqxonalar, o'rmon va o'simliklar dunyosi, tabiiy yodgorliklar to'g'risidagi, korxona, tashkilotlarning sanoat va xo'jalik chiqindilarini zararsizlantirish yoki yo'q qilish tartibini belgilovchi qonunlar bajarilishini nazorat qilish ekanligi ko'rsatib o'tilgan [5].

Mazkur prokuratura Orolbo'yi hududlaridagi hududiy prokuraturalar bilan birgalikda yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan nazoratni ham amalga oshirib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-avgustdagi "Bo'stonliq tumani boshqaruvning alohida tartibini joriy etish orqali turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6053-sonli Farmoniga ko'ra, Toshkent viloyatida tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat va yerlardan noqonuniy foydalanishni bartaraf etish bo'yicha ixtisoslashtirilgan prokuratura tashkil etilgan hamda tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat, shuningdek, yerlardan noqonuniy foydalanishni bartaraf etish bo'yicha ixtisoslashtirilgan prokuratura Bo'stonliq tumani hududida joylashtirilishi belgilangan [6]. Bosh prokurorning 2020-yil 14-oktabrdagi 1152-sonli buyrug'iga ko'ra, Toshkent tabiatni muhofaza qilish prokuraturasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

– Toshkent viloyati hududida tabiatni muhofaza qilish, yer va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, hududning ekologik holatini yanada yaxshilash, ekoturizmni rivojlantirishga oid qonun hujjatlari soʻzsiz bajarilishi ustidan nazorat olib borish;

– yer, yer osti boyliklari, suv, oʻrmonlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, hayvonot va oʻsimlik dunyosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish;

– yer maydonlarining oʻzboshimchalik bilan egallab olinishi hamda noqonuniy obyektlar qurilishining oldini olish, oʻrmon fondi yerlarida yer uchastkalaridan foydalanilishida qonunchilikka qatʼiy amal qilinishini taʼminlash choralarini koʻrish;

– “Chorvoq” erkin turistik zonasi hududida yer uchastkalaridan foydalanilishi, yashil zonalarining tashkil qilinishi, tabiatga zarar keltiradigan xoʻjalik faoliyati, shu jumladan, chorvachilik, dehqonchilik, yangi sanoat va xizmat koʻrsatish obyektlarini barpo etish taqiqlangan zonalarining belgilanishi hamda unga amal qilinishini nazorat qilish;

– tabiatni muhofaza qilish, yer va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning oqibatlarini va bunga imkon bergan sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishini taʼminlash;

– tabiatni muhofaza qilish, yer va tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi jinoyatlar haqida ariza, xabar va maʼlumotlar yuzasidan tergovga qadar tekshiruv hamda qoʻzgʻatilgan jinoyat ishlari boʻyicha dastlabki tergov oʻtkazish va h. k.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Jizzax viloyatida tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik ijrosini taʼminlashning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-226-sonli qaroriga asosan, 8 nafar shtat birligidan iborat boʻlgan Zominda tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik ijrosi

ustidan nazorat va yerlardan noqonuniy foydalanishni bartaraf etish boʻyicha ixtisoslashtirilgan prokuratura tashkil etilgan. Ushbu qarorning 2-bandiga koʻra, mazkur ixtisoslashgan prokuraturaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar qayd etilgan:

– Jizzax viloyatining Zomin va Baxmal tumanlari hududlarida tabiatni muhofaza qilish, sogʻlomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga moʻljallangan yerlar, oʻrmon va suv fondi yerlari, shu jumladan, Zomin milliy tabiat bogʻi va Zomin davlat qoʻriqxonasi yerlaridan oqilona foydalanish hamda bunday yerlarni muhofaza qilishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan doimiy nazoratni oʻrnatish;

– tumanlar hududidagi tabiatni muhofaza qilish, sogʻlomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga moʻljallangan yerlarning oʻzboshimchalik bilan egallab olinishi hamda ularda noqonuniy qurilmalar qurilishining oldini olish boʻyicha doimiy choralar koʻrib borish;

– tumanlar hududidagi oʻrmon va suv fondi yerlaridan maqsadli hamda samarali foydalanilishi ustidan doimiy monitoring olib borish;

– tumanlar hududida tabiat, yer osti boyliklari, oʻsimlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari rioya etilishi ustidan qatʼiy prokuror nazoratini oʻrnatish;

– sohada qonun buzilishi holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish choralarini koʻrish.

Ushbu qaror ijrosini taʼminlash maqsadida ham Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2022-yil 30-apreldagi 707-sonli buyrugʻi qabul qilinib, yuqorida koʻrsatilgan Prezident qaroridan kelib chiqqan holda, Zomin tabiatni muhofaza qilish prokuraturasining asosiy vazifalari belgilab berilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Shu oʻrinda hududiy prokuraturalar va yuqorida sanab oʻtilgan ixtisoslashtirilgan prokuraturalar oʻrtasida vazifalar

chegarasi aniq qilib belgilanmaganligi oqibatida bir-birini takrorlash holatlari mavjudligi, prokurorlarning ushbu sohadagi aniq majburiyatlari belgilab berilmaganligi ko'zga tashlanadi. Chunki "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 45-moddasiga ko'ra, prokurorlar faoliyatini baholashning asosiy mezonlari qonuniylikning holati va fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy munfaatlari himoya qilishning ta'minlanishi hisoblanishi qat'iy belgilangan.

Yerlardan foydalanish sohasida qonuniylikni ta'minlashda hududiy prokuror ushbu mazmundagi murojaat va xabarlarni qabul qilib, hal qiladi, yerlardan oqilona va maqsadli foydalanilishi sohasida tekshirishlar o'tkazadi, mazkur sohaga aloqador bo'lgan idoralar faoliyatida qonun hujjatlariga rioya etilishini o'rganib, tegishli qarorlar qabul qiladi.

Mazkur vazifalarning muayyan hududlarda maxsus prokuraturalarga ham umumiy vazifa qilib berilishi kelgusida ular o'rtasida bir-birini takrorlash va boshqa turli xil tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqotchi O. Kalugina ham tabiatni muhofaza qilish prokuraturalari yer tabiiy resurs bo'lganligi sababli ushbu sohada qonunning bajarilishini nazorat qilish uchun to'liq javobgar bo'lishi kerak, deb hisoblansa-da, mazkur nazorat sohasini amalga oshirishda asosiy yuk hududiy prokurorlar zimmasiga yuklanganligini bayon qilgan [7].

Umuman olganda, ixtisoslashtirilgan prokuraturalar o'ziga yuklatilgan vazifalar ijrosi ta'minlanishiga qat'iy javobgar hisoblanmaydi. Shu sababli bunday ixtisoslashtirilgan prokuraturalarning aniq vazifalari belgilab berilishi natijasida ushbu predmet yoki obyekt tuman prokuraturalarining javobgarligidan olib tashlanishi maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, Toshkent ixtisoslashtirilgan prokuraturasiga "Chorvoq iqtisodiy zonasi", Toshkent viloyatidagi Zomin ixtisoslashtirilgan prokuraturasiga esa Jizzax viloyatidagi (Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi qirg'oq mintaqalaridan tashqari) muhofaza qilinadigan

tabiiy hududlar hamda o'rmon xo'jaliklari hududlarida yerdan foydalanish sohasidagi qonunlar ijrosi ustidan nazoratni yuklash orqali tuman prokuraturalaridan aynan ushbu obyektlarda qonunlar ijrosi ustidan nazorat vazifasini olib tashlash lozim.

Xorijiy tajriba

Jahon yer fondining jami 78 foizida (Antarktidasiz) qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun ba'zi tabiiy cheklovlar mavjud bo'lsa, qolgan 22 foiz yer maydonlaridan 13 foizi past, foizi o'rtacha va faqat 3 foizi yuqori unumdorligi bilan ajralib turadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, sanoat yerlarining umumiy yer fondidagi ulushi 6-7 foizni tashkil qilmoqda. Sanoatni yer bilan ta'minlashda o'z maydonining ulushi bo'yicha AQSh – 0,8 foiz, Xitoy – 3 foiz, Fransiya – 3,4 foiz, Germaniya – 8 foiz, Buyuk Britaniya – 8,5 foiz, Yaponiya – 10,4 va Ukraina – 2,8 foizidan foydalanmoqda [8].

Yer resurslarini boshqarishda, ulardan foydalanish va muhofaza qilishda dunyoning barcha iqtisodiy rivojlangan va taraqqiy etgan mamlakatlarida qishloq xo'jaligi yerlariga ustuvorlik beriladi. Ular orasida mahsuldor qishloq xo'jaligi yerlari asosiy o'rinni egallaydi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan va yer munosabatlarini huquqiy tartibga solishning barqaror tizimlari yaratilgan davlatlar sifatida Amerika, Angliya, Niderlandiya, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarni qayd etish mumkin. Ushbu davlatlarda yer huquqining asosiy instituti mulk huquqi instituti bo'lib, u xorijiy mamlakatlar yer huquqining boshqa institutlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi va shunga ko'ra, ushbu davlatlar yer qonunchiligi va yer huquqiy adabiyotlarida haqli ravishda markaziy o'rinni egallaydi.

Yer islohotlari amalga oshirilayotgan rivojlangan davlatlarni esa ularda amalga oshirilgan islohotlarning shakliga qarab to'rt guruhga ajratishimiz mumkin.

Sharqiy Yevropa davlatlari – Bolgariya, Vengriya, Germaniya, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Chexiya, Yugoslaviya uchun yer islohotlarining asosiy yoʻnalishlari – yerlarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyLashtirish, davlat va kooperativ qishloq xoʻjalik iqtisodiyoti sohalarini qayta tashkil etish, dehqon (fermer) xoʻjaliklarini tashkil etish hisoblanadi.

Yer va agrar munosabatlarni Xitoy va boshqa janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida isloh qilish ham oʻziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, Xitoyda xalq kommunallarini yoppasiga tenglashtirishga asoslangan tizim oʻrtasida oilaviy pudrat tizimi yuzaga kelgan. Xitoydagi oilaviy pudrat tizimi yerni dehqon xoʻjaliklariga boʻlib berishga qaratilgan boʻlib, qishloq joylaridagi millionlab mehnatkashlarni ish joyi bilan taʼminlagan va sanoat mahsulotlarining sezilarli darajada oʻsishiga xizmat qilgan “qishloq sanoati” nomi bilan mashhur boʻlgan.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida qishloq xoʻjaligi va yer munosabatlarini isloh qilish tartibi ham qiziqish uygʻotadi, zero, ushbu davlatlarda kollektiv (jamoat) mulkchilikdan voz kechish va xususiy mulkchilikni belgilash tizimi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Afrika davlatlarida yer munosabatlarini tartibga solishdagi oʻziga xoslik shundaki, ushbu davlatlar koʻp yillar davomida rivojlangan davlatlarning mustamlakasi boʻlganligi sababli ularning qonunchiligi va mahalliy xalqlarning yerdan foydalanishdagi odat huquqlari aralashib ketgan. Hozirda aksariyat Afrika davlatlarida ham yer maydonlari xususiyLashtirilmoqda.

Taʼkidlash joizki, prokuratura organlarining yerlardan foydalanish va uni muhofaza qilish borasidagi vazifalari yuqorida koʻrsatilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan holda, har bir davlatda prokuratura organlarining huquqiy maqomi asosida amalga oshiriladi.

Bizga maʼlumki, bugungi kunda xalqaro tajribada prokuratura organlarini ularning

faoliyat yoʻnalishi va vazifalaridan kelib chiqqan holda, ikkita modelga ajratishimiz mumkin. Bunda prokuratoraning u yoki bu modelga kirishi ushbu davlatning huquqiy tizimi va davlat tuzilishi bilan bevosita bogʻliqdir. Birinchi modelda prokuratura organlari, avvalambor, jinoiy taʼqib va ayblov idorasi hisoblangan, ikkinchi modelda u qonunchilik ustidan nazorat olib boradigan organdir.

Bu borada koʻplab olimlar oʻzlari-ning ilmiy qarashlarini bayon qilib oʻtgan. Xususan, Y. Knyazevaning fikriga koʻra, “Gʻarb davlatlarida prokuratura ayblov organi sifatida faoliyat koʻrsatishi, “umumiy nazorat”ni amalga oshirmasligini taʼkidlab, aksariyat mamlakatlarda prokuratura mustaqil tizim emas, balki sud yoki ijro hokimiyatining tarkibiy qismi hisoblanadi” [9]. Shunga oʻxshash qarashlar S. Abdurahmonova va A. Kanatov [10] tomonidan ham bayon etilib, prokuratura organlari ijro hokimiyati (AQSh, Estoniya va b.lar) va sud hokimiyati (Ispaniya, Latviya, Gruziya va b.lar) tizimida faoliyat koʻrsatishini taʼkidlaydilar. F. Malikov va B. Boymatovlar esa “AQSh, Fransiya, Germaniya va Italiya prokuratura organlarining asosiy vazifasi – birinchi navbatda, jinoiy taʼqibni amalga oshirishdan iborat” [11], deb taʼkidlashgan. M. Zaprudskaya “Birinchi model prokuratura organlarida “umumiy nazorat” (yaʼni qonunchilik ijrosi ustidan nazorat) funksiyasini tugatishni koʻzda tutadi. Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya va Moldova davlatlarida prokuratura organlari faoliyati birinchi model doirasiga kirganligi sababli ularda “umumiy nazorat” funksiyasi mavjud emas. Rossiya, Belorussiya, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston, Turkmaniston prokuratura organlarida qonunlar ijrosi ustidan nazorat funksiyasi birlamchi hisoblanadi” [12], deb bayon qilgan.

Yuridik adabiyotlarni tahlil qilish shundan dalolat beradiki, ushbu masala xususida huquqshunos olimlar va amaliyotchi muta-

xassislar o'rtasida turlicha qarashlar mavjud. Xususan, X. Zeytun [13] "Prokuror hokimiyati mustaqil va xolis bo'lishi shart. Prokuratura organlarining ijro hokimiyati tarkibiga kirishi ularga o'z faoliyatlarini xolis olib borishlariga to'sqinlik qilishi mumkin", degan g'oyani ilgari suradi. Biz ham ushbu muallifning fikrini to'liq qo'llab-quvvatlaymiz.

Prokuratura organlarining faoliyat yo'nalishlari va vazifalari uning davlat organlari tizimida tutgan roli bilan ham bevosita bog'liqdir. Xususan, A. Allamuratov davlat organlari tizimida prokuraturaning egalagan huquqiy maqomi bo'yicha davlatlarni to'rt guruhga, ya'ni prokuratura, ijro, sud va adliya idoralari tarkibiga kiradigan va hech bir hokimiyat tarmog'iga mansub bo'lmagan alohida organ sifatida faoliyat yuritadigan davlatlarga ajratadi [14]. Z. Ibragimov [15] va D. Hamdamovalar [16] ham o'z tadqiqotlarida shunga o'xshash tasniflashni bayon qilgan.

Xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish prokuratura organlari bajaradigan vazifalar turli davlatlarda o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, AQSh prokuraturasi faoliyati ko'proq jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olishga qaratilganligi bilan ajralib turadi [9, 17]. Attorney (prokuror)larning eng muhim vazifasi esa sudda ayblovni quvvatlashdir [14]. Germaniyada prokuratura organlari politsiya xizmati ishtirokida ayrim jinoyat ishlarini tergov qiladi, ayni paytda ushbu organ sudlar tarkibida faoliyat yuritadi. Angliya va Uelsda davlat ayblovchilari xizmati joriy qilingan bo'lib, ularning asosiy funksiyasi – politsiya tomonidan tergov qilingan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda davlat ayblovini quvvatlashdan iboratdir [9].

Yaponiya qonunchiligida prokurorlarning vakolatlariga quyidagilar kiritilgan: jinoiy ishni qo'zg'atish yoki tugatish, dastlabki tergovni olib borish, tegishli qonunlar ijrosini sudlardan talab qilish, hukmlar ijrosini tekshirish va nazorat qilish [18]. Aksariyat G'arb

davlatlarida esa prokurorlar sudlarda jinoyat va fuqarolik ishlari ko'rilishida ishtirok etib, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoyalash, jinoyat qonunchiligi sohasidagi davlat siyosatini yuritishda asosiy o'rin egallaydi.

Masalan, Tojikiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-yanvardagi № 1172-sonli Farmoni bilan Tojikiston Respublikasi Bosh prokuraturasida yerga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari tashkil etilgan.

Yoki Ispaniyaning 1981-yil 30-dekabrda-gi "Prokuratura to'g'risida"gi 50/1981-sonli Qonuniga ko'ra, Ispaniya Bosh prokuraturasi tarkibida yerdan foydalanish, tarixiy boyliklar, iqtisodiy va o'rmon yong'inlariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus prokurorlar tashkil etilishi belgilab qo'yilgan. Ularning asosiy vazifalari sifatida yerdan foydalanish, tarixiy obyektlar, tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, o'simlik va jonzorlar, uy hayvonlarini himoya qilish va o'rmon yong'inlariga qarshi kurashish borasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha tekshirish o'tkazish, bunday ishlarning sudda ko'rilishida prokuror ishtirokini ta'minlash kabilar belgilangan [19].

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan ko'rindiki, yer maydonlarini navbatma-navbat xususiylashtirish orqali yerlardan maqsadli va oqilona foydalanilishi yuzasidan davlat nazorati kamaytirilib, bu boradagi masalalar ko'proq fuqarolik munosabatlar shaklida hal qilib kelinmoqda.

Bizning fikrimizga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida ham yer maydonlarini to'liq xususiylashtirish, yerlardan foydalanish sohasidagi nizolarni faqatgina sud tartibida hal qilish, ko'proq moliyaviy choralar orqali qonun buzilishi holatlariga nisbatan munosabat bildirish maqsadga muvofiqdir. Albatta, bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar kelgusida yuqoridagi kabi jarayonlarning ham respublikamizda joriy etilishiga olib keladi.

Biroq hozirgi sharoitda mamlakatimizda yer resurslari, ayniqsa, qishloq xo'jaligi yerlari hajmi oz miqdorni tashkil qilganligini inobatga olib, toki yer maydonlari va undan foydalanish shartlari AQSh va Yevropa davlatlaridagi kabi zonalashtirilmaguncha hamda yerlar haqiqiy egasini topmagunga qadar bunday yerlarni muhofaza qilish maqsadida sohada prokuror nazoratini takomillashtirish zarur.

Xulosalar

Prokuratura organlari tomonidan yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil etish natijasida G'arb davlatlarida prokuratura faoliyati, asosan, sudlarda ishlar ko'rilishida prokuror ishtirokini ta'minlash va jinoyat qonunchiligi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilganligi, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati funksiyasi MDHga a'zo mamlakatlarning aksariyatida yetakchi funktsiya bo'lib qolayotganligi haqida xulosa qilindi.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda (AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya va Angliya) prokuratura organlari qonunlar ijrosi ustidan nazorat funksiyasini bajarmaydi. Prokuror nazoratiga zaruratning yo'qligi esa mazkur davlatlarning tarixiy davlatchilik va huquq tizimiga egaligi, aholida qonunlarga hurmat, sudlarga bo'lgan ishonchning balandligi, kuchli advokatura va yuridik xizmat tizimi mavjudligi, jamoatchilik nazoratining kuchligi bilan izohlanadi.

Ayrim iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda yer va tabiatni muhofaza qilish masalalarida prokuror nazoratiga ehtiyoj sezilib, maxsus prokuraturalar tashkil qilingan. Masalan, Ispaniyaning 1981-yil 30-dekabrda "Prokuratura to'g'risida"gi 50/1981-sonli Qonuniga ko'ra, Ispaniya Bosh prokuraturasi tarkibida yerdan foydalanish, tarixiy boyliklar, iqtisodiy va o'rmon yong'inlariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus prokurorlar tashkil etilishi belgilangan. Biroq ushbu prokuraturalarning vazifasi qonunlar ijrosi ustidan nazoratni

amalga oshirish emas, balki ushbu sohada jinoyatlar tergov ustidan nazoratni amalga oshirish hamda sud ko'rilishida davlat ayblovini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Amerika, Angliya, Niderlandiya, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda bozor iqtisodiyoti rivojlangan hamda yer munosabatlarini huquqiy tartibga solishning barqaror tizimlari yaratilgan. Mazkur hududlarda yer uzoq yillardan beri xususiy mulk sifatida berilganligi sababli bugungi kunda yer bilan bog'liq munosabatlar, asosan, fuqarolik sud tartibida hal qilinadi. Shu sababli kelgusida bizda ham yerlarni xususiy mulk sifatida ajratish, yerlardan noqonuniy va maqsadsiz foydalanish holatlari bo'yicha ko'proq moliyaviy hamda soliq jarimalari qo'llash orqali barham berish haqida to'xtamga kelindi.

Yer kodeksining 83¹-moddasiga ko'ra, prokuratura organlari yerlardan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar sirasiga kirmasa-da, biroq prokuratura organlarining yerdan foydalanishni nazorat qilish hamda ularni muhofaza etishni ta'minlashga mas'ul bo'lgan va bu sohada davlat nazoratini amalga oshiradigan mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishga maxsus vakolatli bo'lgan davlat boshqaruvi organlari hamda boshqa davlat organlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatishi, ushbu organlar bilan o'zaro amaliy hamkorlikni ta'minlash borasida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishi mazkur sohada qonuniylikni ta'minlashga xizmat qilishi haqida xulosaga kelindi.

Yer munosabatlarini tartibga soluvchi davlat organlari, ya'ni Davlat Soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi va Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan aynan yer munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan munosabatlarni tartibga soluvchi rasmiy hujjat qabul qilish zaruriyati bo'yicha to'xtamga kelinib, tadqiqot jarayonida bu bo'yicha aniq takliflar beriladi.

REFERENCES

1. National Report on the state of land resources of the Republic of Uzbekistan. 2022, pp. 6, 21.
2. Speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the day of employees of the Village Farm. *Folk word*, 2017, no. 248 (6942).'
3. Kalugina O.V. Prokurorskiy nadzor za ispolneniyem zemel'nogo zakonodatel'stva v Rossiyskoy Federatsii [Prosecutor's supervision over the implementation of land legislation in the Russian Federation]. PhD thesis. 12.00.11. Moscow, 2013, pp. 18, 174.
4. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari [Orders of the prosecutor general of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Tasvir Publ., 2018, vol. 1, 992 p.
5. Xolmo'minov J. et al. Ekologiya huquqiy javobgarlik fanidan ma'ruzalar matni [Ecology the text of lectures on the subject of ecological legal responsibility]. Tashkent, TSUL, 2011.
6. Implementation of a special management procedure in Bostanlyk district. *Folk word*, 2020, August 28, no. 182 (7684), pp. 1–2.
7. Kalugina O.V. Predmet predela prokurorskogo nadzora za ispolneniyem zemel'nogo zakonodatel'stva v Rossiyskoy Federatsii [Subject limits of prosecutorial supervision of the implementation of land legislation in the Russian Federation]. *Administrative and Municipal Law*, 2012, no. 12, pp. 5–16.
8. Mahsudov M. Economic evaluation of land fund diversification of land use. *International Journal of Financial, Accounting, and Management*, 2019, pp. 167–172.
9. KnyazevaYe.G. Prokurorskiy nadzor v zarubezhnykh stranakh [Prosecutor's supervision in foreign countries]. *Legal World*, 2014, no. 3, pp. 34–37.
10. Abdrakhmanova S., Kanatov A. K voprosu opredeleniya mesta i roli organov prokuratury [The issue of determining the place and role of the Prosecutor's Office]. *Law and the State*, 2016, no. 4 (73), pp. 26–31.
11. Malikov F., Boymatov B. Xorijiy mamlakatlarda fuqarolik ishlari bo'yicha prokurorlik nazorati va ijro ish yurituvining o'ziga xos xususiyatlari [Features of prosecutorial supervision and enforcement proceedings in civil cases in foreign countries]. *Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlari – Judicial and Law Enforcement*, Tashkent, TSUL, 2009, 50 p.
12. Zaprudskaya M. Sovershenstvovaniye prokurorskogo nadzora za ispolneniyem zakonodatel'stva [Improving the prosecutor's supervision over the implementation of legislation]. Available at: <http://elib.bsu.by/bitstream/123456789/186402/1/135-139.pdf/>.
13. Zeytun X. Mezhdunarodnyye printsipy, kasayushhiyesya nezavisimosti i podotchetnosti sudey, advokatov i prokurorov: prakticheskoe rukovodstvo [International law concerning the independence and accountability of courts, lawyers and prosecutors: a practical guide]. *International Commission of Jurists*, P.O. Box 91 33 Rue des Bains CH-1211, Geneva 8 Switzerland, 2007, no. 1, pp. 75–81.
14. Avazov N.T. Xorijiy mamlakatlarda prokuraturaning o'ziga xos xususiyatlari [Features of the prosecutor's office in foreign countries]. *Problems of application and interpretation of legal norms. Proceedings of the Republican scientific seminar*. Tashkent, TSUL, 2018, pp. 216–223.
15. Ibragimov Z.S. Mustaqillik va O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi (istiqlol yillaridagi huquqiy maqomi rivojlanishining qiyosiy tahlili) [Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan and independence (comparative analysis of the development of legal status in the years of independence)]. Tashkent, 2011, p. 126.
16. Hamdamova D. Prokuratura organlari faoliyatining qiyosiy tahlili [Comparative analysis of the activities of the prosecutor's office]. 2020, no. 4, pp. 42–43.
17. Vinegrad A. The role of the prosecutor: serving the interests of all the people. *Hofstra Law Review*, 2000, vol. 28, iss. 4, Article 3. Available at: <https://scholarlycommons.law.hofstra.edu/hlr/vol28/iss4/3/> (accessed 10.11.2021).
18. Umrzoqov Z., Boronov S. Yaponiyada prokuratura organlari faoliyati yuzasidan ba'zi mulohazalar [Some feedback on the activities of the prosecutor's office in Japan]. *Judicial and law*

enforcement agencies. Proceedings of scientific articles of masters of the direction. Tashkent, TSUL, 2009, p. 34.

19. The status of the public Prosecution Departament of Spain. Law No. 20/1981 of 1981, December 30. Available at: <https://www.fiscal.es/documents/20142/47455/Spanish+Law+on+Prosecutors.pdf/> (accessed 12.09.2022).

20. Allamuratov A.T., Ergashev A.A. Xorijiy mamlakatlarda prokuratura [Prosecutor's office in foreign countries]. Tashkent, TSUL Publ., 2009, pp. 8–9.

21. Vinokurov A.Yu. Polnomochiya prokurora po nadzoru za ispolneniyem zakonov [Powers of the prosecutor to supervise the execution of laws]. *Legality*, 2006, no. 4, pp. 10–13.

22. Vinokurov A.Yu. Trebovaniye prokurora o provedenii proverki [The prosecutor's request to conduct an inspection]. *Legality*, 2012, no. 2, pp. 19–22.

23. Kazarina A. Predmet obshhego nadzora [Subject of general supervision]. *Legality*, 2004, no. 11, pp. 7–9.

24. Krilatykh E.N. Zemel'naya reforma na vostokey Germanii [Land reform in the east of Germany]. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/zemelnaya-reforma-na-vostokey-germanii/>.

25. Mitrofanova I.B. Zemel'nyye, vodnyye, lesnyye i rekreatsionnyye resursy mira [Land, water, forest recreational resources of the world]. *World and National Economy*, 2020, no. 3 (52).

26. Po'latov B.X. Inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini ta'minlashda prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari [Problems of improving the activities of prosecutorial authorities in ensuring human rights and freedoms, legal interests of society and the state]. Formation of the activities of judicial and law enforcement bodies on new grounds in the years of independence. Proceedings of the Conference. Tashkent, TSUL, 2007, November 29. p. 27.

27. Po'latov B.X. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining konstitutsiyaviy maqomi [Constitutional status of the prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan]. Bulletin of Higher Education Courses of the Prosecutor General's Office of the Republic of Uzbekistan, 2017, no. 4 (32), pp. 27–28.

28. Raximov F.X. Prokuror nazorati va faoliyat yo'nalishlari [Prosecutor's supervision and areas]. Activity collection of scientific and practical articles. Ed. T.A. Umarov. Tashkent, 2008, pp. 87–94.

29. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va prokuratura [Constitution of the Republic of Uzbekistan and prosecutor's office]. Ed. A.Kh. Saidov. Tashkent, TSUL, 2005, pp. 8–12.

30. Savino D. "Zemel'nyy golod" ital'yanskogo krestyanstva: ot ob'edineniya strany do agrarnoy reformy [The "land famine" of the Italian peasantry: from the unification of the country to agrarian reform]. *Peasant Studies*, 2019, no. 2, pp. 108–127. Available at: <https://peasantstudies.ru/ru/category/12-2019-4-2?download=131/> (accessed 12.09.2022).

31. Xolmo'minov J.T, Safarov J.I. Xorijiy mamlakatlarda tabiiy resurslar huquqi: qiyosiy tahlil va qonunchilikni takomillashtirish [The right to natural resources in foreign countries: comparative analysis and improvement of legislation]. Tashkent, TSUL, 2012, pp. 40–41.

32. Po'latov B.X. Prokuror nazorati [Prosecutor's supervision]. Eds. T.A. Umarov, A.T. Allamuratov et al. Tashkent, 2009, pp. 147–148.

33. Prokurorskiy nadzor [Prosecutor's supervision]. Moscow, 2019, vol. 2, p. 16.

34. Averina K. Features of land relations in French law. *Gosudarstvo i pravo – State and Law*, 2012, no. 15, pp. 65–74.

35. De Arriba Bueno R. Evaluating land reform and market in Bulgaria. *East-West Journal of Economics and Business*, 2007, vol. X, no. 1, pp. 11–33. Available at: <https://www.u-picardie.fr/eastwest/fichiers/art57.pdf/> (accessed 12.09.2022).

36. Radjapov A. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tabiatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyati [Activities of law enforcement bodies in the field of nature protection]. Tashkent, TSUL, 2011.

UDC: 343.988(045)(575.1)

SHAXSGA QARSHI ZO'RLIK ISHLATIB SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING OBYEKTIV BELGILARI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

Niyozova Salomat Saparovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish kafedrası professori
ORCID: 0000-0003-3970-2985
e-mail: salomat.niyozova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning obyektiv belgilari va uning o'ziga xos jihatlari doir masalalarga to'xtalib o'tgan. Shuningdek, jinoyat kodeksida belgilangan shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning obyekt shaxs manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq huquqiy-ijtimoiy munosabatlar sifatida tan olinishi haqida fikrlar keltirilgan. Maqolada shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar obyektiv tomonning asosiy belgisi, ijtimoiy xavfli qilmish va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish tushunilishi haqida fikrlar bayon etilgan. Bundan tashqari, jinoyat qurollari va vositalari ko'pincha jinoyatning belgilari hisoblanib, alohida hollarda kvalifikatsiyaga ta'sir qilishi yuzasidan ham so'z yuritiladi. Jinoyat sodir etish usuli, joyi, holati, vaqti, quroli, vositalari esa jinoyat tarkibi obyektiv tomonining qo'shimcha belgilarini tashkil etishi, ularning asosiy va qo'shimcha belgilarga bo'linishining asosiy sababi qonun chiqaruvchi tomonidan belgilangan jinoyat tarkibining tuzilishidan kelib chiqishi asoslangan. Shaxsga qarshi jinoyatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish deyarli barcha jinoyatlarda birinchi galda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar hisoblansa, qolgan belgilar faqatgina ayrim holatlarda jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qiluvchi belgi sifatida kelishi mumkinligi ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: shaxsga qarshi, zo'rlik ishlatib, sodir etish, jazo, jinoyat, obyekt, obyektiv tomoni, g'ayriqonuniy, jiddiy zarar, yetkazilish.

ОБЪЕКТИВНЫЕ ПРИЗНАКИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ ЛИЧНОСТИ И ИХ ОСОБЕННОСТИ

Ниязова Саломат Сапаровна,
доктор юридических наук, профессор
кафедры «Уголовное право, криминология
и противодействие коррупции» Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье автором затронуты объективные признаки преступлений, совершенных с применением насилия в отношении личности, и их специфические аспекты. В статье также высказано мнение, что объектом преступлений, совершенных с применением насилия в отношении личности, установленным уголовным кодексом, признаются правовые и общественные отношения, связанные с защитой интересов личности. В статье также высказано мнение о понимании основного признака объективной стороны преступлений, совершенных с применением насилия в отношении личности, общественно опасного деяния и причинно-

следственной связи между ними. Также упоминается, что оружие и средства совершения преступления часто считаются признаками преступления и в исключительных случаях влияют на квалификацию. Способ, место, состояние, время, орудие и средства совершения преступления основаны на том, что состав преступления составляет дополнительные признаки объективной стороны, основная причина их разделения на основные и дополнительные признаки базируется на происхождении структуры преступного содержания, установленного законодателем. Также было проанализировано, что если причинно-следственная связь между преступлениями против личности рассматривается как случаи, которые должны быть выявлены в первую очередь почти во всех преступлениях, то остальные признаки могут выступать только в качестве признака, влияющего на квалификацию преступления в определенных случаях.

Ключевые слова: против личности, с применением насилия, совершение, наказание, преступление, объект, объективная сторона, противоправное, тяжкий вред, причинение.

OBJECTIVE CHARACTERISTICS AND SPECIFIC ASPECTS OF CRIMES COMMITTED USING PERSONAL VIOLENCE

Niyozova Salomat Saparovna,

Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Law

Abstract. In this article, the author touched upon the objective signs and specific aspects of crimes committed with the use of force against a person. The article also expresses the opinion that the object of crimes committed with the use of violence against a person, established by the Criminal Code, recognizes legal and social relations related to the protection of the interests of the individual. The article also expresses its opinion on the understanding of the main feature of the objective side of crimes committed with the use of violence against a person, a socially dangerous act and the causal relationship between them. It is also mentioned that weapons and means of committing a crime are often considered signs of a crime and in exceptional cases affect the qualification. The method, place, condition, time, instrument and means of committing a crime are based on the fact that the composition of the crime constitutes additional signs of the objective side, the main reason for their division into main and additional signs is based on the origin of the structure of the criminal content established by the legislator. It was also analyzed that if the causal relationship between crimes against the person is considered as cases that should be identified first of all in almost all crimes, then the remaining signs can only act as a sign that affects the qualification of the crime in certain cases.

Keywords: against a person, the use of violence, commission, punishment, crime, object, objective side, illegal, serious harm, infliction.

Kirish

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlarning pirovard maqsadi inson huquqlari va manfaatlari to'la-to'kis ta'minlanadigan huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat. Mamlakatimiz hayotining har bir jabhasida kechayotgan tub islohotlar, eng avvalo, demokratik huquqiy jamiyat qurish, xalq

farovonligini oshirish, inson manfaatlarini oliy qadriyat darajasiga ko'tarish, har bir fuqaroning haq-huquqlari himoyasini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, insonning hayoti va sog'lig'i shaxsning bebahoyligi hisoblanib, uning bu boyligidan mahrum etilishi yoki shikast yetkazilishi og'ir jinoyat hisoblanadi. Bu esa ushbu turdagi ji-

noyatlarning xavflilik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, shaxsga qarshi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligi ularning sodir etilishi natijasida hayot va sog'liq, jinsiy erkinlik, oila va yoshlarning manfaatlari, axloq normalari, shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmati, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga jiddiy zarar yetkazilishi bilan shartlanadi.

Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni ochish va tergov qilish uchun sodir etilgan qilmishning obyektini aniqlash, belgilash lozim va shuning uchun ularni to'g'ri kvalifikatsiya qilib, yuridik baho berish kerak. Sodir etilgan qilmish qaysidir ijtimoiy munosabatga zarar keltirar ekan, jinoyat qonunchiligi bilan qo'riqlanayotgan ijtimoiy munosabatni aniqlash qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun alohida xizmat qiladi.

Material va metodlar

Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning obyektiv belgilari va uning o'ziga xos jihatlari o'rganish mazkur holatni nazarda tutuvchi qonun hujjatlari normalari tahlil qilishdan iboratdir. Mazkur maqolani tahlil etishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyoсий-huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, huquqni qo'llash amaliyotini tahliliy o'rganib chiqish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Ma'lumki, Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlar yig'indisi belgilab o'tilgan. Jinoyat obyektining ahamiyati shundan iboratki, bu sodir etilgan qilmishning qanday huquqbuzarlik turiga tegishli ekanligini aniqlab beradi. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jinoyatning umumiy obyektidan boshlanib, jinoyatning bevosita obyekti bilan yakunlanishi lozim. Ushbu tushunchaning mohiyati shundan iboratki, qilmishning jinoyat yoki jinoyat emasligini belgilashdagi dastlabki qadam uning qaysi huquqbuzarlik turiga tegishli ekanligi va (agarda qilmishning

belgilari va jinoyat tarkibi o'rtasida moslik mavjud bo'lsa) aynan qaysi ijtimoiy munosabatga zarar yetkazilganligini aniqlash demakdir.

Qonun chiqaruvchi tomonidan Jinoyat qonuni Maxsus qismi jinoyat obyekti asosida tizimlashtirilgan va A.G. Zokirova, R. Kabulov, A.A. Otajonov, M.A. Rajabova, M.H. Rustamboyev, M. Usmonaliyev, I. Ismailov, A. Murodov, M. O'razaliyev va boshqalarning ilmiy ishlari-da muayyan darajada o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda oiladagi zo'ravonliklar profilaktikasining nazariy asoslari va shu bilan bog'liq masalalarning amaliy jihatlari Y.O. Alauxanov, Z.S. Zaripov, A.B. Vasilev, A.P. Zakalyuk, I.N. Pyatkevich, A.I. Alekseev, M.P. Juravlev, N.V. Sazonova, B.V. Muslov, V.N. Kudryavseva, V.E. Eminova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Biroq yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ishlari faqat zo'ravonlikning oldini olish, kriminologiya, jinoyat huquqi va huquqbuzarliklar profilaktikasini rivojlantirishning ayrim jihatlari bag'ishlangan bo'lib, bunda oiladagi zo'ravonliklarning oldini olishga va oiladagi zo'ravonliklar uchun jinoiy javobgarlikka doir masalalarning ayrim jihatlari o'rganilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning obyektiv belgilari va uning o'ziga xos jihatlari tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni jinoyat huquqi nuqtayi nazaridan boshqa jinoyatlardan farqlash uchun tegishli turlarga ajratish mumkin.

Jinoyat kodeksida belgilangan shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning obyekti shaxs manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq huquqiy-ijtimoiy munosabatlar sifatida tan olinadi. Jismoniy shaxsni jinoyat harakatlaridan huquqiy himoya qilishning obyekti huquqiy-ijtimoiy munosabatlar sifatida tan olinadi. Insonning o'zida fiziologik jismoniy shaxs ekanligi, majburiyat, ijtimoiy

qimmatliklarga egaligini mujassam etadi. Ushbu bo'limda nazarda tutilgan har bir jinoyat shaxsning ijtimoiy hayotda mavjud ekanligi, uning huquq va erkinliklarining normal amal qilishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi. Shu tomondan tahlilda "shaxs" va "inson" ta'rifini jinoiy-huquqiy himoyaga muhtoj sifatida baholanadi [1].

Ushbu turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda birinchi darajada ularning obyektiv tomonini belgilash lozim.

Jinoyat obyekti haqidagi jinoyat tarkibining boshqa alomatlari mohiyatidan kelib chiqqan holda, yakuniy xulosa qilish lozim. Sodir etilgan qilmishning mohiyatini to'liqligicha tahlil qilmay, jinoyatning obyektidan boshqa alomatlarini (obyekt ko'pgina hollarda qilmishning maqsadiga tobe bo'ladi) hisobga olmay jinoyatning obyekti to'g'risida biron-bir xulosa chiqarish mumkin emas. Shuning uchun jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida jinoyatning bevosita obyektining tadqiq etilishi dastlabki bosqich sifatida emas, balki yakuniy xulosa qilish maqomiga ega bo'ladi. Misol uchun, shaxs o'zganing mulkini portlatish yo'li bilan nobud qildi. Bunday holat bo'yicha jinoyatning obyektini aniqlash oxirgi bosqichda amalga oshirilsa, to'g'ri bo'ladi. Chunki ushbu holat bo'yicha subyektiv tomon belgilari (qilmishni sodir etish niyati va maqsadi) va obyektiv tomon belgilari (ushbu qilmishni sodir etish usullari va kelib chiqqan oqibat), birinchi navbatda, aniqlanishi lozim [2].

Jinoyat huquqida jinoyatning obyekti sifatida ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Ba'zi hollarda jinoyat natijasida zarar ko'ruvchi ijtimoiy munosabatlar huquqiy munosabat maqomiga ega bo'ladi, masalan, talon-toroj bo'lganda, mulkiy munosabatlarga putur yetkaziladi. Ammo mazkur holat har doim ham yuzaga kelmasligi mumkin. Ko'pgina holatlarda jinoyat jamiyatda shakllangan, u tomonidan ma'qullab qo'llaniladigan axloq-odob me'yorlari asosida takomillashgan, ammo

huquq normalari tomonidan tartibga solinmagan munosabatga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

Har qanday munosabat kamida ikkita holat o'rtasida, ijtimoiy munosabatlar esa ikkita subyekt o'rtasida yuzaga keladi. Bu subyektlar esa ham jismoniy, ham yuridik shaxs bo'lishi mumkin [3]. Ammo shuni ham e'tiborda tutish kerakki, ikkita, uchta va undan ko'p tarafli munosabatlar yuzaga kelishi ham mumkin.

Har qanday holatda ham subyektlarning mavjudligi o'z-o'zidan ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltirmaydi. Munosabat – bu subyektlarning ijtimoiy bog'lanishi demakdir.

Shunday qilib, munosabat yuzaga kelishi uchun uni yuzaga keltiruvchi biron-bir predmet mavjud bo'lishi shart. Ammo subyektlar va ularni qiziqtirgan predmet hali to'liq jihatga ega bo'lgan munosabatni tashkil qilmaydi. Munosabatning shunday voqelikda yuzaga kelishi subyektlarning tegishli predmet asosida o'zaro hamkorlik munosabatlari hosil qilishi bilan boshlanadi (biri narsa sotadi – boshqasi sotib oladi va hokazo), ma'lum harakatlarni amalga oshirishadi yoki biron-bir harakatni amalga oshirmaslik majburiyatini o'z zimmalariga olishadi.

Ta'kidlash zarurki, shaxsga qarshi jinoyatlar obyektining jinoyat tarkibiga kiruvchi boshqa alomat (element)lar bilan uzviy o'zaro bog'liqligi sababli uning aniqlanishi, odatda, bevosita amalga oshirilmaydi va aynan o'sha belgilar orqali amalga oshiriladi. Jinoyat obyekti to'g'risida uning predmeti katta ahamiyat kasb etadi, ya'ni buzilgan munosabatlarning nima sababdan va nimaga bog'langan holda yuzaga kelganligi aniqlanadi [4]. Ba'zi bir hollarda faqatgina ta'sir ko'rsatish predmeti to'g'risida bilimga ega bo'lish orqali qanday munosabat buzilganligi to'g'risidagi tushunchani hosil qilish mumkin.

Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyatning obyektini ta'riflaganda, jinoyatning predmeti degan tushunchadan foydalaniladi.

Ba'zi olimlar obyektni tahlil qilganda, obyekt predmetdan farq qilishini ta'kidlab o'tadilar. Ya'ni bunda predmet narsa, ashyo yoki buyumlar bo'ladigan bo'lsa, obyekt ijtimoiy munosabat shaklda namoyon bo'ladi (masalan, sha'n, qadr-qimmat, shaxsning ozodlik huquqlari bo'yicha va hokazo) [5].

Boshqa huquqshunoslar esa jinoyat predmetini faqatgina jonsiz narsalar [6], deb ta'riflaydi.

Birinci yondashuv bo'yicha fikrlaydigan olimlarning narsa (buyum)ni munosabatning alohida predmeti sifatida ajratishi ham to'g'ri emas, chunki narsalarga bog'langan munosabatlar jinoyat huquqida hech qanday alohida ahamiyatli himoyaga ega bo'lmaydi. Agarda jinoyatning predmeti asosida jinoyatning sodir bo'lishi bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan narsalarga javob bersak, u holda ular jinoyatning obyektiv tomoniga mansub bo'ladi (jinoyat qurollari, vositalari, sharoit va h.k.) yoki umuman hech qanday jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo'lmaydi [7].

Ikkinchi guruh olimlar esa predmetni borliq olamda mavjud bo'lgan (biron-bir hajmga ega) narsa yoki buyum (jonsiz) degan tushunchani ilgari surishadi va inson, uning tanasi yoki tana qismlari, hayvonlar va shu kabi tirik organizmga ega mavjudotlarni jinoyat predmeti deb atab bo'lmasligini ta'kidlashadi [8].

Bunday holatda qaysidir fikrni to'g'ri deyish yoki unga qarshi chiqish noo'rin. Jinoyat predmetiga jinoyat qonunchiligining o'zida ham tushuncha berilmagan. Jinoyat natijasida zarar yetkazilishi mumkin bo'lganligidan kelib chiqib tahlil qiladigan bo'lsak, jinoyat qonunchiligida jabrlanuvchi (JKning 118-moddasi) va boshqa shakllarda ifodalanagan bo'lishi ham mumkin. Lekin qonun chiqaruvchi tomonidan jinoiy niyat qaratilgan narsa yoki buyum, shuningdek, jabrlanuvchi jinoyat predmeti deb ta'rif berilmagan. Kvalifikatsiya jarayonida, asosiysi, qilmish jamiyatda o'rnatilgan qaysi munosabatni buzganligi va jinoiy qilmish natijasida nima yoki kim

zarar ko'rganligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, biz belgilab olishimiz zarurki, nimani qanday tushuncha bilan belgilash va qanday maqsadlarda undan foydalanishni qonunda yozilishi bo'yicha hal qilgan ma'qul. Jinoyat obyektining mohiyatini yoritishda tanholik jihatidan biz uchun predmetning zarurligi nimadan iborat (uni boshqa so'z bilan ham belgilashingiz mumkin), degan savol tug'iladi. Bunday maqomga odamlar, narsalar va boshqa nomoddiy obyektlar ham ega bo'lishi mumkin.

Jinoyat huquqida jinoyatning obyektini aniqlash jinoyatning subyektiv tomon belgilari asosida ham yuz berishi mumkin (qasdning nimaga qaratilganligi yoki uning yo'naltirilganligi, shaxsning jinoyat sodir etishdagi niyati va jinoyat sodir etilishidan ko'zlayotgan maqsadi).

Huquqshunoslik fanida jinoyatning obyektini ijtimoiy munosabatlarga emas, balki ularning moddiy tarafi yoki boshqacha aytganimizda, o'zga qadriyatlar (hayot, salomatlik, manfaatlar) bo'ladi, degan fikrlar ham aytilgan [9]. Obyektning bunday tushunilishi, fikrimizcha, noto'g'ri. Agarda hayot va sog'liqni jinoyatning obyektini sifatida tan olsak, u holda har qanday hayotni uzadigan harakatni jinoyat sifatida tan olishga majbur bo'lamiz. Shu jumladan, harbiy harakatlarni amalga oshirganda (jangovar vaziyatlarda dushmanni o'ldirish), zaruriy mudofaa holati (jabrlanuvchining tajovuzchiga shikast yetkazishi) ham jinoyatga aylanadi. Ammo bunday harakatlar ijtimoiy xavfli deb hisoblanmaydi (garchi ular hayotning uzilishiga sabab bo'lsa-da). Demak, gap hayot, sog'liq yoki narsada emas, balki ularning holati, o'zaro bog'liqligi va shu aloqaning ijtimoiy sohada bo'lgan o'zaro bog'lanishi va bir-biriga ta'sir ko'rsatishida tutgan o'rni, ya'ni ijtimoiy munosabatlarda aks etishidadir [10].

Jinoyat huquqi nazariyasida shaxsga qarshi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jinoyat obyektini to'g'risidagi ijtimoiy munosabat sifatidagi tushuncha yetarli darajada

ishlab chiqilgan bo'lib, o'zining mustahkam moddiy asosiga ega. Bu esa ma'lum bir elementlardan tashkil topgan va uning sifatlari bilan bog'liqligini aniqlashga yordam beradi [11].

Har qanday holatda ham shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar predmeti va jinoyat obyektini bir-biridan ajratishimiz lozim. Avvalambor, ular o'zlari-ning mohiyati bilan farq qiladi: jinoyat obyekti – ijtimoiy munosabatlar hisoblansa, jinoyat predmeti – moddiy narsalardir. Bundan tashqari, ijtimoiy xavfli qilmish natijasida har doim ham obyektga zarar yetkazilsa, predmet esa ijtimoiy xavfli qilmish, ya'ni mulk, moddiy ne'matlarini yo'q qilis, zarar yetkazishda ifodalanadi [12].

Jinoyat obyekti bo'yicha kvalifikatsiya qilish xususiyatlari quyidagilarni aniqlashni taqozo etadi: jinoyat qonuni tomonidan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarning tajovuz qilishda; jinoyat predmetining maxsus alomatlari (belgilari) (jinoyatning ba'zi bir tarkiblarida); jinoiy qilmish natijasida zarar ko'rgan boshqa jonli mavjudotlar; asosiy va qo'shimcha bevosita obyektlar (jinoyatlarning ba'zi bir tarkiblarida).

Obyektsiz jinoyatlar voqelikda yo'q, ya'ni har bir jinoyatning o'z obyekti bor. Faqatgina obyektни kvalifikatsiya qilish bilan kvalifikatsiya yakuniy bosqichga keltirilishi mumkin emas. Obyekt bo'yicha kvalifikatsiya – qilmishni jinoiy deb baholash bosqichlaridan biridir. Obyektning turlari O'zbekiston Respublikasi JKning Maxsus qismidagi tizimida ko'rsatilgan bo'lib, obyekt quyidagilar bilan belgilanadi: jinoyatning predmeti va jabrlanuvchining maxsus belgilari.

Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning obyekti bo'yicha kvalifikatsiya qilish qoidasi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bosqichlarida quyidagi tartibda amalga oshirilishi lozim.

Kvalifikatsiya qilishning birinchi bosqichida qilmishning qanday huquqbuzarlik turiga tegishli ekanligi (ma'muriy,

fuqaroviy yoki jinoiy) aniqlanadi. Agarda qilmish obyekti va jinoyat obyekti o'rtasida tafovut vujudga kelsa, mazkur qilmish boshqa huquqbuzarlik turlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari asosida kvalifikatsiya qilinishi dardkor.

Kvalifikatsiya qilishning ikkinchi bosqichida qilmish qanday ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazganligi, zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqarganligi va jinoyatning maxsus (turdosh) obyektlari taqqoslanadi. Bunday holat bo'yicha qilmish qaysi ijtimoiy munosabatlarni buzgan bo'lsa, mazkur ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi barcha normalar bilan dastlabki baholash olib boriladi va undan keyingi bosqichga o'tiladi.

Kvalifikatsiya qilishning uchinchi bosqichida qilmishning obyektiv va subyektiv belgilarini tahlil qilib, kelib chiqqan oqibat yoki jinoiy niyatning qanday munosabatni buzishga qaratilganligini inobatga olib, qilmishga oxirgi yuridik baho beriladi. Agarda birinchi norma ikkinchi normani o'z ichiga qamrab olgan bo'lsa va ikkinchi normadan birinchi normaning sanksiyasi og'ir bo'lsa, qilmish aynan o'sha birinchi normaning o'zi bilangina kvalifikatsiya qilinadi.

Misol uchun, shaxs o'zida OITS kasalligi borligini bila turib, boshqa shaxsning nomusiga tegdi. Bunday holatda qilmish Jinoyat kodeksining 118-moddasi (nomusga tegish) va 113-moddalariga (tanosil yoki OITS kasalligini tarqatish) mos keladi. Lekin Jinoyat kodeksining 118-moddasi 3-qismi "d" bandi (boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa) o'z ichiga 113-modda (tanosil yoki OITS kasalligini tarqatish jinoyati)ni qamrab oladi. Chunki boshqa shaxsga tanosil kasalligining yuqishi ham nomusga tegishning jinoiy oqibati hisoblanadi. Ya'ni shaxsga tanosil kasalligining yuqishi va nomusga tegish qilmishi o'rtasida sababiy bog'lanish mavjud. Bunday holat bo'yicha qilmishni har ikkala norma bo'yicha kvalifikatsiya qilish mumkin emas.

Agarda qilmish bitta norma bo'yicha to'liq qamrab olinmasa, qilmish bir qancha modda-

lar bilan (jinoyatlar majmuyi sifatida) kvalifikatsiya qilinishi shart.

Jinoyat obyektining bevosita turi normaning qonunda yozilishiga ko'ra va kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatga nisbatan quyidagi turlarga bo'linadi: asosiy bevosita obyekt, qo'shimcha bevosita obyekt va fakultativ bevosita obyekt.

Jinoyatning bevosita objekti bo'yicha qilmishni kvalifikatsiya qilishda kelib chiqqan zararining xususiyati yoki miqdoriga qarab emas, balki jinoyat qonunchiligi tizimiga qarab bevosita obyektning turlarini bir-biridan ajratishimiz mumkin. Jinoyatning asosiy bevosita objekti aynan turdosh obyekt tahlili asosida aniqlanadi. Jinoyatning fakultativ bevosita obyektida esa jinoyat qonuni bilan qo'riqlanmaydigan, lekin sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish natijasida zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan boshqa ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Jinoyatning fakultativ bevosita objekti jinoyatni kvalifikatsiya qilishga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi va faqatgina sudlar tomonidan jazo tayinlashda inobatga olinishi mumkin.

Shuni unutmasligimiz lozimki, jinoyat qonunchiligida faqatgina ayrim jinoyat tarkiblarida qo'shimcha obyekt mavjud bo'lishi mumkin. Fakultativ obyekt esa hech qaysi normada nazarda tutilmaydi.

Shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni bevosita obyekt bo'yicha kvalifikatsiya qilish xususiyatlarini tahlil etadigan bo'lsak, avval asosiy bevosita objektni belgilash lozim. Keyin qo'shimcha bevosita obyekt aniqlanadi va u jinoyatni boshqa o'xshash bo'lgan tarkiblardan chegaralaydi; jinoyatlar majmuyi bo'yicha qilmishni kvalifikatsiya qilish ehtimoli to'g'ri yechilishiga yordam beradi; jazo tayinlashda hisobga olinadi [13].

Jinoyatning obyektiv tomoni uning tashqi elementlarini tashkil etadi. Jinoyatning obyektiv tomonini shaxsning borliq olamdagi insonning erkin xulq-atvorini tavsiflaydigan belgilar tashkil etadi.

V.N. Kudryavsevning fikriga ko'ra, jinoyatning obyektiv tomoni JK moddasi dispozitsiyasida deyarli to'liq aks ettirilgan belgidir. Shuning uchun ham jinoyatlarni obyektiv tomon belgilari bo'yicha bir-biridan farqlash nisbatan qiyindek tuyulmaydi. Shunga qaramasdan, qonunni qo'llash bo'yicha bunday holatlar bo'yicha xatoliklar ko'p [14].

V.V. Marchukning yozishicha, jinoyat obyektiv tomonining ahamiyatlari quyidagilardan iborat: obyektiv tomon jinoyat tarkibining alomati hisoblanadi; obyektiv tomon barcha qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflaydi; undan jinoyatning tugallanish vaqti, qasddan jinoyat sodir etish bosqichlari differensiyasi va javobgarlikni individuallash aniqlanadi; jinoyatlarning objekti va uning belgilari bir-biriga o'xshash bo'lgan jinoyatlardan farqlashda bu e'tiborga olinadi; ushbu element subyektiv ayblash g'oyasi bilan bir qatorda jinoyat-huquqiy ogohlantirish asosiga ifodalangan bo'lishi lozim [15].

Jinoyatning obyektiv tomoni shartli ravishda asosiy va qo'shimcha belgilarga bo'linadi.

Obyektiv tomonning asosiy belgilari deganda, ijtimoiy xavfli qilmish va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish tushuniladi. Jinoyat sodir etish usuli, joyi, holati, vaqti, quroli, vositalari esa jinoyat tarkibi obyektiv tomonining qo'shimcha belgilarini tashkil etadi. Ularning asosiy va qo'shimcha belgilarga bo'linishining asosiy sababi qonun chiqaruvchi tomonidan belgilangan jinoyat tarkibining tuzilishidan kelib chiqadi. Shaxsga qarshi jinoyatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish deyarli barcha jinoyatlarda birinchi galda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar hisoblansa, qolgan belgilar faqatgina ayrim holatlarda jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qiluvchi belgi sifatida kelishi mumkin.

Jinoyatning qurollari va vositalari ko'pincha jinoyatning belgilari hisoblanishi mumkin. Alohida hollarda kvalifikatsiyaga ta'sir qilishi mumkin, ya'ni kvalifikatsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi tarkiblarning belgilariga kirsa ham qilmishni jinoyat deb tan olishdagi

savolning hal etilishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Odatda, bu tarkiblarning kvalifikatsiyaviy alomati bo'ladi, ya'ni kvalifikatsiyaviy tarkibining alomati hisoblanadi (masalan, harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarda bu "jangovar vaziyat" deb tan olinadi).

Xulosalar

Yuqoridagilarga asosan, quyidagi xulosalar olindi:

Birinchidan, shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning mohiyati shundan iboratki, aybdorning axloqan tuzalishi uchun yetarli va zarur bo'lgan jazo qo'llash maqsadida sodir etilgan jinoyatda aybdor bo'lgan shaxsni jinoyat javobgarlikka tortish, shuningdek, boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishdir.

Ikkinchidan, shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish murakkab fikrlash jarayoni bo'lib, u mantiqiy qobiliyat va ko'p faktlarga, belgi holatlarga huquqiy baho berishni talab etadi.

Uchinchidan, ushbu jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bosqichida jinoyatlarning obyekti va obyektiv, subyekti va subyektiv tomonla-

rining yuridik ahamiyatiga ega bo'lgan belgilarini Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilariga aniq mos kelishi zaruriyatini o'rnatadi.

To'rtinchidan, shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalaridagi muammolarni hal etish jinoyat huquqining obyektiv tabiati bilan shartlanadi. Shaxsga qarshi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda mantiq va yurisprudensiya muhim ichki aloqadorlikka ega.

Beshinchidan, shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish tegishli algoritmgaga ega: 1) shaxsga qarshi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda sodir etilgan qilmishning umumiy belgilarini aniqlash; 2) ushbu jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda sodir etilgan qilmishning turdosh belgilarini aniqlash kabilar.

Oldinchidan, shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar obyekti jinoyat tarkibiga kiruvchi boshqa alomatlar bilan o'zaro bog'liqligi sababli uning aniqlanishi, odatda, bevosita amalga oshirilmaydi va aynan o'sha belgilar orqali amalga oshiriladi.

REFERENCES

1. Zasepin A.M. Dopolnitel'naya kvalifikatsiya prestupleniya. Obshhiye i spetsialnyye voprosy [Additional qualification of the crime. General and special questions]. Moscow, 2017, p. 304.
2. Marchuk V.V. Metodologicheskiye osnovy kvalifikatsii prestupleniya [Methodological bases of crime qualification]. Moscow, Yurlitinform, 2016, 440 p.
3. Rustambaev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Shaxsga qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizligiga qarshi jinoyatlar [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan. Crimes against the person. Crimes against peace and security]. Special section. Tashkent, National Republic of Uzbekistan Military Technical Institute of the Guard, 2018, vol. 3, 447 p.
4. Rustamboev M.X., Axrorov B.D. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolari [Problems of qualifying crimes in the field of economy]. Tashkent, 2007, 227 p.
5. Rarog A.I. Problemy kvalifikatsii prestupleniy po sub'ektivnym priznakam [Problems of qualification of crimes on subjective grounds]. Moscow, Prospekt, 2016, 229 p.
6. Yakubov A.S., Kabulov R. et al. Jinoyat huquqi [Criminal law]. General section. Uzbekistan Republic IIV Academy, 2019, p. 128.
7. Kapinus O.S. Ugolovnoye pravo Rossii [Criminal law of Russia]. Moscow, Yurayt Publishing House, 2019, vol. 1, p. 556.

8. Kozachenko I.Ya. Ugolovnoye pravo [Criminal law]. Special part. Moscow, Yurayt Publ.
9. Novoselov G.P. Algoritm ugolovno-pravovoy kvalifikatsii prestupleniya [Algorithm of criminal-legal qualification of crime]. Society and crime: criminal law, penitentiary and criminological aspects collection of scientific articles. Vyatka State University, 2017, pp. 46–50.
10. Chernenko T.G. Kvalifikatsiya prestupleniy. Voprosy teorii i praktiki [Qualification of crimes. Questions of theory and practice]. 2nd ed., reprint. and add. Kemerovo, Kemerovo State University, 2012, 188 p.
11. Saveleva V.S. Osnovy kvalifikatsii prestupleniy [Fundamentals of qualification of crimes]. Moscow, 2006, 80 p.
13. Grinko S.D. Kvalifikatsiya terroristicheskogo akta [Qualification of a terrorist act]. *Russian Investigator*, 2008, no. 5, p. 22.
14. Kudryavtsev V.N. Obshhaya teoriya kvalifikatsii prestupleniy [General theory of qualification of crimes]. Moscow, Yurist Publ., 2004, p. 118.
15. Ivashchenko A.E., Marchenko A.I. Methodology is a function of the situation. *Social order*, p. 199.
16. Tugelbaeva B.G. Problemy preduprezhdeniya prestupnogo nasiliya v otnoshenii zhenshin [Problems of preventing criminal violence against women]. Bishkek, 2003, p. 19.
17. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 2020, vol. 29, no. 3, pp. 39–62.
18. Korneeva A.V. Teoriya kvalifikatsii prestupleniy [Theory of qualification of crimes]. Ed. A.I. Rarog. Moscow, Prospekt, 2017, 112 p.

UDC: 343.4(045)(075.1)

SHAXSNING OZODLIGIGA QARSHI JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK BELGILANGAN JINOYAT QONUNI NORMALARINING RIVOJLANISHI

Qurbonov Davlat Ravshanovich,

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Yuridik fakulteti Maxsus huquqiy fanlar

kafedrasi mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

ORCID: 0000-0003-4754-5844

e-mail: davlatkurbonov73@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalarining rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Ozodlik insonlarning o'z taqdiri, maqsad va intilishlarini o'zi belgilashi, ularni subyektiv xohish-irodasiga ko'ra mustaqil amalga oshira olishini nazarda tutadi. Shuning uchun ham tarixiy rivojlanishning barcha davrlarida insonlar ozodlikka intilib, ozodlik va erkinlik uchun kurashib kelganlar. Mazkur maqolada Xammurapi qonunlari, Qadimgi Yunoniston, Rim imperiyasi, islom huquqi, yurtimizda xonliklar, amirlik davri, sovet tuzumi va mustaqillik davrlarida shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik masalasi atroflicha tahlil qilingan. Shu jumladan, O'zbekistonda amalda bo'lgan 1926-, 1959- va 1994-yillardagi jinoyat qonunlarida shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan normalar qiyosiy-huquqiy o'rganilgan. Bunda qayd etilgan jinoyat qonunlarida shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilaydigan normalar tahlil qilinib, ushbu normalarning amaldagi jinoyat qonunida belgilangan normalardan farqli jihatlari aniqlangan hamda tarixiy rivojlanish jarayonlarida mavjud bo'lgan ijobiy tajribalarni tiklash hamda amaldagi jinoyat qonunini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Muallif tomonidan ushbu masalalar yuzasidan xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: erkinlik, ozodlik, shaxsiy daxlsizlik, odam o'g'irlash, qiynash, ozodlikdan mahrum qilish, odam savdosi, ayolni erga tegishga majbur qilish.

РАЗВИТИЕ НОРМ УГОЛОВНОГО ЗАКОНА, УСТАНОВЛИВАЮЩИХ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПРОТИВ СВОБОДЫ ЛИЧНОСТИ

Курбанов Давлат Равшанович,

кандидат юридических наук, доцент,

заведующий кафедрой «Специальные юридические

науки» юридического факультета

Самаркандского государственного университета им. Ш. Рашидова

Аннотация. В данной статье анализируются этапы развития уголовно-правовых норм, определяющих ответственность за преступления против свободы личности. Свобода предполагает способность людей определять свою судьбу, цели и стремления, реализовывать их самостоятельно в соответствии со своей субъективной волей. Вот почему во все периоды исторического развития люди стремились к свободе и боролись за волю и свободу. В данной статье подробно анализируются законы и вопросы ответственности за преступления против свободы личности во времена Хаммурапи, Древней Греции, Римской империи, исламского права,

ханств, находящихся ранее на территории нашей страны, правления эмиров, советского режима. Также проведен сравнительно-правовой анализ уголовных законов 1926, 1959 и 1994 годов, действующих в Узбекистане и устанавливающих ответственность за преступления против свободы личности. При этом были определены отличия этих норм от норм, определенных в действующем уголовном законе, и в целях совершенствования действующего уголовного права изучены аспекты применения положительного опыта существовавших ранее в процессе исторического развития норм закона. Автором выдвинуты выводы и предложения по данным направлениям исследования.

Ключевые слова: свобода, воля, неприкосновенность частной жизни, похищение людей, пытки, лишение свободы, торговля людьми, принуждение женщины к вступлению в брак.

DEVELOPMENT OF CRIMINAL LAW NORMS ESTABLISHING LIABILITY FOR CRIMES AGAINST PERSONAL FREEDOM

Kurbanov Davlat Ravshanovich,

Head of the Department of "Special Legal Sciences" of the Faculty of Law,
Samarkand State University named after Sh. Rashidov,
PhD in Law, Associate Professor

Abstract. This article analyzes the stages of the development of criminal law norms that determine responsibility for crimes against the freedom of a person. Freedom implies the ability of people to determine their own destiny, goals and aspirations, to realize them independently according to their subjective will. That is why in all periods of historical development, people have been striving for freedom and fighting for freedom and liberty. In this article, Hammurabi's laws, the laws of Ancient Greece, the Roman Empire, Islamic law, the laws of the khanates in our country, the laws of the Emirate era, the laws of the Soviet regime, and the issue of responsibility for crimes against individual freedom are analyzed in detail. Specifically, a comparative legal analysis of the criminal laws of 1926, 1959, and 1994, which were in force in Uzbekistan that established responsibility for crimes against a person's freedom have been conducted. In this case, the norms defining responsibility for crimes against the freedom of a person in the mentioned criminal laws have been analyzed, the different aspects of these norms from the norms defined in the current criminal law have been determined, and the issues of restoring the positive experiences existing in the processes of historical development and improving the current criminal law have been studied. The author put forward conclusions on these issues.

Keywords: freedom, liberty, privacy, kidnapping, torture, deprivation of liberty, human trafficking, forcing a woman into marriage.

Kirish

Erkinlik va ozodlik – insoniyatning azaldan erkin, ozod va mustaqil yashash orzu-umidlari, armon va iztiroblarini o'zida mujassam etadigan tushunchadir. Darhaqiqat, inson tabiatan doimo ozodlik va erkinlikka intilib yashaydi. U o'zini erkin his qilish, tahlikasiz hayot tarziga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham insoniyat tarixining turli davrlarida jahonning barcha mintaqalarida ozodlik uchun kurashning shaklan turlicha,

mohiyatan o'xshash bo'lgan hurriyatga intilish hodisalari mavjud bo'lgan.

Shu nuqtayi nazardan olsak, mustaqillik tenglik sari qo'yilgan eng muhim qadamdir. Chunki tenglik bo'lmagan joyda kimdir kimgadir tobe bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida ham har bir insonga erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi ta'minlanishi belgilangan. Darhaqiqat, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqlari inson-

ning ajralmas huquqlaridan biri sanaladi. Ushbu me'yorni Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 3-moddasida ham ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra, "har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir". Mazkur Deklaratsiyaning 9-moddasida esa hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emasligi ta'kidlangan [1, 202-b.].

Qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida belgilangan normalar talablariga asoslanib, vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan inson va fuqarolarning shaxsiy daxlsizliklarini buzuvchi Konstitutsiyaga zid xatti-harakat sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Xususan, Jinoyat kodeksining 234-moddasida qonunga xilof ravishda ushlab turganlik, qonunga xilof ravishda hibsga olish yoki hibsdan saqlaganlik uchun surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning jinoiy javobgarligi nazarda tutilgan. Mazkur modda davlat majburlovini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan Konstitutsiyada belgilangan shaxsiy daxlsizlik huquqi buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksida mansab vakolatiga ega bo'lgan yoki bo'lmagan boshqa shaxslarning insonning shaxsiy daxlsizligiga tajovuz qiluvchi xatti-harakatlari uchun ham jinoiy javobgarlik belgilangan. Odam savdosi (JKning 135-moddasi), ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish (JKning 136-moddasi), odam o'g'irlash (JKning 137-moddasi), zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish (JKning 138-moddasi) jinoyatlari shular jumlasidandir.

Shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik masalasini tadqiq qilar ekanmiz, bunday turdagi jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilovchi normalarning rivojlanish bosqichlari, tarixiy rivojlanish jarayonida mavjud ijobiy tajribalarni aniqlash, ularni hozirgi milliy qonunchiligimizga im-

plementatsiya qilish masalalari muhim hisoblanadi.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqot jarayonida uchta savolga javob topishga harakat qilindi: birinchidan, mamlakatimizda jinoyat qonunchiligining rivojlanish jarayonlarida shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilaydigan qanday normalar belgilangan; ikkinchidan, ushbu normalarning amaldagi jinoyat qonunida belgilangan normalardan qanday farqli jihatlari mavjud; uchinchidan, jinoyat qonunining rivojlanish bosqichlari tahlili asosida ijobiy tajribalarni tiklash hamda amaldagi jinoyat qonunini takomillashtirish imkoniyati bormi?

Ushbu savollarga javob topish orqali mazkur tadqiqotda qonunchilik, shu jumladan, O'zbekistonda jinoyat qonunchiligi tarixida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari, qo'llanilgan amaliyot materiallari va ushbu masalaga doir olimlarning asarlaridan foydalanildi hamda muallifning xulosa va mulohazalari ishlab chiqildi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy-huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Shaxsning ozodligi, erkinligi va ularni huquqiy muhofaza qilish masalasi davlat va jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida dolzarb masala sifatida e'tirof etib kelingan. Mutaxassislar shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar, xususan, odam o'g'irlash Qadimgi dunyoda keng tarqalgani hamda bu hodisa Qadimgi Yunoniston va Rim rivoyatlarida aks ettirilganiga e'tibor qaratadilar [2, 192–197-b.; 3, 9-b; 4, 12–13-b.]. Xususan, Qadimgi Yunoniston afsonalariga ko'ra, odam o'g'irlash bilan hatto xudolar ham shug'ullanganlar. Masalan, Zevs va Aid tegishli ravishda Yevropa va Prozerpinani o'g'irlaganlar.

Tirik odamni o'g'irlaganlik uchun og'ir jazo kishilik jamiyati rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq nazarda tutilgan. Ma-

salan, Qadimgi Bobilda Xammurapi qonuniga muvofiq, birovning voyaga yetmagan o'g'lini o'g'irlaganlik uchun o'lim jazosi belgilangan [5, 12-b.]. 1789-yil 26-avgustda qabul qilingan Fransiyaning Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi inson ozodligiga tajovuz qiluvchi qilmishlarga doir jinoyat qonunchiligining rivojlanish jarayonida yangi bosqich yasadi. Mazkur Deklaratsiyada odamlar ozod va teng huquqli bo'lib tug'iladilar va shunday bo'lib qoladilar, deb qayd etildi. 1810-yilda Napoleon tomonidan qabul qilingan va 180 yildan ko'proq vaqt amal qilgan Fransiya JKda o'n olti yoshga to'lmagan shaxslar, shu jumladan, ayol jinsiga mansub shaxslarni o'z nikohiga olish maqsadida o'g'irlash uchun og'ir (o'lim jazosiga qadar bo'lgan) jazo nazarda tutilgan.

Odam o'g'irlash (xuddi shuningdek, uni garov sifatida tutqunlikka olish) qadim zamonlardayoq iqtisodiy va siyosiy muam-molarni hal qilish usullaridan biri bo'lgan. Ayol o'g'irlash esa uzoq asrlar mobayni-da uylanish yo'li sifatida amal qilgan. Islom huquqiga muvofiq, urush harakatlari olib bo-rilayotgan paytda dushman askarlarini asir olish va ularni tutqunlikda saqlash qonuniy deb hisoblangan [6, 8-b.].

Ma'lumki, XX asrning 20-yillariga qadar mamlakatimizda shariat qoidolari huquqning asosiy manbayi sifatida amal qilgan. Chor Rossiyasi istilosidan keyin davlatimiz hudu-dida Chor Rossiyasiga qaram bo'lgan Buxoro amirligi va Xiva xonligi saqlab qolindi. Qo'qon xonligi esa tugatilib, Turkiston harbiy okru-gi sifatida Chor Rossiyasi tarkibiga rasman qo'shib yuborildi. 1917-yilgi Oktabr to'ntari-shidan keyin esa 1920-yilda Buxoro amirli-gi va Xiva xonligi tugatilib, Buxoro [7, 45-b.] va Xorazm XSSRlari [8, 30-b.] tashkil etildi. Turkiston harbiy okrugi [9, 16-b.] esa Turkis-ton ASSR sifatida RSFSR tarkibiga kiritildi.

O'sha paytlarda RSFSR Markaziy Ijroiya qo'mitasi Xalq komissarlar Sovetining jinoyat huquqining Umumiy va Maxsus qismiga doir dekretlari, yo'riqnoma va boshqa hujjatlari Turkiston ASSR hududida ASSR Markaziy

Ijroiya qo'mitasi va Xalq komissarlar Soveti-ning maxsus qarori bilan yoki to'g'ridan to'g'ri avtonom respublikaga joriy etilaverar edi [10, 26-b.]. Jumladan, 1922-yil 24-mayda RSFSR-ning JK qabul qilindi va 1922-yil 21-iyulda Turkiston Markaziy Ijroiya qo'mitasining 1922-yilgi RSFSR JKning Turkiston ASSR hududida ham amal qilishi to'g'risida qarori qabul qilindi [11, 49-b.]. Keyinchalik mazkur kodeks Buxoro va Xorazm XSSRlariga ham joriy etildi [12, 406-b.]. Demak, ushbu kodeks mamlakatimiz hududida de-fakto amal qil-gan birinchi kodeks hisoblanadi. Kodeksning 159, 160 va 162-moddalarida tahlil etilayot-gan jinoyat uchun javobgarlik nazarda tutil-gan. 159-moddada "zo'rlik ishlatib shaxsni ushlab turish va boshqa joyga joylashtirish orqali ozodlikdan mahrum qilish", 160-mod-dada "shaxsni hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli usulda yoki qiynash orqali ozodlikdan mahrum qilish", 162-moddada "chaqaloqni g'arazli maqsadlarda o'g'irlash, yashirish yoki almashtirish" uchun javobgarlik nazarda tutil-gan.

1924-yilgi chegaralanishlardan keyin O'zbekiston SSR tashkil etildi va 1926-yil 16-iyunda O'zbekiston SSRning birinchi JK qa-bul qilindi. Mazkur kodeks Maxsus qismining "Hayot, sog'liq, ozodlik va shaxsning qadr-qim-matiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan ol-tinchi bo'limida (203-, 204- va 206-moddalari-da) 1922-yilgi kodeksdagi holatlar bilan bir xil javobgarlik nazarda tutilgan.

1958-yil 25-dekabrda Umumittifoq ji-noyat qonuni hisoblangan uchta qonun qabul qilindi. Bular: 1) SSR Ittifoqi va Ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlari asoslari; 2) Davlatga qarshi jinoyatlar uchun javob-garlik haqidagi qonun; 3) Harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik haqidagi qonun.

SSR Ittifoqi va Ittifoqdosh respublikalar ji-noyat qonunlari asoslari jinoyat huquqining Umumiy qismidan iborat bo'lib, barcha Ittifoq-dosh respublikalar kodekslarini ushbu qoi-dalar asosida qayta ishlab chiqishlari lozim edi. Shu sababdan ham 1959-yil 21-mayda

O'zbekiston SSRning yangi JK qabul qilindi va ushbu kodeks 1960-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. Mazkur kodeksda ham shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilovchi normalar mavjud bo'lgan. B.A. Blinderning qayd etishicha, "bunday jinoyatlar shaxsning erkin harakat qilishini cheklovchi, qonun bilan kafolatlangan huquqini o'z erki bo'yicha amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi, jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatish yo'li bilan sodir etiladigan jinoyatlar bo'lishi mumkin. Bunday jinoyatlarga zo'rlik bilan qonunsiz ravishda ozodlikdan mahrum qilish (111-moddada), birovning bolasini o'g'irlash yoki almash-tirish (107-moddada) va o'ldirish bilan qo'rqitish (85-moddada) jinoyatlari kiradi" [13, 92-b.].

1959-yilgi JK 111-moddasida birovni zo'rlik bilan qonunsiz ravishda ozodlikdan mahrum qilishning ikki – oddiy (1-qism) va murakkab turlari (2-qism) ko'rsatilgan. Uning 1-qismida birovni zo'rlik bilan qonunsiz ravishda ozodlikdan mahrum qilish, ikkinchi qismida esa jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan usul yoki unga jismoniy azob berish yo'li bilan ozodlikdan mahrum qilish uchun javobgarlik belgilangan. M.S. Vosiqova mazkur moddada zo'rlik ishlatish yo'li bilan qonunga xilof ravishda birovni ozodlikdan mahrum qilish uchun javobgarlik belgilangani, shaxsni qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum qilish jinoyat hisoblanmasligini [14, 229-b.] alohida qayd etgan. Ozodlikdan mahrum qilish (qamoqqa olish)ning qonuniy asoslari esa 1959-yil 21-mayda qabul qilingan O'zbekiston SSRning Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan. Kodeksning 78-moddasida qamoqqa olib turish tariqasidagi ehtiyot chorasi faqat ozodlikdan mahrum qilish jazosi qonunda ko'zda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha, shuningdek, 78-moddaning 2-qismida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan moddalar bo'yicha esa "jinoyatning xavfliligi" degan asos bilan qo'llaniladi.

JPK 79-moddasida qamoqqa olishning muddatlari ko'rsatilgan bo'lib, ish tergov

qilinayotganda, qamoqqa olib turish muddati ikki oydan ortiq davom etishi mumkin emas. Ish alohida murakkab bo'lgan taqdir-da, bu muddat qamoqqa olish kunidan boshlab Qoraqalpog'iston ASSR prokurori, viloyat prokurori, harbiy okrugning harbiy prokurori tomonidan 3 oygacha, O'zbekiston SSR prokurori, Bosh harbiy prokuror tomonidan 6 oygacha cho'zishi mumkin. Faqat ayrim holatlardagina SSSR General prokurori qamoqda ushlab turish muddatini yana 3 oydan oshmagan qo'shimcha muddatga uzaytirishi mumkin. Yuqorida keltirilgan asoslardan tashqari shaxsning ozodligini zo'rlik bilan qonunsiz ravishda cheklash jinoyat sifatida baholanadi.

M.S. Vosiqovanning qayd etishicha, 1959-yilgi JK 111-moddasida ko'rsatilgan jinoyatning subyekti faqat mansabdor shaxs bo'lmagan shaxs hisoblanadi [15, 179-b.]. Mansabdor shaxsning o'z mansabidan foydalanishda, birovni ozodlikdan mahrum qilishi mansabdorlik jinoyati sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. JK 158-moddasida prokuratura, tergov va surishtiruv organlari xodimi tomonidan birovni qonunsiz qamash yoki ushlab turish uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan. M.H. Rustamboyevning qayd etishicha, zo'rlik ishlatib, g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilishning subyekti 16 yoshga to'lgan jismoniy shaxsdir. Agar qilmish mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, shaxsning qilmishi ish holatlaridan kelib chiqib, hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish (205-moddada), hokimiyat yoki mansab vakolatidan chetga chiqish (206-moddada) yoki odil sudlovga qarshi jinoyatlar, masalan, qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki qamoqda ushlab turish (234-moddada) sifatida kvalifikatsiya qilinadi [16, 199-b.].

O'zbekiston SSR JK 111-moddasi 2-qismida qilmishning aybni og'irlashtiruvchi quyidagi turlari ko'rsatilgan:

1) jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan usullar bilan jinoyat so-

dir qilish (masalan, qamab qo'yilgan joyning sovuq, zax, havosi buzuv bo'lishi mumkin);

2) jabrlanuvchiga jismoniy azob berish yo'li bilan ozodlikdan mahrum qilish (masalan, jabrlanuvchini suvsiz, ovqatsiz, uzoq vaqt bog'langan holda qoldirishdan iborat bo'lishi mumkin).

Sovet jinoyat huquqi darsliklarida qayd etilishicha, birovning bolasini o'g'irlash yoki almashtirish jinoyatining obyekti O'zbekiston SSR Nikoh va oila kodeksining 72-, 73-, 74-moddalarida belgilangan ota-onalarning farzand (bola)ga nisbatan huquqlaridir [13, 92-b.]. Birovning bolasi, odatda, aldash va boshqa yo'llar bilan o'g'irlanadi. M.S. Vosiqovaning qayd etishicha, o'z bolasini boshqa bir kishining uyidan o'g'irlaganlik o'zboshimchalik deb qaralishi mumkin [15, 229-b.]. O'zboshimchalik uchun O'zbekiston SSR JK 200-moddasida javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra, o'zboshimchalik, ya'ni kim tomonidan bo'lmasin, qonun bilan o'rnatilgan tartiblardan tashqari, o'zboshimchalik bilan ikkinchi bir shaxs yoki davlat yoxud jamoat tashkilotlarining shunday huquqning qonuniyligini bahslashgani holda, biror harakatni sodir etish, agar shunday harakatlardan bilan grajdanlar (fuqarolar) yoki davlat yoxud jamoat tashkilotlariga qattiqroq zarar keltirilgan bo'lsa, javobgarlikka tortiladi.

Birovning bolasini almashtirish – bir bolani ikkinchi bolaga almashtirishdan, masalan, yangi tug'ilgan o'g'il bolani qiz bolaga yoki qiz bolani o'g'il bolaga, kasal bolani sog'lom bolaga almashtirishdan iborat.

Yuqoridagi ikkita moddadan tashqari, sovet jinoyat huquqida o'ldirish bilan qo'rqitish ham shaxsning ozodligiga qarshi jinoyat sifatida qaralgan [13, 92-b.]. Mazkur qilmish uchun JK 85-moddasida javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra, birovni hayotidan mahrum qilish bilan qo'rqitish, agarda shu qo'rqitishni amalga oshirishdan xavfsirashga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, javobgarlikka sabab bo'ladi.

B.A. Blinderning qayd etishicha, o'ldirish bilan qo'rqitish bevosita birovni hayotdan

mahrum qilishga qaratilgan harakatlarda ifodalanmay, balki og'zaki, yozma (xat orqali) yoxud biror ishora bilan bildiriladi [13, 92-b.]. O'ldirish bilan qo'rqitish aniq va ma'lum shaxsga qaratilgan bo'lishi kerak.

1985-yil 25-martda O'zbekiston SSR JK 85-moddasiga o'zgartirish kiritilib, boshqa shaxsni hayotdan mahrum etish bilan qo'rqitish bilan bir qatorda, boshqa shaxsning badaniga og'ir shikast yetkazish bilan qo'rqitish uchun ham javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng 1994-yilda sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan davlatlar orasida birinchilardan bo'lib shaxsning ozodligi va erkinligi, umuman olganda, shaxsning huquq va erkinliklarini jinoiy tajovuzlardan muhofaza qiluvchi Jinoyat kodeksini qabul qildi. Bunday zarurat 1959-yilgi JKning asosiy qoidalari jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlari, shuningdek, umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari va O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan xalqaro shartnomalarga javob berolmasligi zaruratidan kelib chiqqan edi. Demak, mazkur holat mustaqil O'zbekiston Respublikasining mohiyatan yangi JK qabul qilinishi zarurligini ko'rsatdi [17, 17-b.]. Ushbu kodeksda shaxs va uning manfaatlari markaziy o'ringa qo'yilib, shaxsga qarshi jinoyatlar eng og'ir jinoyatlar toifalari sifatida e'tirof etildi. Xususan, JK Maxsus qismi 1-bo'limi "Shaxsga qarshi jinoyatlar" deb nomlanganligi, shuningdek, 135–141-moddalarida shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilanganligi, ayniqsa, shaxsning ozodligi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning jinoyat qonunida alohida va maxsus normalar bilan muhofaza qilinganligi fikrimizning tasdiqidir.

Tadqiqot natijalari tahlili

Mazkur tadqiqotda qayd etilgan tahlillardan kelib chiqqan holda, quyidagi natijalarga e'tibor qaratish mumkin:

1) odam o'g'irlash (xuddi shuningdek, uni garov sifatida tutqunlikka olish) qadim

zamonlardayoq iqtisodiy va siyosiy muam-molarni hal qilish usullaridan biri bo'lgan. Ayol o'g'irlash esa uzoq asrlar mobayni-da uylanish yo'li sifatida amal qilgan. Islom huquqiga muvofiq, urush harakatlari olib bo-rilayotgan paytda dushman askarlarini asir olish va ularni tutqunlikda saqlash qonuniy deb hisoblangan;

2) 1922-yildan mamlakatimiz hududi-da amalda bo'lgan RSFSR JK 159-moddasida “zo'rlik ishlatib shaxsni ushlab turish va boshqa joyga joylashtirish orqali ozodlikdan mahrum qilish”, 160-moddasida “shaxsni hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli usulda yoki qiynash orqa-li ozodlikdan mahrum qilish”, 162-moddasida “chaqaloqni g'arazli maqsadlarda o'g'irlash, yashirish yoki almashtirish” uchun javobgarlik nazarda tutilgan. 1926-yilgi JK Maxsus qismi “Hayot, sog'liq, ozodlik va shaxsning qadr-qim-matiga qarshi jinoyatlar” deb nomlangan ol-tinchi bo'limida (203-, 204- va 206-moddalari-da) 1922-yilgi kodeksdagi holatlar bilan bir xil javobgarlik nazarda tutilgan;

3) O'zbekistonning 1959-yilgi va amaldagi JKlarida shaxsning ozodligiga qarshi jinoyat-lar uchun javobgarlik masalasiga bag'ishlan-gan normalaridagi quyidagi farqli jihatlar-ga e'tibor qaratsak.

Birinchidan, amaldagi JKda shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar alohida bobga ajratilgan (6-bob. Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar) bo'lib, bu holat jinoyat obyektiga to'g'ri baho berish, sodir qilingan jinoyatning aynan qaysi ijti-moiy munosabatlarga zarar yetkazishini aniq baholash, shu orqali jinoyatlarni to'g'ri kvali-fikatsiya qilish va jazo tayinlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1959-yilgi JKda esa bunday holat mavjud emas. Ya'ni shaxsning hayoti, sog'lig'i, ozod-ligi va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar bitta bobga joylashtirilgan. Bu esa shaxsning sodir etgan qilmishi aynan qaysi ijtimoiy muno-sabatga zarar yetkazishini aniqlashda, shu orqali jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qi-lishda qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, amaldagi JKda shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar toifasiga odam savdosi (135-modda), ayolni erga tegish-ga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish (136-modda), odam o'g'ir-lash (137-modda), zo'rlik ishlatib, g'ayriqo-nuniy ravishda ozodlikdan mahrum qi-lish (138-modda) kabi jinoyatlar kiritilgan. 1959-yilgi JKda esa zo'rlik bilan qonunsiz ra-vishda ozodlikdan mahrum qilish (111-mod-da), birovning bolasini o'g'irlash yoki almash-tirish (107-modda) va o'ldirish bilan qo'rqitish (85-modda) kabi jinoyatlar kiritilgan.

Uchinchidan, amaldagi JKda odam o'g'ir-lash (137-modda) va zo'rlik ishlatib, g'ayriqo-nuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish (138-modda) jinoyatlari ajratilgan, ya'ni ikkita jinoyat tarkibi sifatida belgilangan. 1959-yil-gi JKda esa mazkur jinoyatlar ajratilmagan. Faqat 107-moddada birovning bolasini o'g'ir-lash uchun javobgarlik belgilangan. Ammo “bu modda 14 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'g'ir-laganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi”. 14 yoshdan oshganlarni o'g'irlaganlik uchun esa alohida norma mavjud emas. O'sha payt-da mazkur qilmish zo'rlik bilan qonunsiz ra-vishda ozodlikdan mahrum qilish (111-mod-da) deb baholangan. Boshqacha aytganda, 14 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'g'irlash – “odam o'g'irlash”, 14 yoshdan oshganlarni o'g'irlash esa “qonunsiz ravishda ozodlikdan mahrum qilish” deb qaralgan. Bizningcha, maz-kur holat nafaqat jinoyat huquqi nazariyasi, balki mantiq qoidalariga ham ziddir.

To'rtinchidan, yuqorida ham ta'kidlan-ganidek, sovet jinoyat huquqi darsliklarida o'ldirish, badanga og'ir shikast yetkazish bi-lan qo'rqitish (85-modda) shaxsning ozod-ligiga qarshi jinoyat sifatida e'tirof etilgan. Vaholanki, bunday qilmish shaxsning hayoti va sog'lig'i daxlsizligini muhofaza qiluvchi ij-timoiy munosabatlarga zarar yetkazadi. Shu sababdan, mazkur jinoyatni shaxsning ozod-ligiga qarshi jinoyat sifatida baholash no-to'g'ri. Amaldagi JKda mazkur masala to'g'ri hal etilgan. Ya'ni JK 112-moddasida javob-

garlik nazarda tutilgan o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar toifasiga kiritilgan.

Xulosalar

Shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikning tarixiy jihatlarini o'rganish mazkur masalaning mohiyatini

chuqurroq anglab yetish, amaldagi jinoyat qonuni normalarining ijobiy jihatlarini va kamchiliklarini aniqlash, jinoyat qonunchiligining rivojlanish tendensiyalari yuzasidan aniq xulosalar chiqarish va uning ishtiqollarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Saidov A.X. Inson huquqlari: Parlament a'zolari uchun qo'llanma [Human Rights: A Guide for Members of Parliament]. Tashkent, National Center of Human Rights of the Republic of Uzbekistan, 2007, p. 202.
2. Kazamirov A.I. K voprosu o sisteme prestupleniy protiv svobody lichnosti [To the question of the system of crimes against the freedom of the individual]. Theoretical, methodological and applied aspects of wrestling with crime: History and modernity. Proceedings of International Scientific and Practical Conference, 2005, March 17-18, pp. 192-197.
3. Oganyan R.E. Pokhishheniye cheloveka: istoricheskiye i pravovyye problemy [Abduction of a person: historical and legal issues]. Moscow, 2001, p. 9.
4. Martynenko N.E. Pokhishheniye cheloveka: ugovno-pravovoy i kriminologicheskoy aspekty [Abduction of a person: criminal law and criminological aspects]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1994, pp. 12-13.
5. Khrestomatiya po istorii gosudarstva i prava zarubezhnykh stran. Drevniye i Sredniye veka [Reader on the history of the state and the law of foreign countries. Ancient and Middle Ages]. Ed. V.A. Tomsinova. Moscow, 2000, p. 12.
6. Gadzhiyev B.A. Ugolovno-pravovyye i kriminologicheskoye problemy pokhishheniya cheloveka [Criminal law and criminological problems of kidnapping]. PhD thesis. Moscow, 2000, p. 8.
7. Shodiyev J.M. Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi [Establishment of Bukhara Emirate and state structure]. PhD thesis. Tashkent, TSUL, 2008, p. 45.
8. Xidirov Z.M. Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi, davlat va huquq tizimi [Formation of Khorezmshah state, state and legal system]. PhD thesis. Tashkent, TSUL, 2010, p. 30.
9. Ahmedova M.T. Qo'qon xonligining tashkil topishi, davlat tizimi va huquq manbalari [Establishment of Kokand khanate, state system and sources of law]. PhD thesis. Tashkent, TSUL, 2008, p. 16.
10. Rasulov O.X. Sovet jinoyat huquqi [Soviet criminal law]. Tashkent, O'qituvchi publish, 1969, p. 26.
11. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Tashkent, Nasaf publish, 2010, p. 49.
12. Sulaymonova X.S. Istoriya sovetского gosudarstva i pravo Uzbekistana [The history of the Soviet state and the law of Uzbekistan]. Tashkent, AN Uzbekistan SSR, 1960, p. 406.
13. Ahmedov B.A., Blinder B.A., Zakutskiy S.G. et al. Sovet jinoyat huquqi [Soviet criminal law]. Tashkent, O'qituvchi publish, 1983, p. 92.
14. O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Uzbek SSR]. Ed. B.R. Olimzhanov. Tashkent, O'zbekiston Publ., 1988, p. 229.
15. O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Uzbek SSR]. Eds. G. Abdumajidov, M. Vasikova. Tashkent, O'zbekiston Publ., 1973, p. 179.
16. Rustamboev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Crimes against the person. Crimes against peace and security. Tashkent, ILM ZIYO publish, 2011, vol. 3, p. 199.
17. Rustamboev M.H., Abdurasulova Q.R., Axrarov B.J. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi konsepsiyasi va doktrinasini rivojlantirish muammolari [Problems of developing the concept and doctrine of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSUL, 2011, p. 17.

UDC: 343.268.3(045)(575.1)

TIBBIYOT XODIMLARI TOMONIDAN O'Z VAZIFALARINI BAJARMASLIK JINOYATINING KELIB CHIQUISH SABABLARI VA UNGA IMKON BERGAN SHART-SHAROITLAR

Haydarov Shuhratjon Djumayevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası
dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-8188-7410

e-mail: Xaydarovshuxrat@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining kelib chiqish sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarga oid masalalar bayon etilgan. Shuningdek, tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining bugungi kunda respublikamizda yildan yilga o'sib borayotganligi, bu esa ushbu jinoyatlarga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish zarurati mavjudligi asoslangan. Bundan tashqari, tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining sabablari shartli ravishda umumiy va maxsusga ajratib o'rganilgan hamda olimlarning fikrlari tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda, maqolada tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining umumiy sabablariga uning sodir etilishiga turtki bo'lgan obyektiv sabablar, jumladan, tibbiyot xodimlarining kasb yuzasidan vazifalarni lozim darajada bajarishni ta'minlashga oid qonunchilik normalaridagi kamchiliklar, aholiga xizmat ko'rsatish sohasida tegishli ruxsat beruvchi yoki taqiq o'rnatuvchi tizimlarni huquqiy ta'minlash darajasining yetarli emasligi, aholi ongida tibbiy bilimlar sayozligi, mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy vaziyat, ayrim munosabatlarning yetarli darajada tartibga solinmaganligi kabi holatlar borligi ham asoslangan. Maqolada tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyati uchun javobgarlik nazarda tutilgan qonunchilik normalarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, bemor, tibbiy yordam ko'rsatmaslik, tibbiyot xodimi, kasb yuzasidan vazifalarni bajarmaslik, ijtimoiy xavfli qilmish, ehtiyotsizlik, jinoiy javobgarlik, shikast yetkazish, bemorga yordam ko'rsatmaslik, maxsus qoidalar, xavf ostida qoldirish, beparvolik, jazo.

ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПО НЕНАДЛЕЖАЩЕМУ ИСПОЛНЕНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБЯЗАННОСТЕЙ МЕДИЦИНСКИМ ПЕРСОНАЛОМ

Хайдаров Шухратжон Джумаевич,

доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент
кафедры «Уголовное право, криминология и противодействие коррупции»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются причины преступности ненадлежащего исполнения служебных обязанностей медицинским персоналом и условия, при которых это

допускается. Основаниями изучения данного направления является то, что преступность, связанная с ненадлежащим исполнением служебных обязанностей медицинским персоналом, в нашей стране растет из года в год, а значит, существует необходимость дальнейшего совершенствования системы борьбы с этими преступлениями. Кроме того, причины совершения преступления ненадлежащего исполнения медицинским персоналом своих обязанностей условно разделены на общие и частные, проанализированы мнения ученых. Также в статье рассматриваются общие причины состава преступления ненадлежащего исполнения служебных обязанностей медицинским персоналом, объективные причины, повлекшие его совершение, в том числе недостатки в законодательстве по обеспечению надлежащего исполнения профессиональных обязанностей медицинским персоналом, недостаточный уровень юридического обеспечения соответствующих разрешительных или запретительных систем в сфере оказания государственных услуг, отсутствие медицинских знаний у населения, сложившаяся социально-экономическая и правовая ситуация связана и с неурегулированностью подобных случаев. В статье представлены предложения и рекомендации по совершенствованию правовых норм, предусматривающих ответственность медицинского персонала за ненадлежащее исполнение своих профессиональных обязанностей.

Ключевые слова: преступление, больной, неоказание медицинской помощи, медицинский работник, невыполнение профессиональных обязанностей, общественно опасное деяние, неосторожность, уголовная ответственность, причинение вреда, неоказание помощи больному, особые правила, создание опасности, небрежность, наказание.

THE REASONS AND THE CONDITIONS FOR THE CRIME OF NON-PERFORMANCE OF DUTIES BY MEDICAL PERSONNEL

Shukhratjon Jumaevich Khaydarov
Acting Associate Professor of the Department
of Criminal law,
Criminology and Fight against Corruption,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. This article discusses the reasons for the crime of non-performance of duties by medical personnel and the conditions under which this is allowed. The article is also based on the fact that the crime of non-performance of duties by medical personnel in our country is growing from year to year, which means that there is a need to further improve the system of combating these crimes. In addition, the reasons for committing a crime of improper performance by medical personnel of their duties are divided into general and private, and the opinions of scientists are analyzed. The article discusses the general reasons for the crime of improper performance of duties by medical personnel, the objective reasons that led to its commission, including shortcomings in the legislation to ensure the proper performance of professional duties of medical staff, insufficient level of legal support of appropriate permitting or prohibition systems in the field of public services, lack of medical knowledge in the population, the current social, economic and legal situation, the existence of some unregulated cases are also analyzed. The article presents suggestions and recommendations for improving legal norms that provide for the responsibility of medical personnel for improper performance of their duties.

Keywords: crime, patient, failure to provide medical care, medical worker, failure to perform professional duties, socially dangerous act, negligence, criminal liability, injury, failure to provide assistance to the patient, special rules, endangerment, negligence, punishment.

Kirish

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 25-moddasida “Har bir inson o‘zi va oilasining sihat-salomatligi va farovonligini asrash uchun zarur bo‘lgan turmush darajasi, shu jumladan, oziq-ovqat, libos, uy-joy, tibbiy qarov va zarur ijtimoiy xizmat huquqi hamda ishsiz qolganda, betobligida, nogironligida, beva bo‘lib qolganda, qariganida yoki o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra tirikchilik uchun mablag‘i bo‘lmay qolganda ta‘minlash huquqiga egadir” [1], deb ta‘kidlangan.

Ushbu umumjahon deklaratsiyaning asosiy qoidalari milliy qonunchiligimizga ham implementatsiya qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi. Ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”, deb mustahkamlangan.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda inson hayoti va sog‘lig‘ini ishonchli muhofaza qilish, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekistonda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlarini belgilab bergan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farnoni bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi sud-huquq tizimini isloh qilishning tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan bosqichi bo‘ldi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasining birinchi yo‘nalishida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini

samarali himoya qilishga to‘sqinlik qiladigan huquqiy bo‘shliqlar, qarama-qarshiliklar va «oq dog‘lar»ni bartaraf etish hamda Jinoyat kodeksida qo‘llaniladigan atama va tushunchalarni ularning mazmuniga aniq ta‘rif berish va yagona shaklda qo‘llash orqali takomillashtirish ushbu sohani rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanganligi diqqatga sazovordir.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”, “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”, “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturlari doirasida aholiga malakali tez tibbiy yordam ko‘rsatish, tibbiy yordam sifatini oshirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, kasalliklarni barvaqt aniqlash, ularni masofadan profilaktika qilish, sog‘liqni saqlash tizimini malakali kadrlar bilan ta‘minlash va ularning salohiyatini oshirish, tibbiyot xodimlarining kasbiy xatosini aniqlashning ta‘sirchan tizimini joriy etishga oid tadbirlar majmui belgilangan.

Ushbu islohotlar sharoitida inson hayoti va sog‘lig‘ini jinoyat qonuni yordamida muhofaza qilish ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan tibbiyot xodimlari tomonidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik inson hayoti va sog‘lig‘iga xavf solayotgan qilmish sifatida jiddiy ijtimoiy xavf tug‘diradi.

Chunki inson o‘z salomatligi va hayotini buning uchun mas‘ul shaxslarga ishonib topshirgani holda, fuqarolar sog‘lig‘i va hayotini asrab-avaylashi zarur bo‘lgan tibbiyot xodimlari tomonidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik oqibatida badanga shikast yetkazilishi yoki jabrlanuvchining o‘lishi mazkur qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu qilmish bir vaqtning o‘zida tegishli xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan tartibga ham tajovuz qiladi.

Darhaqiqat, jinoyatchilik sababi muhim huquqiy va ijtimoiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bir tomondan, jinoyatchilik sabablari jinoyat-protsessual qonunchilik normalariga muvofiq, isbot qilish doirasiga kirsa, boshqa tomondan, jinoyatchilik sabablari unga qarshi kurash choralari samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Professor Q.R. Abdurasulova qayd etganidek, “Kriminologiyada sababiyat – eng murakkab muammolardan biridir. Shu sababli unga izchil va mufassal yondashish zarur” [2]. G.R. Rustemovanning ta’kidlashicha, kriminologiyada sababiyat – murakkab jarayon bo’lib, u o’z ichiga sabab, oqibat, ular o’rtasidagi to’g’ridan to’g’ri va qarama-qarshi aloqalarni qamrab oladi [3].

Y.I. Kairjonov jinoyatchilik sabablarini tasniflashni taklif etadi. Jumladan, muallif nazdida “kriminologiyada jinoyatchilik sabablarini uch guruhga bo’lib o’rganish maqsadga muvofiq [4]:

a) umumiy jinoyatchilik sabablari (barcha jinoyatlar uchun umumiy sabablar);

b) turli toifa (maxsus) jinoyatlarning sabablari;

d) alohida jinoyatlar sabablari”.

Material va metodlar

Darhaqiqat, jinoyatchilikning sabab va shart-sharoitlari kriminologiya fani o’rganadigan markaziy masalalardan biri bo’lib, u jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini ta’minlaydi, shuningdek, jinoyatchilikni profilaktika qilish, aybdor shaxsini o’rganish va uni qayta tarbiyalashda ham muhim omil sanaladi.

G. Kuanaliyeva qayd etganidek, jinoyatchilik sababini aniqlash hamda jinoyatlarini samarali individual profilaktika qilish uchun jinoyatchi shaxsini o’rganish zarur. Inson shaxsiga xos bo’lgan qarash, maqsad va yo’nalishlar singari subyektiv omillarni aniqlash muhim ahamiyatga ega [5].

G.R. Rustemova Qozog’iston davlati misolida so’nggi yillardagi doimiy ish o’rniga ega bo’lgan xodimlarda ishni yo’qotish xavfining ortishini, o’z navbatida, ruhiy beqaror

muhitni shakllantirishi, alohida shaxslarga salbiy ta’sir ko’rsatishini qayd etib o’tadi hamda ushbu jarayon sabablarini iqtisodiy qiyinchiliklarning axloqiy qadriyatlardagi mo’rtlik, qonunga itoatkorlik ruhidagi faoliyatning istiqbolsizligi, davlat tuzilmalariga bo’lgan butkul ishonchsizlik va jinoyat olami vakillariga murojaat etish bilan izohlaydi [6]. O’zbekiston misolida aytish mumkinki, so’ngi yillarda, ayniqsa, iqtisodiy islohotlar o’z samarasini berishi natijasida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy tizimda barqarorlikka erishildi. Bu, o’z navbatida, jinoyatchilikka qarshi kurashni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini bermogda.

Shuningdek, adabiyotlarda shaxs salomatligi sohasidagi asosiy muammolar ko’p hollarda fuqarolarning ekologiya va sanitariya-gigiyena bilimlarga nisbatan ehtiyotsiz va beparvo munosabatda bo’lishi bilan kelib chiqishi to’g’risidagi fikrlar ham uchraydi [7]. Ayni damda ta’kidlash lozimki, ayrim hollarda tibbiyot xodimlari tomonidan o’z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyati ham aynan sanitariya-gigiyena talablari yetarli darajada bajarilmasligi bilan bog’liq. Bu, asosan, sanitariya-gigiyena nazorati xodimlarining o’z majburiyatiga nisbatan sovuqqonligi, ushbu sohada tibbiy bilimlarning yetarli darajada targ’ib qilinmasligi kabi omillar bilan izohlanadi.

Aksariyat xorijiy olimlar mazkur mavzu bo’yicha tadqiqotlar olib borib, kasbiy majburiyat va burch boshqa sohalardan ko’ra ko’proq tibbiyot xodimlariga nisbatan taalluqli degan xulosaga kelishgan. Ular, jumladan, tibbiyot xodimlari tibbiyotning imkoniyatlari hamda bemorning haqiqiy ahvoli baholash va yakuniy qaror qabul qilishda murakkab dilemmani boshdan kechirishadi, deb hisoblashadi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi ma’lumotlariga ko’ra, tibbiyot xodimlari tomonidan o’z vazifalarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi jinoyati uchun respublikamizda 2017-yilda 66 nafar, 2018-yilda

101 nafar, 2019-yilda 90 nafar, 2020-yilda 102 nafar, 2021-yilning 9 oyida esa 96 nafar shaxs sudlangan. Mazkur raqamlarga mos ravishda mamlakatimizda 2017-yilda 105 ta, 2018-yilda 146 ta, 2019-yilda 113 ta, 2020-yilda 143 ta, 2021-yilning 9 oyida esa 91 ta jinoyat ishi ko'rilgan [8]. Bundan ko'rinib turibdiki, tibbiyot xodimlari tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilik respublikamizda yildan yilga o'sib bormoqda. Bu esa ushbu jinoyatlarga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish zarurati mavjudligini ko'rsatadi.

Bizga ma'lumki, jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha davlatimiz tomonidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmogda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Inson salomatligini muhofaza qilish borasida so'nggi vaqtda olib borayotgan ishlarimizga qaramasdan, afsuski, joylarda ko'plab muammolar hamon saqlanib qolmogda. Ana shularni hisobga olib, hududlar aholisi uchun qulay bo'lgan, sifatli va zamonaviy tibbiy yordam ko'rsatish, kasalliklarni barvaqt aniqlash bo'yicha boshlagan ishlarimizni izchil davom ettiramiz", deb ta'kidlangan edi [9].

Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining kelib chiqish sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlar xususida so'z yuritganda, mazkur jinoyatning aksariyat hollarda tibbiyot sohasida sodir etilishidan kelib chiqib, ushbu soha xususiyatidan kelib chiqqan holda, jinoyat sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarga to'xtalib o'tish lozim.

Ayni damda shaxslarning huquqlarini himoya qilish sohasida paydo bo'ladigan munosabatlar huquqning ko'plab tarmoqlari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi professional huquqni buzishlar uchun ayrim tibbiyot xodimlari va davolash-profilaktika muassasalari xodimlarini ma'muriy, intizomiy, jinoiy, fuqarolik (mulkiy) javobgarlikka tortishni nazarda tutadi [10].

Tadqiqot natijalari

Sog'liqni saqlash tizimida islohotlar 1998-yil 10-noyabrdagi PF-2107-son "O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi bilan bog'liq. Mazkur farmon bilan sog'liqni saqlash vazirligi oldiga qo'yilgan vazifalar va mas'uliyat har bir rahbardan, tibbiyot xodimidan fidoyilik, har kunlik mehnatni talab etadi va pirovardida xalqimiz salomatligini saqlash kabi muqaddas burchni bajarishga zamin yaratib beradi.

Shu bilan bir qatorda, so'nggi yillarda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida aholining barcha qatlami, ayniqsa, uzoq qishloq aholisiga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar davlat siyosatining bosh maqsadiga aylangan. Shu maqsadda tibbiyot sohasining barcha yo'nalishlarini kompleks rivojlantirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar qamrab olingan 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, o'tgan davrda 1283 ta tez tibbiy yordam avtotransport vositalari xarid qilindi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-apreldagi PQ-2863-son "Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish, xususiy tibbiyot muassasalarining aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishi uchun zarur sharoit yaratildi.

Ushbu qarorda sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektor tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat turlarini yanada kengaytirish ko'zda tutilgan. Xususan, ayni paytgacha xususiy tibbiyot muassasalariga 177 turdagi tibbiy xizmatlarning atigi 50 tasiga ruxsat etilgan bo'lib, qolganlari taqiqlangan edi. Mazkur qarorga binoan, endi ularga tibbiy xizmatlarning deyarli barcha turlarini ko'rsatishga ruxsat berildi. Ruxsat etilgan tibbiy xizmat tur-

lariga kardiojarrohlik, neyrojarrohlik, mikrojarrohlik, onkologiya, anesteziologiya va reanimatologiya, gelmintologiya, intervitsion kardiologiya, immunobiologik va immunoferment tashxis qo'yish, qon-tomir, torakal va abdominal jarrohlik hamda tibbiyot sohasida talab yuqori bo'lgan boshqa yo'nalishlar kiritildi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning xususiy tibbiyot muassasalarini rivojlantirishga oid qaroridan so'ng O'zbekistondagi xususiy klinikalar soni so'nggi yilda 3040 tadan 4073 taga oshdi. Mamlakatimiz tibbiyoti tarixida birinchi marta xususiy klinikalarga deyarli barcha yo'nalishlarda, xususan, abdominal jarrohlik, torakal jarrohlik, neyroxirurgiya, onkologiya, travmatologiya va bolalar jarrohligi bo'yicha litsenziya berishga ruxsat etildi. Milliy emlash kalendari bo'yicha bolalar 12 ta boshqariladigan infeksiyaga qarshi davlat hisobidan profilaktik emlanadi. Yuqumli kasalliklarga qarshi emlash uchun sarflanadigan mablag'lar to'liq davlat budjeti hisobidan qoplanib, emlash qamrovi 99,5 foizga yetkazildi. Natijada 2017-yil Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan O'zbekiston qizamiq va qizilcha kasalliklaridan xoli hudud deb e'tirof etildi [11].

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2017-yil 6-yanvarda sog'liqni saqlash sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan uchrashuvida "Sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir", deb ta'kidladi. "Bugun zamon o'zgarmoqda, odamlarning talabi oshib bormoqda. Xalqimizning tibbiy madaniyati yuksalib, eng so'nggi usul va rusumlarda tibbiy xizmat ko'rsatilishini istaydi. Bizga shu ham bo'laveradi, degan tushuncha endi o'z umrini o'tab bo'ldi. Bu barcha sohalar qatori tibbiyot sohasiga ham bevosita daxldor. Shu bois soha xodimlari tibbiyotning eng ilg'or, zamonaviy yutuqlarini, davolash usullarini o'zlashtirmog'i zarur. Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirish taraqqiyot yo'lidagi eng katta g'ovdir".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-avgustdagi PQ-3894-son "O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlashni boshqarishning innovatsion modelini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi tashkil etildi.

Uning zimmasiga, shu jumladan, tibbiyot xodimlarining obro'sini, ushbu kasb nufuzi va mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida korupsiya ko'rinishlariga barham berish hamda ularning oldini olish, ularning tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash choralari ko'rish, tibbiyot xodimlari kasbiy malaka darajasi, shuningdek, ularning ko'nikmalari zamonaviy talablar va jahonning eng yaxshi amaliyotiga muvofiqligi ustidan, shu jumladan, ular faoliyatini yakka tartibda litsenziyalashni joriy etish orqali ta'sirchan monitoring tizimini yo'lga qo'yish, tibbiyot xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ushbu sohaga zamonaviy standartlarni joriy etish, tibbiyot xodimlarining xatolari, kasalliklarni noto'g'ri diagnostika qilish va davolash holatlarini kamaytirishning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish kabi vazifalar yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4007-son "Davlat tibbiyot muassasalari va sog'liqni saqlashni boshqarish organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida davlat tibbiyot muassasalari tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining mehnatiga haq to'lash miqdorlari 2018-yil 1-dekabrdan 1,2 baravar va 2019-yil 1-apreldan 1,15 baravar bosqichma-bosqich oshirildi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-son "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinishi muhim qadam bo'ldi. Farmon asosida "2019–2025-yil-

larda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi" hamda amalga oshirish samaradorligini aniqlash indikatorlari tasdiqlandi.

Guvohi bo'lganimizdek, mamlakatimizda tibbiyot sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning ushbu sohani rivojlantirish, uni tubdan isloh qilishga qaratilgan qator farmon va qarorlari qabul qilindi. Bu borada birlamchi tibbiyot xizmati, shoshilinch va tez tibbiy yordam, ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmat, xususiy tibbiyot, aholining reproduktiv salomatligini asrash kabi yo'nalishlar ustuvor vazifa qilib belgilangan.

2016-yil bilan qiyoslaganda, o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Joriy yilda oilaviy poliklinikalar 793 taga ko'paydi. Tun-u kun faoliyati ko'rsatadigan 793 ta qishloq oilaviy poliklinikasi tashkil etilib, ularda tez tibbiy yordam shoxobchasi hamda kunduzgi stasionarlar ochildi. Onalar o'limi 19 tadan 18,2 taga tushdi. Sil bilan kasallanish keskin kamaydi. Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari hududlarga 2407 marta chiqdi, vaholanki, 2016-yilda bu raqam 500 ta bo'lgan edi. O'tgan yili ularning xizmatidan 30 ming kishi foydalangan bo'lsa, joriy yil bu ko'rsatkich 220 mingga yetdi. 99 nafar malakali shifokor xorijdan yurtimizga qaytib kelib, endilikda davlatimizga xizmat qilmoqda.

Tibbiyot tizimidagi muammo va kamchiliklarni hududlar kesimida tahlil qilganda, joylardagi tibbiyot muassasalarining kadrlar ta'minoti va salohiyati yetarli emasligi, ya'ni bugungi kunda mamlakatimizda 11 mingdan ziyod shifokor yetishmasligi sababli yangidan tashkil etilayotgan tibbiyot muassasalari tomonidan aholiga sifatli tibbiy yordam ko'rsata olinmayotgani ko'rinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev raisligida 2018-yil 9-noyabr kuni sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, hududlar aholisini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish, tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasi-

dagi islohotlar natijalarini tahlil qilish va istiqboldagi ustuvor vazifalarni belgilashga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham barcha islohotlardan asosiy maqsad odamlar hayotini yaxshilash ekani, sifatli tibbiy xizmat bu borada muhim o'rin tutishi ta'kidlandi. Keyingi ikki yilda Prezidentning sohaga oid 50 ta farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 70 dan ziyod qaror va farmoyishlari qabul qilindi. 6 ta yangi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilib, ularning soni 16 taga yetdi. Xalqimizga yanada qulay bo'lishi uchun hududlarda ularning 10 ta filiali ish boshladi. Tuman va shahar shifoxonalarida 306 ta yangi ixtisoslashgan bo'limlar, 1 ming 200 ta tez tibbiy yordam shoxobchasi ochildi. 2018-yilda tibbiyot sohasiga davlat byudjetidan 2017-yilga nisbatan 40 foiz ko'p mablag' ajratildi.

2018-yilda Prezidentning Virtual qabulxonasiga tibbiyot sohasiga doir 45 mingdan ziyod murojaat kelib tushgani bu sohada hali muammolar borligini ko'rsatmoqda. Masalan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimi, tuman markaziy shifoxonalarining moddiy-texnika bazasi va malakali kadrlar bilan ta'minlanish darajasi talabga javob bermaydi. Buning oqibatida hududlardagi bemorlar katta mablag' sarflab, Toshkent shahriga kelish yoki chet davlatlarga borishga majbur bo'lmoqda.

Tadqiqot natilari tahlili

Jinoyatchilik, shu jumladan, tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining sabablarini shartli ravishda umumiy va maxsusga ajratgan holda o'rganishimiz mumkin:

1. Tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining umumiy sabablariga uning sodir etilishiga turtki bo'lgan obyektiv sabablar, jumladan, tibbiyot xodimlari tomonidan vazifalarni lozim darajada bajarishni ta'minlashga oid qonunchilik normalaridagi kamchiliklar, aholiga xizmat ko'rsatish sohasida tegishli ruxsat beruvchi yoki taqiq o'rna-

tuvchi tizimlarni huquqiy ta'minlash darajasining yetarli emasligi, aholi ongida tibbiy bilimlar sayozligi, mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy vaziyat, ayrim munosabatlarning yetarli darajada tartibga solinmaganligi kabi holatlarni ko'rsatishimiz mumkin.

2. Tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining maxsus sabablariga aniq vaziyatda mazkur jinoyatni sodir etishga turtki bo'lgan jinoyatchi ruhiyati va ichki dunyosi bilan bog'liq bo'lgan subyektiv omillar kiradi. Jumladan, muayyan vaziyatda jinoyatchi shaxsiga xos bo'lgan ruhiy-psixologik omillar, xususan, tibbiyot xodimlarining o'z vazifalariga nisbatan sovuqqonlik, mas'uliyatsizlik, ayrim xodimlarning kasb va huquqiy madaniyatining pastligi, korrupsiyaviy sabablar, jinoyatlar latentligi, viktimologik omillar va shu kabilar kiradi.

Adabiyotlarda, shuningdek, huquqbuzarliklarning obyektiv va subyektiv sabablarini harakatga keltiruvchi, rivojlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi jinoyatchilikning subyektiv sabablari va shart-sharoitlari (aholining demografik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari – xarakteri, yoshi, jinsi va boshqa xususiyatlari) hamda jinoyatchilikning obyektiv sabablari va shart-sharoitlarini (huquqiy, texnik tartibni tashkillashtirishdagi kamchiliklar va h.k.) ham farqlaydilar [12].

Jinoyatchilik shart-sharoitlari esa jinoyatchilik sabablari yuzaga kelishiga turtki bo'luvchi, imkon yaratuvchi hodisalar bo'lib, adabiyotlarda ularni bir vaqtda yuzaga keladigan, zaruriy va yetarli shart-sharoitlarga bo'lish taklif qilinadi [13].

Y.V. Chufarovskiy bu haqda "jinoyat sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar deganda, jinoyatni bevosita keltirib chiqarmaydigan, biroq ularning mavjudligi shaxsda jinoyat sodir etish tuyg'usini shakllantiruvchi real faktlar tushuniladi" [14], deb yoza-di. Ushbu faktlar turli aniq jinoyatlarga taalluqli bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning turli sohalari qa'rida shakllanadi. Jinoyatchilik

shart-sharoitlarini aniqlash uning sabablarini topish va jinoyatni fosh etishga nisbatan ancha oson kechadi. Aksar hollarda jinoyatchilik shart-sharoitlari jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayoti yuzasida bo'ladi.

Tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining shart-sharoitlari sifatida yuqori turuvchi organlar tomonidan nazoratning sustligi, jazoning muqarrarligi lozim darajada ta'minlanmasligi, xodimlarning o'zaro aybini yashirishi va hokazolarni kiritishimiz mumkin. Shuningdek, amaldagi qonunchilikdagi ayrim kamchiliklar, ba'zi ijtimoiy munosabatlarning huquqiy jihatdan yetarli darajada tartibga solinmaganligi ham tibbiyot xodimlarining o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining sodir etilishiga turtki bo'lmoqda.

Qolaversa, tibbiyot xodimlari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar o'rganilganda, O'zbekiston Respublikasi JK 116-moddasi bo'yicha chiqarilgan 200 ta hukmning, asosan, oliy (66 %) yoki o'rta maxsus (34 %) ma'lumotga ega, muqaddam sudlanmagan (100 %), oilali (72 %) shaxslarga tegishli ekanligini ko'ramiz (Ushbu statistik ma'lumot Respublika bo'yicha to'plangan 200 ta jinoyat ishi materiallari tahlili asosida aniqlangan). Bu esa tibbiyot xodimlari muqaddam ijtimoiy foydali faoliyat bilan band bo'lib, jamiyatga muayyan foyda keltirganligi, ushbu jinoyat subyektlari kasb egalari bo'lishi, qoida tariqasida ehtiyotsizlik orqasidan birinchi marotaba jinoyat sodir etishi hamda o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lishlarini hisobga olib, ularga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazolarning liberallashtirilishi maqsadga muvofiq.

Tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyati sodir etilishining asosiy sabab va shart-sharoitlaridan biri sifatida huquqiy bilimning yetishmasligi, huquqiy ong va savodxonlik darajasining pastligini ham alohida ko'rsatib o'tish lozim.

Bunga misol tariqasida quyidagi hukmni keltirish mumkin. D. avtohalokat tufayli Denov tumanidagi 2-shifoxonaga keltiriladi. D.ning ahvoli yomonligi sababli shifokor S. zudlik bilan operatsiya o'tkazish lozimligini aytadi. Shunda "narkoz" qilishi lozim bo'lgan mutaxassis yo'qligi uchun S.ning o'zi bu ishni amalga oshiradi. Operatsiya muvaffaqiyatli chiqqan bo'lsa-da, "narkoz" noto'g'ri qilinishi natijasida bemor koma holatiga tushib qoladi va ertasi kuni shifoxonada olamdan o'tadi. Sud jinoyat ishini ko'rib, shifokor S.ning qilmishida tibbiyot xodimining o'z vazifasini lozim darajada bajarmaslik alomatlari mavjud deb hisoblaydi va qilmishni JK 116-moddasi uchinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilib, tegishli jazo tayinlagan [15].

Tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyati sodir etilishining shart-sharoitlarini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

a) jinoyat sodir etilishiga turtki beruvchi shart-sharoitlar (kasbiy bilimlarning yetarli emasligi, tibbiyot xodimlarining o'z vazifalariga loqaydligi, korxona, muassasa, tashkilotlarda xodimlar ustidan nazoratning samarali emasligi);

b) jinoyat sodir etilishini qulaylashtiruvchi shart-sharoitlar (ayrim tibbiyot xodimlarining huquqni muhofaza qilish organlari nazoratidan chetda qolishi va b.q.);

d) jinoyatning latentligini ta'minlovchi shart-sharoitlar (tibbiyot xodimlarining bir-birini qo'llab-quvvatlashi, fuqarolarning huquqiy va tibbiy ongining pastligi va h.k.) va b.q.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda adabiyotlarda aynan tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog'liq jinoiy qilmishlarning sodir etilishi shart-sharoitlari to'g'risidagi so'z borganda, korrupsiyaviy omillarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozimligi qayd etiladi [16].

Bu esa, o'z navbatida, mazkur jinoyat sodir etilishiga qonunga hurmatsizlik, huquqiy madaniyatning yetishmasligi ham sabab bo'lishini ko'rsatadi. Bu borada O'zbekis-

ton Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Qonunlarga hurmat odamlarimizning huquqiy ongi va madaniyati asosida shakllanadi. Ya'ni ayrim kishilar jazodan qo'rqib, qonunga itoat etsa, boshqalar bolalikda olgan tarbiyasiga ko'ra qonunni hurmat qiladi. ... Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq, Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart. Muxtasar qilib aytganda, fuqarolarimiz qonunlarni buzishdan ko'ra, ularga amal qilishdan manfaatdor bo'lishlari lozim" [16].

Tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining sabablari va shart-sharoitlari umumiy jinoyatchilikning tarkibiy qismi sifatida umumiy va ayni damda jinoyatchilikning mustaqil turi sifatidagi o'ziga xos jihatlari bilan tavsiflanuvchi alohida xususiyatlarga ega.

Bu borada Y.K. Senekosova mazkur jinoyatlar uchun latentlik, fosh etilish darajasining pastligi, jinoyatning subyektiv tomonini aniqlashning mushkulligi, korporativ xususiyatga egaligi, tibbiy hamjamiyatning yopiqligi, shuningdek, ushbu jinoyatlarni ko'rib chiqish va tergov qilishning murakkabligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tayyorgarlik darajasi pastligi kabilar xosligi haqida yozadi [17].

Har bir davlat uchun jinoyatchilik tuzilishi va murakkabligidan qat'i nazar, jinoyatchilikning oldini olish va unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish muhim hisoblanadi [18].

Xulosalar

Xulosa sifatida tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining kelib chiqish sabablarini tahlil qilish quyidagi taklif va xulosalarga kelish imkonini berdi:

birinchidan, tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmas-

lik jinoyatining ijtimoiy xavfliligi aybdorning o'z kasbiga, unga davlat va jamiyat tomonidan ishonib yuklangan kasb majburiyatlariga nisbatan mas'uliyatsizlik, ehtiyotsizlik bilan yondashishi natijasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga putur yetishida namoyon bo'ladi;

ikkinchidan, sog'liqni saqlash tizimida korrupsiya ko'rinishlariga barham berish va ularning oldini olish, ularning tibbiyot sohasi ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash choralari ko'rish lozim;

uchinchidan, tibbiyot xodimlarining kasbiy malaka darajasi, shuningdek, ularning ko'nikmalari zamonaviy talablar va jahonning eng yaxshi amaliyotiga muvofiqligi ustidan, shu jumladan, ular faoliyatini yakka tartibda litsenziyalashni joriy etish orqali ta'sirchan monitoring tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq;

to'rtinchidan, tibbiyot xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ushbu sohaga zamonaviy standartlarni joriy etish, tibbiyot xodimlarining xatolari, kasalliklarni noto'g'ri diagnostika qilish va davolash holatlarini kamaytirishning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish lozim;

beshinchidan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimi, tuman markaziy shifoxonalari moddiy-texnika bazasi va malakali kadrlar bilan ta'minlanishi zarur;

oltinchidan, tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining shart-sharoitlari sifatida yuqori turuvchi organlar tomonidan nazoratni kuchaytirish zarur;

yettinchidan, tibbiyot xodimlari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning latentlik darajasi yuqoriligi, fosh etish darajasining pastligi, jinoyat subyektiv tomonini aniqlashning mushkulligi, korporativ xususiyatga egaligi, tibbiy hamjamiyatning yopiqligi, shuningdek, ushbu jinoyatlarni ko'rib chiqish va tergov qilishning murakkabligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tayyorgarlik darajasi pastligi uchun tibbiyot xodimlarining qilmishlari uchun maxsus tergov qilish boshqarmalarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Yuqorida bildirilgan takliflarning amalga oshirilishi tibbiyot xodimlari tomonidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatining kelib chiqish sabablarini kamaytiradi va jinoyatchilikni oldini olish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Universal declaration of human rights. Available at: https://unicode.org/udhr/d/udhr_uzn_cyrl.txt/.
2. Abdurasulova Q.R. *Kriminologiya [Criminology]*. Tashkent, TSUL, 2007, p. 37.
3. Rustemova G.R. *Kriminologicheskiye problemy preduprezhdeniya prestupleniy v sfere meditsinskogo obsluzhivaniya naseleniya [Criminological problems of crime prevention in the field of medical care for the population]*. Almaty, 2003, p. 28.
4. Kairjanov Ye.I. *Kriminologiya [Criminology]*. Almaty, 2000, p. 288.
5. Kuanalieva G. *Kriminologicheskaya kharakteristika lits, sovershayushhikh posyagatel'stva na zdorov'ye cheloveka [Criminological characteristics of persons committing encroachments on human health]*. *Vestnik TSUL*, Tashkent, 2009, no. 3, pp. 99–100.
6. Satpaeva H.K. *Valeologiya – nauka o zdorov'ye. Perspektivy yeye razvitiya v Kazakhstane [Valeology is the science of health. Prospects for its development in Kazakhstan]*. Almaty, 1998, p. 10.
7. Scanlon A., Murphy M. Medical futility in the care of non-competent terminally ill patient: nursing perspectives and responsibilities. *Australian Critical Care*, 2014, May, vol. 27, iss. 2, pp. 99–102.

8. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi [Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis]. *Xalq so'zi – People's word*, 2017, December 22.
9. G'afurova N.E. Sog'liq – salomatlikka bo'lgan huquq va bioetika [Health – the right to health and bioethics]. Tashkent, TSUL, 2008, p. 8.
10. Agzamov A.A. Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar [Reforms in the healthcare system]. Right on health. Proceedings of the Scientific and Practical Conference. Tashkent, TSUL, 2008, pp. 106–110.
11. Kriminologiya [Criminology]. Ed. V.E. Eminova. Moscow, 1997, p. 19.
12. Kovalev M.I. Pravo na zhizn' i pravo na smert' [Right to extradite and right to die]. *State and law*, Moscow, 1992, no. 7, p. 26.
13. Chufarovskiy Yu.V. Kriminologiya [Criminology]. Moscow, 2002, p. 18.
14. Archive materials of the Denov district court on criminal cases. 2009.
15. Maulenov G.S. Osnovnyye kharakteristiki prestupnosti v Respublike Kazakhstan [The main characteristics of crime in the Republic of Kazakhstan]. Almaty, 1999, p. 210.
16. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir [An educated generation is a guarantee of a great future, an entrepreneurial nation is a guarantee of a prosperous life, and friendly cooperation is a guarantee of development]. Speech at the solemn ceremony dedicated to the 26th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Available at: www.uza.uz/.
17. Senekosova Ye.K. Professional'naya nekompetentnost' i nedobrosovestnost' pri okazanii meditsinskoy pomoshhi: kriminologicheskiye i ugovovno-pravovyye aspekty [Professional 'incompetence' and dishonesty' in the provision of medical care: criminological and criminal law aspects]. Abstract of PhD thesis. Omsk, 2018, p. 10.
18. Niyozova S.S. Prevention of crime in the family and the role of victimology in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 2020, vol. 29, no. 3, pp. 3960–3969.

UDC: 343.23 (045)(575.1)

JINOYAT TARKIBI OBYEKTIV TOMONINING QONUNCHILIKDAGI TUZILISHI (KONSTRUKSIYASI): TAHLIL VA TAKLIF

Xudoyqulov Feruzbek Xurramovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat huquqi, kriminologiya va

korruptsiyaga qarshi kurashish kafedrasida dotsenti,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-4940-3762

e-mail: dr.profi114@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, induksiya, deduksiya, tizimlilik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy metodlaridan keng foydalanilgan. Jumladan, birinchi navbatda, jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilarining umumiy tavsifi va ularning jinoyat qonunchiligidagi tuzilishi ochib berilgan bo'lib, ular to'g'risidagi olimlarning ilmiy qarashlari, tadqiqotlari, ular o'rtasidagi o'zaro o'xshash va farqli jihatlar haqida atroflicha bayon qilingan. Shuningdek, jinoyat tarkibi obyektiv tomonining zaruriy belgilari bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmish va uning fakultativ belgilari bo'lgan jinoyat-huquqiy oqibat, sababiy bog'lanish, jinoyat sodir etish joyi, vaqti, usuli, holati, quroli va vositasining JK Maxsus qismi moddalar dispozitsiyasidagi tuzilishi ketma-ket tavsiflab berildi. Ushbu maqolada asosiy e'tibor jinoyat tarkibi obyektiv tomoni va uning belgilarining jinoyat qonunchiligidagi tuzilishiga qaratilgan bo'lib, ularning jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi jinoyat-huquqiy ahamiyati hamda kvalifikatsiya qilish qoidalari instrumental va qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda kontinental (roman-german) huquq oilasiga kiruvchi rus olimlari A.N. Traynin, T.V. Sereteli, V.N. Kudryavsev, N.F. Kuznesova, B.V. Zdravomislov va boshqalar, shuningdek, mahalliy olimlardan M.X. Rustamboyev, M. Usmonaliyev, P. Bakunov, R. Kabulov, X.M. Abzalova A.A. Otajonov, I.A. Sottiyev, X. Ochilov, Sh. Haydarov, Z. Shamsiddinov va boshqalarning ilmiy ishlari, monografiyalari, ilmiy va o'quv darsliklaridan foydalanilgan. Shu bilan birga, jinoyat qonunchiligi, jinoyat huquqi doktrinasi va unda mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlil etilib, bu borada jinoyat huquqi nazariyasi va amaliyotni takomillashtirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, jinoyat tarkibi, jinoyatning obyektiv tomoni, jinoiy qilmish, jinoyat-huquqiy oqibat, sababiy bog'lanish, fakultativ belgilar.

ЗАКОНОДАТЕЛЬНАЯ КОНСТРУКЦИЯ ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ СОСТАВА ПРЕСТУПЛЕНИЯ: АНАЛИЗ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Худайкулов Ферузбек Хуррамович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

доцент кафедры «Уголовное право, криминология

и противодействие коррупции»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье широко использованы такие методы исследования, как логический, индукционный, дедуктивный, системный, сравнительно-правовой. В частности,

в первую очередь раскрывается общая характеристика признаков объективной стороны преступления и их структура в уголовном праве, а также описываются научные взгляды и исследования в этом направлении ряда ученых, сходства и различия между ними. Также последовательно описаны: общественно опасное деяние с необходимыми признаками объективной стороны преступления и уголовно-правовые последствия с его факультативными признаками, причинно-следственной связью, местом, временем, способом, обстановкой, оружием и средствами преступления, в диспозиции статей Особенной части Уголовного кодекса Республики Узбекистан. В данной статье основное внимание сосредоточено на объективной стороне преступления и его признаках в уголовном праве, методически и сравнительно анализируется их уголовно-правовое значение при квалификации преступлений и их правил. Вместе с этим были использованы научные труды исследователей доктрины уголовного права, принадлежащие к семейству континентального (романо-германского) права, российских ученых А.Н. Трайнина, Т.В. Церетели, В.Н. Кудрявцева, Н.Ф. Кузнецовой, Б.В. Здравомыслова и др., а также отечественных ученых М.Х. Рустамбаева, М. Усмоналиева, П. Бакунова, Р. Кабулова, А. Отажонов, И.А. Соттиева, Х.М. Абзаловой, Х. Очилова, Ш. Хайдарова, З. Шамсиддинова и др. Кроме этого, на основе анализа доктрины уголовного права и существующих научных исследований выработаны обоснованные теоретические предложения и рекомендации по данному аспекту.

Ключевые слова: преступление, состав преступления, объективная сторона преступления, уголовно-правовые последствия, причинная связь, факультативные признаки.

THE LEGISLATIVE STRUCTURE OF THE OBJECTIVE SIDE OF THE COMPOSITION OF CRIME: ANALYSIS AND PROPOSAL

Khudaykulov Feruzbek Khurramovich,

Associate Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. In this article, research methods such as logical method, method of induction, method of deduction, systematic method, logical-legal method, and comparative-legal methods were used. In particular, first of all, the general characteristics of the signs of the objective side of the crime and their structure in criminal law, as well as the scientific views and research of scientists about them, the similarities and differences between them are revealed. Also, a socially dangerous act with the necessary signs of the objective side of the crime and criminal law consequences with its optional signs, causal relationship, place, time, method, circumstances, weapons and means of crime, in the disposition of the articles of the Special Part of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan are consistently described. This article focuses on the objective side of crime and its features in criminal law; instrumentally and comparatively analyzes their criminal legal significance in the qualification of crimes and the rules of qualification. At the same time, scientific works, monographs, and scientific and educational textbooks of Russian scholars A.N.Trainin, T.V.Tsereteli, V.N.Kudryavtsev, N.F.Kuznetsova, B.V.Zdravomyslov and others belonging to the continental (Romano-Germanic) family of law, as well as national scientists M.Kh.Rustamboev, M.Usmonaliev, P.Bakunov, R.Kabulov, Kh.M.Abzalova, A.A.Otajonov, I.A.Sottiev, Kh.Ochilov, Sh. Khaydarov, Z.Shamsiddinov and others were used. Moreover, the doctrine of criminal law and existing scientific researches were analyzed, and concrete proposals and recommendations were developed in this regard to improve the theory and practice of criminal law.

Keywords: crime, the composition of crime, objective side of crime, causal link, chain of causality, conditions, criteria, rules.

Kirish

Jinoyat tarkibi obyektiv tomoni ijtimoiy xavfli xulq-atvorning tashqi tomoni bo'lib, ushbu xulq-atvor jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga (O'zR JK 2-m.) zarar yetkazadi. "Jinoyat obyektiv tomoni jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazuvchi ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomonini tavsiflovchi belgilar yig'indisidir. Uni shaxsning moddiy olamdagi xulq-atvorini tavsiflaydigan belgilar yig'indisi tashkil etadi. U ijtimoiy xavfli qilmish, ijtimoiy xavfli oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish, shuningdek, jinoyat sodir etish usuli, joyi, holati, vaqti, quroli, vositasi kabi belgilardan iborat bo'ladi... Jinoyatning obyektiv tomoni belgilari Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasining dispozitsiyasida deyarli to'liq aks ettiriladi. Shunga qaramay qonunni qo'llash amaliyotida bunday holatlar bo'yicha xatoliklar uchrab tura-di" [1, 53-b.].

Jinoyat tarkibining obyektiv tomoni statik emas, balki dinamik jarayonlardan iborat bo'lib, jinoyat qonuni bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar o'zgargan sari jinoyat qonuni muayyan jinoyat tarkibi obyektiv tomonini ifodalovchi norma dispozitsiyasiga ham qonun chiqaruvchi tomonidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib boriladi. "Jinoyatning obyektiv tomoni jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga qaratilgan ijtimoiy xavfli va huquqqa xilof tajovuzning tashqi jarayoni bo'lib, unga voqea va hodisalarning muayyan tartibda sodir bo'lishi nuqtayi nazaridan qaraganda, subyektning jinoyat harakati (harakatsizligi) bilan boshlanadi va jinoyat oqibat ro'y berishi bilan yakunlanadi" [2, 9-b.].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jinoyatning obyektiv tomoni ijtimoiy xavfli qilmishning "yadrosi" va "asosiy o'zagi, qismi, yuragi" hisoblanadi. Shuningdek, aynan jinoyatning tashqi tomoni orqali ijtimoiy xavfli qilmish obyektiv haqiqatda ifodalanadi. Shu bilan birga, jinoyatning obyektiv tomoni bel-

gilari orqali, birinchi navbatda, jinoyatning ijtimoiy xavflilik belgisi aniqlanadi. Muayyan jinoyat ijtimoiy xavfli bo'lgandan so'ng qonun chiqaruvchi jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan qilmishni jinoyat deb tan oladi va JK Maxsus qismi norma dispozitsiyasida ifodalaydi. Natijada jinoyat avval ijtimoiy xavflilik, ayblilik, keyin esa qonunga xiloflik va jazoga sazovorlik belgilarining qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat qonunida shakllantirilishiga olib keladi.

Jumladan, kontinental (roman-german) huquq oilasiga kiruvchi rus olimlari A.N. Traynin, T.V. Sereteli, V.N. Kudryavsev, N.F. Kuznesova, B.V. Zdravomislav va boshqalar, shuningdek, mahalliy olimlardan M.X. Rustamboyev, M. Usmonaliyev, P. Bakunov, R. Kabulov, X.M. Abzalova, A.A. Otajonov, I.A. Sottiyev va boshqalarning ilmiy ishlari, monografiyalari, ilmiy va o'quv darsliklarida jinoyatning obyektiv tomoni belgilari tadqiq qilingan. Ammo jinoyat tarkibi obyektiv tomonining qonunchilikdagi tuzilishi (konstruksiyasi) tizimli va to'liq o'rganilmagan.

Jinoyat obyektiv tomoni belgilari qonun chiqaruvchi tomonidan JK Maxsus qismi norma dispozitsiyalarida deyarli to'liq aks ettiriladi. Shuning uchun ham jinoyat tarkibining boshqa elementlari va belgilari unga qarab aniqlanadi. Shuningdek, u qonunni qo'llash amaliyotida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ularni bir-biridan farqlovchi muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Bu esa jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish va JKning qonuniylik, insonparvarlik va odillik prinsiplarining amalda to'g'ri qo'llanishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda jinoyat qonunchiligini isloh qilish, jinoyat-huquqiy normalarni qo'llash amaliyotini yaxshilash, huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari faoliyatida odillik hamda insonparvarlik tamoyillari kuchaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda, shu bilan birga, qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "ji-

noyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish” mamlakat jinoyat qonunchiligini rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari sifatida belgilanganligi ushbu sohani tadqiq etish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Shulardan kelib chiqib, jinoyat tarkibi obyektiv tomoni bilan bog’liq jinoyat qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish zarur. Shubhasiz, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilari bilan bog’liq jinoyat sodir etgan shaxs xatti-harakatlariga huquqiy baho berishda ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik), ijtimoiy xavfli oqibat, qilmish va oqibat o’rtasidagi sababiy bog’lanish, jinoyat sodir qilish joyi, vaqti, usuli, holati, quroli va vositasini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan ko’zlangan maqsad, avvalo, sodir etilgan jinoyatni to’g’ri kvalifikatsiya qilib, jinoyat-huquqiy nuqtayi nazardan to’g’ri baholashdir. Bu maqsadga erishish uchun, avvalo, shaxs qilmishining tashqi, ya’ni qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat qonunida to’g’ridan to’g’ri nazarda tutilgan jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilarini aniqlab olish va bu haqdagi tegishli ma’lumot hamda bilimlarga ega bo’lish talab qilinadi.

Har qanday jinoyat muayyan joy, vaqt va muayyan usul bilan sodir etiladi. Jinoyat qonunida jinoyat tarkibining obyektiv tomoni belgilari to’g’ridan to’g’ri nazarda tutiladi. Shuningdek, ba’zan ular, albatta, jazoni yengillashtiruvchi va og’irlashtiruvchi holatlar sifatida jazo tayinlashda inobatga olinadi. Bundan tashqari, jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilarining zaruriy va javobgarlikni og’irlashtiruvchi belgilari bo’lib kelishi kabi jinoyat-huquqiy ahamiyatining ilmiy va nazariy jihatini tadqiq etish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega bo’lib, uning dolzarbligini belgilab beradi.

Material va metodlar

Mazkur maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, induksiya, deduksiya, tizimlilik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy metodlaridan keng foydalanilgan. Tadqiqotning ushbu metodlaridan foydalanib, muayyan natijaga erishilgan va mazkur natija mahsuli sifatida Jinoyat huquqi umumiy qismiga nazariy va ilmiy jihatdan asoslantirilgan takliflar ishlab chiqilgan. Shuningdek, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish nazariyasini rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalari

Har qanday jinoyat tarkibi obyektiv tomonining zaruriy belgisi – bu ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir. Qolgan barchabelgilar jinoyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativ belgilari hisoblanadi. Ular umumiy qoidaga muvofiq, ikkita asosiy guruhga bo’linadi:

birinchi guruh – barcha moddiy tarkibi jinoyatlar uchun zaruriy bo’lgan belgilar, ya’ni jinoyat-huquqiy oqibat va sababiy bog’lanish;

ikkinchi guruh – jinoyat tarkibining boshqa fakultativ belgilari, ya’ni jinoyat sodir etish joyi, vaqti, holati (sharoiti), usuli, quroli va vositasi.

Yuqoridagilardan tashqari jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgilari muayyan jinoyat tarkibining kvalifikatsiyaviy va javobgarlikni og’irlashtiruvchi holatlarda kvalifikatsiyaviy belgilar sifatida qonun chiqaruvchi tomonidan JK Maxsus qismi moddalarining og’irlashtiruvchi holatlarida ifodalanadi.

X. Abzalovning fikricha, “Jinoyatning obyektiv tomoni O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarini dispozitsiyasiga asoslangan jinoyat tarkibining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Jinoiy huquq nazariyasida jinoyatning obyektiv tomoni birmuncha murakkab va keng ko’lamli tushuncha sanaladi. Bu jinoyatning tashqi tomonidir. Uning tadqiq qilinishi jinoyat tarkibining nafaqat mazkur elementi, balki boshqa elementlari va belgilarini aniqlashga imkon beradi. Jinoyatning obyektiv

tiv tomoniga ko'ra obyekt, subyektiv tomon, ba'zan esa jinoyat subyektini ham aniqlash mumkin" [3, 64-b.].

Jinoyat huquqi nazariyasida "jinoiy qilmish" tushunchasi tor va keng ma'noda qo'llaniladi. Ammo amaldagi O'zR JKda esa keng ma'noda qo'llanilib, u umuman olganda, jinoiy tajovuz va jinoyat tushunchalari bilan bir xil qaraladi. Masalan, JK 2-moddasida "jinoiy tajovuz"; 13-moddasida "ijtimoiy xavfli qilmish bajarilgan payt jinoyat sodir qilingan vaqt deb topiladi"; 14-moddasida "Ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi" va 16-moddasida "Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomat-lari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi" degan norma qonun chiqaruvchi tomonidan nazarda tutilgan.

Jinoyat huquqi doktrinasida tor ma'nodagi jinoiy qilmish deganda, jinoyat tarkibi obyektiv tomonining zaruriy belgisi bo'lgan ijtimoiy xavfli harakat va harakatsizlik tushuniladi. Jinoiy qilmish obyektiv tomonining yagona zaruriy belgisi deb tor ma'noda tushunish uning tuzilishini ochib beradi.

Jinoiy qilmish o'ziga xos muayyan belgilar yig'indisiga ega bo'lgandagina jinoyat-huquqiy ahamiyat kasb etadi va muayyan jinoyat tarkibi obyektiv tomonining zaruriy belgisiga aylanadi. JK Maxsus qismining muayyan modda normasi ham jinoiy qilmishning ushbu zaruriy belgilaridan kelib chiqib, qonun chiqaruvchi tomonidan shakllantiriladi. Jinoiy qilmishning to'rtta zaruriy belgilari bo'lib, ular quyidagilardan iborat: huquqqa (qonunga) xiloflilik; ijtimoiy xavflilik; ongillilik; ixtiyoriylik; murakkab xususiyatlilik.

Demak, jinoyatning obyektiv tomoni zaruriy belgisi yagona bo'lib, u ham bo'lsa, jinoiy qilmishdir. U ikki xil shaklda, ya'ni jinoiy harakat yoki harakatsizlikda sodir etiladi. Qonun chiqaruvchi tomonidan jinoiy qil-

mishni jinoyat qonunida ifodalashning turli xil texnik-yuridik uslublari mavjud bo'lib, ular, o'z navbatida, jinoyatlar kvalifikatsiyasiga ta'sir qiladi.

M. Usmonaliyev va P. Bakunovlarning ta'kidlashicha, "Jinoyatning obyektiv tomoni jinoyat tarkibining bitta tomoni (elementi) bo'lib, JK Maxsus qismining barcha moddalarini tahlil qilib, bu belgilarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Yuridik adabiyotlarda va qonun mazmuniga ko'ra, bu belgilar jinoyat obyektiv tomonining zaruriy va fakultativ belgilariga ajratiladi. Jinoyat tarkibining zaruriy belgisi – bu ijtimoiy xavfli qilmishdir. Boshqa barcha belgilari jinoyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativ belgilaridir. Ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) ning jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi ekanligi shundaki, JK Maxsus qismida nazarda tutilgan barcha jinoyatlar jinoyat tarkibining obyektiv tomoni uchun ijtimoiy xavfli qilmish ekanligi shart. Boshqa belgilari esa fakultativ belgilar bo'lib, JK Maxsus qismida nazarda tutilgan barcha jinoyatlarning jinoyat tarkibi doirasiga kirmay, faqat bir qator jinoyatlar uchungina obyektiv tomonining belgilari doirasiga kiradi" [4, 171-172-b].

X. Ochilov, Sh. Haydarov va Z. Shamsiddinovlar "Jinoyat tarkibi obyektiv tomoni, odatda, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini vujudga keltiradigan qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ni ifodalaydi. Jinoyat obyektiv tomonining belgilari ikkita asosiy guruhga ajratiladi: birinchi guruh belgilari – o'zgar-mas va har bir jinoyat tarkibi uchun xos bo'lgan va mazkur elementsiz jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydigan zaruriy belgilar; ikkinchi guruh belgilari esa jinoyatning bevosita obyektiv tomoni tarkibida bo'lmasligi ham mumkin bo'lgan fakultativ xarakterga ega bo'lgan belgilar. Ushbu ikki guruh belgilari quyidagilardan iborat: ijtimoiy xavfli qilmish; ijtimoiy xavfli oqibat; ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy

bog'lanish; jinoyat sodir qilish vaqti, sharoiti, joyi, usuli, jinoyat sodir etish vositasi yoki quroli.

Barcha jinoyat tarkibi turlari uchun jinoyat obyektiv tomoni zaruriy belgisi sifatida ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) olinadi. Agar sodir etilgan jinoyat moddiy tarkibli bo'lsa, ijtimoiy xavfli oqibat, ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish ham jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida e'tirof etiladi" [5, 33-34-b.], deb ta'kidlashadi.

Xususan, R. Kabulovning fikricha, "Qonundagi jinoiy qilmishni tasniflashning bir nechta turlarini ajratib ko'rsatish mumkin, ya'ni: a) norma tuzilishida yagona ijtimoiy xavfli qilmish ko'rsatiladi (masalan, JKning 274-moddasi); b) normaning tuzilishida ijtimoiy xavfli qilmish asosiy tarkibga nisbatan yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi belgi sifatida ko'rsatiladi (masalan, JKning 229-moddasi); d) normaning tuzilishida muqobil qilmishlar ko'rsatiladi (masalan, JKning 112-moddasi); e) normaning tuzilishida ijtimoiy xavfli qilmishlar tizimli ketma-ketlikda belgilanadi (masalan, JKning 118-moddasi); f) norma blanket xususiyatga ega bo'lib, ijtimoiy xavfli qilmish boshqa qonun hujjatlarida belgilanadi (masalan, 226-moddasi); g) javobgarlikka tortish sharti sifatida qo'shimcha huquqiy oqibatlarni nazarda tutuvchi normalar... "avval shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin" (JK 109-m.), "jazoni ijro etish koloniyasining karseriga o'tkazish tariqasida jazo qo'llanilgan yoki turmaga o'tkazilganidan keyin" (JK 221-m.), "intizomiy jazo qo'llanilganidan keyin" (JK 284-m) va boshqalar" [6, 55-56-b].

Tadqiqot natijalari tahlili

Jinoiy qilmishning JK Maxsus qismida qonun chiqaruvchi tomonidan ifodalanishining texnik-yuridik uslublari quyidagilardan iborat:

1. *Jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) xususiyati va muayyan ro'yxatining JK*

Maxsus qism moddalari dispozitsiyasida to'liq shaklda ifodalanishi. Qonun chiqaruvchining jinoiy qilmishni bunday formal-yuridik ifodalash uslubi huquqni qo'llovchi subyektlarning o'z ixtiyoricha jinoyatni kvalifikatsiya qilishini cheklaydi. Ushbu uslub jinoiy qilmish to'g'risidagi qonunning to'g'ri qo'llanishi va jinoiy xulq-atvor turlarini keng talqin qilish imkoniyati cheklanishiga olib keladi. Chunki jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) turlari va ko'rinishlari jinoyat qonuni normasida to'liq va aniq qilib ifodalanadi. Masalan, JK 137-m., 142-m., 248-m., 273-m. va boshqalar.

2. *Jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tavsifi JK Maxsus qismi moddalari dispozitsiyasida nazarda tutilmasdan jinoyat-huquqiy oqibat ifodalanishi.* Qonun chiqaruvchi texnik-yuridik ifodalashning ushbu uslubida jinoiy xulq-atvorning turlari jinoyat huquqi doktrinasi va huquqni qo'llash amaliyotida aniqlashtiriladi. Jinoiy qilmish nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatni keltirib chiqaruvchi sababi sifatida ifodalanadi. Amaliyotda ushbu normalar bilan bog'liq qilmishni kvalifikatsiya qilishda huquqni qo'llovchi subyekt normada ifodalangan jinoiy oqibatni qanday qilmish (harakat yoki harakatsizlik)lar keltirib chiqarishini aniqlashiga to'g'ri keladi. Masalan, JK 97-m., 104-m., 105-m., 109-m. va boshqalar. Qonun chiqaruvchi texnik-yuridik ifodalashning ushbu uslubida jinoyat sodir etish usuli qilmish kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi.

Ammo ba'zi og'irlashtiruvchi holatlarda jinoyat tarkibi obyektiv tomoni javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda kvalifikatsiyaviy belgi sifatida ifodalanadi. Masalan, JK 97-moddasi "Qasddan odam o'ldirish" deb nomlangan bo'lib, unda hech qanday jinoiy qilmish turlari va ro'yxati keltirilmagan. Qasddan odam o'ldirish o'qotar quroldan otib o'ldirish, o'tkir kesuvchi jismni tiqish, zahar berib o'ldirish, bo'g'ib yoki cho'ktirib o'ldirish va boshqa shu kabi usullar bilan sodir etilishi mumkin, ammo bunday jinoyat

sodir etish usullari qilmish kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi. Ammo kuchli og'riq beruvchi zahardan foydalanish, tiriklayin yoqib yuborish, uzoq muddat ovqat, suv bermaslik [7] kabi jinoyat sodir etish usullari shaxs subyektiv munosabati (to'g'ri qasd) bilan birga bo'lganda, qilmish kvalifikatsiyasiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunday jinoiy qilmishlar JK 97-m. 2-q. "j" (o'ta shafqatsizlik bilan) bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Xususan, qasddan odam o'ldirish jinoyati bo'yicha 2015-yilda – 597 ta ish 666 nafar shaxsga, 2016-yilda – 609 ta ish 687 nafar shaxsga, 2017-yilda – 584 ta ish 629 nafar shaxsga, 2018-yilda – 467 ta ish 511 nafar shaxsga, 2019-yilda – 334 ta ish 409 nafar shaxsga nisbatan ko'rilgan.

Shuningdek, mazkur uslubda jinoiy qilmish "o'ldirish", "shikast yetkazish" (O'zR JK 104-, 105-, 109-moddalari) yoki "tajovuz qilish" iborasi bilan (O'zR JK 158-159-moddalari) ifodalanadi.

3. *Jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tavsifini qonun chiqaruvchi blanket dispozitsiyali qilib ifodalashi.* Qonun chiqaruvchi texnik-yuridik ifodalashning ushbu uslubida jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) ning tavsifini bilish uchun boshqa blanket normalarga murojaat qilishi lozim. Masalan, mehnat qilish huquqini buzish (O'zR JK 148-m.) jinoyatida "g'ayriqonuniy ravishda ishdan bo'shatish", "ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish" kabi jinoiy qilmishlar tavsifini bilish uchun O'zR Mehnat kodeksi normalariga murojaat qilinadi. Mazkur uslubda jinoiy qilmish muayyan shaklda boshqa normativ-huquqiy hujjatga havola qilinadi. Uning umumiy yoki qisman tavsifi havolaki norma orqali ochib beriladi. Bunga O'zR JK 188-189-m.lar, 200-m., 256-257-257¹-m.lar, 258-259-m.lar, 260-m., 266-m., 268-m. va boshqalarni misol qilish mumkin.

4. *Jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning qonun chiqaruvchi tomonidan havolaki dispozitsiyada ifodalanishi.* Qonun

chiqaruvchi texnik-yuridik ifodalashning ushbu uslubida jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tavsifini JK Maxsus qismining aynan shu moddasi boshqa qismi yoki boshqa moddasi orqali ochib beradi. Masalan, JK 104-m. 2-3-q.lar, 105-m. 2-q., 137-138-m.lari 2-3-q.lar, 176-m. 2-3-q.lar, 170-m. 1-q. va boshqalar. JK 170-m.da nazarda tutilgan "mulkiy zarar yetkazish"da qo'llanilgan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish kabilarni aniqlash uchun JK 168-m.ga havola qilinadi.

N.D. Durmanov, B.A. Kurinov, L.D. Gauxman, S.A. Yakubov, M. Rustamboyev, R. Kabulov, M. Usmonaliyev va B. Bakunovlarning jinoiy qilmish to'g'risidagi ilmiy yondashuvlari to'g'ri ekanligini ta'kidlash mumkin. Ularning ilmiy yondashuvlari "Jinoyat-huquqiy ma'nodagi qilmish – bu faqat inson tana harakatlari emas, balki aybdor tomonidan foydalanilgan muayyan texnik vositalar, tashqi dunyo obyektlarining xususiyatlari, ishlab chiqarish jarayoni, boshqa shaxslar harakatidan iborat bo'ladi" [8, 54-b., 75-b., 94-b., 175-176-b.].

Yuqoridagi olimlar tomonidan jinoyat-huquqiy xulq-atvorning aktiv (faol) shakli bo'lgan harakat va harakatsizlik *ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, ongli, irodaviy (ixtiyoriy), aktiv (faol) yoki passiv (nofaol) va murakkab xususiyatga ega ekanlik* kabi zaruriy belgilari mavjud bo'lsagina, ular *jinoiy harakat yoki harakatsizlik* bo'lishi haqidagi ilmiy yondashuvlar bayon qilingan. Shu sababli amaldagi JK VIII bo'lim "Atamalarning huquqiy ma'nosi"dagi harakat va harakatsizlik tushunchalari quyidagi tahrirda qonun chiqaruvchi tomonidan bayon qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

"Harakat – shaxsning ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, ongli, irodaviy (ixtiyoriy) va murakkab xususiyatga ega tashqi faol xulq-atvori. Harakatsizlik – shaxsning qonun va qonunosti hujjatlarida, sud qarorida, jamiyatda mavjud ijtimoiy normalarda, shaxs o'z harakatlari tufayli yoki xizmat, kasbiy yo-

xud mansab vazifalari va majburiyatlarida bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni real imkoniyatga ega bo'la turib bajarmaslikda ifodalangan ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, ongli, irodaviy (ixtiyoriy) va murakkab xususiyatga ega tashqi sust xulq-atvori".

5. *Jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning qonun chiqaruvchi tomonidan JK Maxsus qismi moddalarida dispozitsiyasida alternativ (muqobil) qilib ifodalanishi.* Ushbu muqobil qilmishlardan loaqal bittasini sodir etish jinoyat hisoblanadi. Masalan, JK 248-m. 1-q.ga ko'ra, qonunga xilof ravishda o'qotar qurol ishlab chiqarish, ta'mirlash, olish, saqlash, olib yurish, tashish, jo'natish, ular-dan foydalanish jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkinligi belgilangan. Ushbu jinoiy harakatlardan birini sodir etish mazkur modda bilan jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun yetarli bo'ladi. Xususan, bu bo'yicha 2015-yilda – 554 ta ish 643 nafar shaxsga, 2016-yilda – 520 ta ish 577 nafar shaxsga, 2017-yilda – 443 ta ish 498 nafar shaxsga, 2018-yilda – 151 ta ish 173 nafar shaxsga, 2019 yilda – 67 ta ish 77 nafar shaxsga nisbatan ko'rilgan.

6. *Jinoiy qilmishning asosiy va zaruriy ikki harakat shaklida qonun chiqaruvchi tomonidan JK Maxsus qismi moddalarida dispozitsiyasida ifodalanishi.* Qonun chiqaruvchi texnik-yuridik ifodalashning ushbu uslubi-da jinoiy qilmishda zaruriy ikkita harakat mavjud bo'lishi talab etiladi. Masalan, tovlamachilik jinoyatida (JK 165-m.) quyida-gi zaruriy ikkita harakat bir vaqtda mavjud bo'lishi lozim:

1) qo'rqitish – jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish;

2) talab qilish – zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etish bilan

qo'rqitib, o'zgadan mulk yoki mulkiy huquqni topshirish, mulkiy manfaatlar berish yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etish yoki sharoitga solib qo'yish – jabrlanuvchini o'z mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan.

Amaldagi jinoyat qonuni tahlili shuni ko'rsatadiki, JK Maxsus qismi moddalar dispozitsiyasida qonun chiqaruvchi jinoiy qilmishni ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik shaklida ifodalaydi. Masalan, kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik (O'zR JK 116-m.) harakatsizlik bilan sodir etilsa, o'g'rilik (JK 169-m.), talonchilik (JK166-m.), bosqinchilik (JK 164-m.) va boshqalar faqat ijtimoiy xavfli harakat bilan sodir etiladi. Amaldagi JK Maxsus qismi moddalarining ko'pchilik qismi jinoiy qilmishning ijtimoiy xavfli harakat shaklida sodir etiladi. Ammo qonun chiqaruvchi JK Maxsus qismi modda dispozitsiyalarini shunday texnik-yuridik uslubda ifodalaganki, ularda jinoiy qilmish umuman nazarda tutilmaydi va uning o'rniga muayyan jinoyat-huquqiy oqibat nazarda tutiladi. Masalan, qasddan odam o'ldirish (JK 97-m.) ham ijtimoiy xavfli harakat, ham harakatsizlik bilan sodir etiladi.

A.V. Korneyevaning fikricha, "Jinoyat qonunida to'g'ridan to'g'ri ifodalanmagan jinoiy qilmishning shakli to'g'risidagi masala tergov va sud amaliyoti, maxsus adabiyotlarni o'rganish, hayotiy va kasbiy tajriba orqali hal etiladi" [9, 22-b.].

Darhaqiqat, yuqoridagi olimning ilmiy yondashuvini qo'llab-quvvatlash mumkin. Qonun chiqaruvchi JK Maxsus qismi muayyan moddalar dispozitsiyalarida jinoiy qilmishning aniq shaklini nazarda tutmaydi. Mazkur ijtimoiy xavfli qilmish shakli to'g'risidagi masala dastlabki tergov va sud amaliyotida, shuningdek, jinoyat huquqi nazariyasidagi ilmiy tadqiqotlar va ishlarda o'z ifodasini topadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, qonun chiqaruvchi JK Maxsus qismi normalarini jinoiy qilmishning to'rtta zaruriy belgisi

asosida texnik-yuridik uslubda shakllantirgan. Har qanday qilmish muayyan jinoyatning asosini tashkil etishi uchun u moddiy va formal belgilarga ega bo'lishi lozim. Jinoiy qilmishning moddiy belgisi uning ijtimoiy xavfliligi bo'lsa, formal belgisi esa uning huquqqa (qonunga) xilofligidir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, jinoiy qilmish ijtimoiy xavfli xulq-atvorning asosiy ikkita shakli, ya'ni harakat va harakatsizlikda sodir etiladi.

Jinoyat huquqi doktrinasida mavjud konsepsiyalar tahliliga asoslangan holda, jinoiy harakatning asosiy ikkita belgisini ajratamiz: jinoiy harakatning asosiy umumiy belgilari va asosiy maxsus belgilari. Jinoiy harakatning umumiy belgilari: 1) jismoniy belgisi (harakatlar majmuyi, tana harakatlari, imo-ishoralar, og'zaki, yozma va boshqalar); 2) onglilik; 3) ixtiyoriylik; 4) maxsus xususiyatga egalik (harakatlarga ta'sir qiluvchi tashqi dunyo predmetlari, texnik vositalar, obyektiv tashqi kuchlar va qonuniyatlar).

Jinoiy harakatning asosiy maxsus belgilari: 1) ijtimoiy xavfliligi (moddiy belgisi); 2) huquqqa xilofligi (formal belgisi). Har qanday qilmish jinoiy qilmishning umumiy va maxsus belgilariga ega bo'lgandagina u jinoyat deb e'tirof etiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qonun chiqaruvchi yuqorida ta'kidlangan jinoiy harakatning belgilari asosida muayyan texnik-yuridik uslubdan foydalangan holda JK normalarini shakllantiradi.

Jinoiy harakatning huquqqa xiloflik belgisi deganda, qilmishning jinoyat qonuni bilan taqiqlanganligi tushuniladi. Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga (JK 2-m.) zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazishning real xavfi ostida qoldiradigan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) qonun chiqaruvchi tomonidan JK Maxsus qismi moddalarida dispozitsiyasida ifodalanadi. Biz buni yuqorida qonun chiqaruvchi tomonidan jinoiy qilmishning muayyan texnik-yuridik uslublarda ifodalashini ko'rsatib bergan edik.

Jinoiy harakatsizlikka ham tor va keng ma'nodagi ta'riflar beriladi. Qonun chiqaruvchi jinoyat qonuni normalarini shakllantirishda mazkur ikkala ta'riflar ma'nolaridan ham foydalanadi.

Jinoyat huquqi doktrinasida tor ma'nodagi jinoiy harakatsizlik deganda, shaxs ijtimoiy xavfli xulq-atvorining nafaol (passiv) shakli, keng ma'noda shaxs zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar va vazifalardan iborat muayyan harakatlarni ma'lum sharoitlarda bajarish imkoniyati bo'la turib bajarmasligi tushuniladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jinoiy harakatsizlik ijtimoiy xavfli harakatdan farqli o'laroq, unda umumiy belgilardan jismoniy belgi mavjud bo'lmaydi. Qolgan barcha belgilar – ijtimoiy xavflilik, huquqqa xiloflik, onglilik va ixtiyoriylik belgilari mavjud bo'ladi. Jinoiy harakatsizlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishda obyektiv va subyektiv mezonlar, shartlar yig'indisi muhim ahamiyat kasb etadi. Unda obyektiv va subyektiv mezonlar bir vaqtda bo'lishi lozim. Ulardan birining mavjud emasligi jinoiy javobgarlikka tortilmaslikka olib keladi.

JK Maxsus qismi moddalarida jinoiy harakatsizlik to'g'risidagi dispozitsiyalar qonun chiqaruvchi tomonidan shakllantirilishida u uchun jinoiy javobgarlikka tortishning obyektiv va subyektiv mezonlari yig'indisi inobatga olingan holda shakllantiriladi. Jinoiy harakatsizlikning obyektiv mezoni – bu qonun yoki qonunosti hujjatiga ko'ra, shaxs zimmasiga yuklatilgan majburiyatlardan iborat harakatlarni bajarmasligidir. Uning subyektiv mezoni esa qonun yoki qonunosti hujjatiga ko'ra, shaxs zimmasiga yuklatilgan majburiyatlardan iborat harakatlarni muayyan sharoitlarda bajara olish imkoniyati hisoblanadi. Ya'ni shaxs subyektiv xususiyatlarini inobatga olgan holda, majburiyatlarni bajara olish real imkoniyatlaridir. Masalan, shaxs subyektiv xususiyatlariga uning jismoniy kuchi, tajribasi va boshqalar kiradi.

Tadqiqot ishimizda amaldagi jinoyat qonunini instrumental tahlil qilish natijasida quyidagi xulosani aytish mumkin. Jinoiy harakatsizlikning JK Maxsus qismida qonun chiqaruvchi tomonidan ifodalanishining texnik-yuridik uslublari quyidagilardan iborat:

1. *Jinoyat qonunida nazarda tutilgan harakatsizlik.* Muayyan harakatlarni bajarimaslik natijasida jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli harakatsizlikning sodir etilishi shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi. Masalan, JK 261-, 241-, 262-moddalar va boshqalar.

2. *Xizmat, kasbiy yoki mansab vazifalari va majburiyatlarini bajarimaslikdagi harakatsizlik.* Qonun chiqaruvchi tomonidan harakatsizlik ifodalanishining ushbu texnik-yuridik uslubida muayyan xizmat, kasbiy yoki mansab majburiyatlari bilan bog'liq holatlar ifodalanadi. Masalan, JK 116-moddasida kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarimaslik, 144-moddasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzish, 207-moddasida mansabga sovuqqonlik bilan qarash, 302-moddasida xizmatga sovuqqonlik bilan qarash va boshqalar.

3. *Sudning qarorida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarimaslikdan iborat harakatsizlik.* Bunda sudning qarori bilan shaxsga turli xil majburiyatlarni bajarish yuklatiladi va shaxs ushbu majburiyatlarni bajarmaydi. Masalan, farzandni voyaga yetgunga qadar moddiy ta'minlash (JK 122-moddasi), ota yoki onani moddiy ta'minlash (JK 123-moddasi) majburiyati.

4. *Aybdorning harakatlari tufayli yuzaga kelgan majburiyatlarni bajarimaslikdan iborat harakatsizlik.* Qonun chiqaruvchi tomonidan harakatsizlik ifodalanishining ushbu texnik-yuridik uslubida aybdor jabrlanuvchini hayoti yoki sog'lig'ini xavf ostiga qo'yib, shunday xavfli ahvolga o'zi solib qo'yadi. Masalan, yo'l transport hodisasini sodir etgan shaxs o'zi avtotransport vositasida urib, jabrlanuvchini xavfli ahvolga solgani uchun

unga yordam ko'rsatishi shart. Aks holda, u JK 117-moddasi turli qismlari bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

5. *Jamiyatda mavjud ijtimoiy normalarda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarimaslikdagi harakatsizlik.* Qonun chiqaruvchi tomonidan harakatsizlik ifodalanishining ushbu texnik-yuridik uslubida shunday ijtimoiy normalar nazarda tutiladiki, ular orqali shaxs xulq-atvori tartibga solinadi. Masalan, ona o'z chaqalog'ini emizmaslikdan iborat harakatsizligi tufayli bola hayotiga zarar yetib, u vafot etsa, ona JK Maxsus qismi 97-moddasi tegishli qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

6. *JK Maxsus qismi normasida harakatsizlikning to'g'ridan to'g'ri ifodalanmasligi.* Qonun chiqaruvchi tomonidan harakatsizlik ifodalanishining ushbu texnik-yuridik uslubida ijtimoiy xavfli harakatsizlik jinoyat qonuni normasida bevosita ifodalanmaydi. Natijada bunday jinoiy qilmishlar ham harakat, ham harakatsizlik orqali sodir etiladi. Masalan, qasddan odam o'ldirish jinoyatida (JK 97-m.) qonun chiqaruvchi tomonidan hech qanday harakatsizlik to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilmagan. Ammo bu jinoyat harakatsizlikdan ham sodir etiladi.

7. *JK Maxsus qismi normasida harakatsizlikning muayyan oqibatlarsiz ifodalanishi yoki uning muayyan oqibatlar kelib chiqish sababi sifatida ifodalanishi.* Masalan, otaning voyaga yetmagan farzandlarini moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashdagi harakatsizligi (JK 122-m.) natijasida muayyan oqibatlar kelib chiqishi ushbu jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi. Chunki mazkur jinoyat nazarda tutilgan jinoyat qonuni normasida ijtimoiy xavfli oqibat qonun chiqaruvchi tomonidan nazarda tutilmagan. Aksincha, shifokor uzrli sabablarsiz bemorga birinchi tez tibbiy yordamni ko'rsatmasligi natijasida uning badaniga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga shifokor harakatsizligi sabab bo'lsa, u JK 116-m. 2-q. bilan javobgarlikka tortiladi.

8. *JK Maxsus qismi normasida harakatsizlikning muayyan turlarda ifodalanishi.* Qonun chiqaruvchi tomonidan harakatsizlik ifodalanishining ushbu texnik-yuridik uslubida uning ikkita turidan biri, ya'ni sof harakatsizlik yoki aralash harakatsizlik nazarda tutiladi. Masalan, uzrli sabablarsiz bemorga yordam ko'rsatmasligi natijasida bemor badaniga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishida (JK 116-m. 2-q.) shifokor harakatsizligi sof harakatsizlik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, mansabga sovuqqonlik bilan qarash (JK 207-m.) qonun chiqaruvchining "mansabdor shaxsning o'z vazifalarini lozim darajada bajarmasligi" degan qonunchilik texnikasi aynan aralash harakatsizlikning umumiy tavsifini ifodalaydi. Bunda mansabdor shaxs o'ziga yuklatilgan vazifalarning muayyan qismini bajarib, ularni to'liq oxiriga yetkazmaydi.

Amaldagi JK Maxsus qismi moddalar dispozitsiyasida nazarda tutilgan jinoyatlarning ko'pchilik qismini moddiy tarkibli tarkibli jinoyatlar tashkil qiladi. Jinoyat huquqi doktrinasida jinoyat obyektiv tomon tuzilishiga ko'ra formal, moddiy va kesik tarkibli jinoyatlarga bo'linadi. Qonun chiqaruvchi ushbu tarkibli jinoyatlar tabiati, xususiyati va o'ziga xos mezonlarini hisobga olgan holda, jinoyat qonuni normasini shakllantiradi.

Ma'lumki, formal tarkibli jinoyatlar deganda, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi bilan tamom bo'ladigan, moddiy tarkibli jinoyatlar deganda, ijtimoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik), uning natijasida kelib chiqqan jinoiy oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanishning mavjudligi bilan tamom bo'ladigan jinoyatlarga aytiladi. Kesik tarkibli jinoyatlar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi bilan muayyan jinoiy oqibatlarining kelib chiqish xavfi yuqori bo'ladigan, ushbu oqibatlar kelib chiqsa ham, asosiy jinoyat tarkibi kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydigan va jinoiy qilmishning sodir etilishi bilan tamom bo'ladigan jinoyatlarga aytiladi. Kesik tarkibli jinoyatlarda jinoyatga suiqasd va tayyorgar-

lik ko'rish bosqichlarini qonun chiqaruvchi oldingi bosqichga ko'tarib, jinoyat tamom bo'lgan deb hisoblaydi.

Amaldagi JK Maxsus qismi moddalar dispozitsiyasida nazarda tutilgan jinoyatlarning ko'pchilik qismi jinoiy oqibat talab qiladigan jinoyatlar bo'lgani uchun qilmishni kvalifikatsiya qilishda jinoyat-huquqiy oqibat muhim o'ringa ega bo'ladi. Jinoyat-huquqiy oqibat deganda, jinoyatning o'ziga xos jinoyat qonunida belgilangan ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini ifodalaydigan tashqi dunyo o'zgarishlari tushuniladi.

Umuman olganda, jinoyat-huquqiy oqibatning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud: birinchidan, jinoiy oqibat – shaxsning ijtimoiy xavfli va qonunga xilof qilinishi (harakat yoki harakatsizlik)ning natijasi sifatida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektga zarardir; ikkinchidan, ijtimoiy xavfli oqibat deganda, jinoyat sodir etilgan-dagi har qanday tashqi obyektiv o'zgarishlar emas, balki jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini muayyan va qat'iy miqdor sifat ko'rsatkichlarida ifodalangan o'zgarishlar, shuningdek, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga yetkazilgan zarar natijasida kelib chiqqan jinoyat qonunida mustahkamlangan muayyan oqibatlar tushuniladi. Masalan, avtotransport vositasi haydovchisi yo'l harakati qoidalariga rioya qilmasdan odam urib yuborishi natijasida jabrlanuvchiga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilsagina JK 266-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Tadqiqot ishimizda amaldagi jinoyat qonunini instrumental tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga keldik. Jinoiy oqibatning JK Maxsus qismida qonun chiqaruvchi tomonidan ifodalanishining texnik-yuridik uslublari quyidagilardan iborat:

1. *Xususiyati va darajasi (og'irligi) aniq ko'rsatilgan jinoyat-huquqiy oqibat.* Bu texnik-yuridik uslubda qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat qonunida ijtimoiy xavfli oqi-

bat xususiyati va og'irlik darajasi yetarlicha aniq qilib nazarda tutiladi. Masalan, 97-m., 104-105-m., 109-m., 116-m. va boshqalar. Ushbu jinoyatlar tarkibi nazarda tutilgan JK Maxsus qismi moddalar dispozitsiyalarida qonun chiqaruvchi jinoiy oqibatning xususiyati va darajasini aniq qilib (jabrlanuvchi o'limi, badanga yengil, o'rtacha og'ir va badanga og'ir shikast yetkazish) nazarda tutgan. Qonun chiqaruvchi ushbu uslubda ba'zi hollarda JK Maxsus qismi muayyan moddasi bilan kvalifikatsiya qilishda zarur bo'lgan muayyan minimal zararni nazarda tutadi. Masalan, JK Maxsus qismi moddalar dispozitsiyasida nazarda tutilgan "ancha, ko'p, juda ko'p miqdor" JK Maxsus qismi VIII bo'limi "Atamalarining huquqiy ma'nosi"da aniq qilib ko'rsatib berilgan.

2. *Tabiiy fanlar, tibbiyot, texnologiya va boshqa turli sohalarda qo'llaniladigan tushuncha va atamalar orqali jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyat-huquqiy oqibat.* Bu texnik-yuridik uslubda qonun chiqaruvchi tomonidan jinoiy oqibatning xususiyati va darajasini ifodalovchi shunday tushuncha va atamalarni nazarda tutadiki, u tushuncha va atamalarining mazmun-mohiyatini bilish uchun boshqa sohalarga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga murojaat qilinadi [10, 321-322-b.]. Masalan, sog'liqqa yetkazilgan shikastning og'irlik darajasi, ya'ni badanga yetkazilgan yengil, o'rtacha og'ir yoki og'ir shikastni aniqlash uchun maxsus sud-tibbiyot bilimlari talab qilinadi.

3. *Baholovchi tushunchalar yordamida qonun chiqaruvchi tomonidan ifodalangan jinoyat-huquqiy oqibat.* Ijtimoiy xavfli oqibatni tavsiflashda, odatda, qonun chiqaruvchi quyidagi ikki qoidadan birini qo'llaydi: a) qonun matnida oqibatning hajmi (miqdori) va xususiyatini ko'rsatadi; b) baholovchi tushunchalardan foydalanadi [11, 71-b.].

Ushbu texnik-yuridik uslubda qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat qonunida ijtimoiy xavfli oqibat baholovchi tushunchalar orqali nazarda tutiladi. Masalan, og'ir oqi-

bat (O'zR JK 118-119-m.lar, 125-m., 137-m., 139-m., 141¹-141²-m., 162-163-m.lar, 197-m., 199-m., 203-m., 227-m., 230¹-m., 237-m., 241¹-m., 244²-m., 244⁴-m., 245-m., 279-281-m.lar, 293-m., 296-m.); ancha miqdordagi zarar (O'zR 132-m., 173-m., 185²-m., 202-m., 229⁵-m., 233-m., 277-m.); ko'p miqdordagi zarar (O'zR JK 132-m., 172-m., 175-m., 180-181¹-m., 185-m., 191-m., 192¹-192³-m.lar, 192⁵-192⁶-m.lar, 192⁹-m., 192¹¹-m., 198-m., 202-m., 204-m., 205-208-m.lar, 229-m., 229⁵-229⁶-m.lar, 244⁶-m., 255²-m., 256-m., 277-m., 278¹-m., 278⁴-m., 280-m., 301-m., 302-m.); juda ko'p miqdor (O'zR JK 132-m., 164-169-m.lar, 171-m., 175-177-m.lar, 182-m., 184-184¹-m.lar, 185¹-182²-m.lar, 186¹-186³-m.lar, 188-188¹-m.lar, 188¹-190-m.lar, 192¹-192³-m.lar, 192⁵-192⁶-m.lar, 192⁹-m., 192¹¹-m., 202-m., 205-206-m.lar, 210-214-m.lar, 229⁵-229⁶-m.lar, 244⁶-m., 250¹-m., 255²-m., 278¹-m., 278⁴-m., 278⁶-m.); fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlar yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar (JK 192¹¹-m., 205-208-m.lar, 278¹-m., 278⁴-m.).

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qonun chiqaruvchi jinoiy oqibatni baholovchi tushunchalardan foydalanib, uni jinoyat qonunida ifodalashi muayyan qilmishni kvalifikatsiya qilishda barcha holatlar hisobga olinishini talab qiladi. Masalan, qilmishning JK 169-m. 2-q. "b" bandi, ya'ni ancha miqdordagi o'g'irlik bilan kvalifikatsiya qilish uchun jabrlanuvchining mulkiy holatini aniqlash talab etiladi.

4. *Xususiyati va darajasi (og'irligi) alternativ (muqobil) ko'rsatilgan jinoyat-huquqiy oqibat.* Mazkur texnik-yuridik uslubda qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat qonunida ijtimoiy xavfli oqibat xususiyati va og'irlik darajasi alternativ (muqobil) tarzda nazarda tutiladi. Masalan, "ko'p miqdorda zarar" bilan "jiddiy ziyon" bir qancha moddalarda (JK 192¹¹-m., 205-208-m.lar, 278¹-m., 278⁴-m.) qonun chiqaruvchi tomonidan muqobil tarzda nazarda tutilgan. Shuningdek, "boshqacha

og'ir oqibatlar"ning boshqa oqibatlar bilan muqobil tarzda nazarda tutilishi (JK 193-196-m.lar, 198-m., 201-m., 204-m. va boshqalar). Ushbu texnik-yuridik uslubda qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat qonunida ijtimoiy xavfli oqibat xususiyati va og'irlik darajasi alternativ (muqobil) tarzda ifodalanishi ikki yoki undan ortiq jinoiy oqibatlarining kamida bittasi kelib chiqishi JK Maxsus qismi muayyan moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishiga olib keladi. Qonun chiqaruvchi tomonidan muayyan norma dispozitsiyasida nazarda tutilgan alternativ oqibatlarining kelib chiqishi muayyan jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi, ammo jazo tayinlashda inobatga olinadi.

5. *Xususiyati va darajasi (og'irligi) bo'yicha nazarda tutilgan bir qancha zaruriy jinoyat-huquqiy oqibatlar.* Bu texnik-yuridik uslubda qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat qonunida ijtimoiy xavfli oqibat xususiyati va og'irlik darajasi bo'yicha bir qancha zaruriy jinoiy oqibatlar nazarda tutiladi hamda qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun nazarda tutilgan barcha zaruriy oqibatlar kelib chiqishi talab qilinadi. Davlat sirini oshkor qilishda (JK 163-m.) qonun chiqaruvchi ikkita zaruriy oqibatlarni nazarda tutgan, ya'ni davlat sirini ifodalaydigan hujjatlar xizmat yoki kasb faoliyati yuzasidan ishonib topshirilgan shaxs tomonidan yo'qotilishi va bu yo'qotish ana shu hujjatlar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzishi. Qonun chiqaruvchi tomonidan JK Maxsus qismi muayyan moddasi dispozitsiyasida ikkita oqibat nazarda tutilgan bo'lib, ularning o'rtasida "va" bog'lovchisidan foydalanilganligi ushbu jinoiy oqibatlar mazkur jinoyat tarkibi uchun bir vaqtda zaruriy belgilaridan biri hisoblanadi.

6. *Xususiyati va darajasi (og'irligi) bo'yicha jinoyat qonunida ro'yxati keltirilgan jinoyat-huquqiy oqibatlar.* Mazkur texnik-yuridik uslubda qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat qonunida ijtimoiy xavfli oqibat xususiyati va og'irlik darajasi bo'yicha ularning

ro'yxati nazarda tutiladi. Masalan, ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish jinoyatida (JK 193-m.) qonun chiqaruvchi mazkur jinoyat bilan bog'liq bo'lgan bir nechta jinoiy oqibatlar ro'yxatini (insonning o'limi, odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, ekologiyaga salbiy ta'sir qiladigan darajada atrof-muhitning o'zgarib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlarining kelib chiqishi) keltirgan. Shuningdek, JK 194-196-m.lar, 200-201-m.lar va boshqalarni ham misol qilib keltirish mumkin. Ushbu texnik-yuridik uslubda qonun chiqaruvchi muayyan norma dispozitsiyasida jinoiy oqibatlar ro'yxatini shakllantirishda og'iridan yengiliga qarab JK Maxsus qismi modda tuzilishi (konstruksiya-si)ni shakllantiradi.

7. *Xususiyati va darajasi (og'irligi) bo'yicha jinoyat qonunida vujudga kelish real xavfi mavjud bo'lgan jinoyat-huquqiy oqibat.* Ushbu texnik-yuridik uslubda qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat qonunida ijtimoiy xavfli oqibat xususiyati va og'irlik darajasi bo'yicha uning vujudga kelish real xavfi mavjud bo'ladi. Masalan, boshqa shaxsni tanosil kasalligi yoki OIV kasalligi/OITSni yuqtirish xavfi ostida qoldirish (JK 114-m. 1-q. va 4-q.). Shuningdek, JK 253-254-m.lar, 255- 255¹-m.lar va boshqalarni ham misol qilib keltirish mumkin. Mazkur texnik-yuridik uslubda qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat qonuni normasi tuzilishi (konstruksiya-si)da nazarda tutilgan jinoyat tarkiblarini muayyan aniq real xavfi mavjud tarkiblar deb ta'kidlash mumkin.

Qonun chiqaruvchi jinoyat qonuni muayyan normasini obyektiv tomon belgilari nuqtayi nazaridan shakllantirishda jinoyat huquqi doktrinasida mavjud jinoyat tarkibining obyektiv tomon tuzilishi bo'yicha turlarga bo'linish konsepsiyasiga asoslanadi.

Ma'lumki, jinoyat huquqida jinoyat tarkibi obyektiv tomon tuzilishiga ko'ra moddiy, formal va kesik tarkibli jinoyatlarga bo'linadi. Har qanday jinoyatning tamom bo'lish payti ushbu jinoyatni kvalifikatsiya qilishda

muhim jinoyat-huquqiy ahamiyat kasb etadi. Moddiy tarkibli jinoyatlar JK Maxsus qismida qonun chiqaruvchi tomonidan shunday shakllantirilganki, ularning tamom bo'lish payti muayyan jinoyat-huquqiy oqibatning kelib chiqishi bilan bog'liq. Masalan, odam o'ldirish jinoyatining barcha turlari (JK 97-103¹-m.lar), badanga shikast yetkazish jinoyatining barcha turlari (JK 104-111-m.lar), o'zgalar mulkini talon-toraj qilish jinoyatining ba'zi turlari (166-169-m.lar) va boshqalar. Amaldagi JK Maxsus qismi moddalari dispozitsiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, 35 %dan ortiq jinoyatlar aynan moddiy tarkibli jinoyatlar sifatida qonun chiqaruvchi tomonidan ifodalangan.

Formal tarkibli jinoyatlar JK Maxsus qismida qonun chiqaruvchi tomonidan shunday shakllantirilganki, ularning tamom bo'lish payti muayyan modda dispozitsiyasida qonun chiqaruvchi tomonidan nazarda tutilgan jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning sodir etilishi bilan bog'liq. Masalan, tuhmat (JK 139-m.), haqorat qilish (JK 140-m.), pora olish (JK 210-m.), pora berish (JK 211-m.) va boshqalar.

8. *Xususiyati va darajasi (og'irligi) bo'yicha jinoyat qonunida nazarda tutilgan asosiy va qo'shimcha jinoyat-huquqiy oqibatlar.* Jinoyat huquqi doktrinasida jinoyat-huquqiy oqibatlar kelib chiqishiga ko'ra zaruriy (asosiy) va fakultativ (qo'shimcha) oqibatlarga bo'linaadi. Zaruriy (asosiy) jinoiy oqibatlar deganda, JK Maxsus qismi moddasi dispozitsiyasida qonun chiqaruvchi tomonidan nazarda tutilgan va ularning mavjudligi jinoyat qonuni ushbu normasini qo'llash uchun majburiy bo'lgan, ushbu jinoiy oqibatlarning kelib chiqishi mazkur modda bilan jinoiy javobgarlikka tortishga olib keladigan oqibatlar tushuniladi. Qo'shimcha jinoiy oqibatlar deganda, JK Maxsus qismi moddasi dispozitsiyasida qonun chiqaruvchi tomonidan asosiy jinoiy oqibat bilan birga alohida mustaqil ravishda ifodalanadigan va muayyan jinoyatning sodir etilishi natijasida asosiy oqibat bilan bir-

ga qamrab olinib, aynan bitta modda bilan kvalifikatsiya qilinadigan oqibatlarga aytiladi. Asosiy va qo'shimcha oqibatli jinoyatlar aynan bitta modda bilan kvalifikatsiya qilinib, boshqa moddalar bilan jinoyatlar jami sifatida qaralmaydi. Masalan, bosqinchilik jinoyati qonun chiqaruvchi tomonidan JK 164-m. da shunday norma tuzilishi (konstruksiya-si)da ifodalanganki, unda asosiy jinoiy oqibat o'zganing mulki bo'lsa, qo'shimchasi esa shaxs sog'lig'idir. Demak, bosqinchilik jinoyati qo'shimcha ravishda JK 104-m. bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilinmaydi. Shuningdek, 104-m. 3-q. "d" bandi, 110-m., 114-m., 116-117-m.lar, 118-119-m.lar, 125-m. va boshqalar.

Sababiy bog'lanish moddiy tarkibli jinoyatlarda obyektiv tomon zaruriy belgisi bo'lib, jinoyatni kvalifikatsiya qilish va bitta jinoyatni boshqa jinoyatlardan farqlashda mustaqil jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo'lmaydi [12, 145-146-b.].

Moddiy tarkibli jinoyatlarda sababiy bog'lanishning mavjudligi jinoyat tarkibi mavjudligidan dalolat beradi, shuningdek, uning mavjud emasligi qilmishni jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilmaydi yoki jinoiy qilmishni tamom bo'lgan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi. Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat obyektiv tomonining yagona zaruriy belgisi – bu ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir. Qolgan barcha belgilar uning fakultativ belgilari hisoblanadi. Istisno tariqasida moddiy tarkibli jinoyatlardagina obyektiv tomon zaruriy belgilari ijtimoiy xavfli qilmish, jinoiy oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish hisoblanadi.

Amaldagi JK Maxsus qismi moddalar dispozitsiyasi tahlili shuni ko'rsatadiki, moddiy tarkibli jinoyatlar qonun chiqaruvchi tomonidan muayyan modda dispozitsiyasida jinoiy qilmish va oqibat nazarda tutiladi, ammo ular o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aniqlash masalasi huquqni qo'llovchi subyektlar vakolatiga topshiriladi. Shu bilan birga, sababiy

bog'lanish JK Maxsus qismi muayyan modda dispozitsiyasida deyarli to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilmaydi.

Jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgilari amaldagi JK Maxsus qismi moddalar dispozitsiyasida qonun chiqaruvchi tomonidan ifodalanishining texnik-yuridik uslublari ularning o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan "uchlik"dan iborat bo'ladi. Ularning amaldagi JK Maxsus qismi moddalar dispozitsiyasida qonun chiqaruvchi tomonidan ifodalanishining texnik-yuridik uslublari quyidagilardan iborat:

1. *Jinoyat tarkibi zaruriy belgisi.* Qonun chiqaruvchi texnik-yuridik ifodalashning ushbu uslubida jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilari JK Maxsus qismi muayyan moddasi dispozitsiyasida to'g'ridan to'g'ri nazarda tutiladi va ular fakultativlikdan jinoyat tarkibining (obyektiv tomon asosiy belgisi) zaruriy belgisiga aylanadi. Masalan, JK 98-m., 99-m., 103-m., 106-m., 110-m., 112-m., 114-m., 118-m., 119-m., 138-m., 142-m., 146-m., 147-m., 164-m., 166-m., 167-m., 168-m., 169-m., 170-m. va boshqa moddalarda qonun chiqaruvchi jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgilarini modda dispozitsiyasida jinoyat tarkibi obyektiv tomoni zaruriy belgisi sifatida to'g'ridan to'g'ri nazarda tutgan.

2. *Jinoyat tarkibining javobgarlikni og'irlashtiruvchi zaruriy belgisi.* Qonun chiqaruvchi texnik-yuridik ifodalashning ushbu uslubida jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilari JK Maxsus qismi muayyan moddasida jinoyat tarkibi (obyektiv tomon)ning javobgarlikning og'irlashtiruvchi zaruriy belgisi sifatida qonun chiqaruvchi tomonidan nazarda tutiladi. Masalan (JKning 55-moddasi "d" – jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etish), JK 97-m., 2-q. "d", "e", "z" b., 104-m., 2-q. "g" b., 105-m., 2-q. "d" b., 118-m., 2-q. "g" b., 119-m., 2-q. "g" b., 127-m., 3-q. "v" b., 164-m., 2-q. "a" b., 3-q. "v"

b., 166-m., 2-q. "a" b., 3-q. "b" b., 169-m., 2-q. "g" b. va h.k. boshqa moddalar.

3. *Jazoni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar sifatida nazarda tutilishi.* Qonun chiqaruvchi texnik-yuridik ifodalashning ushbu uslubida jinoyat obyektiv tomonining fakultativ belgilari jazoni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar sifatida (O'zbekiston Respublikasi JK 55-56-moddalarida [13]) nazarda tutiladi. Masalan, JKning 55-moddasi "d" (jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etish), "e" (zaruriy mudofaaning, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib, jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda, kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish) va JK 56-m., 1-q "z" b. – "jinoyat natijasida og'ir oqibatlarining kelib chiqqanligi", "i" b. – umumiy ofat sharoitidan foydalangan holda yoki favqulodda holat vaqtida yoxud ommaviy tartibsizliklar jarayonida", "o" b. – "mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop yoxud kishining aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar ta'siri ostida jinoyat sodir qilish", "d" b. – "o'ta shafqatsizlik bilan" va "e" – "ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda) va boshqalar.

Xulosalar

Tadqiqot ishimizda amaldagi jinoyat qonunini instrumental tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalar olindi. Jinoyat tarkibi obyektiv tomoni (belgilari)ning qonunchilikdagi tuzilishi (konstruksiya) JK Maxsus qismida qonun chiqaruvchi tomonidan quyidagi texnik-yuridik uslublarda ifodalangan.

Jinoyat-huquqiy qilmish:

– jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) xususiyati va muayyan ro'yxati JK Maxsus qismi moddalari dispozitsiyasida to'liq shaklda ifodalanishi;

– jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tavsifi JK Maxsus qismi moddalari

dispozitsiyasida nazarda tutilmasdan, jinoyat-huquqiy oqibat ifodalanishi;

- jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tavsifini qonun chiqaruvchi blanket dispozitsiyali qilib ifodalashi;

- jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning qonun chiqaruvchi tomonidan JK Maxsus qismi moddalari dispozitsiyasida alternativ (muqobil) qilib ifodalanishi.

Jinoyat-huquqiy harakatsizlik:

- jinoyat qonunida nazarda tutilgan harakatsizlik;

- xizmat, kasbiy yoki mansab vazifalari va majburiyatlarini bajarmaslikdagi harakatsizlik;

- sudning qarorida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslikdan iborat harakatsizlik;

- aybdorning harakatlari tufayli yuzaga kelgan majburiyatlarni bajarmaslikdan iborat harakatsizlik;

- jamiyatda mavjud ijtimoiy normalarda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslikdagi harakatsizlik;

- JK Maxsus qismi normasida harakatsizlikning to'g'ridan to'g'ri ifodalanmasligi;

- JK Maxsus qismi normasida harakatsizlikning muayyan oqibatlarsiz ifodalanishi yoki uning muayyan oqibatlarning kelib chiqish sababi sifatida ifodalanishi;

- JK Maxsus qismi normasida harakatsizlikning muayyan turlarda ifodalanishi.

Jinoyat-huquqiy oqibat:

- xususiyati va darajasi (og'irligi) aniq ko'rsatilgan jinoyat-huquqiy oqibat;

- tabiiy fanlar, tibbiyot, texnologiya va boshqa turli sohalarida qo'llaniladigan tushuncha va atamalar orqali jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyat-huquqiy oqibat;

- baholovchi tushunchalar yordamida qonun chiqaruvchi tomonidan ifodalangan jinoyat-huquqiy oqibat;

- xususiyati va darajasi (og'irligi) alternativ (muqobil) ko'rsatilgan jinoyat-huquqiy oqibat;

- xususiyati va darajasi (og'irligi) bo'yicha nazarda tutilgan bir qancha zaruriy jinoyat-huquqiy oqibatlar;

- xususiyati va darajasi (og'irligi) bo'yicha jinoyat qonunida ro'yxati keltirilgan jinoyat-huquqiy oqibatlar;

- xususiyati va darajasi (og'irligi) bo'yicha jinoyat qonunida vujudga kelish real xavfi mavjud bo'lgan jinoyat-huquqiy oqibat;

- xususiyati va darajasi (og'irligi) bo'yicha jinoyat qonunida nazarda tutilgan asosiy va qo'shimcha jinoyat-huquqiy oqibatlar.

Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativ belgilari:

- jinoyat tarkibi (obyektiv tomoni asosiy belgisi) zaruriy belgisi;

- jinoyat tarkibining javobgarlikni og'irlashtiruvchi zaruriy belgisi;

- jazoni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar sifatida nazarda tutilishi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat obyektiv tomoni bo'yicha qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish va jinoyat qonunchiligining qonuniylik, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik va javobgarlikning muqarrarliligi kabi asosiy prinsiplarini ro'yobga chiqarish hamda ularni amaliyotda to'g'ri qo'llash uchun yuqoridagilardan kelib chiqib, *jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish nazariyasini rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar quyidagilardan iborat:*

1. Amaldagi jinoyat qonunchiligi tuzilishi (konstruksiyasi) nuqtayi nazaridan jinoyat obyektiv tomoni bo'yicha qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda yuqorida ta'kidlangan o'nta qoida, albatta, inobatga olinishi lozim;

2. Jinoyat tarkibi obyektiv tomoni bo'yicha umumiy va maxsus normalar raqobatida qilmish maxsus norma bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur (JK 16-m.ni yangi tahrirdagi 3-q. bilan to'ldirish);

3. Jinoyat tarkibi obyektiv tomoni asosiy va javobgarlikni og'irlashtiruvchi (kvalifikatsiyaviy) belgilari bo'yicha jinoyat-huquqiy normalar raqobatida qilmish JK Maxsus qismidagi javobgarlikni og'irlashtiruvchi (kvalifikatsiya) holatlari ifo-

dalangan jinoyat tarkibi nazarda tutilgan modda (qismi) bilan qilmish kvalifikatsiya qilinishi lozim. Masalan, talonchilik (JK 166-m.) jinoyati uy-joyga g'ayriqonuniy ravishda kirgan holda sodir etilganda, jinoyat obyektiv tomoni asosiy belgisi talon-torojning "ochiqdan ochiq" usuli javobgarlikni og'irlashtiruvchi (kvalifikatsiyaviy) belgisi bo'lgan jinoyat sodir etish joyi JK 166-m. 3-q. "b" b. bilan kvalifikatsiya qilinadi. Shuningdek, o'g'rilik (JK 169-m.) jinoyatidagi jinoyat sodir etish usuli "yashirin ravishda" javobgarlikni og'irlashtiruvchi (kvalifikatsiyaviy) usul ifodalangan JK 169-m. 2-q. "a" b. bilan kvalifikatsiya qilinadi;

4. Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining asosiy va yengillashtiruvchi belgilari bo'yicha jinoyat-huquqiy normalar raqobatida qilmishni yengillashtiruvchi belgilar ifodalangan jinoyat tarkibi nazarda tutilgan JK Maxsus qism moddasi (qismi) bilan kvalifikatsiya qilinadi. Masalan, oddiy odam o'ldirish (JK 97-m.) jinoyati bilan o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish (JK 103-m.) raqobatida JK 103-m. bilan kvalifikatsiya qilinadi.

5. Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgilari bo'yicha javobgarlikni og'irlashtiruvchi (kvalifikatsiyaviy) holatlar ifodalangan maxsus jinoyat-huquqiy normalar raqobatida qilmish yanada og'irroq javobgarlikni og'irlashtiruvchi (kvalifikatsiyaviy) belgi nazarda tutilgan norma bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Masalan, avtotransport vositasini talon-toroj qilish maqsadida qurol ishlatib, bosqinchilik jinoyatini sodir etgan shaxs qilmishida JK 164-m. 2-q. "a" b. bilan JK 267-m. 3-q. "v" b. nazarda tutilgan jinoyat-huquqiy normalar raqobatida yanada og'irroq javobgarlikni og'irlashtiruvchi (kvalifikatsiyaviy) belgi nazarda tutilgan norma bilan kvalifikatsiya qilinadi.

6. Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgilari ifodalangan yengillashtiruvchi maxsus huquqiy normalar raqobatida qilmish yanada yengilroq belgi nazarda tutilgan norma bilan kvalifikatsiya qilinadi.

7. Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgilari bo'yicha butun va qism yuzasidan jinoyat-huquqiy normalar raqobatida jinoyatning belgilarini ko'proq qamrab olgan butun jinoyat-huquqiy norma nazarda tutilgan JK Maxsus qismi moddasi (qismi) bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Shuningdek, jinoyat huquqi nazariyasida "jinoyat tarkibi"ga ilmiy abstraksiya, ya'ni ilmiy tadqiqotlar natijasi va ilmiy ishlanma sifatida qaralgan bo'lsa, jinoyat huquqining dolzarb masalasi sifatida "Har qanday jinoyatning yadrosini jinoyat tarkibi obyektiv va subyektiv belgilari yig'indisi" tashkil qilishi haqida jinoyat huquqi nazariyasida ilmiy yondashuvlar, qarashlar va fikrlar yuritilgan. Shu sababli amaldagi jinoyat qonunchiligi normalariga jinoyat tarkibi tushunchasi hamda uning obyektiv va subyektiv belgilari haqidagi qoidalarining kiritilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, u sodir etilgan jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish, jinoiy javobgarlik masalasini amalda to'g'ri qo'llash va jinoyat qonunining odillik, insonparvarlik va javobgarlikning muqarrarligi kabi prinsiplarining amalda to'g'ri, shu bilan birga, jinoyat tarkibi obyektiv tomoni qonunchilikdagi tuzilishi (konstruksiya)ning aniq ifodalanishini ta'minlaydi.

Shu bois amaldagi jinoyat qonunining "Javobgar asoslari" deb nomlangan ikkinchi bo'limi III bobini quyidagi mazmundagi 16¹-modda bilan to'ldirish maqsadga muvofiq:

16¹-modda. Jinoyat tarkibi

1. Jinoyat tarkibi o'zida zararli qilmishni muayyan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qiladigan jinoyat qonunida nazarda tutilgan obyektiv hamda subyektiv belgilarning minimal va yetarli majmuyini ifodalaydi.

2. Jinoyat tarkibi amaldagi Kodeksning tegishli moddasi bilan jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun huquqiy (yuridik) asos hisoblanadi.

Mazkur norma Moldova (52-m.) va boshqa davlatlar [14] jinoyat kodekslarida aks etirilgan.

Ushbu qoidaning jinoyat qonuni normasi sifatida qat'iy mustahkamlanishi sud va tergov organlari tomonidan qonun normalari turlicha sharhlanishining oldini olish, shuningdek, sodir etilgan jinoyatning to'g'ri kvalifikatsiya qilinishi va odillik, insonparvarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplarining amalda to'g'ri qo'llanishiga xizmat qiladi.

Jinoyat huquqi nazariyasida va jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limotda jinoyat tarkibi tushunchasi asosiy o'rinni egallaydi, ya'ni tadqiqot yadrosi hisoblanadi. Jinoyat tarkibi

tushunchasi tarixan shakllangan tushuncha bo'lib, sodir etilgan qilmishni jinoyat sifatida e'tirof etadigan va u jazoga loyqligini ifodalaydigan belgilar tizimini anglatish uchun tuzilgan [13, 45-b.]. Jinoyat tarkibi o'zining ko'p asrlik tarixi davomida uning tushunchasi mazmuni turli xil o'zgarishlarga duch keldi va bu o'zgarishlar o'zining sezilarli darajasini ko'rsatdi.

Jinoyat tarkibi real (obyektiv, haqiqatda sodir etilgan) jinoyatning skeleti bo'lib [14, 117-b.], u o'ziga xos tergov formulasidir [15, 25-b.].

REFERENCES

1. Kabulov R., Otajonov A.A., Sottiyev I.A. at al. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish [Qualification of crimes]. Tashkent, Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2012, p. 53.
2. Kudryavtsev V.N. Obyektivnaya storona prestupleniya [The objective side of the crime]. Moscow, 1960, p. 9.
3. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Ed. H. Ochilov. Tashkent, Adolat Publ., 2020, p. 64.
4. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi. [Criminal law]. Tashkent, Nasaf Publ., 2010, pp. 171–172.
5. Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Tashkent, TSUL Publ., 2021, pp. 33–34.
6. Kurinov B.A. Nauchnie osnovi kvalifikatsii prestupleniy [Scientific bases of qualification of crimes]. Moscow, 1984, p. 75.
7. Durmanov N.D. Ponyatiye prestupleniya [The concept of crime]. Moscow, 1948, p. 54.
8. Korneeva A.V. Teoriya kvalifikatsii prestupleniy [The theory of qualification of crimes]. Moscow, Prospekt, 2014, p. 22.
9. Spitsyn Yu.V. Nekotoriye voprosy primeneniya spetsialnykh poznanii pri kvalifikatsii prestupleniy [Some questions of the application of special knowledge in the qualification of crimes]. 5 years of the Criminal Code of the Russian Federation. Results and prospects. Moscow, 2003, pp. 321–323.
10. Gaukhman L.D. Kvalifikatsiya prestupleniy: zakon, teoriya, praktika [Qualification of crimes: law, theory, practice]. Moscow, 2005, p. 94.
11. Blagov Ye.V. Kvalifikatsiya prestupleniy (teoriya i praktika) [Qualification of crimes (theory and practice)]. Yaroslavl, 2003, p. 39.
12. Criminal Code of the Republic of Moldova, 2002, April 18, no. 985-XV. Available at: http://continent-online.com/Document/?doc_id=30394923#pos=808;-50/.
13. Sverchkov V.V. Prestupleniye i sostav prestupleniya. Osobennosti prestupnogo povedeniya i ugolovnogo presledovaniya [Crime and elements of crime. Features of criminal behavior and criminal prosecution: textbook. allowance]. Moscow, 2019, p. 45.
14. Ignatov A.N. Sostav prestupleniya. Ugolovnoe pravo Rossii [Composition of a crime. Criminal law of Russia] In 2 volumes. Eds. A.N. Ignatova, Y.A. Krasikov. Moscow, 2008, p. 117.
15. Boyko A. I. Prestupnoye bezdeystviye [Criminal inactivity]. St. Petersburg, Legal Center Press, 2003, p. 25.

UDC: 343.988(045)(575.1)

OXIRGI ZARURATNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Otegenova Luiza Joldasbayevna,
O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy
kengashi huzuridagi Sudyalar oliy
maktabi mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0001-8197-9019
e-mail: luiza_0077@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada oxirgi zaruratning nazariy va amaliy jihatlari va uning o'ziga xos belgilari tahlil etilgan. Bundan tashqari, maqolada oxirgi zarurat hollarida, agar boshqa vositalar orqali xavfning oldini olish mumkin bo'lsa yoki keltirilgan zarar oldi olingan zarardan oshib ketsa, qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga bunday zarar yetkazish oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb topilishi va uning o'ziga xos belgilari borasida ham so'z yuritiladi. Shuningdek, muallif maqolada oxirgi zarurat holatida sodir qilingan deb topishda quyidagi: birinchidan, oxirgi zarurat tufayli qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatga zarar yetkazilishi; ikkinchidan, oxirgi zarurat faqat xavf boshlangan va tamom bo'lmagan vaqt mobaynidagina qo'llanishi hamda bunda hali boshlanmagan va tugab bo'lgan xavfga nisbatan oxirgi zarurat chorasini qo'llash mumkin emasligi; uchinchidan, vujudga kelgan xavfni boshqa biror chora orqali bartaraf qilishning iloji bo'lmagan bo'lishi va qo'llangan chora xavfni bartaraf qilishning oxirgi chorasini bo'lishi kerakligi; to'rtinchidan, xavf manbayi tomonidan keltirilishi mumkin bo'lgan zarardan oxirgi zarurat tufayli keltirilgan zarar kamroq bo'lishi; beshinchidan, qonun doirasida, ya'ni oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqmagan bo'lishga doir belgilarni asos qilish mumkinligini olimlarning fikr va mulohazalari bilan tahlil etadi.

Kalit so'zlar: oxirgi zarurat, zarar, jinoyat, javobgarlik, jazo, ayb, chora, xavf, oldini olish, bartaraf etish.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ КРАЙНЕЙ НЕОБХОДИМОСТИ

Отегенова Луиза Жолдасбаевна,
самостоятельный соискатель
Высшей школы судей при Высшем судейском совете
Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты обстоятельства крайней необходимости и его характеристики. Указывается, что в случаях крайней необходимости, если опасность может быть предотвращена иными средствами или заявленный ущерб превышает предотвращенный ущерб, такой ущерб правам и охраняемым законом интересам считается отклонением от предела крайней необходимости и имеет специфические особенности. Также в статье автор считает случаи крайней необходимости: во-первых, причинение вреда охраняемым законом общественным отношениям вследствие крайней необходимости; во-вторых, крайняя необходимость применяется только во время начала и конца опасности, и нельзя применить крайнюю меру необходимости к опасности, которая еще не началась и не закончилась; в-третьих, когда нельзя устранить опасность никакими другими мерами, и применяемая мера должна быть крайней мерой по

устранению опасности; в-четвертых, когда ущерб, причиняемый в обстоятельствах крайней необходимости, меньше, чем ущерб, который может быть причинен источником опасности. Кроме того, проанализированы мнения ученых о том, можно ли устанавливать данные признаки в рамках закона, не отклоняться от установленных пределов крайней необходимости.

Ключевые слова: крайняя необходимость, ущерб, преступление, ответственность, наказание, вина, мера, риск, предупреждение, устранение.

THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF THE LAST NECESSITY

Otegenova Luiza Joldasbaevna,

An Independent Researcher at the Higher School of Judges
under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *This article analyzes the theoretical and practical aspects of the last necessity and its characteristics. In cases of last necessity, if the danger can be prevented by other means or if the stated damage exceeds the prevented damage, such damage to the rights and interests protected by law is considered to be a deviation from the limit of the last necessity and its specific features. Also, in the article, the author considers the following to be committed in the case of last necessity: first, damage to social relations protected by law due to last necessity; second, the last necessity is applied only during the time when the danger has begun and has not ended, and that it is not possible to apply the last necessity measure to the danger that has not yet begun and ended; third, it was not possible to eliminate the danger through any other measure and the used measure should be the last measure to eliminate the danger; fourth, the damage caused by the last necessity is less than the damage that can be caused by the source of danger; fifth, it analyzes whether it is possible to establish signs within the framework of the law, that is, not to deviate from the limits of the last necessity, with the ideas and opinions of researchers.*

Keywords: *Last necessity, damage, crime, responsibility, punishment, fault, measure, risk, prevention, elimination.*

Kirish

Bizga ma'lumki, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning yana bir turi – bu oxirgi zaruratdir. *Oxirgi zarurat deb* shaxs yoki boshqa fuqarolarning shaxsi yoxud huquqlari, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni qaytarish uchun qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa bir manfaatlarga zarar yetkazgan holda sodir etilgan qilmishga aytiladi [1].

Ushbu holat ham jinoyat qonunida alohida norma sifatida aks ettirilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 38-moddasiga ko'ra, oxirgi zarurat holatida, ya'ni shaxs yoki boshqa fuqarolarning shaxsi yoxud huquqlari, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni qaytarish uchun qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazgan holda sodir

etilgan qilmish, basharti shu xavfni o'sha holatda boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo'lmasa hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi. Bunda oxirgi zarurat holatida shaxs qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa manfaatlarni himoya qilish maqsadida qonun bilan qo'riqlanadigan munosabatlarga qasddan ziyon yetkazadigan vaziyat yuzaga kelib, oxirgi zaruratda mudofaalanuvchi aniq sodir bo'lgan xavfni bartaraf qilish uchun qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa ijtimoiy munosabatga zarar yetkazadi.

Oxirgi zarurat hollarida, agar boshqa vositalar orqali xavfning oldini olish mumkin bo'lsa yoki keltirilgan zarar oldi olingan zarardan oshib ketsa, qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga bunday zarar yetkazish oxirgi zarurat chegarasidan chet-

ga chiqish deb topiladi. Aks holda, shaxsning oxirgi zarurat holatida sodir etgan qilmishi, basharti oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, qonuniy deb hisoblanadi.

Shuningdek, yuqoridagi normaning keyingi bandiga muvofiq, oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishning qonuniyligini baholashda oldi olinishi lozim bo'lgan xavfning xususiyati va xavflilik darajasi, shunday xavfning haqiqatan mavjud yoki mavjud emasligi hamda yuz berish vaqtining yaqinligi, xavfni qaytaruvchi shaxsning mavjud imkoniyatlari, vujudga kelgan vaziyatdagi ruhiy holati va ishning boshqa holatlari hisobga olinishi lozim [2].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, muayyan bir qilmishni oxirgi zarurat holatida sodir qilingan deb topishda quyidagi belgilarni asos qilish mumkin:

birinchidan, oxirgi zarurat tufayli qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatga zarar yetkaziladi;

ikkinchidan, oxirgi zarurat faqat xavf boshlangan va tamom bo'lmagan vaqt mobaynidagina qo'llanadi. Hali boshlanmagan va tugab bo'lgan xavfga nisbatan oxirgi zarurat chorasini qo'llash mumkin emas;

uchinchidan, vujudga kelgan xavfni boshqa biror chora orqali bartaraf etishning iloji bo'lmagan bo'lishi va qo'llangan chora xavfni bartaraf etishning oxirgi chorasi bo'lishi kerak;

to'rtinchidan, xavf manbayi tomonidan keltirilishi mumkin bo'lgan zarardan oxirgi zarurat tufayli keltirilgan zarar kamroq bo'lishi kerak. Ularning ahamiyati yoki miqdorini solishtirish orqali zararining ko'p yoki kamligi aniqlanadi;

beshinchidan, qonun doirasida, ya'ni oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqmagan bo'lishi kerak.

Shuningdek, oxirgi zarurat holatida zarar yetkazishda qilmishni jinoyatdan ajratish imkoniyatini beruvchi bir qancha belgilar bo'lib, ular ijtimoiy qimmatga ega ne'matlarga bevosita xavf mavjudligi, bu xavfni zarar

yetkazishdan boshqa vositalar bilan bartaraf etish mumkin emasligi; tahdid solganidan kamroq darajada xavf yetkazilgani; qutqarilayotgan ne'matlarga tahdid solmagan shaxslar yoki mol-mulkka zarar yetkazilmagani kabilardir [3].

Material va metodlar

Mazkur maqolani tahlil qilishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, huquqni qo'llash amaliyotini tahliliy o'rganib chiqish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 38-moddasida oxirgi zaruratga ta'rif berilar ekan, oxirgi zarurat holatida, ya'ni shaxs yoki boshqa fuqarolarning shaxsi yoxud huquqlari, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni qaytarish uchun qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazgan holda sodir etilgan qilmish, basharti shu xavfni o'sha holatda boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo'lmasa hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lsa, jinoyat deb topilmasligi [4] belgilab o'tilgan.

Oxirgi zarurat tushunchasining asosiy xususiyatlaridan biri ikkita qonun bilan muhofaza qilinuvchi manfaatlarning to'qnashuvi bo'lib, bunda ulardan biri ko'proq ahamiyatga ega bo'lgan xavfning oldini olish uchun qurbon bo'lishi kerak. Chunki unga zarar yetkazmasdan manfaatlarga yuqori darajada tahdid soladigan xavfni bartaraf etish mumkin emas. Qadimgi Rim huquqshunoslaridan biri bo'lgan Ulpian o'z ediktlarida «O'zining molini qutqarish uchun birovning molini dengizga tashlagan kishi uchun hech qanday javobgarlik kelib chiqmaydi», degan fikrni aytib o'tgan [5].

A.V. Naumov ta'kidlaganidek, «oxirgi zarurat ikki huquqiy manfaatlarning to'qnashuvini yuzaga keltiradi. Bu holatdan chiqish yo'li huquqni muhofaza qiluvchi manfaatlardan biriga zarar yetkazishning oldini olishdir.

Biroq bu faqat boshqa huquqni muhofaza qilish manfaatlariga zarar yetkazilishi bilan amalga oshirilishi mumkin» [6]. Ushbu holatning huquqiy xususiyatini aniqlashda biz zaruriy mudofaa mavjudligida sodir etilgan harakatlarni qonuniy deb hisoblaymiz.

Ushbu institutning huquqiy tabiatini aniq ochib berishga harakat qilgan F. Gegel o'zining «Huquq falsafasi» asarida «Agar bir bo'lak nonni o'g'irlash bilan hayotni saqlab qolish mumkin bo'lsa, bu boshqa birovning mulkiga zarar yetkazadi, lekin buni oddiy o'g'irlik harakati deb hisoblash noto'g'ri bo'ladi. Agar hayoti xavf ostida bo'lgan insonga shunday yo'l bilan o'z hayotini saqlab qolish huquqi berilmaganda edi, u huquqsiz sifatida topilishi va shu tariqa hayotda uning barcha erkinliklari cheklanib qolishi mumkin edi», degan fikrni bildirib o'tgan [7].

XX asr boshlarida oxirgi zarurat yuzasidan tadqiqot ishlari olib borgan E. Nemirovskiy «Qonun adolatlik yuzasidan xuddi shunday vaziyatda har bir fuqaro shunday harakatlarni sodir etishi mumkin bo'lgan qilmish bo'yicha javobgarlikni nazarda tutmaydi, chunki u fuqarolik jamiyatida qo'llanadigan bir xil adolatli o'lchovdan foydalanadi» [8], degan g'oyani ilgari surgan. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararining oldini olishga qaratilgan xatti-harakatlarni sodir etishda shaxsning jamiyat manfaatlariga bo'lgan salbiy munosabati sifatida baholash noto'g'ri bo'lar ekan.

E.A. Aleshinaning ta'kidlashicha, «Agar himoya qilinayotgan manfaatlarga beparvolik bilan zarar yetkazilsa va yuzaga kelgan xavfni faqatgina uchinchi shaxslarga zarar yetkazish bilan bartaraf etish mumkin bo'lsa, jinoiy javobgarlik istisno qilinadi» [9]. Huquqiy tabiatiga ko'ra, oxirgi zarurat – qonun bilan muhofaza qilinuvchi manfaatlarga zarar yetkazuvchi xavfning oldini olishga qaratilgan qonuniy harakatdir. Bu esa ijtimoiy xavflilik va jinoiy javobgarlikni istisno qiladi.

Qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlarning barcha turlarida bo'lganidek,

oxirgi zaruratning ham quyidagi belgilari mavjud:

1) tashqi tomondan u jinoiy qilmish sodir etish bilan bog'liq harakatni ifodalaydi;

2) qilmish sodir etilgan vaziyat qilmishning ijtimoiy xavfliligini istisno etadi (ijtimoiy foydali, neytral, ruxsat etilgan harakat hisoblanadi);

3) bunday vaziyatda harakat qilayotgan shaxsning xatti-harakati cheklanmagan: harakat qonun bilan belgilangan zarurat chegaralari bilan cheklangan, ushbu chegaradan chiqish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi [10].

Mazkur belgilar bilan bir qatorda shunday talablar ham borki, ushbu talablar bajarilmas ekan, oxirgi zarurat haqida so'z yuritib bo'lmaydi.

M. Usmonaliyev oxirgi zarurat belgilari sifatida quyidagilarni sanab o'tgan:

1) qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkaziladi;

2) oxirgi zarurat faqat xavf boshlangan va tamom bo'lmagan vaqt mobaynidagina qo'llanadi;

3) vujudga kelgan xavfni boshqa biror chora orqali bartaraf etishning iloji bo'lmagan bo'lishi va qo'llangan chora xavfni bartaraf etishning oxirgi chorasini bo'lishi kerak;

4) xavf manbayi tomonidan keltirilishi mumkin bo'lgan zarardan oxirgi zarurat tufayli keltirilgan zarar kamroq bo'lishi kerak;

5) oxirgi zarurat chegarasidan chiqilmagan bo'lishi lozim [11].

Oxirgi zaruratning ijtimoiy-huquqiy xususiyatini huquqshunoslarning bir ovozdun uning ijtimoiy foydaliligi, ijtimoiy xavfli oqibatlarini bartaraf etish yoki yumshatishning vositasi sifatida ta'kidlaydilar.

V.F. Antonov nazariy jihatdan Jinoyat kodeksining tegishli bobida keltirilgan qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan har qanday holatning amalga oshirilishi oxirgi zarurat muhitida sodir bo'ladi [12], degan xulosaga keladi. Haqiqatan ham, aksariyat holatlarda barcha qilmishning jinoiyligini istisno etuv-

chi holatlar xavfni bartaraf etish va zararining oldini olish uchun zarur, majburiy, o'ta og'ir choralarni qo'llashni talab qiladigan holatlar bilan tavsiflanadi.

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning o'ziga xos xususiyati qilmishning ijtimoiy foydaliligi yoki ijtimoiy ruxsat etilishi bilan belgilanadi. Ushbu belgilarning mavjudligi yuqorida sanab o'tilgan holatlardan qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlarni ajratib turadi. Ijtimoiy foydalilik yoki ijtimoiy ruxsat etilganlik tushunchasiga ta'rif berishdan oldin ijtimoiy xavflilik nima ekanligini aniqlab olishimiz darkor.

Ijtimoiy xavflilik o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar tufayli holatlar yoki xavf manbalari aynan jinoiy qonunchilik himoyasi ostida bo'lgan, ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan obyektlarga tahdid yuzaga kelishini belgilab beradi [13]. Ijtimoiy xavflilik oxirgi zaruratning asosiy talabi bo'lib, unda huquqqa xiloflik holati kuzatilishi shart emas. Mazkur holat zaruriy mudofaadan oxirgi zaruratning farqli tomonini ko'rsatadi. Ijtimoiy foydalilik esa jinoyat qonuni bilan himoya qilinuvchi obyektlarga xavfni bartaraf etish bilan bog'liq harakatlarni o'z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha, qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi ayrim holatlar ijtimoiy foydali, boshqalari ijtimoiy maqbul, yana boshqa qismi esa aybsiz hisoblanadi. Boshqa huquqiy xususiyatga ega bo'lgan holatlarni tahlil qilinyotgan holatlarga kiritib bo'lmaydi.

Shu o'rinda oxirgi zaruratning xususiyatlarini chuqur tahlil qilishda uning obyekti va subyektini aniqlab olish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyat qonuni bilan himoya qilinuvchi obyektlar sanab o'tilgan bo'lib, unga ko'ra shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlar, mulk, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligi jinoyat qonuni himoyasidadir. Demak, mazkur obyektlarni himoya qilishda oxirgi zarurat huquqidan foydalanish to'g'ri bo'lgan bo'lar edi.

Oxirgi zarurat subyekti haqida to'xtaladigan bo'lsak, aytish mumkinki, oxirgi zarurat subyekti ham, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqqan subyekt ham har qanday shaxs bo'lishi mumkin. Biroq subyekt har qanday shaxs bo'lishi mumkin degan qarashga aniqlik kiritish lozim. Bunda xuddi shu harakatlar bilan zarar yetkazilgan hollarda oxirgi zarurat holati bo'lmagan vaziyatda jinoyat subyekti bo'la oladigan shaxs haqida so'z yuritish kerak. Negaki, aslida, jinoyat subyekti bo'lmagan shaxsning (jinoyat subyekti yoshiga yetmagan, aqli noraso) ijtimoiy xavfli qilmishini jinoyat deb baholab bo'lmaydi. Demak, xulosa qilish mumkinki, oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishning ham jinoiyligini istisno etib bo'lmaydi (aslida, jinoyat tarkibi bo'lmasa, jinoyatni qanday qilib istisno qilish mumkin?).

Y.V. Baulinning fikricha, «oxirgi zarurat subyekti umumiy subyekt, ya'ni shaxs, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfqa qarshi kurashish uchun maxsus yuridik burch yoki rasmiy majburiyat tayinlanmagan shaxs» [14] bo'la oladi.

Maxsus subyekt muayyan sifatlarga ega bo'lgan shaxs sifatida aniqlanadi hamda uni umumiy subyektning xususiyatlari bilan birga, ushbu majburiy bo'lgan qo'shimcha belgilar ham mavjud bo'lgan subyekt deb ta'riflash mumkin. Oxirgi zarurat holatida maxsus subyekt huquq-tartibot obyektlariga zarar yetkazishga tahdid soluvchi har qanday xavfning oldini olish, shuningdek, yuz bergan zarar oqibatlarini bartaraf etish kabi vazifalar xizmat va kasbiy burchi bo'lgan subyektdir.

Ayrim xizmat qismlarida (masalan, profilaktika inspektorlari, o't o'chirish xizmati xodimlari, qutqaruv xizmati xodimlari va hokazolar uchun) ijtimoiy munosabatni har qanday tajovuz yoki xavfdan himoya qilish ularning majburiyati hisoblanadi va o'zlariga yuklatilgan xizmat majburiyatini bajarmagan taqdirda, huquqiy javobgarlik yuzaga keladi [15].

Masalan, yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari uchun o't o'chirishning o'z vaqti-

da amalga oshirmasligi natijasida xavf yuz berishining oldini olish imkonini bo'lmaganligi ular uchun javobgarlik holatini keltirib chiqaradi.

Qandaydir xavfni bartaraf etish yoki bunday xavf natijasida kelib chiqqan zararining tiklanishini ta'minlaydigan maxsus vakolatli shaxslar ko'pincha o'zlariga tan jarohati yetish xavfi yoki hayotidan mahrum bo'lish xavfi ostida bo'ladilar. A.M. Pleshakovning fikriga ko'ra, bunday hollarda rasmiy majburiyatlardan chetga chiqish oqlanadi [16].

Tahlil qilinayotgan vaziyatdan kelib chiqib, quyidagi hollardagina oxirgi zarurat qoidalariga murojaat qilish mumkin, degan fikrga qo'shilamiz [17]:

1) shaxs xavfni bartaraf etish uchun hatto o'zini qurbon qilish kerakligi maxsus normallarda belgilangan maxsus talab bo'lmasa;

2) favqulodda vaziyatda harakat qilgan shaxsning o'zi nochor ahvolda bo'lmasa.

Subyektning turiga qarab, harakatlarning huquqiy tabiati va shunga mos ravishda amalga oshirilgan ishlarning huquqiy bahosi ham o'zgaradi. Umumiy subyekt uchun oxirgi zarurat vaziyati zararining oldini olish huquqini yuzaga keltirsa, maxsus subyekt uchun bu kabi holat majburiyat hisoblanib, uni bajarmaslik jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash lozimki, oxirgi zaruratning subyektiv tomoni bilan bog'liq savollarni to'g'ri hal etishda yuridik adabiyotlarda turli, ba'zan bir-biriga zid takliflar berilgan. Bu shaxsning oxirgi zarurat holatida psixologik holatini baholashda muayyan qiyinchiliklar bilan bog'liq.

N.V. Lisak esa «Agar oxirgi zarurat holatida zarar yetkazuvchining harakatlarida aybning ehtiyotsizlik shakli (beparvolik yoki o'z-o'ziga ishonish) mavjud bo'lsa, bunday harakatlar jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak» [18], degan fikrni bildirgan.

Yetkazgan zarari xavfning oldini olish uchun zarur bo'lgan oxirgi chora emasligini bilgan shaxsning qilmishi oxirgi zarurat sifa-

tida tan olinishi mumkin emas. Oxirgi zarurat bo'lmas ekan, demak, uning chegarasidan chetga chiqish deb topilishi ham mumkin emas.

Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish faqat aybning ehtiyotsizlik shakli bilan tavsiflanadi. Agar shaxs sodir etgan harakatlari qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yeta turib, ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda, bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilgan bo'lsa yoki o'z harakatlari qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetmasa-da, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lsa, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish sifatida baholanadi.

Ba'zi olimlarning fikricha [19], oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish aybning qasd shakli bilan ham ifodalanishi mumkin. Biroq bu fikrga qo'shilmaymiz. Sababi qasdning ham to'g'ri, ham egri turlari mavjud bo'lib, qasdning to'g'ri shaklida, ya'ni shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishini istagan holatda, oxirgi zarurat mavjud bo'lishi mumkin emas, demak, uning chegarasidan ham chiqib bo'lmaydi. Bunday holat alohida qasddan sodir etilgan jinoyat sifatida baholanishi kerak.

Biroq egri qasdda ifodalangan shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan vaziyatda oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish mavjud bo'lishi mumkin.

Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish natijasida jinoyat sodir etilganda, shaxs, odatda, xavf tahdidi oqibatida kuchli emosional hayajonlanish holatida bo'ladi va bunday vaziyatda o'z harakatlarini nazorat qila olmaydi. Shu sababli ham oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishning xavflilik dara-

jasini boshqa jinoyatlarga qaraganda ancha kam deyish mumkin.

Shuningdek, yana bir holatni unutmasligimiz kerakki, oxirgi zarurat sharoitlarida sodir etilgan harakat deb hisoblanishi hamda qilmishning jinoiyligi istisno etilishi uchun tahdid solayotgan xavfning oldi olingan bo'lishi lozim. Xavfni bartaraf etish uchun zarar yetkazilgan, lekin xavf yuzaga kelishidan qochishning imkoni bo'lmagan vaziyatlarini Jinoyat kodeksining 38-moddasi tartibga solmaydi hamda bu harakatlar oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb topiladi. Shu o'rinda, fikrimizcha, ijtimoiy foydali maqsad uchun xavfning oldini olishga qaratilgan sa'y-harakatlarga qaramay, shaxs xavfning oldini olish imkonini qo'lga kiritmagan vaziyatga qonunga asoslangan holda jinoiy-huquqiy baho berilishi kerak. Bunday vaziyatlarda ayb bilan bog'liq normalarda belgilangan qoidalariga binoan harakat qilinadi, biroq agar davlat oxirgi zarurat holatida shaxsning xulq-atvorini ma'qullasa, bunday holatlarga jinoyat qonuni matnining o'zida ularga aniq baho berilishi kerak.

G.F. Xametdinovanning fikriga ko'ra, muvaffaqiyatsiz tamomlangan oxirgi zarurat holatlarini oxirgi zarurat chegaralaridan chetga chiqish bilan bog'lash asossizdir [20].

S.A. Domaxin, agar xavf shaxsning barcha harakatlariga qaramasdan, oldi olinishi mumkin bo'lmasa yoki tanlangan xavfni bartaraf etish yo'li yagona va zarur ekanligiga ishonish uchun yetarli asos bo'lsa, bu holatda yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni istisno qilish kerak, deb hisoblaydi [21].

Yuridik adabiyotlarda kamroq zarar yetkazish orqali ko'proq zarar yetkazishning oldini olishga intilgan shaxsning oxir-oqibatda ham xavf yuz berishi bilan ko'p zarar yetkazilishi, shuningdek, kamroq zarar ham qo'shimchasiga yetkazilgan vaziyatlarda shaxs javobgarligi masalasi tahlil qilingan bo'lib, bunday holatlar nazariyada «muvaffaqiyatsiz oxirgi zarurat» [22] deb nomlanadi.

Biz mazkur fikrlarimiz orqali oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish hamda «muvaffaqiyatsiz oxirgi zarurat»ning boshqa-boshqa tushunchalar ekanini ta'kidlamoqchimiz.

Shunday qilib, oxirgi zarurat holati haqida so'z yuritganda, zarar yetkazishni istamaslik emas, balki ko'proq zarar yetkazishni istamaslik haqida gapirishimiz kerak.

Yana bir tahlil etilishi lozim masala – bu xayoliy oxirgi zarurat deb atalgan qonun bilan himoyalangan manfaatlarga zarar yetkazish bilan bog'liq harakatlarni xayoliy xavf ostida bajarish holatidir. Bunda jinoiy javobgarlik mavjud yoki yo'qligi masalasi faktik xatoning ayb shakliga ta'siri bo'yicha umumiy qoidalariga muvofiq hal etilishi lozim.

V.V. Orexov, agar o'sha vaziyatda shaxs xavfning mavjudligi haqidagi taxminlarining xatoligini anglab yetmagan va anglab yetishi mumkin ham bo'lmagan bo'lsa, jinoiy javobgarlik istisno qilinadi, degan fikrni ilgari surgan [23]. Boshqa olimlarning fikriga ko'ra [24] esa xayoliy oxirgi zarurat holatida sodir etilgan qilmishni jinoiy-huquqiy baholashda ehtiyotsizlik orqali jinoyat sodir etish qoidalari qo'llanilishi lozim.

Mazkur vaziyatda faktik xato masalasida javobgarlik yuzaga kelishi holatiga ikki xil yondashish mumkin.

Agar shaxs xavfning mavjudligida xato qilgan bo'lsa-da, lekin xavf yo'qligini bilishi lozim yoki mumkin bo'lsa, unda zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlik yuzaga kelishi kerak. Bu holatdan farqli ravishda, agar ish holatining o'ziga xosligiga ko'ra, shaxs xavf borligini taxmin qilsa va uning xatoligini anglamasa va anglashi mumkin ham bo'lmasa, jinoiy javobgarlik mavjud bo'lmaydi. Mazkur holatda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 24-moddasida shaxs o'z qilmishi-ning ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamagan, anglashi mumkin va lozim ham bo'lmagan yoki uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetmagan va ishning holatlariga ko'ra ko'zi yetishi mumkin va lozim ham bo'lmagan

holat bilan ifodalanuvchi aybsiz holda zarar yetkazish qoidalarini qo'llaniladi.

Xavfni o'zi keltirib chiqargan shaxsning mazkur xavfning oldini olish uchun zarar yetkazish bilan bog'liq harakatlarini tahlil qilib, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Agar shaxs qasddan yoki beparvolik bilan o'zini xavf ostiga qo'yib, keyin xavfni bartaraf etish uchun qonun bilan muhofaza qilinuvchi obyektlarga zarar yetkazsa, u umumiy asoslar-da jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak, degan fikrga qo'shilmaymiz. Sababi xavf manbayi shaxsning ham jinoiy, ham jinoiy bo'lmagan harakatlari natijasida yuzaga kelishi mumkin hamda bu holatda xavf natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan kattaroq zararning oldini olish uchun kamroq zarar yetkazish oxirgi zaruratning mohiyatini anglatadi. Bu holatda shaxs oxirgi zarurat xavfi manbayi bo'lib xizmat qilgan jinoiy qilmishi uchungina javobgarlikka tortilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Agar subyekt boshqa shaxslarning manfaatlarini xavfli holatga qo'ygan bo'lsa, so'ng xavfni bartaraf etish uchun qonun bilan muhofaza qilinuvchi obyektlarga zarar yetkazsa, vaziyatga oxirgi zarurat to'g'risidagi normani hisobga olgan holda, huquqiy baho berilishi lozim. Bunda ham shaxsning xavfi manbayi bo'lib xizmat qilgan jinoiy qilmishi uchun javobgarlik yuzaga kelishi kerak.

Xulosalar

Yuqoridagilarni inobatga olib, quyidagi xulosalarimizni bayon etamiz:

1. Shaxsning vaziyatning o'ziga xosligi tufayli xavfning xususiyati va darajasini obyektiv hamda xolisona baholay olmasligi natijasida zararning oldini olish uchun yetarli chora-tadbirlar ko'ra olmasligi oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb to'pilmaydi.

2. Oxirgi zarurat huquqi professional yoki boshqa maxsus tayyorgarligi yoki xizmat holatidan qat'i nazar, shaxsga tegishli. Bunda shaxsning xavfni bartaraf etish majburiyati bo'lgan holatda uni bajarmasligi javobgarlikka sabab bo'ladi.

3. Oxirgi zarurat xavfini o'zi keltirib chiqargan shaxs oxirgi zarurat xavfi manbayi bo'lib xizmat qilgan jinoiy qilmishi uchungina javobgarlikka tortilishi lozim.

4. Agar shaxs xavfning mavjudligida xato qilgan bo'lsa-da, lekin xavf yo'qligini bilishi lozim yoki mumkin bo'lsa, unda zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlik yuzaga kelishi kerak.

5. Agar ish holatining o'ziga xosligiga ko'ra, shaxs xavf borligini taxmin qilsa va uning xatoligini anglamasa hamda anglashi mumkin ham bo'lmasa, jinoiy javobgarlik mavjud bo'lmaydi.

REFERENCES

1. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs, 2012, p. 349.
2. Sidorenko E.L. Otritsatel'noye povedeniye poterpevshego i ugovnnyy zakon [Negative behavior and criminal law]. St. Petersburg, Yuridicheskiy tsentr Press, 2003, p. 310.
3. Domakhin S.A. Kraynyaya neobkhodimost' po sovetскому ugovnomu pravu [Urgent necessity according to Soviet criminal law]. Moscow, 1955.
4. Kozak V.I. Voprosy teorii i praktiki krayney neobkhodimosti [Questions of theory and practice of extreme necessity]. Saratov, 1981.
5. Entsiklopediya gosudarstva i prava [Encyclopedia of State and Law]. Ed. P.I. Stuchki. Moscow, Communist Academy, 1930, vol. 2, p. 423.
6. Naumov A.V. Rossiyskoye ugovnoye pravo [Russian criminal law]. Moscow, Bek, 1996, p. 347.

7. Gegel' G.V.F. *Filosofiya prava* [Philosophy of law]. Moscow, 1990, p. 171.
8. Nemirovskiy E. YA. *Uchebnik ugovnogo prava* [Textbook of criminal law]. Odessa, 1919, p. 167.
9. Vinokurov V.V. *Pravomernoye prichineniye vreda v sostoyanii krayney neobkhodimosti* [Lawful infliction of harm in a state of emergency]. Krasnoyarsk, Siberian institute of law of the Ministry of Internal Affairs of Russia, 2001, p. 66.
10. Aleshina E.A. *Nekotoryye problemy primeneniya ugovnogo zakonodatelstva, obespechivayushchego pravo lits na deystviya v sostoyanii krayney neobkhodimosti* [Some problems of the application of criminal legislation that ensures the right of persons to act in a state of emergency]. *Actual Problems of Russian Law*, 2007, no. 2, p. 319.
11. Khametdinova G.F. *Ugolovno-pravovaya kharakteristika krayney neobkhodimosti* [Criminal-legal characteristic of extreme necessity]. PhD thesis, 2007, p. 19.
12. Usmonaliyev M. *Jinoyat huquqi* [Criminal law]. Tashkent, Jangi asr avlodi Publ., 2005, pp. 355–356.
13. Antonov V.F. *Kraynyaya neobkhodimost' v ugovnom prave* [Urgent Necessity in Criminal Law]. Moscow, Uniti-Dana Publ., 2005, p. 60.
14. Rustamboyev M.X. *O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi* [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan]. *Doctrine of crime*. Tashkent, Ilm Ziya Publ., 2010., vol. 1, p. 355.
15. Baulin YU.V. *Obstoyatel'stva, isklyuchayushchiye prestupnost' deyaniya* [Circumstances excluding the criminality of the act]. Harkov, 1991, p. 308.
16. Pleshakov A.M., Shkabin G.S. *Kraynyaya neobkhodimost' kak obstoyatel'stvo, isklyuchayushcheye prestupnost' deyaniya* [Urgent necessity as a circumstance excluding the wrongfulness of an act]. Ryazan, 2005, p. 24.
17. Lysak N.V. *Kraynyaya neobkhodimost' [Emergency]*. *Investigator*, 1998, no. 6, p. 22.
18. Sidorov B. V. *Ugolovno-pravovyye garantii pravomernogo, sotsial'no-poleznogo povedeniya* [Criminal legal guarantees of lawful, socially useful behavior]. Kazan, Publishing House of Kazan University, 1992, p. 79.
19. Orekhov V.V. *Neobkhodimaya oborona i inyye obstoyatel'stva, isklyuchayushchiye prestupnost' deyaniya* [Necessary defense and other promises excluding the criminality of the act]. St. Petersburg, Juridicheskiy tsenter Press, 2003, p. 130.
20. Kadnikov N.G. *Obstoyatel'stva, isklyuchayushchiye prestupnost' deyaniya* [Circumstances excluding the criminality of the act]. Moscow, 1998, p. 25.
21. Niyozova S.S. Legal conditions for the lawfulness of necessary defense. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, pp. 21–29.
22. Niyozova S.S. Strong emotional arousal (Effect) as a criminal law norm. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, March 31, pp. 96–102. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume 03 Issue 03-15. –p. 96-102.
23. *Sovetskoye ugovnoye pravo* [Soviet criminal law]. Eds. G.A. Krieger, N.F. Kuznetsova, Y.M. Tkachevsky. Moscow, 1988, pp. 153–158.

UDC: 343.1(045)(575.1)

JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI

Tulaganova Gulchehra Zaxitovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası professori,

yuridik fanlar doktori,

ORCID: 0000-0002-4741-1144

e-mail: g.tulaganova@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyat protsessida ishtirokchilar tushunchasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, protsess ishtirokchilari deganda, jinoyat ishi yurituviga alohida protsessual hujjat orqali jalb qilinish masalasi muhokama qilingan. O'zi yoki vakil manfaatlarini himoya qilish uchun muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan shaxslar sifatida qatnashuvchi ishtirokchi ekanligi tavsiflab berilgan. Ular qatoriga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar va fuqaroviy javobgar kiradi. Shu bilan birga, jinoyat protsessida ishtirokchilarning klassifikatsiyasi, ularning huquq va majburiyatlari, jinoyat protsessi ishtirokchilarining nazariy va amaliy jihatlari, jinoyat sudlov ishlarini yuritishda ishtirok etadigan barcha protsess ishtirokchilarining qonunda belgilangan tartibdagi vakolatlari o'rganilgan va ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Jinoyat protsessi ishtirokchilariga nisbatan amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar bilan birga hali hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjud. Shuningdek, ushbu institutdagi ayrim nazariy va amaliy muammolar, jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish maqsadida belgilangan ustuvor maqsadlardagi vazifalarni amalga oshirish mexanizmi yuzasidan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar berib o'tilgan. Shu bilan birga, nazariyotchi olimlar, tajribali amaliyotchi xodimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: protsess ishtirokchilari, apellatsiya, kassatsiya, moddiy va ma'naviy zarar, odil sudlov funksiyasi, tergov, prokuror, ayblovi, himoyachi, vakil, qonuniy vakil, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, yordamchi funktsiya, guvoh, xolis, tarjimon, ekspert, mutaxassis.

УЧАСТНИКИ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ

Тулаганова Гулчехра Захитовна,

доктор юридических наук, профессор кафедры

«Уголовно-процессуальное право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье проводится научно-теоретический анализ понятия участников уголовного процесса, кроме того, данное понятие обсуждено с точки зрения участников отдельной процедуры, а также с точки зрения лица, участвующего самостоятельно, представляющего интересы или же выполняющего обязательства по защите интересов. К таким лицам отнесены подозреваемый, обвиняемый, ответчик, потерпевший, гражданский истец и гражданский ответчик. Также проведен анализ участников уголовного разбирательства, их прав и обязанностей, обсуждены теоретические и практические аспекты касательно прав и обязанностей. Учитывая многочисленность и необходимость изучения, рассмотрения понятия участников уголовного процесса, до сих пор имеются некоторые проблемы и пробелы, касательно разрешения вопросов участников уголовного процесса.

Следовательно, усматривается, что вопросы в данной тематике остаются не до конца решенными. В целях совершенствования уголовно-процессуального законодательства по некоторым проблемам данного института даются научно-теоретические и практические рекомендации по механизму реализации приоритетных задач, поставленных уголовно-процессуальным законодательством.

Ключевые слова: участники уголовного процесса, апелляционная жалоба, кассационная жалоба, материальный вред, моральный вред, функция уголовного правосудия, следствие, прокурор, обвинение, защитник, представитель, законный представитель, гражданский истец, гражданский ответчик, вспомогательная функция, свидетель, беспристрастный, переводчик, эксперт, специалист.

PARTICIPANTS IN THE CRIMINAL PROCEEDINGS AND THEIR CLASSIFICATION

Tulaganova Gulchehra Zakhitovna,

Professor of Criminal Procedure Law Department,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science

Abstract. This article conducts a scientific and theoretical analysis of the concept of participants in the criminal process. Participants in the proceedings are defined as participants who have been discussed in a separate procedural document and who have certain rights and obligations to protect their own or their representative's interests. The list includes a suspect, accused, defendant, victim, civilian plaintiff, and civil defendant. Also, an analysis of the rights and obligations of the participants in the criminal proceedings has been carried out. In addition, theoretical and practical aspects have been discussed regarding rights and obligations. Given the multiplicity and need to study, considering the concept of participants in the criminal process, there are still some problems and gaps regarding the resolution of issues of participants in the criminal process. In order to improve criminal procedural legislation, scientific-theoretical and practical recommendations are provided regarding the mechanism of the implementation of the tasks with priority goals.

Keywords: participants in the criminal process, appeal, cassation complaint, material and moral damage, function of criminal justice, investigation, prosecutor, prosecution, defender, representative, legal representative, civil plaintiff, civil defendant, auxiliary function, witness, impartial, translator, expert, specialist.

Kirish

Jinoyat protsessi huquqiy fan sifatida davlat organlari bilan, jinoyat ishi natijasidan manfaatdor bo'lgan hamda boshqa ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatni tartibga solishni o'rgatadi. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining vakolatlari qonunda belgilanganiga qaramay doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Masalan, davlat organlaridan bo'lgan sudning vakolatlarini oshirish maqsadida dastlabki tergovda sud nazoratining joriy qilinishi, apellatsiya, kassatsiya instansiyasi tartibida shikoyat qilish huquqiga ega bo'lgan ishtirokchilar vakolatlarining kengaytirilishi,

yarashuvchilik instituti ta'sis etilishi bilan jabrlanuvchining vakolati kengaytirilishi hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga nisbatan imtiyozlar yaratilganligini e'tirof etish mumkin. Jinoyat protsessi ishtirokchilariga nisbatan amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar bilan birga hali hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjud. Shuning uchun ham chop etilayotgan adabiyotlar, maqolalar orqali nazariyotchi olimlar, tajribali amaliyotchi xodimlarning fikr va mulohazalarini to'plash zarur deb hisoblaymiz. Chunki fikrlar bor joyda ularni qiyosiy tavsiflash uchun sharoit yaratiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralari kuchaytirish dolzarb masala hisoblanadi. Jinoyat protsessi ishtirokchilari instituti muhim masalalardan biri bo'lib, hozirgi kunda ularning protsessual maqomi takomillashib bormoqda. Har bir jinoyat protsessi ishtirokchilari jinoyat sudlov ishlarini yuritishda qonun bilan belgilangan tartibda muayyan bir funksiyani bajarishga yo'naltirilgan hamda qonun bilan tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolardir. Jinoyat protsessi ishtirokchilari nazariy va amaliy jihatdan jinoyat sudlov ishlarini yuritishda ishtirok etadigan barcha protsess ishtirokchilarining qonunda belgilangan tartibdagi vakolatlarini o'rganadi.

Jinoyat protsessi nazariyasida ham barcha ijtimoiy munosabatlarda, jumladan, huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxslarni nomlash turli munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Masalan, A.P. Rijakov va K.F. Gutsenkolarining [1] fikricha, protsess ishtirokchilarini «subyekt» deb nomlash to'g'ri, chunki «ishtirokchi» so'zi subyektga nisbatan kengroq ma'no anglatadi. «Ishtirokchilar» bilan «subyekt» so'zlarining ma'nosini ayrim holatda tahlil qilish yetarli natija bermaydi. Shuning uchun ham hozirda ishtirokchilar bilan subyekt so'zlari ma'nosini bir xilda tushunish tavsiya etiladi [2], deydi V.V. Vandishev. Bizning fikrimizcha, ishtirokchilar jumlasini maqsadga muvofiq, chunki, birinchidan, ishtirokchilarning ma'nosi kengroq, ikkinchidan, JPKda ham ishtirokchilar so'zi qo'llanilgan.

Material va metodlar

Tadqiqotda jinoyat protsessida ishtirokchilar masalasi bo'yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish,

umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi «protsess ishtirokchilari» tushunchasini keng ma'noda talqin qilib, mazkur tushunchaga jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi barcha shaxslarni kiritadi. Protsess ishtirokchilaridan har birining oldida turgan vazifalari va bajarayotgan protsessual funksiyalarining tavsifi hamda unga belgilangan huquq va majburiyatlari hajmi ko'rinishida bo'lib, mazkur ishtirokchining huquqiy holatini belgilaydi.

Jinoyat protsessi ishtirokchilari tushunchasi va klassifikatsiyasiga doir masala ham munozaralidir. Maxsus adabiyotlar va 1959-yilda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat protsessi ishtirokchilari tushunchasiga jinoyat ishida o'z huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar kiritilgan. Qolgan ishtirokchilar esa protsessdagi vazifalari hamda ularga yuklatilgan huquq va majburiyatlari hajmidan kelib chiqib, mazkur tushunchaga kiritilmagan [3].

V.N. Shpilev yuqorida ko'rsatilgan farqlashlar qisman to'g'ri bo'lganligi uchun protsess ishtirokchilarini u yoki bu darajada klassifikatsiyalash mumkin, deb hisoblaydi. Uning fikricha, protsess ishtirokchilarining barchasi muayyan huquqlarga ega bo'lib, o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajara-di va shunga ko'ra protsessual munosabatlarga kirishib, protsessual faoliyatni amalga oshiradi. Shuning uchun ham jinoyat ishlarini yuritishda ishtirok etuvchi barcha shaxslarni «protsess ishtirokchilari» tushunchasiga kiritish maqsadga muvofiq [4].

O'zbekiston Respublikasida ilk bor nashr etilgan «Jinoyat protsessi» darsligining mualliflari «Jinoyat protsessining ishtirokchilari deganda, jinoyat-protsessual faoliyatda o'z vakolatlari va majburiyatlarini qo'llash orqali ishtirok etuvchi davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar va jamoat birlashmalari tushuniladi», deb ta'kidlashadi [5].

Ba'zi jinoyat-protsessual adabiyotlarda «jinoyat protsessi ishtirokchilari gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari, jabrlanuvchi va uning vakili bilan chegaralanadi», degan fikrlar ham bor [6].

Jinoyat ishini yuritish davomida hal qilinayotgan masalaga qarab, ularning har biri, masalan, ayblanuvchi va jabrlanuvchi, fuqaroviy javobgar va fuqaroviy da'vogar bir-biridan farq qiladi. Lekin, shu bilan birga, ularni «protsess ishtirokchisi» sifatida e'tirof etish uchun bir umumiylik bog'lab turadi. Bu umumiylik har bir ishtirokchining o'zi va vakillari orqali qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda ifodalanadi.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrga ko'ra, «protsess ishtirokchilari» deganda, jinoyat protsessi davomida o'zi yoki vakillar orqali huquq va majburiyatlarini himoya qiladigan, alohida protsessual maqomga ega bo'lgan, mazkur huquq va majburiyatlar orqali jinoyat ishining yuritilishi hal qilinishiga u yoki bu darajada ta'sir qila oladigan hamda ishning natijasidan manfaatdor bo'lgan yoki manfaatdor bo'lmagan shaxslar tushuniladi.

Davlat idoralari har doim jinoyat-protsessual munosabatlarda protsessual faoliyatning vakolatli subyekti hisoblanadi va mazkur vakolatlari orqali ular qonunda belgilangan tartibda: jinoyat ishini qo'zg'atish, surishtiruv va tergov ishlarini olib borish, prokuror nazoratini amalga oshirish, odil sudlov vazifasini bajarish majburiyati, shu jumladan, davlat majburlovini qo'llash huquqiga ega, chunki ularga isbotlash burchi yuklatilgan. Sudya, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat protsessida davlat nomidan ish yuritib, uning manfaatlarini himoya qiladilar.

Protsess ishtirokchilarini bunday tushunish jinoyat ishida ishtirok etayotgan barcha subyektlarni protsess ishtirokchilari qatoriga kiritish lozim degan xulosani beradi. Chunki ishda qatnashayotgan barcha subyektlar u yoki bu darajada protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar hamda

ma'lum bir protsessual funksiyani bajaradilar [7].

Fikrimizcha, jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi davlat idoralari va mansabdor shaxslar, fuqarolar hamda ishda ishtirok etuvchi boshqa ishtirokchilar huquq hamda majburiyatlari hajmidan qat'i nazar, keng ma'nodagi protsess ishtirokchilari hisoblanadi. Chunki ularning barchasi o'z vakolatlari doirasida huquq va majburiyatlarini amalga oshirishlari [8] ularni jinoyat-protsessual munosabatlarning ishtirokchisi (subyekti) qilib ko'rsatadi.

Aytish kerakki, protsess ishtirokchisi tushunchasiga jinoyat-protsessual faoliyatning subyektlari – bu o'ziga yuklatilgan vakolatlari, qonuniy huquq va majburiyatlar orqali muayyan bir jinoyat-protsessual funksiyani bajaradigan va jinoyat protsessida ishtirok etadigan davlat idoralari, mansabdor shaxslar, jamoat tashkilotlari va fuqarolardir [9]. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar va fuqaroviy javobgar jinoyat protsessida shaxsiy manfaatini, himoyachi, vakil va qonuniy vakil esa himoyasi ostidagi shaxslar manfaatini himoya qiladi [10].

Protsessning har bir ishtirokchisi jinoyat protsessida amalda bo'lgan funksiya [11], ya'ni faoliyat yo'nalishida belgilangan vazifani [12] amalga oshiradi. Mazkur funksiyalarning tavsifi protsess ishtirokchilarining bajarayotgan vazifalari va manfaatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Protsess ishtirokchilari amalga oshirayotgan funksiyalardan kelib chiqib, quyidagi guruhlariga bo'linadi.

Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarga sud (sudya), prokuror [8], tergovchi, tergov boshqarmasi, bo'limi, tergov guruhi boshlig'i va uning o'rinbosari, surishtiruv organi, surishtiruv organining boshlig'i va surishtiruvchi [13] kiradi. Chunki faqat ular huquq normasidagi protsessual majburlov choralarini qo'llaydi, jinoyat ishini qo'zg'atadi, surishtiruv va dastlabki tergov faoliyatini amalga

oshiradi [14], jinoyat ishlarini sud majlislarida muhokama qiladi, sudya sudlanuvchini aybdor deb topib, O'zbekiston Respublikasi nomidan hukm chiqaradi, hukmlarning qonuniyligi, adolatligi va asoslantirilganligini tekshiradi [15] hamda alohida toifadagi ishlarni yuritadi [16].

Jinoyat protsessida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchilar, shuningdek, jinoyat natijasida jismoniy, moddiy va ma'naviy zarar yetkazilgan shaxslar (jabrlanuvchilar) hamda jinoyat ishini hal qilishda u yoki bu darajada mulkiy zarar ko'rgan shaxslar (fuqaroviy da'vogar va fuqaroviy javobgar)ning shaxsiy manfaati bilan bog'langan. Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi fuqarolar va tashkilotlarning huquq manfaatlarini samarali himoya qilish maqsadida jamoat birlashmalarining vakillari qatnashishiga yo'l qo'yiladi. Bu ishtirokchilar ichida himoyachi muhim o'rin tutadi. Yuqorida sanab o'tilgan barcha ishtirokchilar navbatdagi guruhni tashkil qilib, O'zbekiston Respublikasi JPKda «Jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar «Himoyachilar va vakillar» deb ataladi (JPKning 45-64-moddalari).

Ishtirokchilarning yana bir guruhiga jamoat birlashmalari va ularning vakillari kiradi. Protsessual faoliyatda ularning fikrini inobatga olish davlat idoralari oldida turgan vazifalarni hal qilishga yordam beradi. Shuningdek, protsessual faoliyatga jinoyat sudlov ishlarini yuritish vazifalarini amalga oshirishda yordamchi, ya'ni tashkiliy-texnik funksiyani bajaruvchi shaxslar (tarjimon, mutaxassis, xolislar) yoki isbotlashga ko'maklashuvchi shaxslar (xolislar va ekspertlar) jalb qilinadi. Sanab o'tilgan ishtirokchilar bitta nomga birlashtirilib, «Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar» deb yuritiladi (JPKning 65-75-moddalari).

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, protsess ishtirokchilari jinoyat ishi yurituviga alohida protsessual hujjat orqali jalb qilingan, o'zi yoki vakili manfaatlarini himoya qilish uchun muayyan huquq va majburiyatlarga

ega bo'lgan shaxslardir [17]. Ular qatoriga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar va fuqaroviy javobgar hamda ularning vakillarini kiritish mumkin.

Tadqiqot natijalari tahlili

Hozirgi zamon qonunchiligiga ko'ra, jinoyat sudlov ishlarini yuritish ishtirokchilari quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

1. Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar: a) sud; b) prokuror; d) tergovchi; e) tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhi boshlig'i va uning o'rinbosari; f) surishtiruv organlari.

2. Jinoyat protsessida o'z moddiy, ma'naviy va shaxsiy manfaatlarini himoya qiladigan ishtirokchilar: a) ayblanuvchi; b) gumon qilinuvchi; d) jabrlanuvchi; e) fuqaroviy da'vogar; f) fuqaroviy javobgar.

3. O'zgarlar manfaatini himoya qiladigan ishtirokchilar: a) himoyachi; b) qonuniy vakil; d) vakillar.

4. Jamoatchilik nomidan ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillari: a) jamoat ayblovdchilari; b) jamoat himoyachilari.

5. Jinoyat sudlov ishlari samaradorligini oshirishga yordam beruvchi ishtirokchilar: a) guvoh; b) ekspert; d) tarjimon; e) xolis; f) mutaxassis; g) sudya yordamchisi.

Shunday qilib, jinoyat protsessining ishtirokchilari o'z vakolat doiralarida jinoyat sudlov ishlarini yuritish vazifalari bajarilishiga xizmat qiladilar.

Yuqoridagi ishtirokchilardan biri bo'lgan sudlar vakolatlariga to'xtalib o'tamiz. Jinoyat protsessining har bir ishtirokchisi jinoyat sudlov ishlarini yuritishda faqat bitta funksiyani bajaradi. Masalan: odil sudlov funksiyasini – sud; tergov funksiyasini – surishtiruvchi, tergovchi, prokuror; ayblovd funksiyasini – jabrlanuvchi, prokuror; himoya funksiyasini – himoyachi, vakil, qonuniy vakil; qo'shimcha funksiyani – fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar; yordamchi funksiyani – gu-

voh, xolis, tarjimon, ekspert, mutaxassis va sudya yordamchisi.

Hozirgi sud-huquq islohotlarining eng asosiy vazifalaridan biri sudning amaldagi mustaqilligini ta'minlashdir [18]. Sudlar to'g'risidagi yangi qonunlarning qabul qilinishi, sudlarning ixtisoslashuvi, bir sud bir instansiya deb e'tirof etilishi, apellatsiya va kassatsiyaga ko'plab o'zgartirishlar kiritilishi shular jumlasidandir. Bu, albatta, odil sudlovni amalga oshirish sifati va tezkorligi, eng muhimi, qabul qilingan sud qarorlarining adolatli bo'lishini ta'minlaydi.

Jamiatimiz hayotida qonun ustuvorligiga erishish uchun hokimiyatning uch tarmog'i – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash zarur. Shundagina hokimiyat tarmoqlari orasida tom ma'nodagi muvozanat qaror topadi, sodda qilib aytganda, adolat tarozisi buzilmaydi. Avvalo, sud hokimiyati – bu oddiy fuqaromi yoki mansabdor va amaldor – har qanday holatda ham qonun ustuvorligi ta'minlanishiga erishishimiz darkor.

Sohada amalga oshirilgan ishlar natijasida odil sudlov jarayonida inson huquqlarini himoya qilish darajasi yangi bosqichga chiqdi. Shuningdek, sudlar faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishni erkinlashtirish, umuman, odil sudlovga erishishni oshirish hamda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash imkonini berdi [20].

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 24-iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni sohadagi ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Mazkur farmon asosida 2021-yil 1-yanvardan boshlab viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar va iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat'iy ixtisoslashuvini

saqlab qolgan va sud ishlarini yuritish turlari bo'yicha alohida sudlov hay'atlarini tashkil etgan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar umumyurisdiksiya sudlari tashkil etildi. Bu esa joylarda yagona sud amaliyotini shakllantirish, sudlarning tarqoqligi tufayli fuqarolar va tadbirkorlar sarson bo'lishining oldini olishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, tuman (shahar) ma'muriy sudlari o'rnida tumanlararo ma'muriy sudlari tashkil etildi hamda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazildi. Bu, o'z navbatida, ma'muriy sudlarning muayyan tumandagi mahalliy hokimiyat organlarining turli tazyiqlaridan xoli va mustaqil faoliyat yuritishlari, bunday sudlarni tashkil etish fuqarolar va tadbirkorlarni davlat organlari mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari va qarorlaridan sud orqali himoyalash uchun yanada qulay sharoit yaratadi.

Shu bilan birga, prokurorning sudda ishtirok etishi tartibi ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro standartlarga moslashtirildi. Jumladan, davlat ayblovchisi ayblovdan voz kechgan taqdirda, rehabilitatsiya asoslariga ko'ra, jinoyat ishini tugatish, taraflar murojaati mavjud bo'lgan holdagina prokuror tomonidan suddan ishlarni chaqirib olish, boshqa shaxslarning tashabbusi bilan qo'zg'atilgan fuqarolik va iqtisodiy ishlarning ko'rilishida prokuror o'z tashabbusi bilan ishtirok etishini istisno etishi belgilandi. Bunday qoidalarining kiritilishi sudning mustaqilligi, taraflarining sudda tortishuv va tengligi tamoyilini amalda ta'minlashga xizmat qilish hisoblanadi.

Sud bosqichlarini bekor qilish orqali "bir sud – bir instansiya" tamoyili joriy etilganligi, tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining qarorlarini viloyat darajasidagi sudlar tomonidan apellyatsiya tartibida, apellyatsiya tartibida ko'rilgan sud qarorlarini esa Oliy sud tomonidan kassatsiya tartibida qayta ko'rib

chiqish, kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan ishlar bo'yicha sud qarorlarini esa Oliy sud raisi, Bosh prokuror va ularning o'rinbosarlari protestiga ko'ra kassatsiya tartibida takroran ko'rib chiqish tizimi yo'lga qo'yildi. Sud ishlarini nazorat tartibida ko'rish instituti esa tugatildi. Bunday tartibning o'rnatilishi natijasida sudda har bir ish bo'yicha yakuniy to'xtamga kelish orqali sud qarorlarining barqarorligi ta'minlanadi hamda fuqarolar va tadbirkorlar sarson bo'lishining oldi olinadi.

Ma'lumki, sudda muayyan ishni, nizoni to'g'ri va adolatli hal etishda sudyaning asosiy "ish quroli" va "tayanchi" – bu qonun. Shunday ekan, Oliy sud Konstitutsiya bilan berilgan qonun tashabbuskorligi huquqidan samarali foydalanishi odil sudlovni ta'minlashda, albatta, o'zining ijobiy natijasini beradi.

Oliy sud tuzilmasida Sud-huquq sohasidagi qonunchilikni tahlil qilish boshqarmasi tuzildi. Bu esa Oliy sudning qonun ijodkorligi faoliyatida yanada ko'proq va professional tarzda ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, «Jinoyat protsessiga jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv instituti joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasi ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining jinoyat hamda jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni asosida Jinoyat-protsessual kodeksiga "Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish" va "Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv" kiritildi.

Sudda ishlarni ko'rishda inson huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tараflarning tortishuv tamoyilini amalda ro'yobga chiqarish uchun jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda dastlabki eshituv institutini joriy etish zarur. Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv institutining joriy etilishi sudga kelib tushgan jinoyat ishlarini sudda ko'rish uchun tayin-

lash bosqichida taraflarning ishtirok etishiga xizmat qiladi. Dastlabki eshituv instituti AQSh, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Belarus va boshqa ko'plab xorijiy davlatlarda joriy etilgan bo'lib, bugungi kunda taraflarning tortishuv tamoyilini amalda ro'yobga chiqarish va inson huquqlarini himoya qilishda o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi "Jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunga asosan, tumanlararo, tuman (shahar) sudlarining qarorlarini viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarning birinchi instansiya sudi sifatida chiqargan qarorlarini esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'atlari tomonidan apellatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish; apellatsiya tartibida ko'rib chiqilgan sud qarorlarini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'atlari tomonidan kassatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlari tomonidan kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan ishlar bo'yicha chiqarilgan sud qarorlarini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori va ular o'rinbosarlari protestiga ko'ra kassatsiya tartibida takroran ko'rib chiqish; davlat ayblovchisi ayblovdan voz kechgan taqdirda, reabilitatsiya asoslari-ga ko'ra jinoyat ishini tugatish; prokuror tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori bo'yicha ishlarni, ushbu ishlar yuzasidan taraflar murojaati mavjud bo'lgan holdagina, suddan chaqirib olib o'rganish tizimi yo'lga qo'yildi. Bu kabi islohotlarda sudning mustaqilligini ta'minlash masalasi muhimdir.

Sud hokimiyatining mustaqilligi deganda, avvalo, Konstitutsiyada mustahkamlangan hokimiyatlar bo'linishi tamoyillariga asosan,

sud hokimiyatining ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlardan mustaqil ravishda faoliyat yuritilishi tushuniladi. Jamiyat va uning har bir a'zosi sudyaga ishonch bilan, adolat homiysi sifatida qaramog'i lozim. Amaliyotda shunday holatlar uchrab turardiki, sudda jinoyat ishlarini ko'rish chog'ida sudlanuvchining davlat nomidan ayblovin qo'llab-quvvatlaydigan prokuror ko'pincha ishtirok eta olmasligi bois sudlanuvchiga uning aybiga oid savollar ko'proq sudya tomonidan beriladi. Endilikda bunday hollarga barham berilgan. Lekin ba'zi sudyalarda ayblash hissiyoti, sudlanuvchining jinoyat sodir etganligini isbotlashda behuda faollik ko'rsatish hollari uchrab turadi. Vaholanki, sudya xolis bo'lishi, ayblovi va himoya tomonlariga o'z fikr-mulohazalarini ifodalashi va isbotlashi uchun bir xil, teng shart-sharoitlardan faol foydalanishga imkon yaratmog'i lozim. Ayblash, ayblovi isbot qilish faqat davlat ayblovchisi, jamoat ayblovchisi va jabrlanuvchiga xos funktsiya, sud ularning vazifalarini bajarishdan o'zini tiyishi zarur.

Nazarimizda, sudlanuvchi va uning himoyachisi aybni inkor qilish imkoniyatlari ta'minlanishiga ko'proq muhtojlik sezadi. Negaki asrlardan buyon amal qilib kelayotgan naqlga ko'ra – ayblash oson, himoyalani qiyin. Shuni e'tiborga olib, Konstitutsiyamizning 116-moddasida ayblanuvchining himoyalani huquqi bilan ta'minlanishi alohida ifodalangan. Konstitutsiyada sudya mustaqil ish yuritishga da'vat qilinsa-yu, bu ulug' martabadagi shaxs o'z mas'uliyatini sezmasa, turli davlat idoralari, jamoat birlashmalari, hatto alohida mansabdor shaxslarning yo'l-yo'rig'i, topshirig'i bilan ish ko'rsa, bu sud hokimiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, qonunlar poymol bo'ladi, adolatga putur yetadi. Shu sababdan ham sudyalardan alohida salohiyat, qobiliyat, malaka va shak-shubhasiz, qalban soflik talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyulda qabul qilingan "Sudlar to'g'risida"gi yangi tahrirda qabul qilingan Qonun-

ning 9-moddasida ham sudyalari mustaqil ekanligi, faqat qonunga bo'ysunishi belgilangan. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Shuningdek, sudyalarga odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday vazifalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi. Sudyalarning mustaqilligi quyidagilar orqali ta'minlanadi: ularni qonunda belgilangan tartibda lavozimga saylash, tayinlash, sudyalik vakolatlarini to'xtatib turish va tugatish; sudyaning daxlsizligi; odil sudlovni amalga oshirishdagi qat'iy tartib-taomil; qarorlarni chiqarish chog'ida sudyalari maslahatlashuvining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi; sudyaga hurmatsizlik qilganlik, odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha faoliyatga aralashganlik va sudyaning daxlsizligini buzganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlik; sudyaga davlat hisobidan uning yuksak maqomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot berish.

Sudyaning mustaqilligini cheklaydigan qonunchilik hujjatlari qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, sudya, uning oila a'zolari va ularning mol-mulki davlatning alohida himoyasida bo'ladi. Sud tomonidan chiqarilgan har qanday hukm, ajrim va qaror qonuniy, asoslangan va adolatli bo'lishi lozim. Sudning har qanday hukm, ajrim yoki qarori faqat yuqori sud tomonidan bekor qilingan taqdirda o'z kuchini yo'qotadi. Sudya chiqargan hukm, ajrim va qarorlar qonun bilan barobar kuchga ega, uni qonun kabi so'zsiz tan olish, ijro etish, unga bo'ysunish barcha uchun majburiydir.

Yaqin o'tmishda sud hujjatlariga itoat qilish u yoqda tursin, uning ijro etilishini turli bo'lar-bo'lmas vajlar bilan to'xtatib qo'yish kayfiyatlarini tug'diruvchi qonun normalari, yuqori mansabdor shaxslarga Konstitutsiyaga zid bo'lgan vakolatlar beruvchi tartiblar mavjud edi. Sudyalarning mavqeyiga putur

yetkazadigan bu xil tartibsizliklarga endilikda barham berildi.

Xulosalar

Sudyalarning mavqeyi ularning shaxsiy tarkibi, malaka darajasi va sud faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllari takomillashuvi, nihoyat, bu haqdagi qonunlarimizning ham mukammalligiga bog'liq. Shu munosabat bilan sudlarimizning ijobiy tajribasini keng yoyish bilan bir qatorda, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi sud tizimining o'ziga xos jihatlarini chuqur tadqiq etish jiddiy ahamiyatga ega. Jinoyat protsessida shaxslarning himoyaga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlari poymol qilinishining oldini olish, ishni sudga qadar yuritishda himoya funksiyasi amal qilishini kuchaytirish, buning uchun tortishuv prinsipi doirasini kengaytirish hamda himoyachi huquqlarini amalga oshirish uchun sharoit yaratib berish maqsadida jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari tarkibida tergov sudyasi lavozimini joriy etish taklifi ilgari suriladi. Shuningdek, jinoyat protsessi ishtirokchilari bo'lgan guvoh va jabrlanuvchining ularning muho-

fazasini amalga oshirish choralarini qayta ko'rish va kuchaytirish, ekspert hamda mutaxassisning vakolatlarini kengaytirish, himoyachining ishdagi ishtirokini barcha hollarda shart qilib belgilash, jinoyat protsessi ishtirokchilarining to'g'ridan to'g'ri sudga shikoyat qilish tartibini ishlab chiqish, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini takomillashtirish, ya'ni yuvenal yustitsiyani tashkil qilish zarurati mavjud.

Jabrlanuvchi yoki fuqaroviy da'vogar-ga tiklab bo'lmaydigan zarar uchun adolatli kompensatsiya to'lash tartibini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Himoyachi jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash va taqdim etish, mustaqil ekspertiza tayinlash va ekspert xulosalarini olishga haqli bo'lishi, ular jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yilishi, shuningdek, surishtiruv, dastlabki tergov va jinoyat ishini sudda ko'rish jarayonida majburiy baholanishi shart. Bu muammolarni hal qilmasdan turib, jinoyat sudlov ishlari-ni yuritish vazifalarini mukammal hal etib bo'lmaydi.

REFERENCES

1. Ryzhakov A.P. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. 3rd, revised. Moscow, 2004, p. 61.
2. Vandysh V.V. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. St. Petersburg, 2002, p. 44.
3. Galkin B.A. Ugolovno-protsessual'nyy zakon [Criminal Procedure Law]. Moscow, 1982, p. 92.
4. Shpilev V.N. Uchastniki ugolovnogo protsessa [Participants in the criminal process]. Moscow, 1990, pp. 13–14.
5. Jinoyat protsessi [Criminal proceedings]. Ed. Z.F. Inoghomjonov. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2002, p. 101.
6. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. Ed. M.A. Cheltsov. Moscow, 1989, pp. 69–73.
7. Aleksandrov A.S., Kovtun.N.N., Polyakov M.P., Serebrova S.P. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. Ed. V.T. Tomin. Moscow, 2003, p. 104.
8. Tulaganova G.Z. Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan nomusga tegish jinoyatlari tushunchasi, turlari va ularning jinoiy-huquqiy tavsifi [The concept, types of rape committed by a group of persons and criminal legal description]. *Journal of Legal Research*, Tashkent, 2020.
9. Tadzhibayeva A.Y. Teoreticheskiy analiz ugolovno-protsessual'nykh funktsiy [Theoretical analysis of criminal procedural functions]. *Journal of Legal Research*, Tashkent, pp. 319–326.
10. Albina T. Essence and content of the judiciary. *Modern Scientific Challenges and Trends*, 2021, p. 137.

11. Tulaganova G.Z., Tadjibaeva A.Y. Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash kafolati [Guarantee of true independence of judges]. *Journal of Legal Research*, 2021, no. 6 (3).
12. Tulaganova G.Z. Participation of a lawyer in the pre-trial settlement of disputes. *Thematics Journal of Law*, 2021.
13. Tadzhibayeva A.Y. Funktsii ugolovnogo protsessa kak napravleniya protsessual'noy deyatel'nosti [Functions of the criminal process as a direction of procedural activity]. *Journal of Legal Research*, 2020, no. 5.
14. Pulatov B.X. Prokuror nazorati [Prosecutor control]. Tashkent, 2014, pp. 39–47.
15. Suyunova D.Z. An analysis of the procedural features in instituting preliminary hearing in a criminal case. *Law & Safety*, 2021, vol. 83 (4), p. 223. DOI: 10.32631/pb.2020.4.24/.
16. Ablamskiy S., Albina T. The protective function in criminal proceeding of the role of lawyers. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2021, no. 1 (3), pp. 53–56. Available at: <http://openaccessjournals.eu/index.php/ijdias/article/view/135/>.
17. Tulaganova G., Tadjibaeva A. The role and importance of anti-corruption researching. *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE)*, 2019, November, vol. 9, iss. 1. DOI: 10.35940/ijitee.A9159.119119/.
18. Tulaganova G. Some issues of observance of international legal norms of fight against legalization of criminal incomes in the Republic of Uzbekistan. *Journal of Adv Research in Dynamical & Control Systems*, 2020, vol. 12, spec. iss. 02. DOI: 10.5373/JARDCS/V12SP2/SP20201054/.

UDC: 343.1(045)(575.1)

ОТКАЗ В ВОЗБУЖДЕНИИ УГОЛОВНОГО ДЕЛА: ПРОБЛЕМЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ

Худайбергенев Бахрам Куанышбаевич,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
и. о. доцента кафедры «Уголовно-процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета
ORCID: 0000-0002-0173-5442
e-mail: bax555@umail.uz

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные проблемы уголовно-процессуального права, касающиеся института отказа в возбуждении уголовного дела. Данный институт является немаловажным в системе уголовно-процессуального права, так как от него во многом зависит дальнейшая судьба поступившего заявления или сообщения о готовящихся или совершенных преступлениях. В целях детального анализа данного института автором изучены нормативно-правовые, а также внутриведомственные акты, направленные на регулирование правоприменительной практики. Исходя из имеющихся на сегодняшний день научных исследований относительно института отказа в возбуждении уголовного дела, автор проводит сопоставительный анализ критериев обоснованного и законного отказа в возбуждении уголовного дела. Исследовав процессуальный порядок отказа в возбуждении уголовного дела, автор подчеркивает необходимость указания в постановлении основания принятия такого решения, предусмотренные нормами Уголовно-процессуального кодекса, ссылки на пункт, часть, статью уголовно-процессуального закона, предусматривающие ответственность за преступление, признаки которого послужили основанием проведения проверки. Нарушение этого требования может лишить данное постановление юридической силы. Правильное принятие решения об отказе в возбуждении уголовного дела может послужить гарантией от незаконных и необоснованных привлечений к уголовной ответственности.

Ключевые слова: уголовный процесс, уголовное дело, стадия возбуждения уголовного дела, актуальные проблемы, уголовно-процессуальные нормы, отказ в возбуждении уголовного дела.

**JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISHNI RAD ETISH:
NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR**

Xudaybergenov Baxram Kuanishbayevich
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasi dotsenti v. b.,

Annotatsiya: Mazkur maqolada jinoyat-protsessual huquqining jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish institutiga oid dolzarb muammolari tahlil qilingan. Ushbu institut jinoyat-protsessual huquq tizimida muhim ahamiyatga ega, chunki tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqidagi kelib tushgan ariza yoki xabarining taqdiri unga bog'liqdir. Ushbu institutni batafsil tahlil qilish maqsadida muallif tomonidan huquqni qo'llash amaliyotini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy, shuningdek, ichki-idoraviy hujjatlar o'rganilgan. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish institutiga oid bugungi kungacha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlar asosida muallif jinoyat ishini qo'zg'atishni asosli va qonuniy rad etish mezonlarini qiyosiy

tahlil qiladi. Muallif jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etishning protsessual tartibini o'rganib chiqib, jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi, belgilarni tekshirish uchun asos bo'luvchi qarorda O'zbekiston Respublikasi JPKning normalarida nazarda tutilgan bunday qarorni qabul qilish uchun asoslar, band, qism, moddaga havolalarni ko'rsatish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur tartibning buzilishi ushbu qarorning yuridik kuchining yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarorning to'g'ri qabul qilinishi shaxsning noqonuniy va asossiz jinoiy javobgarlikka tortilishining oldini olishi mumkin.

Kalit so'zlar: jinoyat protsessi, jinoyat ishi, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi, dolzarb muammolar, jinoyat-protsessual normalar, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish.

REFUSAL TO INITIATE CRIMINAL PROCEEDINGS: PROBLEMS OF THEORY AND PRACTICE

Khudaybergenov Baxram Kuanishbaevich

Acting Associate Professor at the Department
Criminal-procedural law
of Tashkent State University of Law,,
PhD in law

Abstract. This article discusses the current problems of criminal procedure law concerning the institution of refusal to initiate criminal proceedings. This institution is of no small importance in the system of criminal procedure law, since the further fate of the received statement or message about the crimes being prepared or committed depends on it a lot. For the purpose of a detailed analysis of this institute, the author has studied the normative-legal, as well as internal acts aimed at regulating law enforcement practice. Based on the scientific research available to date regarding the institution of refusal to initiate criminal proceedings, the author conducts a comparative analysis of the criterion of justified and lawful refusal to initiate criminal proceedings. Having examined the procedural procedure for refusing to initiate a criminal case, the author emphasizes the need to indicate in the resolution the grounds for making such a decision provided for by the norms of the Criminal Procedure Code, references to the paragraph, part, article of the Criminal Procedure Law providing for responsibility for the crime, the signs of which served as the basis for the audit. Violation of this requirement may deprive this resolution of legal force. The correct decision to refuse to initiate a criminal case can serve as a guarantee against illegal and unjustified criminal prosecution.

Keywords: criminal process, criminal case, the stage of initiation of criminal proceedings, current problems, criminal procedural norms, refusal to initiate criminal proceedings.

Введение

В современных условиях национальное уголовно-процессуальное законодательство переживает период бурного реформирования, предопределяемого социально-политическими изменениями в стране. Целью проводимых реформ является создание условий для эффективной деятельности правоохранительных органов в борьбе с преступностью, усиление гарантий защиты прав и свобод личности, интересов общества и государства. В нашей республике осуществляются широ-

комасштабные реформы по обеспечению верховенства закона и дальнейшего совершенствования судебно-правовой системы. Одним из приоритетных направлений в данных реформах обозначается «обеспечение гарантий надежной защиты прав и свобод граждан», целью которых является обеспечение своевременного рассмотрения обращений граждан, обеспечение неотвратимости ответственности за допущение фактов волокиты, бюрократизма и безразличного отношения к рассмотрению обращений, а также принятие всех не-

обходимых мер по восстановлению нарушенных прав. Но несмотря на осуществляемые реформы, в Республике Узбекистан уголовно-правовая статистика указывает на резкий рост зарегистрированных преступлений в последние годы.

Так, в 2021 году число зарегистрированных преступлений выросло на 1,12 % по сравнению с 2019–2020 годами [1, 2]. Изучение статистических данных и материалов судебно-следственных органов показало часто допускаемые ошибки при возбуждении уголовных дел и при их отказе, что приводит к частым отменам принятых решений должностных лиц. Считаем, что причиной этому служит отсутствие единого порядка регистрации, проверки и разрешений поступивших заявлений о преступлениях, а также их регулирование с помощью различных внутриведомственных актов.

Причиной возникновения таких проблем является отсутствие четкой регламентации процессуальной деятельности на этапе возбуждения уголовного дела, которая и порождает разное толкование правоприменителем отдельных норм, препятствуя тем самым единообразному и эффективному применению правовых норм в практической деятельности.

Материалы и методы

В целях детального анализа данного института и поиска решений существующих проблем автором изучены нормативно-правовые, а также внутриведомственные акты, направленные на регулирование правоприменительной практики.

Предмет исследования составляют материалы судебно-следственной практики; научные и практические взгляды ученых-процессуалистов; передовой опыт зарубежных стран; уголовно-процессуальные нормы, регулирующие институт возбуждения уголовного дела; положения ведомственных нормативных актов, приказы Генерального прокурора Респуб-

ки Узбекистан, постановления Пленума Верховного суда Республики Узбекистан, практика применения соответствующих правовых норм, а также теоретические разработки по рассматриваемым проблемам. Методологическую основу исследования составляют диалектический метод познания объективной действительности, общенаучные методы: системно-структурный анализ, сравнение, аналогия; специально-научные методы: статистический, интервьюирование, историко-правовой, логико-юридический, сравнительно-правовой и другие.

Результаты исследования

Согласно последним статистическим материалам Еврокомиссии, показатель регистрируемых преступлений в большинстве из европейских стран имеет тенденцию к увеличению [3]. Изучение информационных материалов Координационного света генеральных прокуроров государств-участников содружества независимых государств показывает рост на 1,7 % зарегистрированных преступлений в таких странах, как Россия, Армения, Беларусь, Азербайджан, Таджикистан. Однако в некоторых странах данный показатель сохраняет средний уровень и даже снизился. Причиной снижения показателя указывается изменение методологии подсчета (Казахстан, Кыргызстан, Молдова), а также порядка регистрации сообщений и заявлений о преступлениях [4].

Из анализа передового опыта зарубежных стран можно прийти к выводу о том, что идет поэтапная реорганизация или полное упразднение стадии возбуждения уголовного дела.

Как известно, для возбуждения уголовного дела требуется наличие поводов и оснований. Касательно отказа в возбуждении уголовного дела, можно полагать, что законодатель четко не определяет основания для отказа, а всего лишь ссылается на

статьи 83 и 84 Уголовно-процессуального кодекса (УПК).

Все еще существует научная дискуссия о сущности «отказа в возбуждении уголовного дела». В правовой доктрине уголовно-процессуального права имеется позиция, по которой «отказ в возбуждении уголовного дела» признается субинститутом внутри института возбуждения уголовного [5]. А другие, напротив, выдвигают позицию о самостоятельности данного института от возбуждения уголовного дела [6].

Для определения институциональности отказа в возбуждении уголовного дела проведен анализ правовых норм, регламентирующих правовые отношения, возникающие при принятии решения об отказе в возбуждении уголовного дела. Кроме того, была предпринята попытка по определению предмета института отказа в возбуждении уголовного дела. Так, отказ в возбуждении уголовного дела обладает всеми элементами уголовно-процессуального института. «Отказ в возбуждении уголовного дела объединяет в себе нормы, регламентирующие правовые отношения, возникающие в ходе следственной проверки, имеет процессуальный документ (постановление), а также участников (прокурор, следователь, дознаватель и лицо, осуществляющее следственную проверку)» [7].

Некая своеобразность исследуемого института выражается в его составном элементе – институте возбуждения уголовного дела, но с другой стороны, вместе они создают определенный механизм отрасли уголовного процесса. Так, при проверке сообщений и заявлений о преступлениях следует принимать одно из процессуальных решений. Постановление о возбуждении уголовного дела выносится, если имеются поводы и основания (признаки преступлений), а отказ в возбуждении выносится в связи с отсутствием таковых.

Поэтому решение об отказе в возбуждении уголовного дела, выступая отдельным правовым институтом, служит реализации некоторых задач, таких как недопущение необоснованного возбуждения уголовного дела с необоснованным привлечением к уголовной ответственности, что приводит к неоправданному расходованию бюджетных средств.

Далее будут изучены процессуальные и организационные основы института отказа в возбуждении уголовного дела.

В УПК Республики Узбекистан отказ в возбуждении уголовного дела регулируется нормами статьи 333. В данной статье основаниями для принятия решения об отказе в возбуждении уголовного дела являются обстоятельства, указанные в пункте 1, 2 статьи 83 УПК и пункты 1, 3–8 статьи 84 УПК. Однако содержание пункта 1 статьи 83 УПК вызывает большой диссонанс, так как принять решение об отказе в возбуждении уголовного дела допускается при отсутствии события преступления, в связи с которым и осуществляется возбуждение уголовного дела, проводится расследование или судебное разбирательство.

Данное положение свидетельствует о некой коллизии норм УПК, что вызывает необходимость его устранения. По устранению такой коллизии, полагаем целесообразным дополнить содержание пункта 1 статьи 83 и изложить в следующей редакции: «1) отсутствует событие преступления, по поводу которого была проведена следственная проверка».

Как нам известно, уголовный процесс определяет процедуру принятия и оформления решения об отказе в возбуждении уголовного дела [8]. Согласно положению статьи 330 УПК Республики Узбекистан, по результатам проверки поступившего заявления или сообщения о преступлении принимается одно из нижеследующих решений: о возбуждении уголовного дела,

об отказе в возбуждении уголовного дела, о передаче заявления или сообщения по подследственности.

Относительно третьего вида принимаемых решений по результатам проверки мы считаем, что оно является факультативным. Так, по итогам доследственной проверки должно быть принято решение о возбуждении уголовного дела либо об отказе в возбуждении уголовного дела. В связи с положением статьи 336 УПК Республики Узбекистан уголовное дело направляется по правилам статей 345 и 381² УПК по признакам подследственности с разрешения прокурора.

До возбуждения уголовного дела необходимо принять и зарегистрировать заявление или сообщение о преступлении. Органы предварительного расследования, дознания и осуществляющие доследственную проверку обязуются осуществить прием и регистрацию любого сообщения или заявления о преступлениях. Процессуальные решения принимаются в установленные сроки, указанные в статье 329 УПК Республики Узбекистан.

Изучив нормы УПК о порядке рассмотрения заявления или сообщения о преступлении, можно отметить, что в заявлениях должна содержаться информация (хоть и в малой степени) о совершенном или готовившемся преступлении. По данному вопросу уместно привести мнение ученого Б.Б. Хидоятова, который считает, что в случае отсутствия в обращении признаков состава преступления орган предварительного следствия вправе отказать в приеме заявления [9]. Мы считаем такой подход не совсем корректным. В случае отсутствия в обращении данных, свидетельствующих о признаках преступления, компетентный правоохранительный орган должен исходить из положений статьи 334 УПК, т. е. направить сообщение или заявление компетентному органу для решения. В этом случае вызывает интерес

совместный приказ Генеральной прокуратуры и МВД Республики Узбекистан «Об утверждении правил оформления в упрощенном порядке решений об отказе в возбуждении уголовного дела, принимаемых по итогам доследственной проверки, поступающих в дежурную часть ОВД заявлений, сообщений и иных сведений о преступлении», принятый 1 февраля 2021 года. В данном приказе приводится решение к вышеупомянутому вопросу (регистрация сообщений и заявлений, не содержащих данных о совершении преступлений). В частности, при поступлении заявлений или обращений в дежурную часть органов внутренних дел они регистрируются автоматически в базе «E-material», вследствие чего в обязательном порядке проводится доследственная проверка. Но в случаях когда обращения или заявления не содержат данные о совершении преступлений, инспектора профилактики правонарушений, рассмотрев их, принимают решение об отказе в возбуждении уголовного дела, тем самым могут принять решение о возбуждении дела об административном правонарушении. Данная процедура создает благоприятные условия для работы с обращениями и заявлениями граждан о преступлении. В частности, это приводит к уменьшению случаев укрывательства от регистрации сообщений или заявлений о преступлениях, во-вторых, создается упрощенная процедура для принятия отказа в возбуждении уголовного дела.

Далее рассмотрим правовой порядок осуществления производства по устному заявлению о преступлении. Данный порядок предусмотрен в статье 324 УПК Республики Узбекистан, в части 3 которой указывается, что заявитель должен быть предупрежден об уголовном преследовании по статье 237 УК Республики Узбекистан за ложное сообщение, и об этом делается подписка в протоколе. Кроме того, по положению статьи 324 УПК Республики Уз-

бекистан устное заявление подлежит фиксации в протоколе. После этого в протоколе фиксируются сведения об обстоятельствах совершения преступления. После чего протокол подлежит подписанию со стороны заявителя и должностного лица, принимающего заявление.

После оформления заявления выдается уведомление в письменном виде, далее заявление (сообщение) регистрируется в книге учета сообщений о преступлениях (Ф-1 – книга регистрации заявлений и сообщений о преступлениях). Следом за ними начинается доследственная проверка по поступившему заявлению, которая проводится в целях обнаружения признаков преступления, при их отсутствии выносится постановление об отказе в возбуждении уголовного дела, которое должно обосновываться на результатах проведенных проверочных действий (следственных или иных процессуальных).

Анализ результатов исследования

Проведенное в форме анкетирования исследование среди сотрудников правоохранительных органов показало, что в момент получения и предварительного изучения сообщения или заявления о преступлении в 85 % случаев у должностного лица формируется предполагаемое решение о возбуждении уголовного дела [10]. В данном случае возникает вполне уместный вопрос о целесообразности проведения доследственной проверки. По данному вопросу является весьма интересным содержание приложения к совместному приказу Генеральной прокуратуры и МВД Республики Узбекистан от 1 февраля 2021 года, где содержится некий перечень правонарушений. Данный перечень позволяет ускоренно разграничивать правонарушения от преступлений. Кроме сформированного перечня, внимание привлекают указанные сроки в приказе относительно проверок и уведомлений об их результатах надзирающих лиц.

По нашему мнению, каждое заявление и сообщение о преступлениях должно быть проверено правоохранительными органами. Кроме того, указанные сроки в данном приказе должны быть нормативно закреплены в УПК, так как эти сроки являются процессуальными сроками уголовного судопроизводства.

При изучении норм, предусматривающих правовое содержание постановления об отказе в возбуждении уголовного дела, можно определить лишь общие правила постановления, в которых следует отразить существо самого действия по проверке сообщения или заявления и соответствующее принимаемое решение по результатам проверок. Кроме того, при вынесении постановления должна быть указана основательная часть, где отражаются доказательства, подтверждающей факт отсутствия признаков преступления. Стоит отметить, что доказательства собираются путем производства следственных действий, которые являются средствами доказывания по своей правовой природе. По этой причине разрешено производство следственных действий во время доследственных проверок.

Принимая решение об отказе в возбуждении уголовного дела, следует придерживаться определенных правил для вынесения обоснованного и законного постановления. Так, в постановлении об отказе в возбуждении уголовного дела должна отражаться аргументированная информация, обосновывающая вывод должностного лица, принимающего решение. Такое содержание постановления позволяет в дальнейшем проверить его на объективность и обоснованность со стороны надзирающего прокурора. Кроме того, существуют шаблонные образцы, подготовленные Генеральной прокуратурой совместно с другими правоохранительными органами для использования в практической деятельности. Так, постановле-

ние должно содержать время и место вынесения постановления, вводную часть (наименование органа доследственной проверки, фамилия, звание должностного лица, которое принимает процессуальное решение), описательную часть – основания для отказа в возбуждении, исходя из положений статей 83, 84 УПК Республики Узбекистан, и резолютивная часть, в которой будет отражаться суть принятого решения.

Важно отметить, что описательная часть постановления имеет огромное значение. Но, несмотря на это, очень часто должностными лицами описательная часть заполняется кратко. Такой недостаток лишает возможности удостовериться в законности принятого решения, что в дальнейшем способствует обжалованию, а также отмене принятого решения надзирающим прокурором.

Для недопущения таких ситуаций нужно придерживаться определенным правилам составления процессуального документа. Мы полагаем, что в описательной части должны излагаться данные, собранные в ходе доследственной проверки. Нельзя допускать того, чтобы в этой части постановления приводилось причины неполноты проведенной доследственной проверки, так должны быть отражены фактические обстоятельства дела, и в таких случаях требуется продление сроков доследственной проверки. Правильно, если фактические обстоятельства дела будут закреплены результатами следственных действий, так как они направлены на сбор доказательств, что говорит об обоснованности принятия решений.

Резолютивная часть постановления об отказе в возбуждении уголовного дела должна логически соответствовать сведениям, указанным в описательной части, и содержать правовую аргументацию принятого решения. Кроме того, должны быть указания о направлении заинтересован-

ным лицам копий постановления. В том случае, если в ходе проведенной проверки будет установлено, что деяние является административным, дисциплинарным правонарушением или нарушением нравственных норм, лицо, принявшее постановление об отказе в возбуждении уголовного дела, направляет сообщение соответствующим лицам для применения по ним соответствующих мер.

Вместе с тем немаловажным является вопрос исполнения решения об отказе в возбуждении уголовного дела. Здесь под исполнением решения понимается реализация всех предписаний, следующих за вынесением постановления. К ним следует отнести:

- уведомление в письменной форме всех заинтересованных лиц, которые обратились с заявлением или сообщением о преступлении;
- разъяснение их процессуальных прав по обжалованию данного решения через органы прокуратуры;
- направление копии постановления прокурору;
- возврат документов и предметов, истребованных при проведении доследственной проверки.

Жалобы на решения об отказе в возбуждении уголовного дела составляются только при условии, что заявитель информирован о всех деталях принятия решения. Также копия постановления должна быть направлена всем заинтересованным лицам. Такой порядок даст возможность всем заинтересованным лицам обоснованно опровергнуть отказ в возбуждении уголовного дела.

В правоприменительной практике часты случаи принятия постановления об отказе в возбуждении уголовного дела, выносимые лицами, проводящими доследственную проверку, не содержащего полноценную, обоснованную и проверенную информацию, другими словами, не содер-

жащего в себе оснований для принятия решения об отказе в возбуждении уголовного дела.

Изучение материалов доследственных проверок показывает, что по итогам доследственных проверок выносятся шаблонные (трафаретные) постановления об отказе в возбуждении уголовного дела, кроме того, по принятому решению очень часто допускается неуведомление по надлежащей форме заинтересованных лиц и прокурора. Вместе с тем было определено несоответствие даты вынесения постановления фактическому времени его принятия. Так, например, по результатам проведенной доследственной проверки по случаю самоубийства несовершеннолетней гражданки Р., следователь районной прокуратуры принял решение отказать в возбуждении уголовного дела. Анализ данного постановления показал, что в качестве оснований для отказа были указаны объяснительные ее близких родственников, которые указывали на психическо-эмоциональное изменение усопшей. Также в описательной части постановления приведено заключение экспертизы, где указано на наступление смерти в результате механической асфиксии посредством удушения петлей. В таком случае следует проверить наличие или отсутствие признаков доведения до самоубийства, что требует тщательного изучения обстоятельств произошедшего.

Однако в правоприменительной практике в большинстве случаев самоубийства решение об отказе в возбуждении уголовного дела принимается без проведения доследственной проверки на должном уровне. В случае отсутствия жалоб на такое постановление ситуация остается неизменной. В случае обжалования решений надзирающему прокурору лишь отменяется постановление с последующим направлением материалов на дополнительную доследственную проверку. Отсутствие

в материалах доследственной проверки конкретных данных об исключении возможности совершения преступления создает трудности для надзирающего прокурора возбудить уголовное дело, с отменой постановления об отказе в возбуждении уголовного дела.

Немаловажным является вопрос последствия принятия необоснованных решений с отказом в возбуждении уголовного дела, так как полное и всестороннее изучение обстоятельств, отражающихся в сообщениях или заявлениях, с последующим их разрешением признается как прямая обязанность должностного лица, осуществляющего доследственную проверку. В другом случае, когда по итогам проверки сообщений или заявлений будет обнаружены признаки административного правонарушения, должностное лицо должно возбудить дело по ней или направить материалы в надлежащий орган для разрешения. Здесь рассматривается случай, где последствия правонарушений не признаются уголовно-наказуемым (например, решение о возбуждении дела об административном правонарушении по «мелкому хищению» (статья 61 Кодекса Республики Узбекистан об административной ответственности)).

В большинстве случаев процессуальное оформление постановлений об отказе в возбуждении уголовного дела во многом зависит и от содержания первичных материалов. Так, при содержании данных о двух несвязанных между собой преступных фактов в заявлении или сообщении признаки преступления могут быть установлены лишь по одной ситуации. В таком случае разделить материалы по одному сообщению или заявлению о преступлении нет возможности, в этой связи следует отразить результаты проверки по не подтвердившемуся факту в резолютивной части постановления. Полагаем, что в подобных случаях следует совмещать два ре-

шения и отобразить их в одном процессуальном решении.

Кроме того, мы считаем целесообразным объединение решений в одном постановлении по схожим обращениям и поступившим не одновременно, если это сделано до окончания сроков доследственной проверки. Данное обстоятельство также следует предусмотреть в качестве обстоятельств для продления сроков доследственной проверки в части 3 статьи 329 УПК Республики Узбекистан.

Заявление на обжалование принятого решения по отказу в возбуждении уголовного дела может быть направлено руководителю следственного управления/отдела или начальнику органа, отдела дознания, но для эффективности рассмотрения жалобы целесообразно обжаловать надзирающему прокурору. Однако при обжаловании сообщение или заявление может передано на дополнительную доследственную проверку для установления необходимых сведений, способствующих принятию обоснованных решений.

Процессуальное решение должно быть составлено таким образом, что при проверке надзирающим прокурором была возможность убедиться в законности его принятия, т. е. вынесенное постановление должно позволять проверить соответствие нормам уголовно-процессуального закона. В таком случае между прокурором и должностным лицом, проводившим доследственную проверку, непосредственно возникают уголовно-процессуальные отношения, при которых должен соблюдаться принцип самостоятельности участников. Однако и в данном вопросе существует проблема, так как у лица, проводившего доследственную проверку, может быть другая позиция по применению уголовного и уголовно-процессуального законодательства. Но тем не менее органы предварительного расследования и органы, производящие доследственную проверку, обя-

заны выполнять требования и поручения прокурора (статья 28 Закона Республики Узбекистан «О прокуратуре»). С другой стороны, статьями 36 и 381 УПК Республики Узбекистан гарантируется процессуальная независимость следователя и дознавателя. При несогласии следователя и дознавателя с указаниями прокурора они наделены правом представления дела вышестоящему прокурору, изложив в письменной форме свои возражения. После получения возражений вышестоящий прокурор может отменить указания нижестоящего прокурора или поручить производство дознания по делу другому дознавателю [11].

В действительности, вопрос о процессуальной независимости и самостоятельности лиц, осуществляющих доследственную проверку, является дискуссионным [12]. К тому же у нас вызывает интерес вопрос принятия решения об отказе в возбуждении уголовного дела органом доследственной проверки после вынесения прокурором постановления, отменяющего постановление о возбуждении уголовного дела. Изучение материалов доследственных проверок показало, что практика принятия решений по таким случаям не единообразна. В большинстве случаев после постановления прокурора выносится постановление об отказе в возбуждении уголовного дела. Стоит обратить внимание на отмену прокурором постановления о возбуждении уголовного дела. В связи с чем перед лицом, осуществляющим доследственную проверку, возникает вопрос о выполнении требований статьи 330 УПК Республики Узбекистан, по которой необходимо принять одно из решений, завершающих стадию возбуждения уголовного дела.

Выводы

Мы считаем, что вынесение прокурором постановления об отмене постановления о возбуждении уголовного дела лишает смысла принятие решения об отказе в возбуждении уголовного дела органом до-

следственной проверки. При этом следует провести дополнительную следственную проверку по общим правилам статьи 329 УПК Республики Узбекистан.

В связи с чем предлагается дополнить статью 329 частью четвертой, изложив ее в следующей редакции:

«В случае вынесения прокурором постановления об отмене постановления о возбуждении уголовного дела материалы следственной проверки направляются для проведения дополнительной следственной проверки».

Полномочие прокурора о принятии постановления об отмене постановления о возбуждении уголовного дела вызывает вопрос о возможности органа следственной проверки обжаловать данное решение. По данному вопросу является весьма интересным мнение ученых, которые полагают, что правом обжалования решений, принимаемых по окончании проверок, наделяется только лицо, которое обратилось с заявлением о возбуждении уголовного дела [13]. Соглашаясь с данным мнением, считаем целесообразным установление порядка, при котором лицо, обратившееся с заявлением, будет наделяться правом обжалования по действиям или бездействиям, а также по принимаемым решениям должностными лицами, осуществляющими следственную проверку.

Конечно, прокурорский надзор является необходимым институтом для проверки законности, обоснованности принимаемых решений на досудебном производ-

стве, но нельзя исключать возможность допущения ошибок и надзирающими органами. Для установления баланса в данном вопросе, мы полагаем, что нужно установить судебный контроль за принимаемыми решениями. Такой порядок будет и отвечать и принципам уголовно-процессуального права.

При осуществлении прокурорского надзора уголовно-процессуальный закон возлагает на прокуроров процессуальную обязанность по проверке соблюдения установленного порядка, сроков проведения следственной проверки, обеспечению гарантий процессуальных прав участников уголовного судопроизводства, в связи с чем на них возлагается обязанность по выявлению, устранению и предупреждению нарушений закона, которые могут быть допущены при осуществлении учета, регистрации, отказа в возбуждении уголовного дела. При обнаружении фактов нарушения по принятию обоснованных процессуальных решений прокурорам следует отменять постановления с последующим признанием его незаконным. В случаях обнаружения недостатков следует возвращать материалы дела на дополнительную следственную проверку, срок которой не должен превышать первичного срока следственной проверки. Установление такого процессуального порядка будет способствовать обеспечению процессуальных гарантий прав и свобод личности на всех стадиях уголовного судопроизводства.

REFERENCES

1. Danyye Gosudarstvennogo komiteta po statistike Respubliki Uzbekistan [Data of the State Committee on Statistics of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://stat.uz/>.
2. Danyye Sledstvennogo departamenta pri Ministerstve vnutrennikh del Respubliki Uzbekistan [Data of the Investigation Department under the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://tergov.uz/>.

3. Recorded offences by offence category – police data. Available at: https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/crim_off_cat/default/table?lang=en/.
4. Sostoyaniye prestupnosti v gosudarstvakh-uchastnikakh Sodruzhestva Nezavisimykh Gosudarstv v 2019 godu [The state of crime in the member states of the Commonwealth of Independent States in 2019]. Coordinating Council of Prosecutors General of the Member States of the Commonwealth of Independent States. Available at: <http://www.ksgp-cis.ru/about/obzory/sostojanie-prestupnosti-v-2019-godu/>.
5. Serjanov V.N. Otkaz v возбуждении уголовного дела [Refusal to initiate criminal proceedings]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2004, pp. 12–14.
6. Maslov A.V., Klimentov A.A. Otkaz v возбуждении уголовного дела: правовая природа i problemy regulirovaniya [Refusal to initiate criminal proceedings: legal nature and regulatory issues]. *Law: History and Modernity*, 2019, vol. 4, no. 9, pp. 117–121. DOI: 10.17277/pravo.2019.04.pp.117-121/.
7. Khudaybergenov B.K. The issues of considering reports and allegations of crime. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2021, no. 2 (4), pp. 88–90. Available at: <https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/602/> (accessed 29.09.2022).
8. Khidoyatov B. Stages of legal regulation of inquiry in the Republic of Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2020, vol. 2, no. 11, pp. 179–186. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume02Issue11-30/.
9. Khidoyatov B., Khudaybergenov B., Shakhi S. Optimizatsiya pervonachalnoy stadii ugolovnogo sudoproizvodstva [Optimization of the initial stage of criminal proceedings]. *Society and Innovation*, 2022, no. 3 (1/S), pp. 70–77. DOI: 10.47689/2181-1415-vol3-iss1/S-pp70-77/.
10. Jinoyat ishini qo'zg'atish institutini takomillashtirish bo'yicha so'rovnom [Questionnaire on improvement of criminal prosecution institute]. Available at: <https://docs.google.com/forms/d/1dbVD SuuDkMI5aPJ7YfhWYx1i48BqyL9AGmliuup0bjc/edit/>.
11. Khidoyatov B.B., Fayziyev Sh.F. Istoricheskoye razvitiye protsessualnoy deyatelnosti organov doznaniya na territorii Respubliki Uzbekistan [Historical development of the procedural activity of the bodies of inquiry on the territory of the Republic of Uzbekistan]. *Russian Investigator*, 2016, no. 22, pp. 47–51. Available at: <https://elibrary.ru/item.asp?id=27385329/>.
12. Lukozhev Kh.M. Protsessual'naya samostoyatel'nost' sledovatelya i doznatelya v sovremennom ugolovnom sudoproizvodstve [Procedural independence of the investigator and the inquirer in modern criminal proceedings]. *Theory and Practice of Social Development*, 2021, no. 12, pp. 128–133. DOI: 10.24158/tipor.2021.12.16/.
13. Khudaybergenov B.K. Issues of improving the institution of criminal proceedings: comparative analysis. *Conferences*, 2021, vol. 1, no. 1.
14. Gordeyev A.YU. Otkaz v возбуждении уголовного дела [Refusal to initiate criminal proceedings]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2006, p. 10.
15. Rossinskiy S., Rakhmonova S. Stadiya возбуждения уголовного дела: kak razreshit' preslovutyye protivorechiya? [The stage of initiating a criminal case: how to resolve the notorious contradictions?]. *Society and Innovation*, 2021, no. 8 (1/S), pp. 68–76. DOI: 10.47689/2181-1415-vol2-iss8/S-pp68-76/.

UDC: 343.10(045)(575.1)

ISH YURITISHNI ISTISNO QILUVCHI HOLATLARNING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISH MUAMMOLARI

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbayevich,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakulteti doktoranti, kapitan

ORCID: 0000-0003-39-53-3800

e-mail: jasurbekataniyazov91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ish yuritishni istisno qiluvchi holatlarning huquqiy tartibga solinishi muammolari amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada tergovga qadar tekshiruv natijasi yuzasidan amaliyotda qabul qilinayotgan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish qarorlarining O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasining "Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib, jinoyat ishini tugatish uchun asoslar" deb nomlanganligi va uning asoslariga qanchalik mosligi hamda vujudga kelayotgan kollizion holatlar o'rganilgan. Maqolada jinoyat protsessida rehabilitatsiya etiluvchi asoslarning alohida bobda aks ettirilishi zarurati, mazkur asoslarning esa ish yurituvni istisno qiluvchi holatlar normasida belgilanishi lozimligi borasida fikrlar bildirib o'tilgan. Shuningdek, maqolada xorij davlatlarining jinoyat-protsessual qonunchiligida aks etgan jinoyatga oid ishlarni rad etish va tugatish asoslarining mazmuni va afzalliklari o'rganilgan. Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo'llangan. Tadqiqot ishida ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti o'rganilgan bo'lib, buning natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ayblilik, jinoyatga oid ish, qo'zg'atish, tugatish, rad etish, ish yurituvni istisno qiluvchi holatlar, rehabilitatsiya.

ПРОБЛЕМЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ОБСТОЯТЕЛЬСТВ, ИСКЛЮЧАЮЩИХ ПРОИЗВОДСТВО ПО ДЕЛУ

Атаниязов Жасурбек Курбанбаевич,

капитан, докторант факультета послевузовского образования
Университета общественной безопасности
Национальной гвардии Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье с практической точки зрения исследованы проблемы правового регулирования обстоятельств, исключающих делопроизводство. В статье также изучается степень соответствия принятых на практике по результатам доследственной проверки решений об отказе в наблюдении за уголовным делом по основаниям для прекращения уголовного дела без решения вопроса о виновности статьи 84 Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан, а также возникающие коллизионные обстоятельства. В статье были высказаны мнения о том, что реабилитируемые основания в Уголовно-процессуальном кодексе должны быть отражены в отдельной главе, а эти основания должны быть установлены в норме обстоятельств, исключающих производство по делу. Также в статье исследуется содержание и преимущества оснований для отказа и прекращения уголовных дел, что нашло отражение в Уголовно-процессуальном законодательстве зарубежных государств. В исследовании

использовались такие методы, как анализ, синтез, индукция, дедукция, сравнительно-правовой анализ. В исследовательской работе были изучены передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды, следственная и судебная практика, в результате чего были выработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан.

Ключевые слова: виновность, уголовное дело, возбуждение, прекращение, отказ, исключающие производство по делу обстоятельства, реабилитация.

PROBLEMS OF LEGAL REGULATION OF CIRCUMSTANCES EXCLUDING PROCEEDINGS IN THE CASE

Ataniyazov Jasurbek Kurbanbaevich,

Doctoral student of the Faculty of Postgraduate Education,
University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Captain

Abstract. In this article, the problems of legal regulation of circumstances excluding proceedings are investigated from a practical point of view. The article also examines the degree of conformity of decisions taken in practice based on the results of a pre-investigation check to refuse to monitor a criminal case with the grounds for terminating a criminal case without resolving the issue of guilt of Article 84 of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, as well as conflicting circumstances that arise. The author expresses the opinion that the rehabilitated grounds in the Criminal Procedure case should be reflected in a separate chapter, and these grounds should be established in the norm of circumstances precluding the proceedings. The article also examines the content and advantages of grounds for refusal and termination of criminal cases, which is reflected in the Criminal Procedure legislation of foreign states. The study used such methods as analysis, synthesis, induction, deduction, comparative legal analysis. In the research work, advanced foreign experience, scientific and theoretical views, and investigative and judicial practice were studied, as a result of which proposals and recommendations have been developed for making appropriate amendments and additions to the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: guilt, criminal case, initiation, termination, refusal, circumstances excluding the proceedings, rehabilitation.

Kirish

Dunyoda jinoyat ishlari bo'yicha ish yurituvini yanada insonparvarlashtirish masalalarini tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, harbiy xizmatchilarning jinoyat subyekti sifatidagi huquqlarini ta'minlash maqsadida qo'shimcha kafolatlarni belgilash, sudga qadar ish yurituvini yanada insonparvarlashtirishga qaratilgan yangi institutlarni joriy etish hamda amaldagilarini kengroq qo'llashga erishish, ayrim jinoyat normalarini dekriminallashtirish, jinoyat sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda sud-huquq sohasidagi islohotlarga alohida e'tibor qaratilayotganligi, xususan, ishni sudga qadar yurituv bosqichida ayblilik masalasini hal etmay turib, ishni tugatish, shu jumladan, yarashuv munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutini kengaytirish zarurati ushbu islohotlarda alohida o'rin egallagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida amalga oshirishga oid davlat dasturining yettita ustuvor yo'nalishidan biri bo'lgan, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini

taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo'nalishidagi aynan 14-maq-sadda "Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida bel-gilash" ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur maqsadga erishish uchun ji-noyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish masalalari O'zbekiston Res-publikasining huquqiy davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishi, shu-ningdek, mamlakatimizdagi har bir shaxs qadr-qimmatini uchun munosib qayg'urishi-ni amalidagi isboti sanaladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Pre-zidentining 2016-yil 21-oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqa-rolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish cho-ra-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-sonli Far-monining 6-bandida tomonlarning yarash-ganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik-dan ozod qilish institutini kengaytirish ham-da jinoyat ishini qo'zg'atish faqat jabrlanuv-chining arizasiga ko'ra amalga oshiriladigan jinoyat tarkiblari ro'yxatini kengaytirish, 2018-yil 14-maydagi "Jinoyat va jinoyat-prot-sessual qonunchiligi tizimini tubdan tako-millashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-son qarori asosida qabul qilingan konsepsiyaning II bo'limida Jinoyat protsessi-da shaxs huquq va erkinliklarining ishonchli kafolatini ta'minlash mexanizmlarini takomil-lashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratil-gan.

Material va metodlar

Ma'lumki, ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib, jinoyat ishini tugatish uchun asoslar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasida na-zarda tutilgan.

Shaxslarning jinoiy qilmishlari bo'yicha ish yuritishni rad etish yoki tugatishda ji-

noyat protsessual qonunchilikda vujudga kelayotgan kollizion holatlarni bartaraf qi-lish zarur bo'lgan bir qancha masalalar mav-jud. Xususan, Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasining "ayblilik masalasini hal et-may turib, jinoyat ishini tugatish" deb nom-lanishi, fikrimizcha, nomaqbul va ushbu fikri-mizni asoslash hamda mazkur muammolar yechimi yuzasidan takliflarni ilgari surishga harakat qilamiz.

Tadqiqot natijalari

B. Murodovning fikriga ko'ra, JPKning 84-moddasi "Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib, jinoyat ishini tugatish uchun asoslar" deb nomlanganligi nazariy jihatdan ham, surishtiruv, tergov va sud amaliyotida ham turlicha tushunilishiga sabab bo'layot-ganligi ushbu moddada belgilangan asos-larning talab darajasida qo'llanishiga to'siq bo'lmoqda. Professor "Jinoyat-protsessual qonun normalarining to'g'ri qo'llanishi va aybsiz shaxslarning qonunga xilof ravish-da javobgarlikka tortilmasligini ta'minlash uchun jinoyat ishini tugatish institutini rea-bilitatsiya qilinadigan va rehabilitatsiya qilin-maydigan asoslarga ajratish orqali tasniflash lozim" [1, 33-b.], deb ta'kidlaydi.

Albatta, professor B. Murodovning fikrlari o'rinli. Uning ushbu tasnifi asosan jinoyat ishini yuritish davomida qo'llanishi haqida. Ya'ni mazmunan jinoyat ishi masalasi JPK-ni-ning 322-moddasida nazarda tutilgan sa-bab va asoslar aniqlangach, mazkur kodeks-ni-ning 321-moddasiga asosan, jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risida qaror qabul qilina-di va ushbu ish jinoyat ishi deya yuritiladi. B. Murodov ilgari surayotgan tasniflash ush-bu jinoyat ishi qo'zg'atish bosqichidan keyin-gi va uning natijasiga qadar bo'lgan bosqich-da yakunlanishidir. Aynan biz e'tibor qilayot-gan normaning nomlanishi va mazmunidagi jihat, ya'ni jinoyat ishini tugatish – jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish vakolatini o'zida qamrab olmasligidadir.

Shu bilan birga, yuqorida B. Murodovning Rossiya Federatsiyasi jinoyat-protsessual

qonunchiligi singari jinoyat ishlari bo'yicha ish yurituvining reabilitatsiya qilinuvchi va reabilitatsiya etilmaydigan asoslarga ko'ra tasniflashiga qo'shilmasligimiz sababi JPKning 84-moddasi 1-qismi 4–5-bandlarida nazarda tutilgan asoslarni qo'llashda reabilitatsiya qilinmaydigan asoslar emasligini ko'rsatadi. Ya'ni bunda shaxs muqaddam sodir etgan jinoiy qilmishi uchun qayta javobgarlikka tortilmasligini ifodalaydi xolos.

Sh. Berdiyev esa JPKning 84-moddasini "Jinoyat ishini tugatish asoslari" deb nomlash zarurligi, shundagina uning mazmuni xalqaro huquq normalari hamda JKning 4-, 9-, 10- va 16-, JPKning 2- va 23-moddalari talablariga muvofiq kelishi, JPK 22-moddasining birinchi qismidagi haqiqatni aniqlash talabining yanada mustahkamlanishini kafolatlashini aytadi [2, 155-b.]. Ushbu fikrlarda JPKning mazkur asoslarga ko'ra, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish bilan bog'liq munosabatlarni ham qamrab olishi lozimligini inobatga olmaganligini e'tirof etish kerak.

B.R. Tursunov, M.H. Rustambayev va D.M. Mirazovlarning fikriga ko'ra, "Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish protsessual faoliyatning inkor etilganligi va oraliq emas, yakuniy xususiyatga ega bo'lganligi bois jinoyat belgilari yo'qligi haqidagi ishonchli ma'lumotlar yoki jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni inkor etuvchi boshqa holatlar yoxud uni qo'zg'atish bosqichidayoq jamoat ta'sirini qo'llashning o'zi yetarli ekanligi haqidagi xulosa asosida amalga oshiriladi" [3, 238-b.].

Mazkur fikrlarning ish yuritishni rad etish to'g'risidagi ta'riflarida universallikni ko'rishimiz mumkin, ya'ni ta'rif o'zida jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish, jinoyat belgilari yo'qligi va ish yuritishni istisno qiluvchi holatlarda qo'llanishi, shu bilan birga, JPKning 334-moddasida nazarda tutilgan jamoatchilik ta'siri, ma'muriy, intizomiy javobgarlik qo'llashni ham qamrab oladi.

A. Yuldoshbekov ham tergovga qadar tekshiruv natijasiga ko'ra, JPKning 84-moddasiga asoslanib, ish yuritishni rad qilish protses-

sual xato ekanligini bildirib, bunda normaga tergovga qadar tekshiruvni o'zida qamrab olishi lozim bo'lgan qo'shimcha va o'zgartirish kiritishni taklif qilgan [4, 157–162-b.].

Xorijiy olimlardan F.Y. Vasilev jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish masalasida jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish uchun barcha asoslar reabilitatsiya qiluvchi va reabilitatsiya qilinmaydigan asoslarga bo'lib o'rganilishi kerakligini ta'kidlab, quyidagicha xulosaga kelgan, ya'ni "jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish instituti deganda dastlabki tergov organlarining jinoyat ishini qo'zg'atish uchun qonunda nazarda tutilgan asoslarning yo'qligi yoki jinoyat ishi qo'zg'atishni istisno qiladigan holatlar mavjudligi sababli jinoyat ishini qo'zg'atishning mumkin emasligi to'g'risida protsessual qaror qabul qilish bo'yicha faoliyatini tartibga soluvchi o'zaro bog'liq huquqiy normalar majmuyi tushuniladi" [5, 14-, 18-b.].

Bu borada rus olimining Rossiya Federatsiyasi jinoyat-protsessual qonunchiligi va milliy jinoyat-protsessual qonunchiligimizda o'zaro o'xshash jihatlar borligi sababli mazkur fikrlariga qo'shilgan holda jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish qarori nafaqat o'zida jinoyat elementlarining mavjud emasligi, balki jinoyat ishini qo'zg'atishni istisno qiluvchi holatlarni qamrab oluvchi jinoiy protsessual normalar majmuyi ekanligi bilan ham xarakterli ekanini e'tirof etish lozim.

Professor D.M. Mirazov "Shuni e'tiborga olish lozimki, jinoyat ishi yuritishni istisno etuvchi holatlarni jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida har doim ham aniqlab bo'lmaydi. Ko'pincha ular o'tkazilgan surishtiruv yoki dastlabki tergov natijasida muayyan shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etgandan so'nggina ma'lum bo'ladi. Shu bois dastlabki materiallarda jinoyat alomatlari mavjudligini ko'rsatuvchi yetarli ma'lumotlar ko'zga tashlansa, garchi tergov davomida jinoyat ishini tugatishni talab etuvchi holatlar aniqlangan taqdirda ham jinoyat ishini qo'zg'atish qonuniy va asosli bo'ladi" [6, 309–310-b.], deb fikr bildiradi.

Albatta, olimning fikrlari o'rinli. Jinoyat ishi qo'zg'atilishi barcha protsess ishtirokchilarini jalb etgan holda jami resurslarni katta e'tibor bilan holatlar va vaziyatga huquqiy baho berish ma'nosida to'liq amalga oshirishga xizmat qiladi. Biroq bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarning jadal sur'atlarda rivojlanayotganligi va vaqt hamda resurslar sarfini optimallashtirish masalalari dolzarbligi ortayotganligi, shu bilan birgalikda, jinoyat-protsessual munosabatlarda shaxslarning dispozitiv huquqlarini qo'llash doirasi kengayib borayotganligini ham inobatga olish zarur.

Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish – protsessual harakat hisoblanib, keyingi ish yurituvini istisno etadi. Ish yuritishni rad etish JPKning 83-moddasiga ko'ra amalga oshirilgan taqdirda shaxsga hech qanday huquqiy oqibatlarining qo'llanmasligi va uning asosligi to'liq o'rganib bo'lingach, ushbu holat yoki vaziyat yoxud shaxsning mazkur harakatlariga baho berish uchun qayta to'xtalmasligi bilan ifodalanadi. Shu bilan birga, jinoyat-protsessual qonunchilik ish yuritishni istisno qiluvchi holatlarni ham nazarda tutgan bo'lib, unga ko'ra JPKning 84-moddasi ayblilik masalasini hal etmay turib, jinoyat ishini tugatish uchun asoslarga havola qiladi. Ya'ni shaxsning harakatlarida to'liq jinoyat alomatlari mavjudligi ko'rinib turgan bo'lsa-da, biroq mazkur normada ko'rsatilgan asoslarning mavjudligi jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishni taqozo etadi, albatta, bundan shaxsning roziligini olish lozim bo'lgan hollar mustasnodir. Masalan, surishtiruvchining tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilayotgan holat bo'yicha shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tib ketganligi yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish qarorini qabul qilishi bunga misol bo'la oladi.

Shuningdek, jinoyat ishini yuritishni istisno etuvchi holatlar, ya'ni JPKning 333-moddasiga bergan vakolatga ko'ra, JPKning 84-moddasi birinchi qismining 1-

3- va 8-bandlarida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqarishi belgilab qo'yilgan. Bu esa, o'z navbatida, JPK 84-moddasining "Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib, jinoyat ishini tugatish uchun asoslar" deb nomlanishiga ziddir.

Mantiqan tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi JPK ning ba'zi normalari mazkur ayblilik masalasini hal etmay turib, jinoyat ishini tugatishda jinoyat ishi qo'zg'atish shart emasligiga urg'u berayotganligini kuza-tishimiz mumkin.

Chunonchi, JPKning 29-moddasida sud amnistiya aktiga asosan, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi iltimosnomasini ko'rib chiqishda vakolatli ekanligini ko'rsatmoqda. Ya'ni sud mazkur ayblilik masalasini hal etmay turib, jinoyat ishini tugatish asoslariga murojaat qilgan holda hali jinoyat ishi hisoblanmagan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari yuzasidan sudga taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilishi to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqadi.

Shu bilan birga, yana bir holatda, ya'ni JPKning 84-moddasi 1-qismi 6-bandiga e'tibor qaratsak, "ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa", ya'ni mantiqan jabrlanuvchining hali shikoyati mavjud emas va faqatgina mazkur shikoyatning mavjudligi jinoyat ishini qo'zg'atishning zaruriy sharti hisoblanadi. Demak, bu holatda faqatgina tergovga qadar tekshiruv natijasiga ko'ra qaror qabul qilishni taqozo etadi va mazkur band jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish lozimligini ko'rsatib, normaning jinoyat ishini tugatish asoslari deb nomlanishiga ziddir. Binobarin, qonunchilik JPKning 322-moddasida nazarda tutilgan sabab va asoslar aniqlangach, mazkur kodeksning 321-moddasiga asosan, jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risida qaror qabul

qilinganidan so'ng jinoyat ishi deb yuritilishini belgilab qo'ygan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Amaliyotda mazkur normani qo'llashda uning nomlanishi bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda, xususan, bir toifa mansabdor shaxslar to'g'ridan to'g'ri tergovga qadar tekshiruv natijasi bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etsa, boshqa bir toifa bunga mazkur norma vakolat bermasligini bildirib, tergovga qadar tekshiruv hujjatlari yuzasidan avval jinoyat ishi qo'zg'atib, shundan so'nggina mazkur normada nazarda tutilgan asoslarning biriga murojaat qilgan holda jinoyat ishini tugatish haqida qaror qabul qilishni qonuniy sanamoqdalar [7].

Bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar va amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, norma-nomni o'zgartirish amaliyot uchun zaruratga aylangan, ya'ni ayblilik masalasini hal etmay turib, jinoyat ishini tugatish huquqiy jihatdan jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng ishni tugatishga vakolat beruvchi norma sanaladi va u ayblilik masalasini hal etmay turib, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etishni o'zida qamrab ololmaydi, degan fikrdamiz.

Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida ish yurituvini rad etish yoki tugatishda jinoiy-huquqiy va jinoyat-protsessual asoslarga bo'lishni ilgari surgan olimlarning fikri e'tiborga sazovordir. Xususan, D.M. Mirazov, E.I. Bordilovskiy va O.A. Galustyan ish yuritishni rad etish yoki tugatish asoslarining jinoiy-huquqiy va jinoyat-protsessual asoslarga bo'linishi mantiqan to'g'ri ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, birinchi guruhni jinoiy-huquqiy qonunchilikda aks ettirilgan asoslar tashkil etishi lozim. Ushbu normalar, o'z mohiyatiga ko'ra, shaxs qilmishining jinoiyligi va jinoiy javobgarlikka tortilishini istisno etishini ko'rsatib tura-di. Protsessual asoslarga esa jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi barcha holatlar mavjudligi va tegishli jazoni qo'llash mumkin bo'lishiga qaramay, jinoyat-protsessual

qonun normalariga muvofiq, jinoyat ishining qo'zg'atilishi va belgilangan tartibda yuritilishini istisno etadigan va tugatilishini talab qiladigan maxsus asoslarni kiritadilar [8, 309–310-b; 9, 30–33-b; 10, 15–16-b].

JPKning 330-moddasida jinoyatga oid ma'lumotlarni ko'rib chiqish natijasida qabul qilinadigan qarorlar belgilangan bo'lib, unga ko'ra jinoyatga oid ma'lumotlar olingan yoki bunday ma'lumotlar bevosita aniqlangan har bir holatda quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

1) jinoyat ishini qo'zg'atish; 2) ishni qo'zg'atishni rad qilish; 3) ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish.

O'zbekiston Respublikasi JPKda "jinoyatga oid" degan atama 16 marotaba qo'llangan bo'lib, ularning barchasida mazmuniga ko'ra mazkur jumla jinoyat protsessining sudga qadar ish yurituvning markazidagi tushuncha sifatida aks etgan. Ya'ni ushbu turdagi ishlar bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atiladi yoki ish qo'zg'atish rad etiladi yoxud mazkur ariza tegishliligiga ko'ra yuboriladi. Yuqoridagi norma mazmunini tahlil etsak, jinoyatga oid ma'lumotlar o'z mazmuniga ko'ra, JPKning 83–84-moddalariga asosan qabul qilinadigan qarorlar mazmunini belgilab qo'yganligi sababli mazkur norma asoslana-yotgan 83–84-moddalarni ham ushbu norma-ga muvofiqlashtirish nafaqat tahliliy tushunmovchiliklar, balki amaliyot bilan bog'liq muammolarning oldini oladi, deb o'ylaymiz.

Amaldagi JPK 83- va 84-moddalarining mohiyati jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishini istisno etuvchi holatlarni nazarda tutadi. Shaxsni rehabilitatsiya qilish masalasi – bu ish yuritish tugatilgan hollarda yuzaga kelgan oqibat bo'lib, mazkur masala JPKda alohida rehabilitatsiya qilish tartibi belgilangan 7-bo'limda nazarda tutilgan. Shuningdek, JPKning 84-moddasi ayblilik masalasini hal qilmay tugatish yuzasidan normalarni belgila-da, aslida, qayd etilgan asoslarda shaxs (masalan, yarashuv, birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxsning aybiga iqrar bo'lishi,

zararni qoplashi, amnistiya aktini qo'llash haqida iltimosnoma arz qilishi) aybiga iqrор bo'lishi, zararlarni bartaraf etishi kabi majburiyatni bajarishini talab etadi. Bu esa moddaning mazmuniga ziddir.

Mazkur taklif yuzasidan soha vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomaда respondentlarning 47 foizi O'zbekiston Respublikasi JPKning 83-moddasi – reabilitatsiya va 84-moddasi – ayblilik masalasini hal qilmay turib, jinoyat ishini tugatish deb nomlanganligi har ikki asosga ko'ra, tergovga qadar tekshiruv hujjatlari bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilganda, normaning nomi bilan ziddiyat keltirib chiqarishi va yuqoridagi taklif ushbu muammoga yechim sifatida xizmat qilishi mumkinligini e'tirof etadilar [10].

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlil qilinganda ham ushbu asoslar JPKning aynan bir moddasida belgilanganligi aniqlandi. Jumladan, Germaniya (GFR) [10], Gruziya [11], Armaniston [12], Xitoy (XXR) [13], Yaponiya [14], Janubiy Koreya [15], Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) [16] va Saudiya Arabistoni [17] kabi davlatlarning JPKlarida mazkur asoslar bitta normaga birlashtirilgan hamda reabilitatsiya bilan bog'liq masalalar alohida institut sifatida boshqa boblarda qayd etilgan.

Yuqoridagi fikrlar mazmunini tashkil etuvchi "reabilitatsiya" so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tsak. Yuridik ensiklopediyalarda reabilitatsiya – (lotincha re-habilitatio: re – yana, habilitas – yaroqlilik, layoqatlilik; inglizcha rehabilitation – qayta tiklash) – fuqaroning ijtimoiy-siyosiy va fuqarolik huquqlarini sud yoki ma'muriy tartibda tiklash, davlat tomonidan unga nisbatan nohaq qo'llangan majburlov choralari yoki uning huquq va erkinliklarini boshqacha tarzda cheklash oqibatlarini bartaraf qilishdir [18, 380-b.].

Bundan tashqari, fanda bir qancha reabilitatsiya turlari tasniflanadi. Xususan, yuqorida qayd etganimiz yuridik reabilitatsiya, shuningdek, tibbiy, ijtimoiy va mehnat reabili-

tatsiyalari mavjud. Mazkur tushuncha tarixda ilk marotaba fransuz legisti Bleynanius [19, 224-b] tomonidan qo'llangan.

A. Orlova [20, 112-b.], N. Mirol'yubov, A. Stukanov va P. Konstantinov [21, 106-b.] lar reabilitatsiya bu – jinoyat tarkibining yo'qligi sababli bir yoki bir guruh shaxslarning asoslanmagan ayblovlari bekor bo'lishi natijasida ularni oqlash va yo'qolgan aybsiz nomini tiklash bilan bog'liq munosabatlar ekanligini e'tirof etib, reabilitatsiyaning amnistiya, afv etish, dekriminallashtirish, soxta va noto'g'ri ayblovlar tufayli to'liq tiklash bilan farqlanishini bildirishgan.

Mazkur olimlar hali ochilmagan, ya'ni qo'zg'atilmagan jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishning rad etilishi va buning reabilitatsiya deb nomlanishi huquq nuqtayi nazaridan noto'g'ri ekanligini bildirishgan. Sababi, bunda davlat shaxsning hali jinoiy-huquqiy munosabatlarda biror huquqini cheklamagan bo'ladi.

Xulosalar

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda, tahlillar va tadqiqotlar natijasida quyidagi takliflarni ilgari surishni maqsadga muvofiq deb topdik. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi JPKning 83-84-moddalarini yaxlitlashtirish va ushbu normalarda ko'rsatilgan asoslarni yaxlit bitta normada aks ettirish, ilg'or xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual kodeksidagi ish yuritishni rad etish va tugatish asoslarini milliy qonunchiligimizga muvofiq keluvchi asoslar bilan boyitgan holda "jinoyatga oid ishlarni yuritishni rad etish va tugatish asoslari" deb nomlash maqsadga muvofiq.

Bunda, eng avvalo, ish yurituvini istisno qiluvchi holatlar yaxlitlashtirish orqali yagona normaga birlashtiriladi hamda belgilangan asoslarning har biri bo'yicha ayblov mohiyatiga bog'liq holda shaxsga nisbatan resurslar sarfini ortiqcha sarf etmay (vaqt, ortiqcha protsessual va boshqa xarajatlar) tergovga qadar tekshiruvning o'zida hal etish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ish yurituv-

ni rad etish yoki tugatish bilan bog'liq qarorlarning qabul qilinishi natijasida shaxsga nisbatan vujudga kelayotgan huquqiy oqibatning aniq belgilanishiga xizmat qiladi.

Bu kabi amaliyot barcha qo'shni mamlakatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligida aks etgan. Misol uchun, Tojikiston Respublikasi JPKning 3-bobi "jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishni rad etish va tugatish uchun asoslar" [22], Qirg'iziston Respublikasi JPKning 27-moddasi "jinoyatga oid ish yurituvini istisno qiluvchi holatlar" [23], Qozog'iston Respublikasi JPKning 35-moddasi "ish yuritishni istisno qiluvchi holatlar" [24] deb nomlangan.

Shuningdek, Ozarbayjon Respublikasi JPKning 39-moddasi "jinoiy ta'qibni istisno qiluvchi holatlar" [25], Rossiya Federatsiyasi JPKning 24-moddasi esa "jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish va tugatish asoslari" [26] deb nomlangan holda asoslarning barchasi bitta normada yaxlit belgilangan. Bundan tashqari, boshqa ko'plab rivojlangan davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligida ham mazkur norma yaxlit holatda aks etgan bo'lib, norma asoslarining aynan qaysilari o'z o'rnida reabilitatsiya etiluvchi asosligi alohida norma yoki mazkur normaning o'zida aks ettirilgan. Milliy protsessual qonunchiligimizdan farqli ravishda mazkur asoslarda xususiy va xususiy-ommaviy ishlarga

oid jinoyatlar rad etilgan yoxud tugatilgan hollarda mazkur asoslar reabilitatsiya qilinishi nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, normaning nomini o'zgartirish va uni reabilitatsiya qiluvchi asoslar bilan birlashtirish orqali yaxlitlashtirish, xalqaro huquq standartlariga moslashtirish va shu yo'l bilan javobgarlikdan ozod etilgan shaxslarga nisbatan statistik kartochkalar to'ldirilishi orqali ma'lumotlar bazasida noo'rin ma'lumotlar qayd etilishining ham oldi olinishiga erishiladi, degan fikrdamiz.

Yuqoridagi ilmiy-tahliliy ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, amaliyot nuqtayi nazaridan normaga kiritishimiz zarur bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda xoriijiy tajribalardan milliy qonunchiligimizga tatbiq etishimiz lozim bo'lgan bir qancha jihatlar mavjud. Shu bilan birga, zamonaviy qarashlar jinoyat protsessida vaqtni tejash, tezkor, sifatli va adolatli qarorlar qabul qilish, buning zamirida esa, eng avvalo, yurtboshimizning "Inson qadri uchun" va "Inson manfaatlari oliydir" tamoyilini jinoiy-huquqiy sohaga yanada chuqurroq tatbiq qilishga sharoit yaratadi, degan fikrdamiz. Shu sababdan aynan jinoyat protsessida jinoyat ishi yurituvini boshlash yoki tugatishda ilg'or xalqaro standartlar va tajribani milliy qonunchiligimizga joriy etish muhim sanaladi.

REFERENCES

1. Murodov B.B. Jinojat ishini tugatish institutini takomillashtirish [Improvement of the institution of termination of a criminal case]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2018, 33 p.
2. Berdiyev Sh. Jinojat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari [Problems of improving the release of criminal liability in the process of liberalization of criminal laws]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2011, p. 155.
3. Tergovga qadar tekshiruv [Investigation until the investigation]. Tashkent, Military technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2019, p. 238.
4. Yuldashbekov A. O'zbekiston Respublikasi sud-huquq sohasini rivojlantirishda jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish masalalari [Issues of improvement of criminal-procedural

legislation in the development of judicial-legal sphere of the Republic of Uzbekistan]. *Juridik fanlar ahborotnomasi – Review of Legal Sciences*, pp. 157–162.

5. Vasil'ev F.Yu. Institut otkaza v возбуждении уголовного дела [Institute of refusal to initiate criminal proceedings]. Abstract of PhD thesis. St. Petersburg, 2016, pp. 14–18.

6. O'zbekiston Respublikasining jinoyat protsessi [Criminal Procedure of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Academy of Mia of the Republic of Uzbekistan, 2012, pp. 309–310.

7. O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tergovchilari va jinoyat-protsessual huquqi mutahassisarlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari [The results of the survey conducted among investigators of the military prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan and specialists of criminal-prosensual law]. Tashkent, 2022.

8. Bordilovskiy Je.I., Galustyan O.A. Priostanovleniye, vozobnovleniye, prekrashheniye уголовного дела i okonchaniye sledstviya s obvinitel'nym zaklyucheniym [Suspension, resumption, termination of the criminal case and the end of the investigation with an indictment]. Moscow, 2004, pp. 30–33.

9. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish: nazariya va amaliyot [Ending the criminal case: theory and practice]. Tashkent, Academy of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan, 2015, pp. 15–16.

10. Ugolovno-protsessual'nyy kodeks FRG [The Criminal Procedure Code of Germany]. Transl. of the German Foundation for International Legal Cooperation and the Organization for Security and Cooperation in Europe. 2016, p. 230.

11. The Criminal Procedure Code of Georgia. Ad. 2009, October 09, no. 1772-IIc.

12. The Criminal Procedure Code of the Republic of Armenia, 1998, September 1, no. ZR-248.

13. The Criminal Procedure Code of the People's Republic of China, Ad. at the 2nd session of the National People's Congress of the Fifth Convocation, 1979, July 1.

14. Japanese criminal-prosensual code – Keydzi-sashe-Ho, 1948, July 10, no. 131.

15. Criminal Procedure Act of South Korea – Hansa-son-biop, 1954, September 23, no. 341.

16. Ugolovno-protsessual'noye pravo OAE. Osnovnyye polozheniya stat'ey 20-21 [Criminal Procedure law of the UAE. Main provisions article 20-21].

17. Criminal Procedure Law – Saudi Arabia Criminal Procedure Law Royal Decree, 2001, October 16, no. (M/39).

18. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi [Legal Encyclopedia of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2010, p. 380.

19. Mirolyubov N.I. Reabilitatsiya kak spetsial'nyy pravovoy institut [Rehabilitation as a special legal institution]. Kazan, 1902, p. 224.

20. Orlova A.A. Reabilitatsiya» [Rehabilitation]. 2007, Article 112.

21. Konstantinov P., Stukanov A. Institut reabilitatsii [Institute of Rehabilitation]. *Zakonnost' – Legality*, 2004, no. 7, p. 106.

22. The Criminal Procedure Code of the Republic of Tadzhikistan, of December 3, 2009 (with amendments and additions as of 07/19/2022)

23. Criminal Procedure Code of the Kyrgyz Republic No. 129 dated October 28, 2021.

24. Criminal Procedure Code of the Republic of Kazakhstan, amend. and add. 2022, September 3.

25. Criminal Procedure Code of the Russian Federation, 2001, December 18, no. 174-FZ.

26. The Criminal Procedure Code of the Republic of Azerbaijan, app. by the Law of the Republic of Azerbaijan, 2000, July 14, no. 907-IQ, amend. and add. 2022, April 15.

UDC: 343.98(045)(575.1)

UYUSHGAN JINOYATCHILIKNI TERGOV QILISHNING DASTLABKI BOSQICHIDA TIPIK TERGOV VAZIYATLARI XORIJIY DAVLATLAR MISOLIDA

Shonazarov Abduvali Shonazarovich,
Qashqadaryo viloyati
yuridik texnikumi o'qituvchisi
ORCID: 0000-0003-2729-526X
e-mail: abduvalitogayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada uyushgan jinoyatchilikka qarshi tergov harakatlaridagi vaziyatlar rivojlangan davlatlar misolida o'rganilgan. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlari doimiy ravishda takomillashtirilishi va shu chora-tadbirlar uyushgan jinoyatchilik rivojlanishining oldini olish xususiyatga ega bo'lishi kerak. Ya'ni operativ xodimlar jinoyat haqida ma'lumotlarni tezkor to'plashi va tahlil qilishi yangi metodlar qo'llashni talab etadi. Ushbu holatlarning har biri jinoiy harakatning muayyan mexanizmi bilan bog'liq bo'lgan kam qamrovli, shuningdek, jinoyatni aniqlash, bostirish va fosh qilish faktlari bilan tergov holatlarini o'z ichiga olishi mumkin. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashni jinoyat-protsessual tartibga solish doirasida isbotlash muammosi, ayniqsa, dolzarbdir. Ya'ni dalillarni qonunga xilof ravishda olish uning maqbulligiga ta'sir o'tkazadi va ulardan foydalanish sudda muammolar keltirib chiqaradi. Maqolada uyushgan jinoyatchilikni tergov qilishda samarali metodlarning qo'llanilishi yoritilgan. Shuningdek, majburiy va ixtiyoriy jinoiy ta'qiblar amaliyoti, kuzatuv ostida to'plangan ma'lumotlarni yetkazib berish, jinoiy sheriklarning ko'rsatmalaridan foydalanish va dalillarning sudda maqbulligi muhokama qilingan. Tergov harakatlarini rivojlangan davlatlar qonunchiligi bo'yicha protsessual tartibda olib borilishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: FQB, maxfiy agentlar, elektron kuzatuv, anti-mafiya, FJX, anonim ko'rsatma.

ТИПИЧНЫЕ СЛЕДСТВЕННЫЕ СИТУАЦИИ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ РАССЛЕДОВАНИЯ ОРГАНИЗОВАННОЙ ПРЕСТУПНОСТИ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Шоназаров Абдували Шоназарович,
преподаватель юридического техникума
Кашкадарьинской области

Аннотация. В данной статье представлены ситуации следственных действий против организованной преступности на примере развитых стран. Меры борьбы с организованной преступностью должны постоянно совершенствоваться и препятствовать развитию организованной преступности. То есть оперативникам необходимо использовать новые методы для быстрого сбора и анализа информации о преступлении. К каждому из этих дел могут быть отнесены следственные дела по фактам выявления, пресечения и раскрытия преступлений, связанных с конкретным механизмом преступной деятельности. Особенно актуальна проблема доказывания при борьбе с организованной преступностью в рамках уголовно-процессуального регулирования. Получение доказательства незаконным образом влияет на его допустимость, а его использование вызывает проблемы в суде. Подчеркнуто

использование эффективных методов в расследовании организованной преступности. Также обсуждена практика принудительного и добровольного уголовного преследования, доставка данных, собранных под наблюдением, использования показаний соучастников преступления и допустимость доказательств в суде. Указывается, что следственные действия проводятся в процессуальном порядке по законодательству развитых стран.

Ключевые слова: Федеральное бюро расследований, секретные агенты, электронное наблюдение, антимафия, ФУС (Федеральная уголовная служба), анонимные показания.

TYPICAL INVESTIGATIVE SITUATIONS AT THE INITIAL STAGE OF THE INVESTIGATION OF ORGANIZED CRIME IN FOREIGN COUNTRIES

Shonazarov Abduvali Shonazarovich,
Teacher Of Legal College of
Kashkadarya Region

Abstract. This article presents situations in investigative actions against organized crime in the example of developed countries. Measures to combat organized crime must be constantly improved and have a feature that prevents the development of organized crime. That is, operatives need to use new methods to quickly collect and analyze information about the crime. Each of these cases can be classified as investigative cases on the facts of detection, suppression and disclosure of crimes related to a specific mechanism of criminal activity. Particularly relevant is the problem of proving the fight against organized crime in the framework of criminal procedure regulation. That is, obtaining evidence illegally affects its admissibility, and its use causes problems in court. The use of effective methods in the investigation of organized crime is emphasized. Also, the practice of coercive and voluntary prosecution, delivery of data collected under supervision, the use of testimony from accomplices in crime, and the admissibility of evidence in court are discussed. It stipulates that investigative actions are carried out in a procedural manner according to the legislation of developed countries.

Keywords: FBI, secret agents, electronic surveillance, anti-mafia, FCS, anonymous testimony.

Kirish

Bugungi kunda jinoyatchilikning jadal o'sib borishi va uning keng yoyilishi dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Ya'ni yangi turdagi jinoyatlarning sodir etilishi rivojlangan davlatlar tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashni yangi darajaga ko'tardi. Dunyoning ko'plab davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda politsiya, tergovchilar, prokurorlar va sudyalarning ushbu jinoyat ishi bo'yicha tergov va sud ishlarini olib borishi uchun yetarli darajada va yuqori samaradorlikni ta'minlashda jinoyat-protsessual vositalar juda muhim rol o'ynaydi.

Bunda, birinchi navbatda, majburiy va ixtiyoriy jinoiy ta'qiblar amaliyoti haqida to'xtalib o'tish zarur. Muayyan jinoyat bel-

gilarini aniqlash uchun politsiya va davlat prokuraturasi majburiy jinoiy ta'qib tamoyiliga amal qiladi. Qo'shma Shtatlarda, yuqorida qayd etilgan yondashuvdan farqli o'laroq, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining muayyan erkinligi ta'minlanadi. Ular muayyan shaxsga (jismoniy, yuridik) nisbatan tergovni mustaqil ravishda boshlash yoki yakuniy qarorni prokurorning ixtiyoriga topshirish huquqiga ega. Ikkinchidan, ixtiyoriy huquqqa ega bo'lgan holda uyushgan jinoiy guruhlarining rahbarlari to'g'risida axborot olish evaziga kichik jinoyat uchun ayblovni qo'zg'atish mumkin emas.

Buyuk Britaniyada tergov organlari, ya'ni tergov bo'linmalari rahbarlari tergov o'tkazish masalasini o'z ixtiyori bilan hal qilish huquqiga ega. Shu bilan birga, davlat

prokurori tergovning istalgan bosqichida ixtiyoriy qatnashishi mumkin. Albatta, bunday huquqdan samarali foydalanish yuqori darajadagi professional javobgarlikni talab qiladi. Ixtiyoriy tizim yanada moslashuvchan va samarali bo'lsa-da, ayblanuvchilarning huquqlarini buzish uchun ko'proq imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Aksariyat mintaqalarda ushbu holatlar bo'yicha tergov elektron kuzatuv, maxfiy agentlar, sheriklarning ko'rsatmalari, shuningdek, nazorat ostida yetkazib berish orqali olingan ma'lumotlardan foydalanadi. Elektron kuzatuv usuli samarali hisoblanadi, va holanki, undan foydalanish qonun bilan cheklangan.

Masalan, AQShda sudya tomonidan elektron kuzatuvdan foydalanishga ruxsat beriladi. Gumon qilinuvchining suhbatlarini tinglash ishtirokchilaridan birortasining rozilgisiz amalga oshiriladi. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini sud ruxsatisiz elektron kuzatuvdan foydalanishdan saqlab qolish maqsadida qonunni buzgan holda olingan dalillar sud muhokamasida qabul qilinmaydi va umumiy dalillar qatoridan chiqarib tashlanadi.

Germaniya qonunchiligiga muvofiq, elektron tergov usulidan foydalanishga ruxsat beriladi, va holanki, bu tarzda olingan dalillar ma'lum cheklovlar bilan qabul qilinadi. Misol uchun, bunday tergov qilish usuliga faqatgina inson shaxsiy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan, og'ir jinoyat sodir etgan gumondor bo'lgan taqdirdagina ruxsat etiladi.

Italiyada telefon tarmog'iga ulanish va suhbatlarni tinglash ham faqat jiddiy huquqbuzarlik holatlarida ruxsat etiladi. Prokurorning so'roviga binoan, ushbu usuldan foydalanganlik uchun sanksiya ishni tergov qilishda ishtirok etuvchi sudya tomonidan beriladi. Favqulodda vaziyatlarda prokuror asoslantirilgan qaror bilan telefon xabarlarini tinglashni tashkil etishga ruxsat berishga haqli. Biroq 24 soat ichida prokuror sudyaga ushbu qarorni yozma ariza bilan murojaat

qilib yetkazishi lozim. 48 soat ichida sudya tinglash uchun prokurorning ruxsatini tasdiqlashi yoki bekor qilishi kerak. Shuningdek, Italiyaning uyushgan jinoyatchilikka qarshi qonuni prokuratura tomonidan ruxsat berilishi kerak bo'lgan telefon suhbatlarini tinglashga ruxsat beradi. Ammo bu tarzda olingan ma'lumotlar, garchi tergov jarayonida foydalanilgan bo'lsa-da, sud jarayonida dalil sifatida taqdim etilishi mumkin emas.

Yashirin agentlarning xizmatlari va nazorat ostida yetkazib berish usulidan foydalanishga kelsak, turli mamlakatlarda dalillar olishning ushbu usullarini huquqiy tartibga solishda sezilarli farqlar mavjud: to'g'ridan to'g'ri taqiqlashdan keng ruxsat etishgacha. Vaholanki, amalda qonun bilan aniq cheklovlar bor. Ba'zi mamlakatlarda bunday bayonotlar dalil sifatida ruxsat etilgan bo'lsa, boshqalarida qonun ma'lum shartlar bilan ulardan foydalanishga ruxsat beradi. Bir qator shtatlarda maxfiy ma'lumot beruvchilarning anonim ko'rsatmalarini sudda dalil sifatida qabul qilish taqiqlanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, dunyoning ko'plab mamlakatlarida dalillarni ijro etishga intilish mavjud bo'lib, ayniqsa, bu uyushgan jinoyatchilik holatlarida muhimdir.

Material va metodlar

Maqola uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda tergov harakatlarining turlarini joriy etish, shuningdek, amalga oshirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, nazariyotchi olimlar hamda amaliyotchi xodimlar fikr-mulohazalari asosida tayyorlangan. Maqolada sohada yuzaga kelayotgan muammolar tizimli, huquqiy, ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etilgan, mualliflik xulosalari shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalari

Xususan, Qo'shma Shtatlarda Konstitutsiyaga o'ziga qarshi majburiy guvohlik berishni taqiqlovchi beshinchi tuzatish mavjud bo'lishiga qaramay, federal qoralovchi, ma'lum tartib-qoidalarga rioya qilgan holda federal sudyadan guvohni guvohlik berishga

majburlash to'g'risida buyruq olishi mumkin. Bunday holatda guvohlik berishdan bosh tortish shaxs ko'rsatma bergunga qadar 36 oy-gacha qamoq jazosiga hukm qilinadi. Guvoh yolg'on guvohlik berganligi uchun ham jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Germaniyada guvoh qonuniy asoslarsiz guvohlik berishdan bosh tortsa, sud unga nisbatan intizomiy jarima soladi.

Huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan milliy darajadagi mazmunli qarorlar qabul qilish juda katta ma'lumotlar bazasi, jumladan, bir qarashda jinoiy guruhlariga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni to'plashni talab qiladi. Ma'lumotlarni tezkor to'plash usullari qonuniy tartibga solinadi. Uni qayta ishlash, saqlash va foydalanish uchun kuchli kompyuterlashtirilgan axborot tizimlari mavjud. Ma'lumotlar bazasini boshqarishga kelsak, buning uchun qo'llanadigan tashkiliy tuzilma muayyan davlatlarning o'ziga xosligi, ularning siyosiy va ma'muriy tuzilishiga qarab farqlanadi.

Shunday qilib, AQShda Federal qidiruv byurosi (FQB) uyushgan, shu jumladan, transmilliy jinoyatlar bilan bog'liq ishlarini tergov qilish uchun asosiy muassasa hisoblanadi. Bundan tashqari, bir qator boshqa huquqni muhofaza qilish xizmatlari ham o'z vakolatlari doirasida mafiya tuzilmalariga qarshi kurashga katta hissa qo'shmoqda. Bularga Narkotiklarga qarshi kurash boshqarmasi, AQSh bojxona xizmati, Ichki daromadlar xizmati, Immigratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati va boshqa turli federal hamda mahalliy hukumat idoralari kiradi. Ularning har biri uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiya ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlarni to'plashga hissa qo'shadi.

Germaniyada federatsiya tarkibiga kiruvchi shtatlarning har biri uyushgan jinoyatchilik to'g'risida tezkor ma'lumotlarni yig'uvchi va muvofiqlashtiruvchi tuzilmasida bir xil qo'mondonlik postiga ega. Bu postlar-

ning barchasi, umumiy qilib olganda, Federal jinoyat qidiruv departamenti shtab-kvartirasi bilan bog'liq. Yig'ilgan ma'lumotlardan keyinchalik muayyan shaxslar yoki guruhlariga qarshi tergov o'tkazish, jinoiy guruhlariga qarshi kurashish bo'yicha tegishli strategiyani tayinlashda foydalaniladi.

Italiyada uyushgan jinoyatchilik bo'yicha tezkor ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash asosan uchta politsiya bo'linmasi tomonidan amalga oshirilgan: davlat politsiyasi, karabineri va bojxona politsiyasi. Yaqinda Italiyada ixtisoslashtirilgan tashkilot – antimafiya tergov xizmati tashkil etildi. Uning vazifasi tezkor ma'lumot to'plash va jinoiy tuzilmalarga qarshi operatsiyalarni o'tkazishdan iborat. Umumiy hajmdagi uyushgan jinoyatchilikka oid barcha ma'lumotlar mamlakat Ichki ishlar vazirligining politsiya faoliyatini muvofiqlashtirish va rejalashtirish departamentida qayta ishlanadi va saqlanadi.

Buyuk Britaniyada razvedka ma'lumotlari, jumladan, jinoiy tashkilotlarga oid ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish to'qqizta mintaqaviy idora, shuningdek, Kat-ta London politsiyasi va Narkotik moddalarini razvedka qilish bo'yicha Milliy tashkilot zimmasiga yuklangan. Ushbu ma'lumotlar jinoiy faoliyat ma'lumotlarini to'plash bo'yicha Milliy jinoyat razvedka xizmatiga taqdim etiladi.

Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning muvaffaqiyati asosan jinoyatchilik bilan bog'liq muammolarni samarali hal etish va milliy huquqni muhofaza qilish organlari oldida turgan vazifalarni bajarishda kompleks yondashuvni ishlab chiqishga yordam beradi. Gap turli hududiy va idoraviy bo'ysunuvchi organlar tomonidan markaziy va periferiya boshqarmalari o'rtasida mafiya jamoalariga qarshi vakolat sohalarini muvofiqlashtirish va aniq harakatlar haqida bormoqda. Turli davlatlardagi ushbu muvofiqlashtirishning shakllari va usullari ma'lum bir o'xshashlik hamda o'ziga xoslikka ega. Ammo aksariyat hollarda jinoiy tashkilotlarni tekshirish va bu

sohada strategiyani belgilash uchun asosiy mas'uliyat bir idoraga yuklanadi.

Ta'kidlanganidek, Qo'shma Shtatlarda uyushgan jinoyat ishlari bo'yicha asosiy tergov organi FQB hisoblanadi. Vaholanki, ba'zi boshqa (avval aytib o'tilganidek) huquqni muhofaza qilish xizmatlari ham katta hissa qo'shadi. Vashingtonning hukumat okrugi-da (Kolumbiya okrugi) AQSh Adliya departamentining jinoyat departamenti tarkibida "Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash" byurosi mavjud bo'lib, tarkibi malakali prokurorlardan iborat. Ular mafiya jamoalariga qarshi tezkor tergov o'tkazish uchun jinoyatchilar joylashgan hududlarga boradilar. Ushbu bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun AQSh Adliya vazirligi huzuridagi "Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash kengashi" o'z vazifasini amalga oshiradi. Uning tarkibiga turli tergov organlari rahbarlari va vazirlikning mas'ul xodimlari kiradi.

Germaniyada uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash komissiyasi jinoiy guruhlar us-tidan olib borilayotgan jinoiy tergovlarning milliy koordinatori hisoblanadi. U FJX (Federal Jinoiy Xizmat) va joylardagi tergov bo'linmalari rahbarlaridan iborat.

Buyuk Britaniyada jinoyat qidiruv bosh-qarmalari va shahar politsiyasi bo'linmalari faoliyati doirasida ular o'rtasida jinoiy ishlar-ni tergov qilish va shu jumladan, uyushgan jinoyatchilik to'g'risida ma'lumotlarni tezkor to'plash jarayonida doimiy o'zaro hamkorlik mavjud.

Italiyada jinoiy to'dalarga qarshi kurashni o'z ichiga olgan ko'plab politsiya bo'linmalari o'z faoliyatini muntazam ravishda mintaqalararo va milliy darajada muvofiqlashtiradi. Bu ko'pincha Ichki ishlar vazirligining tegishli markazida joylashgan qo'shma ma'lumotlar bazasidan foydalanish orqali amalga oshirila-

di. Dastlabki tergov va sud tergovini muvofiqlashtirish funksiyalari mafiyaqa qarshi kurash bo'yicha maxsus tuman prokurorlari-ga yuklangan.

Shunday qilib, barcha huquqni muhofa-za qiluvchi organlar faoliyatini milliy daraja-da yaqindan muvofiqlashtirishni ta'minlash siyosati uyushgan, jumladan, transmilliy ji-noyatchilikka qarshi kurashish muammolari-ni hal etishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosalar

Maqola yuzasidan xulosa qiladigan bo'l-sak, rivojlangan davlatlarda uyushgan ji-noyatchilikka qarshi kurashishning yangi metodlarini o'rganish aktual muammolarni hal qilishga yordam beradi. Mamlakatimiz-da uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha yangicha metodlarni qo'llagan holda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni hozirgi vaqtdagi uyush-gan guruhlarining tarkibi 1990-yillardagidan tubdan farq qilishi ularning tarkibida haker (computer buf)larning mavjudligidir. Yuri-dik universitet va boshqa oliy o'quv yurtlari-da alohida kiberxavfsizlik fakultetlari tashkil etish, shuningdek, mavjud kadrlarni (tergov-chilar, prokurorlar, sudyalalar) kiberxavfsiz-lik bo'yicha tayyorlash zamonaviy jinoyatlar (kiberhujum, tarmoqdagi firibgarlik va ji-noyatlar)ni tergov qilishda samarali natijalar-ga erishishga olib keladi.

Shuningdek, elektron kuzatuv usulini atroflicha qo'llash bo'yicha Yevropa dav-latlari va AQShdan yangicha ko'nikmalar-ni o'zlashtirish uyushgan jinoyatchilikni tergov qilishda muammolar yechimi bo'la oladi. Italiya davlati singari uyushgan ji-noyatchilikka qarshi kurash bo'yicha alohida qonun qabul qilish ushbu turdagi jinoyatlar-ni tergov qilishdagi muammolarni bartaraf etadi.

REFERENCES

1. Wheatley J.K. U.S. Law enforcement techniques against organized crime groups.
2. Ohr B.G. Effective methods to combat transnational organized crime in criminal justice processes.
3. EU Strategy to tackle Organised Crime. 2021–2025.
4. Basamanowicz J., Bouchard M. Overcoming the Warez paradox: online piracy groups and situational crime prevention. *Policy Int.*, 2011, no. 3 (2), pp. 1–25.
5. Beauregard E., Proulx J., Rossmo K., Leclerc B., Allaire J-F. Script analysis of the hunting process of offenders. *Crim Justice Behav.*, 2007, no. 34 (8), pp. 1069–1084.
6. Bellotti E., Spencer J., Lord N., Benson K. Counterfeit alcohol distribution: a criminological script network analysis. *Eur J Criminol.*, 2020, no. 17 (4), pp. 373–398.
7. Borrión H. Quality assurance in crime scripting. *Crime Sci*, 2 2013, no. (6), pp. 1–12
8. Bowen G.A. Document analysis as a qualitative research method. *Qual Res*, 2009, no. 9 (2), pp. 27–40.
9. Brayley H., Cockbain E., Laycock G. The value of crime scripting. *Policing*, 2011, no. 5 (2), pp. 132–143.
10. Bryman A. Soc res methods. 4th ed. Oxford University Press, Oxford, 2012.
11. Criminal Intelligence Analysis. West Yorkshire Police, 1998.
12. IACP, Criminal Intelligence Sharing: A National Plan for Intelligence-Led Policing at the Local, State and Federal Levels. 2002, August.
13. Thompson L., Chainey S.P. Profiling illegal waste activity: using crime scripts as a data collection and analytical strategy. *Eur J Crim Policy Res*, 2011, no. 17 (3), pp. 179–201.
14. Clarke R.V., Felson M. Introduction: criminology, routine activity, and rational choice. Routine activity and rational choice. Transaction Publishers, New Brunswick, NJ, 1993.
15. Meshcheryakov V.A. Prestupleniya v sfere kompyuternoy informatsii: pravovoy i kriminalisticheskiy analiz [Crimes in the sphere of computer information: legal and forensic analysis]. Voronezh, Voronezh State University, 2001, p. 320.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

5 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
y.f.d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Yarmolik,

F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 25.10.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 20,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 169.

TDYU tipografiyasida chop etildi.